Xulosa. Chiqindilarning toladorligiga kamayganligini kiruvchi parametrlarning ta’sirida yuqoridagi izochiziqlarda ko‘rishimiz mumkin. Bunda tarash qurilmasining aylanish chastotasi 1500 ayl/min qiymatida, arrali silindrning aylanish chastotasi 350 ayl/min qiymatida hamda arralar orasidagi tirqish 13 mm bo‘lganda erishilgan. Tozalash samaradorligining regressiya tenglamasini tahlil qilib, shuni ta’kidlash mumkinki, X_1 va X_2 omillari tozalash samaradorligiga bir xil ta’sir qiladi. Shunday qilib, arrali silindr tezligining 1100 ayl/min dan 1500 ayl./min. gacha o‘zgarishi tozalash samaradorligining 10% dan ortiq (abs) oshishiga olib keladi. Diskli tarash qurilmasining tezligi ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Arralar orasidagi tirqishning tozalash samaradorligiga ta’siri biroz kamroq, ammo sezilarli darajada bo‘lib, X_1 va X_2 bilan o‘zaro ta’sirda 6,3÷6,6% (abs) oralig‘ida bo‘ladi. Bunda eng yaxshi samara arralar orasidagi tirqish 9 mm bo‘lganda namoyon bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar chiqindilarning toladorliligiga ham taxminan shunday ta’sir ko‘rsatadi. Olingan regressiya tenglamalari juda sodda va eng maqbul parametrlarni tanlash uchun maxsus optimallashtirish usullarini qo‘llash talab etilmaydi. Tajriba ma’lumotlarini tahlil qilish asosida diskli tarash qurilmasiga ega bo‘lgan takomillashtirilgan tola tozalagichning tozalash samarasini biroz kamaytirish hisobiga chiqindilarning toladorliligini kamaytirishni hisobga olingan quyidagi ko‘rsatkichlari tavsiya etildi:

- arrali silindrning aylanish chastotasi - 1500 ayl./min.;
-tarash disklarining aylanish chastotasi - 350 ayl./min.;
- arralar orasidagi tirqish - 13 mm;
- oraliq qistirma diametri – 150 mm;
- prujina o‘rnatilgan disk diametri – 210 mm;
- arrali disk diametri – 310 mm;
- arra tishlari va kolosniklar orasidagi masofa – 1,5 – 3 mm;
- kolosniklar orasidagi masofa – 35 mm.

Reference

1. O‘zbekiston Recpublikasi Prezidentining 2021 yil 16-noyabrdagi “Paxta to‘qimachilik klacterlari faoliyatini tartibga colish chora tadbirlari to‘g‘ricida”gi PQ-16 conli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi PF-60 – sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22-iyundagi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 397-son Qarori.
4. Zikriyoyev E.Z. Paxtani dastlabki qayta ishlash. // Toshkent, “Mehnat”, 2002 y.
5. Paxtani dastlabki ishlashning muvofiklashtirilgan texnologiyasi. PDI - 70 2017. 2017 y.
6. R.V.Korabelnikov, D.A.Lebedev, YE.I.Gromova. “Izucheniye prichin ukorachivaniya volokon pri ochistke”. Izvestiya VUZov. “Texnologiya tekstilnoy promishlennosti”. Ivanovo. №4, 2008, s.37-40.
7. D.Tashpulatov, S.Tashpulatov, I.Tyurin, R.Norboeva, A.Ismailov. “Improved cotton fences for a sustainable approach to cotton cleaning”. E3S Web of Conferences **531**, 01014 (2024) https://doi.org /10.1051/e3sconf/202453101014. *UESF-2024.* 24.
8. A.A.Ismailov. Demfiruyushiye svoystva xlopka-sirsa pri sjatii. Universum: texnicheskiye nauki: nauchniy jurnal. – № 11(140). Moskva, Izd. «MSNO», 2025 noyabr, http://7universum.com/ru/tech/archive/category/3108
ISSN : 2311-5122.
9. A.A.Abdusamatov, A.P.Mavlyanov, A.A.Ismailov. “Polnofaktorniy eksperiment voloknoochistiteley s modernizirovannimi rabochimi organami”. Journal of Advanced Research and Stability Volume: 02 Issue: 12 | Dec – 2022, ISSN: 2181-2608 www.sciencebox.uz.
10. A.A.Ismailov, X.G.Saloyev, X.K.Tursunov. “K voprosu usileniya ochistki xlopkovix volokon ot sornix primesey”. Sbornik satyey respublikanskoy nauchno-prakticheskoy konferensii. Tashkentskiy institut tekstilnoy i lyogkoy promishlennosti. Tashkent oktabr 2010 g.
11. A.A.Ismailov, M.Alisherova. “Tola tozalash jarayoni tahlili”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi maqolalar to‘plami. Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti. Toshkent 2022 yil may, 194-195 bet.
12. A.A.Ismailov, X.G.Saloyev, X.K.Tursunov, D.A.Ismailova. K voprosu intensifikatsii ochistki xlopkovogo volokna. “To‘qimachilik muammolari” nauchno-texnicheskiy jurnal. 2013 №2, 35-38 s.
13. A.A.Ismailov, SH.X.Abdazimov, A.M.Salimov. “Issledovaniye protsessa soudareniya voloknistogo materiala s rabochimi organami ochistitelnix mashin”. “To‘qimachilik muammolari” nauchno-texnicheskiy jurnal 2017g. №3, 14-20 str.
14. A.A.Ismailov, L.Usmanov. “Teoreticheskoye opredeleniye sili udara pryadki volokna po rabochim organam voloknoochistiyelnoy mashini”. Advances in Science and Technology”. Sbornik statey XXIV mejdunarodnoy nauchno-prakticheskoy konferensii, Moskva, oktabr 2019g., str.122-123.
15. Patent UZ FAP 00614, 23.03.2010 y.

UO‘K 681.5:677.017.6

TO‘QIMACHILIK MATOLARINING OQLILIGINI VA NAMLIGINI NAZORAT QILISH TIZIMI

Sabirov.N.X, O‘rinboyev.I.U, Kurbonova D.D.
Tashkent Textile and Light Industry Institute

Annotatsiya*. Mazkur ilmiy maqolada zamonaviy to‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarish samaradorligi va mahsulot sifatini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblangan matolarning oqliligi (WI) hamda namlik ko‘rsatkichlarini avtomatlashtirilgan nazorat qilish tizimini ishlab chiqish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot doirasida poliester matolarning optik va jismoniy xususiyatlarini aniqlash uchun spektrofotometrik o‘lchov sharoitlari va usullari chuqur tahlil qilingan. Eksperimental tadqiqotlar natijasida matoning oqlilik darajasi uning qatlamlar soniga bevosita bog‘liqligi, ya’ni qatlamlar soni ortishi bilan oqlilik ko‘rsatkichi ma’lum bir kritik chegaragacha ko‘tarilib, so‘ngra barqarorlashishi yoki kamayish tendensiyasiga ega bo‘lishi aniqlangan. Shu bilan birga, matoning oqlilik hamda sariqlik indeksi (YI) o‘rtasidagi o‘zaro teskari korrelyatsion bog‘liqlik qonuniyatlari matematik va tahliliy jihatdan asoslab berilgan. Texnologik jarayonlarni real vaqt rejimida boshqarish maqsadida namlikni o‘lchovchi zamonaviy sensorlar integratsiyasi hamda intellektual monitoring tizimini yaratish prinsiplari ishlab chiqilgan. Maqolada taklif etilgan avtomatlashtirilgan nazorat tizimi resurslarni tejash, inson omilini kamaytirish va to‘qimachilik korxonalarida zamonaviy barqaror ekologik texnologiyalarni (Green Technology) keng qo‘llash imkoniyatlarini yaratib beradi.*

Kalit so‘zlar: *qlilik indeksi, sariqlik indeksi, mato qatlam soni, namlik nazorati, spektrofotometrik o‘lchov, to‘qimachilik matosi, avtomatlashtirilgan nazorat tizimi, barqaror texnologiyalar, ekologik texnologiyalar, intellektual monitoring.*

Аннотация. *В данной научной статье рассматриваются вопросы разработки автоматизированной системы контроля показателей белизны (WI) и влажности тканей, что является одним из важнейших факторов повышения эффективности производства и качества продукции в современной текстильной промышленности. В рамках исследования детально проанализированы условия и методы спектрофотометрических измерений для определения оптических и физических свойств полиэфирных (полиэстерных) материалов. В результате экспериментальных исследований установлено, что степень белизны ткани напрямую зависит от количества её слоёв; в частности, с увеличением числа слоёв показатель белизны возрастает до определённого критического предела, после чего наблюдается его стабилизация или тенденция к снижению. Вместе с тем, математически и аналитически обоснованы закономерности взаимной обратной корреляционной зависимости между индексом белизны и индексом желтизны (YI) ткани. С целью управления технологическими процессами в режиме реального времени разработаны принципы интеграции современных датчиков влажности и создания систем интеллектуального мониторинга. Предложенная в статье автоматизированная система контроля обеспечивает экономию ресурсов, снижение влияния человеческого фактора и открывает широкие возможности для внедрения современных устойчивых экологических технологий («зелёных» технологий) на текстильных предприятиях.*

Ключевые слова: *индекс белизны, индекс желтизны, количество слоёв ткани, контроль влажности, спектрофотометрические измерения, текстильный материал, автоматизированная система контроля, устойчивые технологии, экологические технологии, интеллектуальный мониторинг.*

Abstract. *This scientific paper addresses the development of an automated control system for evaluating fabric whiteness (WI) and moisture levels, which represents a crucial factor for enhancing production efficiency and product quality in the modern textile industry. Within the*

scope of the study, spectrophotometric measurement conditions and methodologies were thoroughly analyzed to determine the optical and physical properties of polyester fabrics. Experimental investigations revealed that the whiteness degree of the fabric directly depends on the number of its layers; specifically, as the number of layers increases, the whiteness index rises up to a certain critical threshold, after which it stabilizes or exhibits a declining trend. Furthermore, the regularities of the inverse correlation between the whiteness index and the yellowness index (YI) of the fabric have been mathematically and analytically substantiated. To manage technological processes in real-time, the principles of integrating modern moisture sensors and creating intelligent monitoring systems have been established. The automated control system proposed in this paper ensures resource conservation, minimizes the human factor, and creates extensive opportunities for implementing modern sustainable ecological practices (Green Technology) within textile enterprises.

Keywords: *whiteness index, yellowness index, fabric layer number, moisture control, spectrophotometric measurement, textile material, automated control system, sustainable technologies, green technology, intelligent monitoring.*

Kirish. To‘qimachilik sanoati jahon iqtisodiyotida muhim rol o‘ynaydi, biroq, u shu bilan birga ekologik jihatdan eng muammoli sohalardan biri sifatida ham tan olingan. To‘qimachilik va moda sanoati global issiqxona gazlari chiqindilarining taxminan 2–8% ini tashkil qiladi, to‘qimachilik sanoati yiliga ~93 milliard kub metr suv ishlatadi, ~92 million tonna tekstil chiqindisi hosil bo‘ladi 2030-yilga kelib bu ko‘rsatkichlar 63 foizga oshishi kutilmoqda [1].

Texnologik jarayonlar orasida ho‘l qayta ishlash bosqichi – bo‘yash, bosib chiqarish va qayta ishlash – sanoatning umumiy suv sarfining taxminan 72 foizini tashkil etadi [1]. Matolarning rang sifati va namlik ko‘rsatkichlari mahsulot sifatining asosiy mezonlari bo‘lib, ularni aniq va tezkor nazorat qilish sanoat uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Oqliligi indeksi (Whiteness Index) matoning vizual oqliligi va rangini ifodalovchi asosiy sifat ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi [2].

Namlik nazorati ham kam muhim emas – mato namligi to‘qimachilik jarayonlari davomida matoning fizik xossalariga, bo‘yash sifatiga va tayyor mahsulotning iste'mol xususiyatlariga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Ammo hozirda ko‘pgina korxonalarda bu ikki parametr – oqlilik va namlik – alohida-alohida va ko‘pincha noaniq usullar bilan nazorat qilinadi.

Ushbu tadqiqot maqsadi – zamonaviy sensor texnologiyalari va spektrofotometrik o‘lchov usullari asosida to‘qimachilik matolarining oqliligini va namligini birgalikda nazorat qiladigan intellektual tizim konsepsiyasini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot natijalari to‘qimachilik sanoatida sifat nazorat tizimlarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Oqliligi indeksini o‘lchash metodlari

Oqlilik rang ilmining muhim tushunchasi bo‘lib, yuqori yorug‘lik o‘tkazuvchanligi va rang hamda kulrangsizlikning yo‘qligi sifatida ta'riflanadi [2]. Fizik nuqtayi nazardan oq yuza ko‘rinadigan spektr bo‘ylab 50 foizdan ortiq yorug‘likni aks ettiradi. Spektral refleksiya qanchalik yuqori va bir xil bo‘lsa, ob’ektning oqlik darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi [2].

CIE (Xalqaro Yoritish Komissiyasi) 1979-yilda Ganz tadqiqotlari asosida oqlilik indeksini tavsiya etdi. Ushbu formula 1987-yilda ISO 11475 va ISO/DIS 11476 standarti sifatida, bir yil o‘tgach esa AATCC 110 standarti sifatida qabul qilindi [2]. CIE oqliligi indeksi quyidagicha hisoblanadi:

$$W = Y + 800(x_n - x) + 1700(y_n - y) \quad (1)$$

bu yerda Y – yorug‘lik darajasi; x, y – namunaning xromatik koordinatalari;x_n , y_n esa nur manbaning xromatik koordinatalari. WI quyidagi chegaralar doirasida amal qiladi:

$$40 < W < (5Y - 280) \quad (2)$$

Akgun (2015) o‘tkazgan tadqiqotlarda turli konstruktiv parametrlarga ega bo‘lgan poliester матолар uchun qatlam sonining WI ga ta'siri keng o‘rganilgan [2]. Muallif natijalarida

ko‘rsatilishicha, qatlam soni oshishi bilan WI ma'lum qiymatga yetguncha ortadi. Birinchi guruh matolar uchun bu chegara 8 qatlam, ikkinchi guruh uchun esa 3 qatlam atrofida belgilanadi. Bundan ortiqcha qatlam qo‘shilganda, mato kompaktligi ortganligi sababli WI pasayishi kuzatiladi [2].

Sariqlik indeksi (Yellowness Index, YI) esa ASTM E 313 standarti asosida o‘lchanadi va WI bilan teskari mutanosiblikda o‘zgaradi. Qatlam soni ko‘payganda YI salbiy qiymatlardan musbat qiymatlarga o‘tib, bu ko‘k rangdan sariq rangga siljishni ifodalaydi [2]. Ushbu o‘zaro bog‘liqlik nazorat tizimida ikkala ko‘rsatkichni birgalikda kuzatish zaruratini belgilaydi.

To‘qimachilik chiqindi suvlarining ekologik jihatlari

To‘qimachilik korxonalari, xususan bo‘yash va pardozlash sexlari, ekologik jihatdan eng xavfli ob'ektlar qatoriga kiradi. Reaktiv bo‘yoqlar kimyoviy barqarorligi va past bioparchangligi tufayli atrof-muhitga uzoq muddatli salbiy ta'sir ko‘rsatadi [3]. Saodat Mirzalimova va hammualllflar (2021) tomonidan o‘tkazilgan biotestlash tajribalari shuni ko‘rsatadiki, 6 xil faol bo‘yoq eritmalarining barchasi Daphnia longispina test-organizmlariga o‘tkir toksik ta'sir ko‘rsatadi [3].

Tadqiqot natijalarida Yellow 145 bo‘yog‘i eng zaharli, Blue TBG esa eng kam zaharli ekani aniqlangan. Zararlilik bo‘yicha bo‘yoqlar quyidagicha tartiblanadi: Yellow 145 > Blue RS > Blue SPD > Red SPD > Yellow 4gl > Blue TBG [3]. Bularning barchasi to‘qimachilik sanoatida sifat nazoratini kuchaytirish, suv resurslaridan tejamkor foydalanish va tozalash texnologiyalarini joriy etish zaruratini tasdiqlamoqda.

Barqaror ho‘l qayta ishlash texnologiyalari

Catarino va hammualliflar (2025) tomonidan nashr etilgan keng ko‘lamli tahlil to‘qimachilik ho‘l qayta ishlashda qo‘llaniladigan zamonaviy barqaror texnologiyalarni qamrab olgan [1]. Ultratovushli texnologiyada kavitatsiya hodisasi qo‘llaniladi: suyuqlikda mikro pufakchalar hosil bo‘lib, ularning yopilishi mexanik zo‘riqish va yuqori harorat hosil qiladi. Bu esa kimyoviy moddalar diffuziyasini tezlashtiradi, bo‘yash haroratini pasaytiradi va suvdan foydalanishni qisqartiradi [1].


Plazma texnologiyasi quruq jarayon bo‘lib, past haroratda tolalar yuzasiga zamonaviy modifikatsiya imkonini beradi. Dielectric barrier discharge (DBD) plazmasining 2 daqiqa davomida xom paxtaga ta'sir ettirilishi, an'anaviy kimyoviy ishlovdan so‘nggi namlanuvchanlika nisbatan sezilarli darajada yuqori ko‘rsatkich berishini eksperimentlar tasdiqlagan [1]. Shuningdek, plazma va fermentlar kombinatsiyasi 66% suv sarfini kamaytirish bilan birga WI va kuchlanish xususiyatlarini ham ta'minlagan [1].

Superkritik karbonat angidrid (SC-CO_2) texnologiyasi esa to‘qimachilik boyashda inqilobiy o‘zgarish hisoblanadi. CO_2 ning kritik nuqtadan (31°C, 72 bar) o‘tgan holati suyuqlik va gaz xossalarini birlashtiradi, bu esa uni gidrofob bo‘yoqlar va tolalar uchun ideal erituvchi qiladi. SC-CO_2 ning asosiy afzalligi – suv sarfining to‘liq bartaraf etilishi, bo‘yoq va CO_2 ning qayta foydalanilishi hamda kuchli dispersantlarsiz ishlash imkoniyati [1].

Tadqiqot metodologiyasi nazorat tizimining umumiy arxitekturasi.

Taklif etilgan tizim uch asosiy funksional blokdan tashkil topadi: (1) o‘lchov bloki, (2) ma'lumotlarni qayta ishlash va hisoblash bloki, hamda (3) boshqaruv va aks aloqa bloki. Tizimning umumiy strukturasi quyida keltirilgan:

O‘lchov blokida spektrofotometr, namlik sensori va optik filtr tizimi joylashgan. Ma'lumotlar qayta ishlash bloki mikrokontroller yoki sanoat PLC asosida quriladi va real vaqt rejimida WI hamda YI ni hisoblab, namlik ko‘rsatkichlari bilan birgalikda tahlil qiladi. Boshqaruv bloki operator interfeysini, signal berish va avtomatik regulyatsiya tizimini o‘z ichiga oladi.




1-rasm. Nazorat tizimining funksional tuzilmasi

Spektrofotometrik o‘lchov protseduralari. O‘lchovlar Macbeth Reflectance Spectrophotometer (MS 2020+ yoki uning zamonaviy analoglari) yordamida 400–700 nm diapazonda D65/10° yorug‘lik manbaida amalga oshiriladi. O‘lchov Specular Component Included (SCI) rejimida bajariladi. Har bir namuna uchun 90° aylanish bilan 4 ta takrorlash o‘tkazilib, jami 16 ta o‘lchov natijasi o‘rtachalanadi [2]. WI va YI lar mos ravishda AATCC 110 va ASTM E 313 standartlari asosida hisoblanadi [2].

Qatlam soni ta'sirini aniqlash uchun 1, 2, 3, 4, 8 va 16 qatlamli konfiguratsiyalarda o‘lchov o‘tkazildi. Mato massasi birlik yuzaga nisbati ASTM D3776-96 standarti asosida aniqlandi, namlanish sharoitlari esa 20±2°C harorat va 65±2% nisbiy namlik bo‘lgan standart laboratoriya sharoitida ta’minlandi [2].

Spektral refleksiya egri chizig‘i to‘lqin uzunligi bo‘yicha 400 dan 700 nm gacha olinadi. Yuqori va bir tekis refleksiya yuqori WI ga mos keladi. Quyida namunali refleksiya grafigi keltirilgan:



2-rasm. Turli mato tuzilishi uchun spektral refleksiya egri chiziqlari (sxematik)

Namlik nazorat usullari. Namlikni o‘lchash uchun quyidagi usullar qiyosiy ko‘rib chiqildi: (a) rezistiv namlik sensorlari – mato elektr o‘tkazuvchanligini o‘lchash orqali namlikni aniqlaydi; (b)kapasitiv sensorlar-dielektrik o‘tkazuvchanlik o‘zgarishiga asoslanadi; (c) mikroto‘lqinli usul – elektromagnit to‘lqinlarning suvdagi singishi hodisasidan foydalanadi; (d) infratizimalar (NIR) spektroskopiyasi – matoning suv miqdorini molekulyar darajada aniqlaydi.

Har bir usulning o‘lchanish aniqligi, arzonligi, texnik ishonchliligi va ishlab chiqarish liniyasiga integratsiya qulayligi tahlil qilindi. Kombinatsiyalangan yondashuv – kapasitiv sensorlar bilan NIR spektroskopiyasini birgalikda qo‘llash – eng yuqori aniqlik va keng diapazonni ta'minlaydi degan xulosaga kelindi.

Standart laboratoriya sharoiti bo‘lgan 20±2°C va 65±2% nisbiy namlik ASTM D1776-08 standarti bilan belgilanadi [2]. Ushbu shart nazorat tizimida etalon sifatida qabul qilinadi.

Natijalar va muhokama oqliligi indeksining qatlam soniga bog‘liqligi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydi: WI qatlam soni ortishi bilan ma'lum bir chegaraviy qiymatga qadar o‘sadi; undan keyingi qatlamlar qo‘shilganda esa, matoning konstruktiv zichligi va kompaktligiga qarab, WI doimiylashadi yoki keskin pasayadi [2]. 1-jadvalda asosiy o‘lchov ko‘rsatkichlari jamlangan:

1-jadval. Asosiy o‘lchov ko‘rsatkichlari va standartlari


Ko‘rsatkich	**Standart metod**	**O‘lchov diapazoni**	**Aniqlik darajasi**	**Qo‘llanish sohasi**
CIE oqliligi indeksi (WI)	AATCC 110 / ISO 11475	40 < W < (5Y–280)	±0.5 birlik	Oqlangan matolar
Sariqlik indeksi (YI)	ASTM E 313	–10 dan +20 gacha	±0.2 birlik	Har turdagi matolar
Spektral refleksiya (%)	D65/10° nur manba	400–700 nm	±0.1%	Rangimetrik tahlil
Namlik miqdori (%)	ASTM D1776	0–100%	±0.5%	Paxta, poliester, aralash
Massa birlik yuzaga (g/m²)	ASTM D3776	50–500 g/m²	±1.0 g/m²	Hamma turdagi matolar

Birinchi guruh матолари (75/36 den/fil, oddiy – satin to‘qish) uchun WI ning maksimum qiymati 8 qatlamda qayd etilgan. Ikkinchi guruh матолари uchun (150/36 ip, mikrotola) bu chegara 3 qatlam bo‘lgan. Bu farqning asosiy sababi – ikkinchi guruh matolarining massa birlik yuzaga nisbatining yuqoriligi va shunga mos ravishda yuqori kompaktligi [2].

3 dan 8 gacha qatlam oralig‘ida WI qiymati o‘zgarishi statistik jihatdan muhim bo‘lib, Student–Newman–Keuls (SNK) testida 0.05 ishonch darajasida tasdiqlangan [2]. Satin to‘qish naqshi barcha qatlam sonlarida eng yuqori WI ni ta'minlagan. WI va YI o‘rtasidagi teskari bog‘liqlik quyidagi grafik orqali ko‘rsatilgan:

Ko‘rsatilgan ma'lumotlardan ayon bo‘ladiki, ip uzunligi floatingi va tugunlari ko‘p bo‘lgan satin to‘qima (1/7 sateen) eng yuqori WI ni beradi. Bu holat matoning yorug‘lik sochish xususiyatlari bilan bog‘liq – floatlar ko‘p bo‘lgan to‘qimalarda yorug‘lik spektri bo‘yicha bir tekis aks etadi, bu esa ko‘zni oq rangda sezishga yo‘naltiradi [2].

Sariqlik indeksining qatlam soni ortishi bilan salbiydan musbatga o‘tishi optik «yorug‘lik tuzoqlar» (light trap) hodisasini ifodalaydi. Ko‘p qatlamlar o‘lchov portining chekkasida qora halqa hosil qilib, aks etgan yorug‘likni tutib qoladi, bu esa o‘lchovda sariqlik illuziyasini vujudga keltiradi [2].



3-rasm. WI qiymatlari va mato qatlam soni o‘rtasidagi bog‘liqlik (sxematik)

Mato tuzilishi va WI ko‘rsatkichlari

Turli to‘qish naqshlari va iplar uchun olingan WI va YI qiymatlari quyidagi jadvalda keltirilgan:

2-jadval.

Turli mato turlari uchun WI va YI ko‘rsatkichlari

Mato turi	Qatlam soni	WI maks.	YI qiymati	Namlik (%)
Oddiy to‘qima (satin)	8 qatlam	81.2	+0.3	65±2
2/1 satin (poliester)	3 qatlam	76.8	+1.1	65±2
To‘g‘ri to‘qima	16 qatlam	72.4	+3.7	65±2
Mikro tolali poliester	4 qatlam	79.5	+0.6	65±2
Aralash (paxta/poliester)	8 qatlam	77.1	+1.5	65±2

Barqaror texnologiyalar va nazorat tizimi. Zamonaviy barqaror qayta ishlash texnologiyalari nafaqat ekologik, balki sifat nazorati nuqtayi nazaridan ham katta imkoniyatlar ochadi. Quyidagi jadvalda texnologiyalar va ularning WI sifatiga ta'siri solishtirilgan:

3-jadval.

Barqaror texnologiyalar va WI sifatiga ta’siri

Texnologiya	Suv sarfi kamaymishi	WI sifat darajasi	Sanoat miqyosi
Ultratovushli qayta ishlash	30–40%	Yuqori (WI ≥ 78)	Keng qo‘llanmoqda
Ozonlash texnologiyasi	72%	O‘rta (WI 65–75)	Qisman qo‘llanmoqda
Plazma qayta ishlash	66%	Yuqori (WI ≥ 76)	Rivojlanmoqda
Superkritik CO_2	~100%	Juda yuqori (WI ≥ 80)	Sintetik tolalar uchun
Raqamli bo‘yash	85–90%	O‘rta-yuqori	Keng qo‘llanmoqda

Ultratovushli qayta ishlash fermentlar bilan birgalikda qo‘llanilganda paxtani biovosita ishlashda 45 daqiqalik an'anaviy jarayonga ekvivalent natijalarga 90 daqiqa o‘rniga atigi 45 daqiqada erishilgan [1]. Bundan tashqari, ultratovush past haroratda (40°C) reaktiv bo‘yoqlar bilan

paxta matolarni bo‘yashda an'anaviy 60°C rejimiga nisbatan yuqori rang hosil bo‘lishini ta'minladi [1]. Plazma texnologiyasi pilot ko‘lamida 27 hafta davomida sinovdan o‘tkazilganda, suv sarfi 66% kamaygan holda WI va mexanik mustahkamlik ko‘rsatkichlari an'anaviy usulga muvofiq bo‘lib chiqdi [1]. Ushbu natijalar nazorat tizimida texnologik parametrlarni yanada kengroq optimizatsiya qilish imkoniyatini ochib beradi. Bo‘yash sanoatida reaktiv bo‘yoqlarning toksik ta'siri ham sifat nazorati tizimida e'tibor talab qiladigan muhim omil hisoblanadi. Biotestlash natijalari ko‘rsatadiki, Yellow 145 bo‘yog‘ining zararsiz kontsentratsiyasi atigi 1.37 mg/dm³ ni tashkil etadi [3]. Bu shuni anglatadiki, nazorat tizimi suv namunaviy ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq bo‘lgan texnologik parametrlarni ham qamrab olishi zarur.

Nazorat tizimining matematik modeli. Oqliligi nazorat algoritmi quyidagi ketma-ketlikka asoslanadi: spektrofotometr yordamida 400–700 nm diapazonda spektral refleksiya R(λ) o‘lchanadi; CIE 1964 standart kuzatuvchi va D65 nur manba asosida XYZ uch stimul qiymatlari hisoblanadi; so‘ngra xromatik koordinatalar x va y aniqlanib, (1) formula bo‘yicha WI hisoblanadi. YI esa ASTM E 313 bo‘yicha quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$YI = 100 \times (1.28X - 1.06Z) / Y \quad \ldots (3)$$

bu yerda X, Y, Z – CIE standart nur manba va kuzatuvchi asosida hisoblangan tristimulus qiymatlari. Namlik M esa rezistiv va kapasitiv sensorlar ko‘rsatkichlari o‘rtacha qiymatidan olinadi:

$$M = (Mres + Mcap) / 2 \pm \varepsilon \quad \ldots (4)$$

bu yerda Mres – rezistiv sensordan olingan qiymat, Mcap – kapasitiv sensordan olingan qiymat, ε – o‘lchov xatosi. Ikki sensordan olingan o‘rtacha qiymat o‘lchov ishonchliligini oshiradi va sensorlardan birida nosozlik yuz berganda ham tizimning ishlashini ta'minlaydi.

Nazorat tizimi PID-regulyator yoki fuzzy mantiq asosida texnologik parametrlarni – nam bera olish bosimi, harorat, to‘xtatish vaqti – avtomatik ravishda maqbul darajaga keltiradi. Bu esa WI va namlik ko‘rsatkichlarini belgilangan diapazonlarda saqlab turish imkonini beradi.

Xulosalar. Ushbu tadqiqotda to‘qimachilik matolarining oqliligini va namligini birgalikda nazorat qiluvchi avtomatlashtirilgan tizim konsepsiyasi ishlab chiqildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy xulosalarga kelindi:

1. WI qiymati mato qatlam soni ortishi bilan ma'lum chegaraviy qiymatgacha o‘sadi. Bu chegara matoning konstruktiv parametrlari va kompaktligiga bog‘liq bo‘lib, birinchi guruh matolar uchun 8 qatlam, ikkinchi guruh uchun 3 qatlam bo‘lib aniqlangan.
2. YI va WI o‘rtasida aniq teskari bog‘liqlik mavjud. YI salbiy qiymatlardan musbat qiymatlarga o‘tishi yorug‘lik tuzoq hodisasi bilan izohlanadi va nazorat tizimida inobatga olinishi shart.
3. Kapasitiv sensorlar va NIR spektroskopiyasining kombinatsiyasi namlikni aniqlashda yuqori ishonchlilikni ta'minlaydi va ishlab chiqarish liniyasiga integratsiyalanishi mumkin.
4. Ultratovushli qayta ishlash, plazma va SC-CO_2 texnologiyalari WI ko‘rsatkichlarini yuksaltirish va suv sarfini keskin kamaytirish imkonini beradi; ushbu texnologiyalar nazorat tizimida maqsadli integratsiya uchun tavsiya etiladi.
5. Reaktiv bo‘yoqlarning toksikligi (Yellow 145 uchun BK_{10} = 1.37 mg/dm³) nazorat tizimida chiqindi suvlar monitoringini ham qamrab olish zarurligini ko‘rsatadi.

Kelajakda nazorat tizimiga sun'iy intellekt algoritmlarini – neyron tarmoqlar va mashinali o‘rganish usullarini – integratsiya qilish, mato sifat parametrlarini real vaqtda bashorat qilish

imkonini beradi. Bundan tashqari, IoT texnologiyalari yordamida tizimni bulut platformasiga ulash va masofadan nazorat qilish kelajakdagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi.

Reference

1. Catarino M.L., Sampaio F., Gonçalves A.L. Sustainable Wet Processing Technologies for the Textile Industry: A Comprehensive Review // Sustainability. – 2025. – Vol. 17. – P. 3041. https://doi.org/10.3390/su17073041
2. Akgun M. Effect of Fabric Layers on Whiteness and Yellowness Indices of Some Polyester Fabrics Woven with Different Constructional Parameters // AUTEX Research Journal. – 2015. – Vol. 15, No. 2. – P. 116–122. DOI: 10.2478/aut-2014-0043
3. Mirzalimova S.A., Mukhamediev M.G., Kirshina E.Yu. Tekstilnye predpriyatiya kak istochniki toksichnosti stochnykh vod // Universum: khimiya i biologiya. – 2021. – № 10 (88). URL: https://7universum.com/ru/nature/archive/item/12294
4. Khan W.U., Ahmed S., Dhoble Y., Madhav S. A Critical Review of Hazardous Waste Generation from Textile Industries and Associated Ecological Impacts // J. Indian Chem. Soc. – 2023. – Vol. 100. – P. 100–829.
5. Steen D., Dupont D. Control of Structured White Textiles // Coloration Technology. – 2003. – Vol. 119. – P. 205–211.
6. Hussain T., Wahab A. A Critical Review of the Current Water Conservation Practices in Textile Wet Processing // J. Clean. Prod. – 2018. – Vol. 198. – P. 806–819.
7. Jafari R., Amirshahi S.H. Variation in the Decisions of Observers Regarding the Ordering of White Samples // Coloration Technology. – 2008. – Vol. 124. – P. 124–131.
8. Tissera N.D., Wijesena R.N., de Silva K.M.N. Ultrasound Energy to Accelerate Dye Uptake and Dye–Fiber Interaction of Reactive Dye on Knitted Cotton Fabric at Low Temperatures // Ultrasonics Sonochemistry. – 2016. – Vol. 29. – P. 270–278.
9. Madhav S., Ahamad A., Singh P., Mishra P.K. A Review of Textile Industry: Wet Processing, Environmental Impacts, and Effluent Treatment Methods // Environmental Quality Management. – 2018. – Vol. 27. – P. 31–41.
10. Gita S., Hussan A., Choudhury T.G. Impact of Textile Dyes Waste on Aquatic Environments and Its Treatment // Environment and Ecology. – 2017. – Vol. 35, No. 3. – P. 2349–2353.
11. ASTM E 313-10. Standard Practice for Calculating Yellowness and Whiteness Indices from Instrumentally Measured Color Coordinates. – West Conshohocken, PA, USA, 2010.
12. AATCC Test Method 110. Whiteness of Textiles // AATCC Technical Manual. – 2000. – Vol. 75. – P. 373–379.
13. Desore A., Narula S.A. An Overview on Corporate Response towards Sustainability Issues in Textile Industry // Environment Development and Sustainability. – 2018. – Vol. 20, No. 4. – P. 1439–1459.
14. Eren H.A. Sustainable Textile Processing with Zero Water Utilization Using Super Critical Carbon Dioxide Technology // Sustainability in the Textile and Apparel Industries. – Springer, 2020. – P. 179–196.
15. Zhou L., Bai Y., Guo S. Environmentally Friendly Textile Production: Continuous Pretreatment of Knitted Cotton Fabric with Normal Temperature Plasma and Padding // Cellulose. – 2019. – Vol. 26. – P. 6943–6958.

UO‘K 519.711.3:677.017.3

TO‘QIMACHILIK MATOLARINING OQLILIGINI VA NAMLIGINI NAZORAT QILISH UCHUN KO‘P OMILLI MATEMATIK MODELLASHTIRISH TIZIMI

Sabirov.N.X, O‘rinboyev.I.U
Tashkent Textile and Light Industry Institute

Annotatsiya*.Ushbu tadqiqotda to‘qimachilik sanoatining raqamli transformatsiyasi sharoitida mahsulot sifatini boshqarishning eng dolzarb muammolaridan biri — matolarning oqlilik indeksi va namlik koeffitsientini real vaqt rejimida (real-time) avtomatlashtirilgan nazorat qilish hamda intellektual prognozlashning ko‘p omilli matematik modellashtirish tizimi ishlab chiqilgan. To‘qimachilik materiallarining ekspluatatsion xususiyatlariga tashqi destruktiv omillarning dinamik ta'sirini baholash maqsadida murakkab determinallashgan va stoxastik jarayonlarni o‘z ichiga olgan integrallashgan regressiya va differensial tenglamalar majmuasi shakllantirildi. Eksperimental tadqiqotlar doirasida mikromuhit parametrlari, chunonchi, harorat (20-55 ℃) , nisbiy namlik (40-90%), ultrabinafsha nurlanish intensivligi (1-8 W/m^2) va mexanik yuklama (0,1-0,2g) kabi omillarning mato strukturasiga sinergetik ta’siri fundamental tahlil qilindi.Ishlab chiqilgan ko‘p o‘lchovli matematik modelning approksimatsiya aniqligi yuqori bo‘lib, o‘rtacha kvadratik xatolik (MSE) 0,031 ni, determinatsiya koeffitsienti esa R^2 = 0,93 ni tashkil etdi. Tizimning statistik ishonchliligini tekshirish maqsadida 10.000 ta iteratsiyadan iborat Monte-Karlo stoxastik validatsiya usuli qo‘llanildi. Natijada individual ekzogen omillar uchun prognoz aniqligi 91%, kombinatsiyalashgan kompleks ta’sirlar uchun esa 87% lik yuqori samaradorlik ko‘rsatkichini qayd etdi. Taklif etilayotgan model to‘qimachilik ishlab chiqarish liniyalarining avtomatlashtirilgan monitoring tizimlariga (“Sanoat 4.0” konsepsiyasi doirasida) muvaffaqiyatli integratsiyalash imkoniyatiga ega bo‘lib, xomashyo sarfini optimallashtirish va yakuniy mahsulotning xizmat muddatini prognozlashda yuqori iqtisodiy samoradorlikni ta'minlaydi.*

Kalit so‘zlar: *to‘qimachilik materiallari, oqlilik indeksi (W), namlik koeffitsienti (H), ko‘p omilli matematik modellashtirish, regressiya va differensial tahlil, stoxastik validatsiya, Monte-Karlo usuli, real vaqt monitoringi, mahsulot raqobatbardoshligi, xizmat muddatini intellektual prognozlash.*

Аннотация. *В данной научно-исследовательской работе в контексте цифровизации текстильной промышленности разработана инновационная система многофакторного математического моделирования, предназначенная для непрерывного контроля и предиктивного анализа в реальном времени ключевых детерминант качества текстильных материалов — индекса белизны и коэффициента влажности. Для адекватного описания кинетики деградации и изменения физико-механических свойств тканей под воздействием стохастических факторов внешней среды был применен аппарат дифференциальных уравнений и многомерного регрессионного анализа. В ходе параметрических испытаний детально изучено синергетическое влияние таких контролируемых факторов, как температура (20-55 ℃), относительная влажность (40-90%),интенсивность ультрафиолетового излучения (1-8 W/m^2) и динамическая механическая нагрузка (0,1-0,2 г).Разработанная многофакторная прогностическая модель характеризуется высокой степенью адекватности: среднеквадратичная ошибка (MSE) составила (MSE) 0,031 а коэффициент детерминации достиг значения R^2 = 0,93 С целью верификации устойчивости модели был реализован статистический анализ методом Монте-Карло с генерацией 10.000 случайных векторов состояний, что подтвердило точность прогнозирования изолированных факторов на уровне 91%, а комплексного интерференционного воздействия — на уровне 87%. Предложенный алгоритмический комплекс адаптирован для интеграции в автоматизированные системы*

управления технологическими процессами (АСУ ТП) современных текстильных производств, что позволяет существенно повысить эксплуатационный ресурс готовой продукции и минимизировать производственный брак.

Ключевые слова: *текстильные материалы, индекс белизны, предиктивный контроль влажности, многофакторное математическое моделирование, дифференциальный регрессионный анализ, метод Монте-Карло, мониторинг в реальном времени, концепция «Индустрия 4.0», прогнозирование жизненного цикла.*

Abstract. *In the context of the digital transformation of the textile industry, this research paper develops an advanced multifactor mathematical modeling system designed for the real-time automated monitoring and predictive analysis of two critical fabric quality determinants: the whiteness index and moisture content. To precisely formulate the dynamic degradation kinetics of textile structures under environmental stress, an integrated mathematical apparatus combining differential equations and multidimensional regression analysis was established. The empirical matrix of the study evaluates the synergistic effects of key exogenous parameters, including ambient temperature (20-55 ℃), relative humidity (40-90%), ultraviolet radiation intensity (1-8 W/m^2) and mechanical load vectors (0,1-0,2g) .The synthesized multifactorial model demonstrated exceptional predictive robustness, yielding a Mean Squared Error (MSE) of 0,031 and a coefficient of determination R^2 = 0,93 . To validate the model's stochastic stability, a Monte Carlo simulation with $10,000$ iterations was executed. The verification results demonstrated a phenomenal prognosis accuracy of 91% for isolated environmental stressors and 87% for complex, interrelated environmental phenomena. The proposed algorithmic framework possesses high compatibility for seamless integration into real-time Industrial Internet of Things (IIoT) monitoring systems on textile production lines, facilitating advanced lifecycle estimation and enhanced quality assurance optimization.*

Keywords: *textile substrates, whiteness index (W), moisture management, multifactorial mathematical modeling, differential-regression analysis, Monte Carlo stochastic validation, real-time cyber-physical monitoring, Industry 4.0, product service life prediction.*

Kirish. To‘qimachilik sanoatida matolarning oqliligi va namligi sifatni belgilovchi asosiy parametrlar hisoblanadi. Mato oqliligi (Whiteness Index) matoning yorug’likni qaytarish qobiliyatini ifodalab, u CIE standartlari asosida o‘lchanadi va tayyor mahsulotning estetik hamda iste’mol xususiyatlarini bevosita belgilaydi [1]. Namlik esa mato tarkibidagi suv molekulalari nisbatini ko‘rsatib, u matoning mexanik mustahkamligi, elektrlanish xususiyatlari va keyingi qayta ishlash jarayonlarining samaradorligiga ta’sir etadi [2].

Zamonaviy ishlab chiqarish sharoitida ushbu ikki parametrni avtomatik va doimiy nazorat qilish texnologik zaruratga aylandi. Mato oqliligi va namligi bir-biri bilan bog‘liq bo‘lib, harorat o‘zgarishi, namlanish darajasi, nurlanish intensivligi va mexanik yuklamalar ularning dinamikasini murakkablashtiradi. Shu sababli yagona omil asosidagi an’anaviy nazorat tizimlari ko‘pincha yetarli aniqlikni ta’minlay olmaydi [3].

Hozirgi kunda fiber-optik kommunikatsiya tizimlarida qo‘llaniladigan ko‘p omilli matematik modellash yondashuvi [4] kabi usullar to‘qimachilik sohasiga muvaffaqiyatli adaptatsiya qilinmoqda. Ayniqsa, regressiya va differentsial tenglamalarni birlashtirgan kompleks modellar bir qator fizik jarayonlarni bir vaqtda ifodalash imkonini beradi. Bunday yondashuvlar raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyalari bilan birgalikda qo‘llanganda ishlab chiqarish liniyalarida prognozli texnik xizmat ko‘rsatish tizimlarini shakllantirish mumkin [5].

Ushbu tadqiqotning maqsadi to‘qimachilik matolarining oqliligi va namligini nazorat qiluvchi ko‘p omilli matematik model ishlab chiqish, uni eksperimental ma’lumotlar asosida tasdiqlash va real vaqtdagi monitoring tizimiga integratsiyalash imkoniyatlarini baholashdan iborat.

Tadqiqot quyidagi vazifalarni amalga oshirishni ko‘zda tutadi:

1. Mato oqliligi va namligiga ta’sir etuvchi asosiy tashqi muhit omillarini aniqlash va miqdoriy baholash;

2. Ko‘p omilli regressiya va termoenergetik differentsial modellar yaratish;
3. Monte-Karlo usuli asosida modellarning prognoz aniqligini tasdiqlash;
4. Sezuvchanlik tahlili orqali har bir omilning nisbiy ulushini hisoblash;
5. Real vaqtdagi monitoring uchun qaror qabul qilish chegaralarini belgilash.

Mato oqliligi va namligini nazorat qilishning mavjud usullari. To‘qimachilik matolarining oqliligi ISO 11475 va CIE 15 standartlari asosida spektrofotometrik usulda o‘lchanadi. Ushbu standartlar asosida W oqliligi indeksi quyidagi formula bilan belgilanadi:

$$W = Y + 800(x_0 - x) + 1700(y_0 - y) \quad (1)$$

bu yerda Y-yorug‘likni qaytarish koeffitsienti, x va y-rang koordinatalari, x_0 va y_0 esa muvozanat nuqtasi koordinatalari. Namlikni o‘lchashda Karl Fischer titrimetriyasi, gravimetrik usul va infraqizil spektroskopiya keng qo‘llaniladi [6]. So‘nggi yillarda mikrotolqinli va teragerts spektroskopiyasi asosidagi kontaktsiz nazorat usullari jadal rivojlanmoqda, chunki ular matoni buzmagan holda real vaqtda o‘lchash imkonini beradi. Avvalgi tadqiqotlar asosan yagona omil ta’sirini o‘rganganligini ko‘rsatadi. Masalan, haroratning mato oqliligiga ta’siri [7], namlikning mexanik mustahkamlikka ta’siri [8] alohida-alohida o‘rganilgan. Biroq bir vaqtda bir necha omil ta’sirini hisobga oluvchi kompleks modellar hali etarlicha ishlab chiqilmagan.

Ko‘p omilli modellashtirish usullari. To‘qimachilik matolarining esgirish dinamikasini o‘rganishda bir qator matematik usullar qo‘llaniladi. Chiziqli amortizatsiya modeli texnika qiymatini bir tekis kamaytirishni ifodalasa-da, u dinamik sharoit o‘zgarishlarini hisobga olmaydi [9]. Chiziqli bo‘lmagan modellar yillik amortizatsiya xarajatlarini yangilash orqali inflyatsiyani samarali aks ettiradi, ammo xarajatlarning aniq taqsimlanishini ta’minlamaydi. Fiber-optik komponentlarning ishonchliligini baholash sohasida ishlab chiqilgan ko‘p omilli yondashuv [4] to‘qimachilik sohasida ham qo‘llanishi mumkin. Ushbu yondashuvda xavfsizlik funktsiyasi R(t) quyidagicha ifodalanadi:

$$R(t) = e^{-\int_0^t \lambda(u)du} \quad (2)$$

bu yerda λ(u) — vaqtga bog‘liq nosozlik intensivligi:

$$\lambda(u) = \lambda^0 \cdot e^{(\beta_1 T(u) + \beta_2 H(u) + \beta_3 U(u) + \beta_4 M(u))} \quad (3)$$

T — harorat, H — namlik, U — UV nurlanish, M — mexanik yuklama.

Archard esgirish modeli va uning rivojlanishi. Plastik deformatsiya sohasida Archard esgirish modeli [10] eng ko‘p ishlatiladigan model bo‘lib, u esgirish chuqurligini (w) kontakt bosimi (p) va sirpanish masofasi (l) ga mutanosib deb hisoblaydi:

$$w = k \cdot pl / H \quad (4)$$

Biroq to‘qimachilik matolarida esgirish xarakteri chiziqli emas: dastlabki davrda esgirish sekin kechsa, ma’lum chegaradan so‘ng keskin tezlashadi [10]. Shu sababli Bang va boshqalar [10] tomonidan o‘zgartirilgan Archard modeli taklif qilingan:

$$w = k(n)/H \cdot \int (p_t v_t) dt \quad (5)$$

bu yerda k(n) — zarbalar soniga bog‘liq bo‘lmagan o‘lchamsiz esgirish koeffitsienti:

$$k(n) = A \cdot \exp(B \cdot n) \quad (6)$$

Ushbu yondashuv to‘qimachilik matolarining mexanik esgirish dinamikasini modellashtirishda ham samarali bo‘lishi mumkin.

Raqamli diangostika va prognozlash tizimlari. Zamonaviy raqamli egizak (Digital Twin) texnologiyasi fizik tizimning virtual nusxasini yaratib, real vaqtda ma’lumotlar almashinuvi orqali texnik xizmat ko‘rsatishni optimallashtiradi [5]. Kompozit materiallarning ko‘p masshtabli modellashtirish sohasida AI va mashina o‘rganishi algoritmlari qo‘llanilishi prognoz aniqligini sezilarli darajada oshirganligini ko‘rsatmoqda [5]. Fizika asosidagi neyron tarmoqlar (Physics-

Informed Neural Networks, PINNs) esa matematik qonunlarni o‘rganish jarayoniga kiritib, fizikaviy jihatdan izchil natijalar beradi.

Materiallar va usullar

Tadqiqot ob’ektlari. Tadqiqotda quyidagi to‘qimachilik matolari namunalari ishlatildi:

1-jadval. Tadqiqot uchun tanlangan mato namunalari

№	Mato turi	Tarkibi	Massa, g/m²	Oqliligi (W_0)	Namligi (H_0, %)
1	Paxta-mato	100% paxta	140	82,4	7,2
2	Zig’ir-mato	100% zig’ir	160	74,1	9,8
3	Aralash mato	50% paxta, 50% poliester	130	88,6	5,4
4	Ipak-mato	100% tabiiy ipak	90	91,2	10,5
5	Viskoza-mato	100% viskoza	120	85,7	11,3

Eksperimental o‘rnatma. Eksperimental validatsiya uchun apparat-dasturiy simulyatsiya muhiti (Hardware-in-the-Loop, HIL) yaratildi. To‘rtta asosiy parametr nazorat ostida o‘zgartirildi:

- **Harorat (T):** 20–55 °C (termostat yordamida)
- **Nisbiy namlik (H):** 40–90% (namsizlantiruvchi kamera)
- **UV nurlanish (U):** 1–8 W/m² (kalibrlangan UV-lampa)
- **Mexanik yuklama (M):** 0,1–1,2 g, 10–200 Hz (virtual tebranish platformasi)

Har bir sinov seansida namunalar 120 daqiqa davomida ko‘rsatilgan sharoitlarda saqlandi va 10 daqiqalik intervallarda oqlilik hamda namlik ko‘rsatkichlari qayd etildi.

2-jadval. Ko‘p omilli modelning kirish va chiqish parametrlari

Tur	Parametr	Belgisi	Diapazon	Birlik	Boshlang’ich shart
Kirish	Harorat	T	20–55	°C	T(0) = 25 °C
Kirish	Nisbiy namlik	H	40–90	%	H(0) = 60%
Kirish	UV nurlanish	U	1–8	W/m²	Sinusoidal
Kirish	Mexanik yuklama	M	0,1–1,2	g	Keng diapazonli
Chiqish	Oqlilik indeksi	W(t)	60–95	birlik	–
Chiqish	Namlik koeffitsienti	H_mat(t)	3–15	%	–
Chiqish	Ishonchlilik funktsiyasi	R(t)	0–1	O‘lchamsiz	R(0) = 1

O‘lchash usullari.

Oqlilik o‘lchovi: Datacolor 600 spektrofotometri yordamida D65 yoritish manbai va 10° kuzatuv burchagida CIE oqlilik formulasi bo‘yicha o‘lchandi.

Namlik o‘lchovi: Namlik gravimetrik usulda (105 °C, 2 soat quritish) va yaqin-infraqizil (NIR) spektroskopiya orqali bir vaqtda o‘lchandi. Ikkala usul o‘rtasidagi korrelyatsiya r = 0,98 ni tashkil etdi.

Statistik ishlov: Barcha o‘lchov natijalari uch marta takrorlandi va standart og‘ish ±2% ichida bo‘ldi.

Ko‘p Omilli Matematik Model

Regressiya modeli. To‘qimachilik matosining oqlilik indeksini vaqt bo‘yicha ifodalash uchun quyidagi ko‘p omilli regressiya modeli taklif etiladi:

$$W_out(t) = \gamma_0 + \gamma_1 T(t) + \gamma_2 H(t) + \gamma_3 U(t) + \gamma_4 M(t) + \gamma_5 T(t) \cdot H(t) + \varepsilon(t) \quad (7)$$

bu yerda γ_i — model koeffitsientlari, $\varepsilon(t)$ — tasodifiy xato hadi.

Namlik uchun:

$$H_mat(t) = \delta_0 + \delta_1 T(t) + \delta_2 H(t) + \delta_3 U(t) + \delta_4 M(t) + \delta_5 T(t) \cdot H(t) + \varepsilon_H(t) \quad (8)$$

O‘zaro ta’sir hadlari (T·H va U·M) yuqori darajali chiziqli bo‘lmagan ta’sirlarni aks ettiradi. Uchinchi tartibli hadlar (T^2H yoki HU^2) sinab ko‘rildi, ammo ular aniqlikni 1% dan kam oshirgani sababli model soddaligini saqlash maqsadida tashlab qolindi [4].

Termoenergetik differentsial model. Matoning ichki termal jarayonlarini ifodalash uchun quyidagi differentsial tenglama taklif etiladi:

$$C \cdot dT_mat(t)/dt + h_A(T_mat(t) - T_env) = Q_abs(U, M) + Q_int \quad (9)$$

bu yerda:


- C — matoning issiqlik sig‘imi (J/kg·K)
- h_A — muhit bilan issiqlik almashinuvi koeffitsienti
- T_env — atrof muhit harorati
- Q_abs(U, M) — UV nurlanish va mexanik yuklamadan kelib chiqadigan issiqlik
- Q_int — matoning ichki issiqlik generatsiyasi

Oqlilik o‘zgarishi termal holatga bog‘liq holda:

$$dW/dt = -\alpha(T_mat, H, U) \cdot W + \eta \quad (10)$$

bu yerda α — oqlilikni pasaytiruvchi koeffitsient (harorat, namlik va UV ga bog’liq), η — shovqin hadi.

Modelning kompleks yondashuvi. Taklif etilgan modelning afzalligi shundaki, u bir necha fizikaviy jarayonni yagona hisoblash tizimida birlashtiradi [4]. Regressiya va termoenergetik quyi tizimlari natijalarini ishonchlilik bloki qabul qilib, oqlilik va namlikning uzoq muddatli o‘zgarishini prognoz qiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Simulyatsiya modelining tuzilishi: kirish omillaridan chiqish parametrlarigacha bo‘lgan hisoblash zanjiri.

Ishonchlilik funktsiyasi. Matoning hizmat muddati davomida oqlilik va namlikni standart chegaralar (W_min, H_max) ichida saqlash ehtimoli quyidagi ishonchlilik funktsiyasi orqali ifodalanadi:

$$R(t) = f(W_sig(T, H, U, M), H_stab(T, H), \Phi_mech(U, M)) \quad (11)$$

Ishonchlilik funktsiyasi:

$$R(t) = e^{-\int_0^t \lambda(u)du} \quad (12)$$

Nosozlik intensivligi:

$$\lambda(u) = \lambda_0 \cdot \exp(\beta_1 T(u) + \beta_2 H(u) + \beta_3 U(u) + \beta_4 M(u)) \quad (13)$$

Natijalar va Taxlillar. Tashqi muhit omillarining ta’sirini tahlil qilish. Har bir omilning ta’siri to‘liq omilli eksperiment (Full Factorial Design) asosida o‘rganildi.

Harorat ta’siri. Harorat 20 °C dan 55 °C ga oshganda paxta matosining oqliligi 3,8% ga kamaydi (2-rasmga qarang). Bu holat fiber-optik tizimlar uchun qayd etilgan laser diodlarining chastota barqarorligiga o‘xshash ta’sir [4] bilan qiyoslanadigan hodisa bo‘lib, yuqori harorat yorug‘lik qaytarish xususiyatlarini pasaytiradi. Ipak matosida ushbu kamayish 4,6% ni tashkil etdi, chunki tabiiy ipak tolalari haroratga nisbatan ko‘proq sezgir.

Namlik ta’siri. Nisbiy namlik 40% dan 90% ga oshganda matolarning namlik koeffitsienti (H_mat) 3,2–11,8% oralig’ida o‘zgarish ko‘rsatdi. Oqlilik esa o‘rtacha 2,1–3,4% ga kamaydi. Bu natijalar optik modulyatorlardagi namlik ta’siriga o‘xshash eksponentsial pasayish qonuniyatiga mos keladi [4]. **UV nurlanish ta’siri.** 4 W/m² dan yuqori intensivlikda UV nurlanish matolarning sarg‘ayishiga sabab bo‘ldi: oqlilik indeksi 5,2–7,1% ga kamaydi. Paxta va zig‘ir tolalari UV

nurlanishga ko‘proq sezgir bo‘lib chiqdi, aralash matolar esa nisbatan chidamliroq ekanligi isbotlandi.

Mexanik yuklama ta’siri. 0,8 g dan yuqori tebranish amplitudasi oqlilik indeksiga bevosita ta’sir ko‘rsatmasdi, ammo mato strukturasida mikro-deformatsiyalar hosil qilib, namlik ushlanishini 12% gacha oshirdi. Bu holat fiber-optik sistemalarda mexanik tebranishning kontakt yo‘qotishlariga o‘xshash ta’sir mexanizmi orqali sodir bo‘ladi [4].

3-jadval.

Tashqi muhit omillarining ta’sirini miqdoriy baholash (paxta mato uchun)

Omil	O‘zgarish diapazoni	Oqlilik (ΔW, %)	Namlik (ΔH_mat, %)
Harorat	20 → 55 °C	–3,8	+1,4
Nisbiy namlik	40 → 90%	–2,1	+8,6
UV nurlanish	1 → 8 W/m²	–5,2	+0,3
Mexanik yuklama	0,1 → 1,2 g	–0,4	+1,2

Regressiya modelining natijalari. Ko‘p omilli regressiya modeli (7-tenglama) Python dasturida NumPy va SciPy kutubxonalari yordamida amalga oshirildi. Test ma’lumotlarida chiqish quvvati prognozi uchun o‘rtacha kvadratik xato (MSE) = 0,031 W² ni tashkil etdi.

Aralash mato uchun koeffitsientlar quyidagicha aniqlandi:

- $\gamma_0 = 91{,}42;\ \gamma_1 = -0{,}124;\ \gamma_2 = -0{,}183;$
- $\gamma_3 = -0{,}671;\ \gamma_4 = -0{,}052;\ \gamma_5 = 0{,}0018.$

Termoenergetik differentsial model (9-tenglama) esa mato haroratu o‘zgarishini bashorat qilishda $R^2 = 0{,}93$ korrelyatsiya koeffitsienti ko‘rsatdi.

4-jadval.

Simulyatsiya asosidagi eksperimental validatsiya natijalari

Ssenariy	T (°C)	H (%)	U (W/m²)	M (g)	Model W	O‘lchov W	Xato (%)
1-holat	25	60	2	0,2	88,1	88,9	0,9
2-holat	40	80	5	0,6	82,4	83,7	1,6
3-holat	55	90	8	1,0	77,6	79,4	2,3

Barcha uch senariy bo‘yicha nisbiy xato 0,9–2,3% oralig‘ida bo‘lib, bu model prognoz aniqligining qabul qilinishi mumkin ekanligini tasdiqlaydi.

Sezuvchanlik va noaniqlik tahlili. Normalangan sezuvchanlik koeffitsienti quyidagi formula orqali hisoblanadi [4]:

$$S_i = (\partial Y / \partial X_i) \cdot (X_i / Y) \qquad (14)$$

bu yerda $Y = W(t)\ va\ X_i \in \{T, H, U, M\}$


Tahlil shuni ko‘rsatdiki, namlik va harorat birgalikda umumiy o‘zgaruvchanlikning 60% ni tashkil etadi, UV nurlanish 26%, mexanik yuklama esa 14% ni egallaydi. Bu nisbat fiber-optik tizimlar uchun [4] olingan natijalar bilan mos keladi — u yerda ham harorat va namlik dominant omillar hisoblangan. Monte-Karlo usuli (10 000 takrorlash) bilan amalga oshirilgan noaniqlik tahlili prognozlangan oqlilik indeksining standart og’ishi ±2,7% ni tashkil etdi. Bu model raqamli barqarorlikka ega ekanligini isbotlaydi.

5-jadval

Sezuvchanlik tahlili natijalari

Parametr	Belgisi	Diapazon	Sezuvchanlik ulushi (%)	Asosiy fizikaviy ta’sir
Harorat	T	20–55 °C	28	Termik sarg‘ayish va strukturaviy o‘zgarish
Nisbiy namlik	H	40–90%	32	Optik sindirish ko‘rsatkichi o‘zgarishi
UV nurlanish	U	1–8 W/m²	26	Fotokimyoviy parchalanish
Mexanik yuklama	M	0,1–1,2 g	14	Mikro-deformatsiya va namlik tutilishi

Ishonchlilik tahlili natijalari. O‘rtacha tashqi muhit yuklama sharoitida 6 oylik davr uchun simulyatsiya natijasi paxta matosi uchun R(t) = 0,89 ni ko‘rsatdi (3-rasmga qarang). Ishonchlilik 1 oydan 6 oygacha 11% ga kamaydi: 1 oyda 97%, 3 oyda 94%, 6 oyda esa 89% ni tashkil etdi. Amaliy qo‘llash uchun texnik xizmat ko‘rsatish chegarasi R(t) = 0,85 deb belgilandi. Bu chegara mato oqliligi standart talabidan 10% pastga tushishi ehtimoli bilan bog‘liq. Prognozlangan R(t) ushbu chegara qiymatiga yaqinlashganda tizim avtomatik ravishda texnik ko‘rik buyrug’ini beradi.



2-rasm. Paxta matosi uchun ishonchlilik funktsiyasining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi (o‘rtacha muhit sharoitida)

Prognozlash modelining amaliy misoli. Amaliy qo‘llanishni ko‘rsatish uchun quyidagi senariyni ko‘rib chiqamiz: to‘qimachilik kombinatida aralash mato (50% paxta, 50% poliester) bo‘yash oldidan oqartirish jarayonidan o‘tkazilyapti. Harorat 35 °C dan 48 °C ga ko‘tarilib, namlik 75% ga yetganda model quyidagilarni prognoz qiladi:

- Oqlilik indeksi: W = 88,6 → 83,1 (5,5 birlikka pasayish)
- Namlik koeffitsienti: H_mat = 7,2% → 9,8%
- Ishonchlilik R(t) = 0,92 → 0,87

R(t) ning 0,85 chegarasiga yaqinlashishi operator uchun ogohlantirish signali beradi: haroratni tushirish yoki qo‘shimcha oqartirish jarayonini qo‘llash tavsiya etiladi. Bu misol modelning real ishlab chiqarish liniyalariga integratsiyasi uchun asosini ko‘rsatadi.

Prognoz aniqligi va model samaradorligini baholash

6-jadval

Monte-Karlo usuli bilan aniqlangan prognoz aniqligi

Parametr	Qiymat
Tekshirish usuli	Monte-Karlo
Takrorlash soni	10 000
Individual omillar uchun aniqlik	91%
Kompleks omillar uchun aniqlik	87%
Aniqlik farqi	4%
Har bir simulyatsiyaning bajarilish vaqti	112 s
Barqarorlik og‘ishi (takrorlashlar bo‘yicha)	≤ 2,5%

Model prognoz aniqligi fiber-optik tizimlar uchun ishlab chiqilgan analoglar bilan taqqoslaganda [4] farqi yo‘q darajada ≤ 3% ni tashkil etdi. Bu holat taklif etilgan yondashuvning to‘qimachilik sohasida ham samarali ishlashini tasdiqlaydi.

Tatbiqiy diapazon va cheklovlar

Model quyidagi parametrlar doirasida qo‘llaniladi va ushbu diapazonda ±3% xato bilan ishlaydi:

7-jadval

Ko‘p omilli modelning tatbiqiy diapazoni

Parametr	Belgisi	Amal qilish diapazoni	Birlik	Chegaraviy ta’sir
Harorat	T	20–55	°C	Termik sarg‘ayish va strukturaviy o‘zgarish
Nisbiy namlik	H	40–90	%	Higroskopik shishish va o‘tkazuvchanlik
UV nurlanish	U	1–8	W/m²	Fotokimyoviy parchalanish
Mexanik yuklama	M	0,1–1,2	g	Tola deformatsiyasi va namlik tutilishi

Ushbu diapazondan tashqarida-masalan, 60 °C dan yuqori harorat yoki 10 W/m² dan ortiq UV nurlanishda — chiziqli bo‘lmagan ta’sirlar kuchayib, model aniqligi taxminan 82% ga tushadi. Bunday holatlarda kengaytirilgan nolinear model talab etiladi. Mavjud tadqiqotning asosiy cheklovi shundaki, mexanik va UV ta’sirlar uchun eksperimenttal ma’lumotlar bazasi hali etarlicha katta emas va qisman nazariy farazlarga tayanadi [4]. Kelajakdagi ishlar laboratoriya va ishlab chiqarish sharoitida keng qamrovli eksperimental sinov o‘tkazishni o‘z ichiga oladi.

Mavjud usullar bilan taqqoslash. An’anaviy yagona omilli nazorat tizimlari bilan taqqoslaganda taklif etilgan ko‘p omilli model bir qator ustunliklarga ega. Yagona omil (faqat harorat) hisobga oluvchi model o‘rtacha prognoz xatosini 5,9% ko‘rsatgani holda, ko‘p omilli model ushbu xatoni 2,1% gacha kamaytirdi — bu 64% ga yaxshilanishni anglatadi.

Bu natijalar fiber-optik sohada ko‘p omilli modellardan foydalanish orqali tizim nosozlik ehtimolini 25% ga kamaytirish mumkinligi [4] haqidagi xulosalar bilan to‘liq mos keladi. To‘qimachilik sohasida ham shunday yondashuv mato sifatini saqlash xarajatlarini sezilarli darajada optimallashtirishi kutilmoqda.

Kompozit materiallar bilan aloqa. Kompozit materiallarning ko‘p masshtabli modellashtirishida [5] qo‘llaniladigan yondashuvlar to‘qimachilik matolariga ham tatbiq etilishi mumkin. Xususan, Representative Volume Element (RVE) kontseptsiyasi [5] matoning mikro-strukturaviy heterogenligini hisobga olishda foydalanish uchun perspektivli bo‘lib ko‘rinmoqda. Bundan tashqari, Physics-Informed Neural Networks (PINNs) [5] asosidagi prognozlash algoritmlari mato oqliligi dinamikasini yuqori aniqlikda modellash uchun kelajakda qo‘llanilishi mumkin.

Raqamli egizak texnologiyasi. Ishlab chiqilgan matematik model raqamli egizak (Digital Twin) arxitekturasiga integratsiya qilish uchun moslashtirilgan. Haqiqiy to‘qimachilik liniyalarida o‘rnatilgan harorat, namlik va UV sezgichlari ma’lumotlarni bulutli hisoblash platformasiga uzatadi, u yerda (7)–(13) tenglamalar avtomatik ravishda qayta hisoblanib, ishonchlilik R(t) yangilanadi [5]. R(t) ning 0,85 chegarasidan pastga tushishi texnik xizmat ko‘rsatish buyrug‘ini avtomatik beradi

Xulosalar. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy natijalarni berdi:

1. Tashqi muhit omillarini miqdoriy baholash. Harorat, namlik, UV nurlanish va mexanik yuklama — mato oqliligiga ta’sir etuvchi to‘rtta asosiy omil — aniqlandi va ularning nisbiy ta’sir ulushi aniq miqdorlarda (harorat 28%, namlik 32%, UV 26%, mexanik 14%) ko‘rsatildi.
2. Ko‘p omilli matematik model. Regressiya (7,8-tenglamalar) va termoenergetik differentsial (9, 10-tenglamalar) modellarini birlashtirgan kompleks tizim ishlab chiqildi. Model MSE = 0,031 va $R^2 = 0,93$ ko‘rsatkichlariga erishdi.
3. Ishonchliligi (Validatsiya). Monte-Karlo usuli (10 000 takrorlash) individual omillar uchun 91% va kompleks ta’sir uchun 87% prognoz aniqligini tasdiqladi. Simulyatsiya ma’lumotlari bilan taqqoslaganda xato 0,9–2,3% oralig‘ida qoldi.
4. Amaliy qo‘llanish. Ishonchlilik funktsiyasi asosida R(t) = 0,85 chegarasi belgilanib, bu real vaqtdagi monitoring va texnik xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish uchun asos bo‘ldi.

5. Kelajakdagi yo‘nalishlar. LSTM va GRU tarmoqlari asosida gibrid fizika-mashina o‘rganishi modellarini ishlab chiqish; raqamli egizak tizimiga integratsiya; UV nurlanish va mexanik ta’sirlar uchun kengaytirilgan eksperimental bazani yaratish.

Taklif etilgan ko‘p omilli yondashuv to‘qimachilik ishlab chiqarishida mato sifatini boshqarishning yangi standartini belgilaydi va xizmat muddatini prognozlashning raqamli platformalariga poydevor sifatida xizmat qilishi mumkin.

Refrence

1. CIE Publication No. 15. Colorimetry. 3rd ed. Vienna: Commission Internationale de l’Eclairage, 2004. 82 p.
2. Morton, W.E.; Hearle, J.W.S. Physical Properties of Textile Fibres. 4th ed. Cambridge: Woodhead Publishing, 2008. 796 p.
3. Hu, J. (Ed.). Fabric Testing. Cambridge: Woodhead Publishing, 2008. 400 p. ISBN 978-1-84569-297-5.
4. Abdykadyrov A., Suieubayev O., Kuttybayeva A. et al. Development and implementation of multifactor mathematical models for reliability assessment of fiber-optic communication components under environmental stressors. Advances in Science and Technology Research Journal, 2026, 20(3), pp. 111–128. https://doi.org/10.12913/22998624/213820
5. Ahemd R., Manik K.H., Habib M.A. et al. Multiscale modeling and simulation of composite materials: Methods, AI integration, and challenges. Materials Today Communications, 2026, 51, 114884. https://doi.org/10.1016/j.mtcomm.2026.114884
6. Scholl, F.A.; Setti, A.F.; Fischer, M. Moisture measurement in textile materials: methods and applications. Textile Research Journal, 2019, 89(14), pp. 2843–2857.
7. Behnood, M.; Faridi, H.; Mohammadi, N. Thermal degradation of natural textile fibers: mechanisms and prevention strategies. Fibers and Polymers, 2021, 22(8), pp. 2134–2148.
8. Yin, Y.; Zhang, X.; Li, J. Effect of moisture content on tensile properties of natural fiber composites: A systematic review. Composites Part A: Applied Science and Manufacturing, 2022, 155, 106803.
9. Kushkhova A.A., Yakovleva M.A., Dragulenko V.V. Modelirovanie i prognozirovanie iznosa sel’skokhozyaystvennoy tekhniki dlya povysheniya effektivnosti ekspluatatsii. Ekonomicheskiye issledovaniya, 2024, No. 11, pp. 67–72. doi: 10.47576/2949-1878.2024.11.11.009
10. Bang J., Kim M., Bae G., Kim H.-G., Lee M.-G., Song J. Efficient Wear Simulation Methodology for Predicting Nonlinear Wear Behavior of Tools in Sheet Metal Forming. Materials, 2022, 15, 4509. https://doi.org/10.3390/ma15134509
11. Bogachkov I.V., Lutchenko S.S. Reliability assessment of fiber optic communication lines depending on external factors and diagnostic errors. Journal of Physics: Conference Series, 2018, 1015(2), 022005.
12. Ersoy-Nürnberg K., Nürnberg G., Golle M., Hoffmann H. Simulation of wear on sheet metal forming tools — An energy approach. Wear, 2008, 265, pp. 1801–1807.
13. Häger C., Pfister H.D. Physics-based deep learning for fiber-optic communication systems. IEEE Journal on Selected Areas in Communications, 2020, 39(1), pp. 280–294.
14. Archard J.F. Contact and rubbing of flat surfaces. Journal of Applied Physics, 1953, 24, pp. 981–988.
15. Ritto T., Rochinha F. Digital twin, physics-based model, and machine learning applied to damage detection in structures. Mechanical Systems and Signal Processing, 2021, 155, 107614.

UDK 681.51:677.052

MURAKKAB DINAMIK OBYEKTLARDA NOANIQLIKLARNI ANFIS ASOSIDA IDENTIFIKATSIYALASH VA ADAPTIV KOMPENSATSIYALASH

Iskandarov Z.E[1], Avezov T.H[2].
Toshkent davlat texnika universiteti[1]
Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti[2]

Annotatsiya: *Murakkab dinamik obyektlarni boshqarishda parametrlarning vaqt bo'yicha o'zgarishi, nochiziqli bog'lanishlar, tashqi g'alayonlar hamda nominal matematik modelning real jarayonga to'liq mos kelmasligi boshqarish sifatini sezilarli pasaytiradi. Mazkur maqolada nominal model va real obyekt chiqishlari orasidagi dinamik nomuvofiqlikni parametrik, strukturaviy hamda tashqi ta'sirlarning integral ifodasi sifatida baholash va uning salbiy ta'sirini adaptiv kompensatsiyalash usuli taklif etilgan. Noaniqliklarni identifikatsiyalash uchun adaptiv neyro-noqat'iy xulosalash tizimi – ANFISdan foydalanilgan. Identifikator kirishlariga model nomuvofiqligi, uning o'zgarish tezligi, boshqaruvchi ta'sir va obyekt chiqishi uzatiladi. Birinchi tartibli Sugeno arxitekturasi asosida ANFIS noaniqlikning joriy bahosini shakllantiradi, ushbu baho esa nominal rostlagich signaliga qo'shimcha adaptiv kompensatsiyalovchi ta'sir sifatida kiritiladi. Taklif etilgan yondashuvning samaradorligi parametrlari o'zgaruvchan murakkab texnologik obyekt sifatida tandalash jarayonida ip tarangligini boshqarish misolida MATLAB/Simulink muhitida tadqiq etilgan. Sinovlarda tanda g'altagi radiusi va inersiya momentining ortishi, yuritma vaqt doimiylarining og'ishi hamda tashqi g'alayonlar hisobga olingan. Identifikatsiya aniqligi RMSE, MAE va R^2 ko'rsatkichlari, boshqarish sifati esa rostlanish vaqti, o'ta rostlanish, IAE, ISE va RMSE mezonlari orqali baholangan. Qiyosiy modellashtirish ANFIS asosidagi adaptiv kompensatsiya dinamik og'ishlarni kamaytirishi, tizim tezkorligini oshirishi va o'zgaruvchan ish rejimlarida ip tarangligi barqarorligini yaxshilashini ko'rsatadi. Taklif etilgan struktura obyekt noaniqliklarining har bir manbasini alohida analitik tavsiflamasdan, ularning natijaviy ta'sirini real vaqt signallari asosida baholash imkonini beradi.*

Kalit so'zlar: *murakkab dinamik obyekt, noaniqlik, identifikatsiya, ANFIS, adaptiv kompensatsiya, nochiziqli tizim, ip tarangligi, tandalash jarayoni.*

Аннотация: *Изменение параметров во времени, нелинейные взаимосвязи, внешние возмущения и неполное соответствие номинальной математической модели реальному процессу существенно снижают качество управления сложными динамическими объектами. В статье предложен метод представления динамического рассогласования между номинальной моделью и реальным объектом в виде интегральной неопределённости, объединяющей параметрические, структурные и внешние воздействия, с последующей адаптивной компенсацией её влияния. Для идентификации неопределённости используется адаптивная нейро-нечёткая система вывода АНФИС. На вход идентификатора поступают рассогласование выходов реального объекта и номинальной модели, скорость изменения рассогласования, управляющее воздействие и выход объекта. АНФИС первого порядка типа Сугено формирует текущую оценку неопределённости, которая вводится в сигнал номинального регулятора как дополнительная адаптивная компенсирующая составляющая. Эффективность разработанного подхода исследована в среде MATLAB/Simulink на примере управления натяжением нитей в процессе снования, рассматриваемом как сложный технологический объект с изменяющимися параметрами. При моделировании учитывались изменение радиуса и момента инерции навоя, отклонение постоянных времени электропривода, а также внешние возмущения. Точность идентификации оценивалась показателями RMSE, MAE и R^2, а качество управления – временем регулирования, перерегулированием, IAE, ISE и RMSE. Сравнительный анализ показал, что адаптивная компенсация на основе АНФИС уменьшает динамические отклонения, ускоряет переходный процесс и*

повышает устойчивость натяжения нити при изменении режимов работы. Предлагаемая структура позволяет оценивать результирующее влияние неопределённостей по наблюдаемым сигналам без необходимости отдельного аналитического описания каждого источника неопределённости.

Ключевые слова: *сложный динамический объект, неопределённость, идентификация, АНФИС, адаптивная компенсация, нелинейная система, натяжение нити, процесс снования.*

Abstract*: Time-varying parameters, nonlinear relationships, external disturbances, and discrepancies between nominal mathematical models and real processes reduce the control performance of complex dynamic objects. This paper proposes a method for estimating the dynamic mismatch between a nominal model and a real object as an aggregated uncertainty and adaptively compensating for its effect. An adaptive neuro-fuzzy inference system (ANFIS) is employed as the uncertainty identifier. The identifier inputs are the model mismatch, its rate of change, the control action, and the object output. ANFIS generates an aggregated estimate of parametric, structural, and external uncertainties, which is then used to form an additional compensating component of the nominal controller signal. The effectiveness of the proposed approach is evaluated for yarn-tension control in a warping process using MATLAB/Simulink. Identification performance is assessed using and while control performance is evaluated by settling time, overshoot, and . The results indicate that ANFIS-based compensation can reduce dynamic deviations under parameter variations and external disturbances. The proposed structure combines uncertainty estimation and real-time correction within a unified adaptive control loop without requiring a fully accurate analytical description of the plant.*

Keywords: *complex dynamic object, uncertainty identification, ANFIS, adaptive compensation, nonlinear system, yarn tension, warping process.*

Kirish. Zamonaviy texnologik obyektlarning aksariyati nochiziqli, parametrik jihatdan o‘zgaruvchan va tashqi g‘alayonlar ta’sirida ishlaydigan dinamik tizimlardir. Bunday sharoitda loyihalash bosqichida tuzilgan nominal model real jarayonning barcha ish rejimlarini to‘liq tavsiflay olmaydi. Parametrik og‘ishlar, hisobga olinmagan dinamik bog‘lanishlar, o‘lchash shovqinlari va tashqi ta’sirlar yig‘indisi model bilan obyekt orasidagi vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi nomuvofiqlikni yuzaga keltiradi [1, 2]. Neyro-noqat’iy modellar murakkab kirish-chiqish bog‘lanishlarini eksperimental ma’lumotlar asosida aniqlash imkoniyati bilan ajralib turadi. Xususan, ANFIS noqat’iy qoidalar bazasining interpretatsiya qilinadigan tuzilishini neyron tarmoqlarning o‘rganish qobiliyati bilan birlashtiradi [6]. Shu sababli undan nochiziqli dinamik obyektlarni identifikatsiyalash, holatlarni baholash va boshqarish qonunini moslashtirishda foydalanish mumkin [1–5]. Onlayn neyro-noqat’iy modellash o‘zgaruvchan ish sharoitlari va o‘lchash shovqinlarida model parametrlarini yangilash imkonini beradi [1]. ANFIS kuzatuvchisini model predictive control bilan integratsiyalash esa holatlarni baholash va g‘alayonlarni rad etish sifatini yaxshilaydi [2].

To‘qimachilik texnologiyalarida ip tarangligi mahsulot sifati va uskunaning texnologik barqarorligini belgilovchi asosiy parametrlardan biridir. Tanda g‘altagi radiusining o‘zgarishi, aylanuvchi qismlar inersiyasi, ipning elastik xossalari, yuritmalar tezligining nomuvofiqligi va tormoz momenti taranglikning nostatsionar tebranishlariga sabab bo‘ladi [7, 8]. Shu bois zamonaviy tadqiqotlarda fuzzy-PID, kaskadli boshqarish, Kalman filtrlash, tension observer va adaptive ADRC kabi yondashuvlar qo‘llanmoqda [8–14]. Tandalash jarayonida ip tarangligini noqat’iy boshqarishga oid avvalgi natijalar ham intellektual rostlashning texnologik samaradorligini ko‘rsatgan [15]. Mavjud ishlarda ANFIS ko‘pincha bevosita rostlagich, obyekt modeli yoki holat kuzatuvchisi sifatida qo‘llanadi. Tandalash va unga yaqin ip tarangligini boshqarish masalalarida fuzzy-PID [8], Kalman filtri bilan kaskadli boshqarish [9] hamda adaptiv ADRC [10] kabi yondashuvlar ham qo‘llanilgan. Biroq ushbu usullarda noaniqlik odatda

rostlagich parametrlarini moslashtirish, holatni filtrlash yoki umumiy g‘alayonni kuzatish doirasida qayta ishlanadi. Nominal model va real texnologik obyekt chiqishlari orasidagi dinamik nomuvofiqlikni parametrik, strukturaviy va tashqi ta’sirlarning yagona integral ko‘rsatkichi sifatida ANFIS yordamida identifikatsiyalash, so‘ngra bu bahoni nominal rostlagichdan funksional jihatdan ajratilgan adaptiv kompensatsiya kanaliga uzatish masalasi yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli tadqiqotning maqsadi murakkab dinamik obyektlardagi integral noaniqlikni ANFIS asosida identifikatsiyalash va uning boshqarish sifatiga ta’sirini adaptiv kompensatsiyalash usulini ishlab chiqishdan iborat.

Nazariy tadqiqotlar. Murakkab texnologik obyektlarda noaniqliklar kelib chiqish manbasiga ko‘ra uch guruhga ajratiladi. Parametrik noaniqliklar kuchaytirish koeffitsiyentlari, vaqt doimiylari, inersiya momentlari, elastiklik va ishqalanish ko‘rsatkichlarining ish rejimiga bog‘liq o‘zgarishi bilan yuzaga keladi. Strukturaviy noaniqliklar nominal modelga kiritilmagan kechikishlar, o‘zaro dinamik ta’sirlar va nochiziqli bog‘lanishlarni ifodalaydi. Tashqi noaniqliklar esa yuklama, xomashyo xossalari, texnologik tezlik va o‘lchash shovqinlarining oldindan to‘liq noma’lum ta’sirlarini qamrab oladi. Ushbu tarkibiy qismlarni amaliy sharoitda alohida aniqlash qiyin bo‘lganligi sababli, ular boshqariluvchi chiqishga ko‘rsatadigan natijaviy ta’sir integral noaniqlik sifatida qaraladi.

Murakkab dinamik obyektning holat tenglamasi nominal va noma’lum qismlarga ajratilib, quyidagicha ifodalanadi:

$$\dot{x}(t) = f_0 x(t), u(t)) + \Delta t \quad (1)$$

$$y(t) = h(x(t), v(t) \quad (2)$$

Bu yerda: $x(t)-$ holat o‘zgaruvchilari vektori, $u(t)-$ boshqaruvchi ta’sir, $y(t)-$ obyekt chiqishi, $f_0 x(t, u(t))-$ obyektning nominal modeli, $\Delta(t)-$ parametrik o‘zgarishlar, strukturaviy nomuvofiqliklar va tashqi g‘alayonlarning integral ta’siri, $h(x(t), v(t)-$ holat o‘zgaruvchilarini chiqish kattaligi bilan bog‘lovchu funksiya, $v(t)-$ o‘lchash shovqini.

Nominal model chiqishi $\hat{y}_0(t)$ va real obyekt chiqishi $y(t)$ y(t) orasidagi nomuvofiqlik quyidagicha aniqlanadi:

$$\varepsilon_m(t) = y(t) - \hat{y}_0(t) \quad (3)$$

$$z(t) = \left[\varepsilon_m(t), \dot{\varepsilon}_m(t), u(t), y(t)\right]^T \quad (4)$$

Bu yerda: $\varepsilon_m(t)-$ real obyekt chiqishi bilan nominal model chiqishi orasidagi dinamik nomuvofiqlik, $\hat{y}_0(t)-$ nominal modelning hisoblangan chiqishi, $z(t)-$ ANFIS identifikatorining kirish vektori, $\dot{\varepsilon}_m(t)-$ model nomuvofiqligining vaqt bo‘yicha o‘zgarish tezligi.

ANFIS identifikatori kirish vektori asosida integral noaniqlikning baholangan qiymatini hosil qiladi:

Kirish vektorining aynan shu tarkibi tanlanishi bir nechta metodik mulohazaga asoslanadi. Model nomuvofiqligi $\varepsilon_m(t)$ noaniqlikning joriy ta’sirini, uning hosilasi $\dot{\varepsilon}_m(t)$ esa o‘zgarish yo‘nalishi va tezligini tavsiflaydi. Boshqaruvchi signal $u(t)$ obyektga berilayotgan energetik ta’sirni, chiqish $y(t)$ esa obyektning amaldagi holatini aks ettiradi. Natijada identifikator nafaqat statik farqni, balki noaniqlikning dinamik rivojlanishini ham baholaydi. Kirishlar sonini bundan ortiq ko‘paytirish qoidalar bazasining keskin kengayishiga olib kelishi mumkinligi sababli, informativlik va hisoblash murakkabligi o‘rtasidagi muvozanat saqlangan.

$$\hat{\Delta}(t) = F_{ANFIS}(z(t), \Omega) \quad (5)$$

Bu yerda $\hat{\Delta}(t)-$ ANFIS tomonidan baholangan integral noaniqlik, $F_{ANFIS}-$ ANFIS modelining nochiziqli akslantirish funksiyasi, $\Omega-$ tegishlilik funksiyalari va Sugeno qoidalarining sozlanadigan parametrlari to‘plami.

Birinchi tartibli Sugeno modelida $i-$qoidaning lokal xulosasi va identifikatorning umumiy chiqishi quyidagicha shakllanadi:

ANFIS identifikatorining o‘qitish va tekshirish tartibi.

$$f_i = p_{i1}\varepsilon_m(t) + p_{i2}\dot{\varepsilon}_m(t) + p_{i3}u(t) + p_{i4}y(t) + r_i \quad (6)$$

$$\hat{\Delta}(t) = \sum_{i=1}^{N} \overline{\omega}_i f_i \quad (7)$$

ANFIS parametrlarini sozlashda gibrid o‘qitish algoritmi qo‘llanadi: Sugeno xulosalarining chiziqli parametrlari eng kichik kvadratlar usulida, tegishlilik funksiyalarining nochiziqli parametrlari esa gradient asosida yangilanadi. Maqsad funksiyasi model chiqishi bilan etalon noaniqlik qiymati orasidagi kvadratik farqni minimallashtiradi:

$$J_{id} = \frac{1}{M}\sum_{k=1}^{M}\left[\Delta^{(k)} - \widehat{\Delta}^{(k)}\right]^2 \to \min \quad (8)$$

Bu yerda $J_{id}-$ANFIS identifikatorini o ‘qitishdagi maqsad funksiyasi, $M-$ o‘rgatuvchi namunalar soni, $\Delta^{(k)}-$ k-namunadagi haqiqiy noaniqlik qiymati, $\widehat{\Delta}^{(k)}-$ ANFIS tomonidan baholangan noaniqlik, →min – identifikatsiya xatoligini minimallashtirish sharti.

ANFIS modelini o‘qitish uchun ma’lumotlar obyektning nominal, parametrik og‘ishli va g‘alayonli ish rejimlarida shakllantiriladi. Ma’lumotlar ketma-ketligining vaqt bo‘yicha bog‘liqligi saqlangan holda o‘rgatuvchi, tekshiruvchi va test to‘plamlariga ajratiladi. O‘rgatuvchi to‘plam premise va konsekvent parametrlarni aniqlashga, tekshiruvchi to‘plam ortiqcha moslashishni nazorat qilishga, test to‘plami esa modelning ilgari kuzatilmagan rejimlardagi umumlashtirish qobiliyatini baholashga xizmat qiladi. O‘qitish jarayonida xatolikning kamayishi bilan bir qatorda tekshiruvchi to‘plam xatoligining ortib ketmasligi kuzatiladi; bu mezon ANFISning haddan tashqari murakkablashuvini cheklaydi. Hisoblash tajribasida ANFIS identifikatori to‘rtta kirish o‘zgaruvchisi – model nomuvofiqligi, uning hosilasi, boshqaruvchi signal va obyekt chiqishi – asosida shakllantirildi. Har bir kirish uchun uchta Gauss tegishlilik funksiyasi qabul qilindi; to‘liq kombinatsion qoidalar bazasida K=3^4=81 ta Sugeno qoidasi hosil bo‘ladi. Birinchi tartibli Sugeno xulosasida har bir qoida uchun to‘rtta kirish koeffitsiyenti va bitta ozod had mavjud bo‘lib, konsekvent parametrlar soni 81×5=405 tani tashkil etadi; Gauss funksiyalarining 24 ta premise parametri bilan jami 429 ta sozlanadigan parametr olinadi. Simulyatsiya oralig‘i 0–50 s, diskretlash qadami 0,01 s deb qabul qilinib, M=5001 ta namuna shakllantirildi. Vaqt ketma-ketligi buzilmagan holda ma’lumotlar 70/15/15 nisbatda o‘rgatuvchi, tekshiruvchi va test to‘plamlariga ajratildi (mos ravishda 3501, 750 va 750 namuna). Bunday ko‘rsatkichlarni aniq keltirish qoidalar bazasi hajmi, o‘qitish tanlanmasi va model murakkabligini qayta tiklash imkonini beradi.

Taklif etilgan boshqarish tizimida umumiy signal nominal va kompensatsiyalovchi qismlardan tashkil topadi:

Adaptiv kompensatsiya qonuni va amaliy barqarorlik


$$u(t) = u_0(t) + u_c(t) \quad (9)$$

$$u_c(t) = -K_c(t)\hat{\Delta}(t) \quad (10)$$

Bu yerda: $u(t)-$obyektga uzatiladigan umumiy boshqarish signali, $u_0(t)-$ nominal rostlagich shakllantirgan boshqarish signali, $u_c(t)-$adaptiv kompensatsiyalovchi signal, $K_c(t)-$ kompensatsiya intensivligini belgilovchi koeffitsiyent.


Kompensatsiyalovchi signalning fizik chegaralardan chiqib ketishini oldini olish uchun to‘yinish funksiyasi qo‘llanadi. ANFIS identifikatsiya xatoligi chekli bo‘lsa, kompensatsiyadan keyingi noma’lum komponent $\Delta(t)$ dan qoldiq xatolik $\tilde{\Delta}(t) = \Delta(t) - \hat{\Delta}(t)$ gacha kamayadi. Nominal yopiq tizim barqaror bo‘lgan holda bu boshqarish xatoligining chegaralangan sohada qolishini ta’minlaydi. Kompensatsiya koeffitsiyenti $K_c(t)$ obyektning dinamik sezgirligi va

identifikatsiya xatoligi hisobga olingan holda tanlanadi. K_c ning juda kichik qiymati noaniqlik ta’sirini yetarli kamaytirmaydi, haddan tashqari katta qiymati esa ijro mexanizmi to‘yinishiga va boshqarish signalining tebranishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois amaliy sozlashda kompensatsiya kanalining tezkorligi nominal kontur tezkorligidan yuqori, biroq o‘lchash shovqinlari chastotasidan past diapazonda tanlanadi. Zarur hollarda ANFIS chiqishiga past chastotali filtr qo‘shilib, keskin shovqin komponentlarining boshqarish kanaliga uzatilishi cheklanadi.



1-rasm. ANFIS asosidagi adaptiv kompensatsiyalash tizimining strukturaviy sxemasi

1-rasmdagi strukturada real obyekt va nominal model chiqishlari orasidagi nomuvofiqlik ANFIS identifikatoriga uzatiladi. Baholangan noaniqlik asosida shakllangan $u_c(t)$ signali nominal rostlagich chiqishini tuzatadi. Shu tariqa identifikatsiya va kompensatsiya yagona yopiq konturda amalga oshiriladi.



2-rasm. Noaniqliklarni identifikatsiyalash uchun ANFIS modelining tuzilishi

Tajribaviy izlanishlar. Tadqiqot obyekti sifatida tanda iplarining umumiy tarangligini berilgan qiymatda ushlab turuvchi elektr yuritmali tandalash tizimi qabul qilindi. Jarayonning murakkabligi iplarning elastik xossalari, g‘altak radiusi va massasining o‘zgarishi, yuritmalar

orasidagi tezlik nomuvofiqligi hamda mexanik qarshiliklarning nostatsionarligi bilan belgilanadi. Modelda boshqariluvchi chiqish $T(t)$, boshqaruvchi kirish elektr yuritma signali $u(t)$, asosiy o‘zgaruvchan parametrlar esa g‘altak radiusi $R_b(t)$, inersiya momenti $J_b(t)$, ipning chiziqli tezligi $v_{ip}(t)$ va yuritma vaqt doimiysi sifatida tanlandi.

Taklif etilgan usulning samaradorligi tandalash jarayonida ip tarangligini boshqarish misolida tadqiq etildi. Boshqariluvchi parametr sifatida ip tarangligi $T(t)$, boshqaruvchi ta’sir sifatida elektr yuritmaga uzatiladigan $u(t)$ signal qabul qilindi. Jarayonning nominal holat modeli quyidagicha ifodalandi:

$$\dot{x}(t) = A_0 x(t) + B_0 u(t), \qquad T_0(t) = C_0 x(t) \tag{11}$$

Parametrlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi va tashqi g‘alayonlarni hisobga olgan real model:

$$\dot{x}(t) = \left[A_0 + \Delta A(t)\right]x(t) + \left[B_0 + \Delta B(t)\right]u(t) + D\,d(t) \tag{12}$$

ko‘rinishida qabul qilindi.

Bu yerda: A_0 – nominal holat matritsasi, B_0 – nominal boshqarish matritsasi, C_0 – chiqish matritsasi, $\Delta A(t)$ – vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi parametrik noaniqliklar, $d(t)$ – tashqi g‘alayon, D – g‘alayonning obyekt dinamikasiga ta’sir matritsasi, $T_0(t)$ – nominal model bo‘yicha ip tarangligi.

Modellashtirishda vaqt doimiylarining nominal qiymatdan og‘ishi, tanda g‘altagi radiusi va inersiya momentining ortishi, yuritma yuklanishining o‘zgarishi, shuningdek sinusoidal va sakrashsimon g‘alayonlar ssenariylari ko‘rib chiqildi. ANFIS kirishlari $\varepsilon_m(t)$, $\dot{\varepsilon}_m(t)$, $u(t)$, $T(t)$ chiqishi esa $\Delta(t)$ sifatida tanlandi. Kirishlar uchun Gauss tegishlilik funksiyalari va birinchi tartibli Sugeno xulosalash mexanizmi qo‘llandi.

Modellashtirish uchta asosiy ssenariy bo‘yicha olib borildi. Birinchi ssenariyda nominal parametrlar va tashqi g‘alayonsiz rejimda tizimning bazaviy dinamikasi baholandi. Ikkinchi ssenariyda vaqt doimiylari va inersiya momenti nominal qiymatlarga nisbatan bosqichma-bosqich o‘zgartirilib, parametrik noaniqlikka sezgirlik tekshirildi. Uchinchi ssenariyda sinusoidal hamda sakrashsimon g‘alayonlar kiritilib, kompensatsiya kanalining tiklanish xususiyati o‘rganildi. Barcha ssenariylarda kompensatsiyasiz va adaptiv kompensatsiyali tizimlar uchun boshlang‘ich shartlar, berilgan qiymat, solver parametrlari va simulyatsiya davomiyligi bir xil saqlandi. Hisoblashlar 0,01 s diskretlash qadami bilan 50 s davomida bajarildi; shu sababli barcha ssenariylarda vaqt bo‘yicha bir xil 5001 ta hisoblash nuqtasi ishlatildi.

Identifikatsiya sifati $RMSE_id$, MAE va R^2 boshqarish sifati esa rostlanish vaqti t_p, o‘ta rostlanish σ, integral mutlaq xatolik IAE va integral kvadratik xatolik ISE orqali baholandi:


Boshqarish sifatini xolis taqqoslash uchun baholash oralig‘i, diskretlash qadami va berilgan signal shakli o‘zgartirilmagan. Rostlanish vaqti chiqishning berilgan qiymat atrofidagi ±2 % chegaraga kirib, undan keyin ushbu diapazondan chiqmaslik vaqti sifatida aniqlangan. O‘ta rostlanish maksimal dinamik og‘ishning berilgan qiymatga nisbati orqali hisoblangan. Integral mezonlar butun simulyatsiya oralig‘ida aniqlanib, qisqa muddatli katta xatoliklar va uzoq davom etuvchi kichik og‘ishlarning umumiy ta’sirini qamrab olgan.

$$RMSE_{id} = \sqrt{\frac{1}{N}\sum_{k=1}^{N}\left[\Delta^{(k)} - \hat{\Delta}^{(k)}\right]^2} \tag{13}$$

$$IAE = \int_0^{t_f} |e(t)|dt, \qquad ISE = \int_0^{t_f} e^2(t)dt \tag{14}$$


Bu yerda: $RMSE_{id}$ – identifikatsiyaning o‘rtacha kvadratik xatoligi, N – namunalar soni, $\Delta^{(k)}$ – haqiqiy noaniqlik qiymati, $\hat{\Delta}^{(k)}$ – ANFIS baholagan noaniqlik qiymati, IAE – integral mutlaq xatolik, ISE – integral kvadratik xatolik, t_f – kuzatish yoki modellashtirishning yakuniy vaqti.

Natijalar va ularning tahlili. 3-rasmda qiyosiy hisoblash ssenariysida ANFIS chiqishi haqiqiy noaniqlik signalining amplitudasi, ekstremum nuqtalari va so‘nish tendensiyasini yaqin aniqlikda takrorlashi ko‘rinadi. Model signallaridan hisoblangan identifikatsiya mezonlari $RMSE_id = 0.018$, $MAE_id = 0.012$, va $R^2 0.982$ qiymatlarni ko‘rsatdi. Eng katta tafovut noaniqlikning keskin o‘zgarish nuqtalarida kuzatilgan bo‘lsada, identifikator kompensatsiya signalini shakllantirish uchun yetarli dinamik moslikni ta’minladi.



3-rasm. Haqiqiy va identifikatsiyalangan noaniqlik signallarining o‘zgarishi

Ushbu qiymatlar mazkur modellashtirish ssenariysiga tegishli bo‘lib, sanoat tajribasi natijalari sifatida talqin qilinmaydi.



4-rasm. Kompensatsiyasiz va adaptiv kompensatsiyali tizim o‘tish jarayonlari

Kompensatsiyasiz tizimda parametrik o‘zgarishlar sezilarli o‘ta rostlanish va so‘nuvchi tebranishlarga olib keladi. Adaptiv kompensatsiya kanali ulanganida o‘tish jarayoni tezlashadi, maksimal dinamik og‘ish kamayadi va taranglikning berilgan qiymat atrofida barqarorlashuvi yaxshilanadi. Bir xil boshlang‘ich shartlar va g‘alayonlar qo‘llangan qiyosiy modellashtirishda rostlanish vaqti 38 s dan 16 s gacha, o‘ta rostlanish esa 28 % dan 5 % gacha kamaydi. Natijalar taklif etilgan algoritmning hisoblash modelidagi samaradorligini ifodalaydi. Quyidagi 1-jadvalda boshqarish tizimlarining qiyosiy sifat ko‘rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

Boshqarish tizimlarining qiyosiy sifat ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	Kompensatsiyasiz tizim	Adaptiv kompensatsiyali tizim	Kamayish, %
t_p, s	38,0	16,0	57,9
σ, %	28,0	5,0	82,1
IAE	8,40	3,02	64,0
ISE	4,10	1,23	70,0
RMSE	0,160	0,040	75,0


2-jadval

Taklif etilgan yondashuvning zamonaviy ip tarangligini boshqarish usullari bilan metodik qiyosiy tahlili

Usul	**Asosiy mexanizm**	**Noaniqlikka moslashuv**	**Aniq modelga ehtiyoj**	**Taklif etilgan usuldan asosiy farqi**
Fuzzy-PID [8]	PID parametrlarini noqat’iy qoidalar orqali sozlash	Bilvosita, rostlagich koeffitsiyentlari orqali	Past/o‘rta	Integral noaniqlik alohida identifikatsiyalanmaydi
Kaskad + Kalman filtri [9]	Holat/taranglikni filtrlash va kaskadli rostlash	Asosan baholash va shovqinni kamaytirish orqali	O‘rta/yuqori	Model nomuvofiqligi mustaqil kompensatsiya kanaliga ajratilmaydi
Adaptiv ADRC [10]	Umumiy g‘alayonni kuzatuvchi va aktiv rad etish	Yuqori	Past/o‘rta	G‘alayon kuzatuvchisi analitik observer tuzilmasiga tayangan
Taklif etilgan ANFIS kompensatsiyasi	Model–obyekt nomuvofiqligini neyro-noqat’iy identifikatsiyalash va qo‘shimcha kanal orqali kompensatsiya	Yuqori, ma’lumotlar asosida	Nominal model talab qilinadi, biroq noaniqlik manbalarini alohida modellashtirish shart emas	ANFIS identifikatori nominal rostlagichdan ajratilgan mustaqil kompensatsiya kanalini hosil qiladi

2-jadval adabiyotlarda keltirilgan zamonaviy yondashuvlar bilan funksional-metodik qiyosni ko‘rsatadi. Turli tadqiqotlarda obyekt, berilgan signal, g‘alayon amplitudasi va baholash mezonlari bir xil emasligi sababli [8–10] dagi sonli ko‘rsatkichlarni ushbu ish natijalari bilan bevosita arifmetik solishtirish metodik jihatdan to‘g‘ri emas. Shu bois 1-jadval va 5-rasmda bir xil model, boshlang‘ich shartlar va g‘alayonlar ostidagi ichki sonli taqqoslash saqlanadi, 2-jadval esa taklif etilgan arxitekturaning zamonaviy usullarga nisbatan funksional farqini ochib beradi.

Quyidagi 5-rasmda bir xil modellashtirish sharoitida kompensatsiyasiz va ANFIS asosidagi adaptiv kompensatsiyali tizim sifat mezonlarining qiyosiy diagrammasi keltirilgan. Zamonaviy yondashuvlar bilan funksional-metodik qiyos 2-jadvalda berildi.



5-rasm. Boshqarish sifati mezonlarining qiyosiy diagrammasi

Qiyosiy natijalar adaptiv kompensatsiyalash tizimi barcha tanlangan mezonlar bo‘yicha ustun ekanini ko‘rsatadi. Rostlanish vaqti 57,9 %, o‘ta rostlanish 82,1 %, *IAE* 64,0 %, *ISE* 70,0 % va *RMSE* 75,0 % ga kamaygan. *ISE* va *RMSE* ning sezilarli pasayishi katta amplitudali dinamik xatoliklarning samarali cheklanganini, t_p va σ ning kamayishi esa tizimning tezkorligi hamda amaliy barqarorligi yaxshilanganini bildiradi. Natijalarning fizik talqini shuni ko‘rsatadiki, kompensatsiyasiz konturda g‘altak radiusi va inersiya momentining ortishi nominal rostlagichning dastlabki sozlamalari bilan obyektning haqiqiy dinamikasi o‘rtasidagi nomuvofiqlikni kuchaytiradi. ANFIS identifikatori ushbu nomuvofiqlikning amplitudasi va o‘zgarish yo‘nalishini kuzatib, boshqaruvchi signalga qarama-qarshi belgili tuzatish kiritadi. Shu sababli kompensatsiya faqat statik xatolikni emas, balki parametrlar o‘zgarishi natijasida yuzaga keladigan dinamik tebranishlarni ham kamaytiradi. Taklif etilgan usulning identifikatsiya aniqligi o‘rgatuvchi ma’lumotlarning reprezentativligi, kirish signallarining informativligi va ANFIS qoidalar bazasining murakkabligiga bog‘liq. O‘qitish to‘plamida mavjud bo‘lmagan keskin ish rejimlarida identifikatsiya xatoligi ortishi mumkin. Shu bois real vaqt rejimida qo‘llashda model aniqligi va hisoblash yuklamasi o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zarur. Olingan natijalarni talqin qilishda modellashtirishga xos cheklovlarni hisobga olish lozim. ANFISning samaradorligi o‘rgatuvchi ma’lumotlarda obyektning asosiy ish rejimlari yetarlicha ifodalanishiga bog‘liq. Real ishlab chiqarishda sensor shovqini, diskret boshqaruv kechikishi, ijro mexanizmi to‘yinishlari va ip xossalarining partiyalar bo‘yicha farqlanishi qo‘shimcha xatolik keltirib chiqarishi mumkin. Shunga qaramay, taklif etilgan strukturada identifikator va kompensatorning alohida bloklarda tashkil qilinishi modelni sanoat PLC yoki yuqori tezlikdagi mikrokontroller platformasida bosqichma-bosqich joriy etish imkonini beradi. Hisoblash murakkabligi va real vaqt rejimida qo‘llash imkoniyati. Tanlangan 4×3 kirish tuzilmasida inferensiyaning har bir qadamida 12 ta Gauss tegishlilik funksiyasi, 81 ta qoida faollik darajasi, 81 ta birinchi tartibli Sugeno konsekventi va ularning normallashtirilgan yig‘indisi hisoblanadi. Shuning uchun inferensiya murakkabligi qoidalar soniga nisbatan chiziqli, ya’ni O(K·m) tartibida bo‘lib, bu yerda K=81 va m=4. Jami 429 ta sozlanadigan parametr double aniqlikda faqat parametrlarni saqlash uchun taxminan 3,4 kB xotira talab qiladi; dastur kodi, vaqtinchalik buferlar va aloqa protokollari bu hisobga kiritilmagan. Mazkur maqolada aniq sanoat protsessorida bajarilish vaqti o‘lchanmaganligi sababli qat’iy real vaqt kafolati berilmaydi. Amaliy joriy etishda inferensiya davri boshqarish konturining diskretlash qadamidan kichik bo‘lishi, ijro mexanizmi to‘yinishlari va aloqa kechikishlari alohida tekshirilishi lozim. Bu talablarni HIL yoki fizik stend tajribasi orqali verifikatsiya qilish keyingi bosqichning asosiy vazifasidir. Amaliy joriy etishda nominal boshqarish konturi xavfsiz bazaviy rejimni ta’minlaydi, ANFIS kanali esa faqat ruxsat etilgan chegaralarda tuzatish kiritadi. Bunday arxitektura identifikator vaqtincha noto‘g‘ri baho bergan taqdirda ham tizimning bazaviy boshqaruvchanligini saqlashga yordam beradi. Shu jihat taklif etilgan yondashuvni ANFIS

bevosita yagona rostlagich vazifasini bajaradigan strukturalarga nisbatan texnologik xavfsizlik nuqtayi nazaridan afzal qiladi.

Xulosa. Murakkab dinamik obyektlarda parametrlarning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi, nochiziqli bog‘lanishlar va tashqi g‘alayonlarning birgalikdagi ta’sirini nominal model bilan real obyekt chiqishi orasidagi dinamik nomuvofiqlik orqali integral noaniqlik sifatida ifodalash va uni ANFIS yordamida adaptiv kompensatsiyalash yondashuvi ishlab chiqildi. Olingan natijalar quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

1. Parametrik, strukturaviy va tashqi ta’sirlarning natijaviy ta’sirini integral noaniqlik sifatida baholash hamda model–obyekt nomuvofiqligidan identifikatsiya signali sifatida foydalanish usuli asoslandi.

2. To‘rtta kirish, har bir kirish uchun uchta Gauss tegishlilik funksiyasi va 81 ta birinchi tartibli Sugeno qoidasi asosidagi ANFIS identifikatori shakllantirildi; model jami 429 ta sozlanadigan parametrga ega.

3. ANFIS bahosini nominal rostlagichdan funksional jihatdan ajratilgan adaptiv kompensatsiya kanaliga uzatish orqali noaniqlikning boshqarish sifatiga ta’sirini kamaytiruvchi yopiq kontur struktura taklif etildi.

4. Tandalash jarayoni modelida bir xil sinov sharoitida adaptiv kompensatsiya rostlanish vaqtini 38 s dan 16 s gacha, o‘ta rostlanishni 28 % dan 5 % gacha, IAE, ISE va RMSE mezonlarini mos ravishda 64,0 %, 70,0 % va 75,0 % ga kamaytirdi. Ushbu natijalar hisoblash modeli doirasida yondashuvning samaradorligini ko‘rsatadi.

Reference

1. Gu W., Lan J., Mason B. Online neuro-fuzzy model learning of dynamic systems with measurement noise // Nonlinear Dynamics. 2024. Vol. 112. P. 5525–5540. DOI: 10.1007/s11071-024-09360-x.

2. Ibrahim M., Hussein M., Abozied M.A.H., Ashry M. Enhancing four-tank system through model predictive control-based adaptive neuro-fuzzy system // International Journal of Fuzzy Systems. 2025. DOI: 10.1007/s40815-025-02085-y.

3. Espitia H., Machón I., López H. Proposal of a compact neuro-fuzzy adaptive controller for filling regulation of two coupled spherical tanks // International Journal of Fuzzy Systems. 2025. Vol. 27. P. 391–409. DOI: 10.1007/s40815-024-01782-4.

4. Kumar K., Das M., Karn A.K. ANFIS robust control application and analysis for load frequency control with nonlinearity // Journal of Electrical Systems and Information Technology. 2024. Vol. 11. Article 65. DOI: 10.1186/s43067-024-00175-9.

5. Sekere Y.O.M., Ajiboye P.O., Efah F.B., Opoku B.T. Fractional order ANFIS controllers for load frequency control in renewable-energy integrated power systems // Journal of Electrical Systems and Information Technology. 2025. DOI: 10.1186/s43067-025-00200-5.

6. Jang J.-S.R. ANFIS: Adaptive-network-based fuzzy inference system // IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics. 1993. Vol. 23, No. 3. P. 665–685. DOI: 10.1109/21.256541.

7. Tu L., Guo M., Wang J., Gao W. Dynamic tension control for warp beams on sizing machine based on unwinding length monitoring // Textile Research Journal. 2024. Vol. 94, No. 9–10. P. 1126–1144. DOI: 10.1177/00405175231222933.

8. Tu L., Guo M., Wang J., Gao W. Warp yarn tension coupling models and fuzzy PID control for enhancing warp beam unwinding tension stability in sizing machines // Journal of Industrial Textiles. 2024. Vol. 54. DOI: 10.1177/15280837241301709.

9. Neaz A., Lee E.H., Jin T.H., Cho K.C., Nam K. Optimizing yarn tension in textile production with tension–position cascade control method using Kalman filter // Sensors. 2023. Vol. 23, No. 12. Article 5494. DOI: 10.3390/s23125494.

10. Peng L., Xiong X., Wang L. Research on yarn tension control technology for knitting underwear machine based on adaptive ADRC // Scientific Reports. 2025. Vol. 15. Article 9750. DOI: 10.1038/s41598-025-94768-7. 10

11. Ali M., Ahmed R., Amer M. Yarn tension control technique for improving polyester soft Winding process // Scientific Reports. 2021. Vol. 11. Article 1060. DOI: 10.1038/s41598-020-79928-1.

12. Ji Y., Ma J., Zhou Z., Li J., Song L. Dynamic yarn-tension detection using machine vision combined with a tension observer // Sensors. 2023. Vol. 23, No. 8. Article 3800. DOI: 10.3390/s23083800.

13. Eren R., Kılıç S., Atalay Ö. Development of an individual warp beam tension control system for warp assembling machines in direct warp preparation // Journal of Engineered Fibers and Fabrics. 2025. Vol. 20. DOI: 10.1177/15589250251313609.

14. Xiao Y., Zhang Z., Liu Z., Zhang Z., Zhou W., Liu W. Research on integral separation control of warp tension based on fuzzy parameter optimization // Journal of Intelligent & Fuzzy Systems. 2021. Vol. 41, No. 2. P. 3031–3044. DOI: 10.3233/JIFS-210124.

15. Avezov T.H., Iskandarov Z.E. Fuzzy control system for yarn tension in the warping process // AIP Conference Proceedings. 2025. Vol. 3377. Article 060006.

UDK 677.051.125.5

JINLASH MASHINASINI NORAVSHAN ROSTLASH TIZIMINI SINTEZLASH ALGORITMI

I.X. Siddikov[1], G.R. Alimova[1], U.O. Xo‘janazarov[2], M.M. Usanov[2]

Toshkent davlat texnika universiteti[1]

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti[2]

Annotatsiya. *Maqolada jinlash mashinasini noravshan rostlash tizimini sintezlash algoritmi taklif etiladi. Bu esa ko‘p jihatdan paxta mahsulotlarini olishda sodir bo‘ladigan texnologik jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish darajasiga bog‘liqdir. Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish sohasidagi dolzarb vazifalardan biri bu ma’lumotlar noaniqligi sharoitida boshqarish jarayonining sifatini yaxshilash imkonini beruvchi intellektual texnologiyalar yutuqlari asosida energiya va resurs tejamkor usullaridan foydalangan holda samarador boshqarish tizimini yaratish orqali yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishga erishishdir. Jinlash jarayoni parametrlarini o‘zgaruvchanligini hisobga olgan holda, boshqarish tizimiga adaptivlik xususiyatini berish uchun rostlagich parametrlarini doimiy ravishda sozlashda model parametrlarini baholash talab etiladi. Jinlash agregatining modeli parametrlarini baholash uchun stoxastik aproksimatsiyalashning rekurrent usuli taklif etildi. Bunda o‘lchash mumkin bo‘lgan kirish va chiqish kattaliklaridan foydalanildi. Ma’lumotlar noaniqlik sharoitida jinlash jarayonini ish rejimlarini adaptiv boshqarish tizimini sintezlash algoritmi ishlab chiqilgan bo‘lib bu esa boshqarish jarayonini adaptivlik xossasini beruvchi neyro-noravshan PID rostlagichning parametrlarini dinamik sozlash algoritmi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning tadbiq etilishi energiya sarfini kamaytirish va jinlash jarayonini berilgan qiymatdan maksimal og‘ishini 2,3% ga kamaytirish imkonini berdi. Paxta xom ashyosini jinlash jarayonini takomillashtirilgan boshqarish tizimini tadqiq etish va joriy qilishning dasturiy majmuasi ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Noravshan rostlagich, sintezlash, stoxostik apraksimasiyalash, model, optimallashtirish, algoritm, adaptive boshqarish, boshqarish tizimi, rekurrent usul.*

Аннотация. *В статье предлагается алгоритм синтеза нечеткой системы регулирования машины джинирования. Это во многом связано с уровнем автоматизации и оптимизации технологических процессов, происходящих при получении хлопковой продукции. Одной из актуальных задач в области автоматизации технологических процессов является достижение производства высококачественной продукции за счёт*

создания эффективной системы управления, основанной на достижениях интеллектуальных технологий, позволяющих повысить качество управления в условиях неопределённости данных и с использованием энерго- и ресурсосберегающих методов. С учётом изменчивости параметров процесса джинирования, для придания системе управления адаптивных свойств, требуется постоянная настройка параметров регулятора, что предполагает оценку параметров модели. Для оценки параметров модели джинного агрегата предложен рекуррентный метод стохастической аппроксимации, основанный на использовании измеряемых входных и выходных величин. В условиях неопределённости данных разработан алгоритм синтеза адаптивной системы управления режимами работы процесса джинирования, а также алгоритм динамической настройки параметров нейро-нечёткого PID-регулятора, обеспечивающий адаптивность процесса управления. Применение данного подхода позволило снизить энергопотребление и уменьшить максимальное отклонение процесса джинирования от заданного значения на 2,3%. Разработан программный комплекс для исследования и внедрения усовершенствованной системы управления процессом джинирования хлопкового сырья.

Ключевые слова: *нечеткий регулятор, синтез, стохастическая аппроксимация, модель, оптимизация, алгоритм, адаптивное управление, система управления, рекуррентный метод.*

Abstract. *Abstract. This paper proposes an algorithm for synthesizing a fuzzy control system for a ginning machine. This is largely related to the level of automation and optimization of the technological processes involved in the production of cotton products. One of the pressing tasks in the field of process automation is achieving high-quality production through the creation of an effective control system based on advancements in intelligent technologies, which allow for improved control quality under conditions of data uncertainty and through the use of energy- and resource-saving methods. Given the variability of the ginning process parameters, to endow the control system with adaptive properties, constant adjustment of the controller parameters is required, which involves evaluating the model parameters. A recurrent stochastic approximation method based on measurable input and output variables is proposed for estimating the parameters of a ginning machine model. Under conditions of data uncertainty, an algorithm has been developed for synthesizing an adaptive control system for the operating modes of the ginning process, as well as an algorithm for dynamically tuning the parameters of a neuro-fuzzy PID controller, ensuring the adaptability of the control process. The application of this approach made it possible to reduce energy consumption and decrease the maximum deviation of the ginning process from the setpoint by 2.3%. A software package has been developed for the research and implementation of an improved control system for the ginning process of raw cotton.*


Keywords: *fuzzy controller, synthesis, stochastic approximation, model, optimization, algorithm, adaptive control, control system, recursive method.*

Kirish. Jahonda paxta sanoati texnologik jarayonlarni boshqarish tizimlarini takomillashtirishga, xususan, paxta sanoati korxonalarida intellektual texnologiyalarni joriy etish orqali yuqori sifatli to‘qimachilik materiallarini olishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Paxta mahsulotlari ishlab chiqarish jarayonlari xususan, paxta tolasini jinlash jarayoni murakkab xususiyatga ega bo‘lib, u turli xildagi tashqi va ichki ta’sirlar ostida bo‘ladi. Bu ta’sirlarning noaniqligi, texnologik parametrlarni o‘zaro bog‘liqligi hamda jinlash qurilmasi dinamik xossalarining o‘zgaruvchanligi bunday jarayonlarni boshqarish masalasini yechishni murakkablashtiradi. Shu jihatdan, chigitli paxtani jinlash jarayonini intellektual texnologiyalar asosida boshqarish tizimlarini takomillashtirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Paxta xom-ashyosini jinlash jarayonini boshqarishda noravshan mantiqqa asoslangan holda rostlagichning parametrlarini sintezlash murakkab masalalardan biridir. Jinlash jarayoni parametrlarini o‘zgaruvchanligini hisobga olgan holda, boshqarish tizimiga adaptivlik xususiyatini berish uchun

rostlagich parametrlarini doimiy ravishda sozlashda model parametrlarini baholash talab etiladi. Jinlash agregatining modeli parametrlarini baholash uchun stoxastik aproksimatsiyalashning rekurrent usuli taklif etildi. Bunda o‘lchash mumkin bo‘lgan kirish va chiqish kattaliklaridan foydalanildi.

Nazariy tadqiqotlar. Jinlashda tashqi va parametrik g‘alayon mavjud bo‘lsa, o‘tkinchi jarayonning sifat ko‘rsatkichlari sezilarli darajada pasayadi. Ushbu parametrlarning keng diapazonda o‘zgarishi boshqarish tizimsini noturg‘un holatga olib kelishi mumkin. Chunki, texnologik rejim o‘zgarganida doimiy ravishda rostlagichning parametrlarini sozlash talab etiladi.

Shuning uchun bunday masalalarni yechishda noqat’iy mantiq nazariyasidan foydalanish taklif etildi (1–rasm). Bunda noqat’iy mantiqiy rostlagichning kirish vektorlari $E^* = (e_1^*, e_2^*)$ sxema bo‘yicha fazzifikatsiyalash bloki yordamida noqat’iy ko‘rinishga o‘tkaziladi. Keyin ekspertlar tomonidan tuzilgan qoidalar bazasi asosida i^* noqat’iy chiqish o‘zgaruvchisi olinadi.



1 - rasm. Noqat’iy mantiqiy rostlagichli avtomatik rostlash tizimi

Boshqarish vektori i^* ni son qiymatiga o‘zgartirish defazzifikator yordamida amalga oshiriladi. Noqat’iy rostlagichning vazifasi xatolik signali va uning hosilasini qayta ishlab, boshqarish signalini ishlab chiqishdan iborat.

Qoidaga ko‘ra, noqat’iy mantiqiy rostlagich lingvistik o‘zgaruvchilar termlari asosidagi bilimlar bazasiga ega bo‘lishi kerak.

Buning uchun quyidagi lingvistik o‘zgaruvchilarni kiritamiz:

e_1 =(“Boshqarish xatoligi”, *Te1,YE1*);

e_2 =(“Xatolikni hosilasi”, *Te2,YE2*);

u =(“Boshqarish”, *Tu,U*).

Bunda: $T_e = \{T'_e, T'_e, ..T^k_{ei}\}, i = \overline{1,k}, T_u = \{T^1_u, T^2_u, ..T^k_u\}$

Endi har bir lingvistik o‘zgaruvchilarni uchburchak ko‘rinishidagi tegishlilik funksiyasiga ega 7 ta termlarga ajratib olamiz:

$$T_x = \{'NB','NM','NS','ZE','PS','PM','PB'\};$$

$$\mu_{Tx}(x,a,b,c) = \begin{cases} 0, \ agar\, x \le a, \ bo'lsa; \\ (x-a)/(b-a) \ agar\, a \le x \le b, \ bo'lsa; \\ (c-x)/(c-b) \ agar\, b \le x \le c, \ bo'lsa; \\ 0, \ agar\, c \le x, \ bo'lsa; \end{cases}$$

U holda fazzifikatsiya natijalari quyidagicha yoziladi:

e_1 ="*boshqarish xatoligi*"

$$\left[\begin{matrix} \mu_{NBe}(e)/NB_e, \mu_{NMe}(e)/NM_e, \mu_{NSe}(e)/NS_e, \mu_{ZEe}(e)/ZE_e, \mu_{PSe}(e)/PS_e, \\ \mu_{PMe}(e)/PM_e, \mu_{PBe}(e)/PB_e \end{matrix}\right]$$

e_2 ="*xatolikni hosilasi*"

$$\left[\begin{matrix} \mu_{NBe}(\dot{e})/NB_e, \mu_{NMe}(\dot{e})/NM_e, \mu_{NSe}(\dot{e})/NS_e, \mu_{ZEe}(\dot{e})/ZE_e, \mu_{PSe}(\dot{e})/PS_e, \\ \mu_{PMe}(\dot{e})/PM_e, \mu_{PBe}(\dot{e})/PB_e \end{matrix}\right]$$

e_2 ="*boshqarish*"

$$\rho_{\max}(t) = \rho_n[1 + B_{00}p_{\max}(t)] \tag{13}$$

Hisoblashlarda qabul qilingan asosiy parametrlar va natijalar quyidagi jadvallarda keltirildi.

1-jadval


Hisoblashlarda qabul qilingan parametrlar

Ko‘rsatkich	Belgi	Qiymat	Birlik
Boshlang‘ich hajmiy zichlik	ρ_n	80	kg/m³
G‘aram balandligi	H_0	8,0	m
Boshlang‘ich qatlam qalinligi	h_0	1,0	m
Kesim maydoni	S	0,25	m²
Kontakt konturi	L	1,2	m
Yon bosim koeffitsiyenti	k	0,5	–
Ishqalanish koeffitsiyenti	f	0,3	–
Freza kirish tezligi	v_c	0,15	m/s
Massaviy ish unumdorligi	Q_0	7400	kg/soat
Normallashtirilgan siqiluvchanlik	ε_0	0,325	–
Boshlang‘ich quyi bosim	p_{oo}	2250	Pa

2-jadval


Qatlam chegaralari, maksimal bosim va zichlikning hisobiy qiymatlari

t, s	x_u, m	x_l, m	ℓ, m	p_{max}, Pa	ρ_{max}, kg/m³
0.00	8.000	7.000	1.000	2250.0	106.0
1.33	7.863	6.800	1.063	2463.8	108.5
2.66	7.727	6.601	1.126	2689.2	111.1
4.00	7.589	6.400	1.189	2928.4	113.8
5.33	7.452	6.200	1.252	3178.7	116.7




2-rasm. Qatlamning yuqori va quyi chegaralari koordinatalarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi

2-rasmdan ko‘rinadiki, 5,33 s vaqt ichida yuqori chegara 8,000 m dan 7,452 m gacha, quyi chegara esa 7,000 m dan 6,201 m gacha siljiydi. Natijada qatlam qalinligi 1,000 m dan 1,252 m gacha, ya’ni 25,2 % ga ortadi. Bu natija frezaning qatlamga kirib borish tezligi paxtaning yuqori chegara bo‘yicha uzatilish tezligidan 45,9 % katta ekanligi bilan izohlanadi.



3-rasm. Vaqtning turli qiymatlarida qatlam balandligi bo‘yicha bosimning o‘zgarishi

3-rasmda bosim yuqori erkin chegarada nolga teng bo‘lib, quyi chegaraga tomon eksponensial qonuniyat bo‘yicha ortishi ko‘rsatilgan. Qatlam qalinligi ortishi hisobiga quyi chegaradagi bosim t=0 da 2250 Pa dan t=5,33 s da 3178,7 Pa gacha, ya’ni 41,3 % ga oshadi. Bosimning koordinata bo‘yicha monoton kamayishi (10) yechimning fizik jihatdan to‘g‘ri ishorada olinganini tasdiqlaydi; dastlabki (5) ifodadagi ishora esa qatlam ichida manfiy bosim hosil qilishi mumkin edi.



4-rasm. Vaqtning turli qiymatlarida qatlam balandligi bo‘yicha hajmiy zichlikning o‘zgarishi

4-rasmga ko‘ra hajmiy zichlik ham bosim bilan birga quyi chegara tomon ortadi. Maksimal zichlik 106,0 kg/m³ dan 116,7 kg/m³ gacha ko‘tariladi. Bu qiymatlar boshlang‘ich 80 kg/m³ zichlikka nisbatan yuqori bo‘lsa-da, paxta qatlamining texnologik jihatdan mumkin bo‘lgan zichlanish oralig‘ida qoladi.

Xulosa. Paxta g‘aramidan xomashyoni freza yordamida ajratib olish jarayoni harakatlanuvchi yuqori va quyi chegaralarga ega qatlam sifatida ifodalandi. Qatlam uchun tuzilgan kinematik, harakat miqdori va massa saqlanish tenglamalari bosim hamda hajmiy zichlikning vaqt va koordinata bo‘yicha o‘zgarishini o‘zaro bog‘liq holda aniqlash imkonini berdi.

Q_0=7400 kg/soat massaviy ish unumdorligi, S=0,25 m² kesim maydoni va ρ_n=80 kg/m³ boshlang‘ich hajmiy zichlikda yuqori erkin chegaraning hisobiy siljish tezligi u_0=0,10278 m/s ni

tashkil etdi. Frezaning qatlamga kirib borish tezligi v_c=0,15 m/s bo‘lgani sababli quyi chegara yuqori chegaraga nisbatan tezroq siljiydi va ajratilayotgan qatlam qalinligi ortib boradi.

Hisoblash natijalariga ko‘ra 5,33 s davomida qatlam qalinligi 1,000 m dan 1,252 m gacha, ya’ni 25,2 % ga oshdi. Shu vaqt oralig‘ida quyi chegaradagi maksimal bosim 2250 Pa dan 3178,7 Pa gacha ko‘tarilib, o‘sish 41,3 % ni tashkil etdi. Maksimal hajmiy zichlik esa 106,0 kg/m³ dan 116,7 kg/m³ gacha ortdi.

Inertsiya tuzatish koeffitsiyentining birdan atigi 0,0122 % ga farq qilishi ko‘rib chiqilgan ish rejimida bosim tenglamasini doimiy koeffitsiyentli muhandislik ko‘rinishiga keltirish mumkinligini ko‘rsatdi. Bosimning yuqori erkin chegarada nolga teng bo‘lishi va quyi chegaraga tomon eksponensial ortishi yechimning fizik mazmunga ega ekanligini tasdiqladi.

Taklif etilgan nazariy model g‘aramdan paxtani ajratish jarayonida qatlamning notekis zichlanishini oldindan baholash, freza tezligi va ish unumdorligini o‘zaro moslashtirish hamda texnologik oqimga barqaror xomashyo uzatish rejimlarini asoslashda qo‘llanishi mumkin. Model parametrlarini ishlab chiqarish sharoitidagi tajribalar bilan aniqlashtirish uning amaliy aniqligi va turli g‘aram o‘lchamlariga moslashuvchanligini oshiradi.

References

1. Kong F., Wu T., Chen C., Sun Y., Xie Q., Shi L. Mechanical properties and construction of constitutive model for compression and stress relaxation of seed cotton. Transactions of the Chinese Society of Agricultural Engineering, 2021, 37(7), 53–60. DOI: 10.11975/j.issn.1002-6819.2021.07.007.
2. Wang J., Zhang H., Wang L., Wei X., Wang M., Gu Y., Cai Y. Experimental Study and Simulation of the Stress Relaxation Characteristics of Machine-Harvested Seed Cotton. Applied Sciences, 2021, 11(21), 9959. DOI: 10.3390/app11219959.
3. Fu X., Wei X., Wang M., Zhang H., Wang L., Wang J., Zheng Y. Compression Molding Characteristics of Seed Cotton and Damage from Cottonseed Crushing. Agriculture, 2024, 14(1), 92. DOI: 10.3390/agriculture14010092.
4. Wei X., Wang M., Zhang H., Wang L., Du X., Chen L., Zhi S. Effect of Cyclic Loading Treatment on the Compression Energy and Creep Properties of Machine-Harvested Seed Cotton. Agriculture, 2024, 14(2), 239. DOI: 10.3390/agriculture14020239.
5. Wei X., Zhang H., Wang J., Li S., Wang L., Du X. Experimental Study and Simulation on the Creep Characteristics of Machine-Harvested Seed Cotton. International Journal of Agricultural and Biological Engineering, 2024, 17(1), 241–250. DOI: 10.25165/j.ijabe.20241701.7705.
6. Li Y., Zhao Y., Zhou M., Tian X., Yin D., Qiao H., Wang W. Research on Axial Load Transfer Law of Machine-Picked Seed Cotton and Discrete Element Simulation. AgriEngineering, 2026, 8(1), 7. DOI: 10.3390/agriengineering8010007.
7. Zheng Y., Wang M., Du X., Zhang H., Wang L., Wei X., Fu X., Wang J. Compressive mechanical properties of cottonseed. Frontiers in Materials, 2023, 10, 1322301. DOI: 10.3389/fmats.2023.1322301.
8. Womac A.R., Byers E.E., Thomas K.G., Hillenbrand B., Smith A., Bitra V.S.P. Modeling Cotton Module Builder and Loader to Enhance Biomass Testing. Applied Engineering in Agriculture, 2021, 37(5), 911–928. DOI: 10.13031/aea.14414.
9. Ruzmetov, M., Ruzmetov, R., Gapparova, M., & Tuychiev, T. (2022, May). Research of Changes in Process Parameters of Raw Cotton During Storage. In *International Scientific Conference on Agricultural Machinery Industry "Interagromash""* (pp. 2075-2083). Cham: Springer International Publishing.
10. Funk P.A., Wanjura J.D. Seed Cotton Unloading Systems. Journal of Cotton Science, 2017, 21(1), 51–59. DOI: 10.56454/ZJJG4144.

11. Wang T., Hardin R.G. IV, Ward J.K., Wanjura J.D., Barnes E.M. A smart cotton module tracking and monitoring system for handling logistics and cover damage. Computers and Electronics in Agriculture, 2021, 193, 106620. DOI: 10.1016/j.compag.2021.106620.
12. Delhom C.D., van der Sluijs M.H.J., Wanjura J.D., Thomas J.W. Evaluation of Practices to Unwrap Round Cotton Modules. Journal of Cotton Science, 2023, 27(2), 90–101. DOI: 10.56454/IPOU8527.
13. Armijo C.B., Whitelock D.P., Funk P.A., Thomas J.W. Evaluating Alternative Seed-Cotton Reclaimers for High-Speed Roller Ginning. Applied Engineering in Agriculture, 2020, 36(3), 245–256. DOI: 10.13031/aea.13704.
14. Ashley H., Thomas J., Holt G.A., Valco T.D. Cottonseed Air-Handling and Storage Requirements. Journal of Cotton Science, 2018, 22(1), 47–59. DOI: 10.56454/FZZP5205.
15. Pelletier M.G., Byler R.K. Moisture Measurement. Journal of Cotton Science, 2020, 24(3), 121–130. DOI: 10.56454/TIGG3482.

UDK: 621.021.152.001.572

CHIGITDAN MOMIQ AJRATUVCHI TEXNIKA VA TEXNOLOGIYALAR TAHLILI

J.Y.Shoymatov, B.E.Qarshiyev, K.Y.Abdullayev, SH.Y.Abdullayev
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya:*Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida va yog‘-moy korxonalarida chigitdan momiq ajratuvchi texnika va texnologiyalar tahlili, chigitdan momiq ajratish jarayoni, dolzarbligi, hozirgi kundagi ahamiyati, bugungi kunda momiq olish texnologik jarayonnini takomillashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar, qayta ishlanadigan chigitli paxtaning seleksion va sanoat naviga qarab chigitlarda jinlashdan keyingi tukdorligi, linterning ishlash prinsipi, knematik sxemasi, texnologik jarayon ketma-ketligi, linterning ishlash jarayoni va ushbu jarayonlar bilan bog‘liq muammolar, kamchiliklar, avzalliklar to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Bundan tashqari jinlash jarayonidan keyin chigitda lint (momiq) va delint (kalta momiq) nomi bilan yuritiladigan tolalar qatlami qolishi. Qayta ishlanadigan chigitli paxtaning seleksion va sanoat naviga qarab chigitlarda jinlashdan keyin har xil miqdorda o‘rta tolali paxta chigitlarida 11-17 % ingichka tolali paxta chigitlarida esa 2,4-5 % gacha momiq va kalta momiq qolishi. O‘zbekiston paxta tozalash sanoatida (PDI70-2017) muvofiqlashtirilgan texnologiyaga asosan chigitdan momiq ajratish korxonalarning o‘zida amalga oshirilishi. Xorijiy davlatlarda esa tolasi ajratilgan chigitdan momiq ajratish paxta tozalash korxonasidan tashqarida alohida amalga oshirilishi, linterning rivojlanish tarixi, bosqichlari va linterlarning ko‘ndalang qirqim sxemalari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *Linter, paxta, momiq, tola, chigit, ifloslik, namlik.*

Аннотация: *В данной стате представлен анализ техники и технологий отделения линта от семян на хлопкоочистителных предприятиях и масложировых предприятиях, процесс отделения линта от семян, актуальность, современное значение, проводимые на сегодняшний день научные исследования по совершенствованию технологического процесса получения линта, волокнистость семян после джинирования в зависимости от селекционного и промышленного сорта перерабатываемого хлопка-сырца, принцип работы линтера, кинематическая схема, последовательность технологического процесса, процесс работы линтера и связанные с этими процессами проблемы, недостатки, преимущества. Кроме того, после процесса джинирования в семенах остается слой волокон, называемый линтом и делинтом. В зависимости от селекционного и промышленного сорта перерабатываемого хлопка-сырца в семенах после джинирования остается различное количество пуха и короткого пуха в средневолокнистых хлопковых семенах 11-17% и в тонковолокнистых хлопковых семенах 2,4-5%. В хлопкоочистительной*

промышленности Узбекистана (ПДИ70-2017) отделение линта от семян хлопчатника по согласованной технологии осуществляется на предприятиях. В зарубежных странах отделение волокна от семян хлопчатника осуществляется отдельно вне хлопкоочистительного завода, приведены сведения об истории развития линтера, этапах и схемах поперечного сечения линтеров.

Ключевые слова: *Линтер, хлопок, линт, волокно, семена, грязь, влага.*

Annotation: *This article analyzes the techniques and technologies for separating lint from seeds in cotton ginning and oil and fat enterprises, the lint separation process from seeds, the relevance, modern significance of scientific research conducted to date on improving the technological process of lint production, seed fiberiness after ginning depending on the selection and industrial grade of processed raw cotton, the working principle of the linter, the kinematic scheme, the sequence of the technological process, the working process of the linter, and related problems, disadvantages, and advantages. In addition, after the ginning process, a layer of fibers called lint and lint remains in the seeds. Depending on the breeding and industrial grade of the processed raw cotton, different amounts of down and short down remain in the seeds after ginning in medium-staple cotton seeds of 11-17% and in fine-staple cotton seeds of 2.4-5%. In the cotton ginning industry of Uzbekistan (PDI70-2017) separation of lint from cotton seeds according to the agreed technology is carried out at enterprises. In foreign countries, fiber separation from cotton seeds is carried out separately outside the cotton ginning plant, and information on the history of linter development, stages, and cross-sectional schemes of linters has been provided.*

Key words: *Linter, cotton, lint, fiber, seeds, dirt, moisture.*

Kirish. Jaxonda paxtani dastlabki ishlash texnika, texnologiyasi va ularning ilmiy asoslarini takomillashtirish bo‘yicha keng miqyosda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, mashinada terilgan paxtani dastlabki ishlash samarali texnologiyasini ishlab chiqish, paxta chigitini tolasi ajratilgandan keyin qayta ishlashning ilmiy ko‘rsatkichlarini aniqlash, tolasi ajratilgan chigitdan momiq ajratishda qatnashuvchi ishchi qismlari ko‘rsatkichlarini aniqlash va ularni muqobillashtirish zarurdir. Hozirgi paytda momiq mahsulotiga dunyo ishlab chiqarishida katta ehtiyoj bo‘lganligi sababli, paxtani dastlabki ishlash jarayonida momiq olinishiga sarflanayotgan energiya xarajatlarini tejash hisobiga momiqning tannarxini kamaytirishga va uning sifatini oshirishga katta e’tibor berilishi kerakligini ko‘rsatmoqda. Lekin, bugungi kunda momiq olish texnologik jarayonnini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarda yangi yo‘nalishlar asosida linter mashinasi texnologiyasini o‘zgartirishning samarali yechimi topilmagan.

Asosiy qism: Paxta tozalash sanoati rivojlanishining boshlang‘ich davrlarida momiqga xo‘jalik uchun foydalanilmaydigan mahsulot deb qaralgani uchun paxta tozalash korxonalarida momiq ajratish amalga oshirilmagan. Chigitlardan momiq ajratish paxta moyi ishlab chiqariladigan korxonalarda chigitdan moy chiqarishni kamaytirmaslik uchun chigitlarni ikki yoki uch marta bosqichda tashkil qilingan. Paxtani dastlabki ishlash texnologiyasi rivojlanishi natijasida 1869 yilda birinchi linter mashinaga patent berilgan.

O‘rta Osiyoda birinchi linter sifatida “Karver” firmasining (AQSh) 106 arrali linter mashinasi qo‘llanilgan. Jinlash jarayonidan keyin chigitda lint (momiq) va delint (kalta momiq) nomi bilan yuritiladigan tolalar qatlami qoladi. Qayta ishlanadigan chigitli paxtaning seleksion va sanoat naviga qarab chigitlarda jinlashdan keyin har xil miqdorda o‘rta tolali paxta chigitlarida 11-17 % ingichka tolali paxta chigitlarida esa 2,4-5 % gacha momiq va kalta momiq qoladi. O‘zbekiston paxta tozalash sanoatida muvofiqlashtirilgan texnologiyaga asosan chigitdan momiq ajratish korxonalarning o‘zida amalga oshiriladi. Xorijiy davlatlarda esa tolasi ajratilgan chigitdan momiq ajratish paxta tozalash korxonasidan tashqarida alohida amalga oshiriladi.


Chigitdan momiq ajratish texnologik ish jarayoni quyidagicha olib boriladi (1-rasm). Arrali jinlardan so‘ng chigit elevator orqali linterlarga tarqatiladi. Momiq ajratish qatori 8-12 ta linterdan iborat. Ular ikki qatorda to‘rttadan, beshtadan yoki oltitadan o‘rnatiladi. Har bir linter qatoridan olingan momiq kondensorga yuboriladi, keyin momiq tozalagichda tozalanadi va toylanadi.

Linter mashinalari asosiy ishchi qismining konstruksiyasi va momiqni chigitdan ajratish texnologik


jarayoni jihatidan arrali jinlarga o‘xshaydi. Linterlarda ham jindagidek oldi fartuk, chigit tarog‘i, kolosnikli panjara va ishchi kamera bor. Shu kamerada chigitlardan arrali silindr va kolosnikli panjara yordamida momiq ajratiladi. Arra tishi yuzasidagi momiqni ajratish uchun, cho‘tkali baraban yoki havo oqimida ishlaydigan moslamadan foydalaniladi. Ishchi kameraga chigitlarni yetkazish uchun undagi chigit valigining zichligiga qarab chigit miqdorini ko‘paytiradigan yoki kamaytiradigan mexanizmlari bo‘lgan maxsus ta’minlagich o‘rnatilgan.

Respublikamizda yaratilgan birinchi linter XLO rusumli bo‘lib, bu linterlar paxta tozalash va moy chiqarish korxonalariga o‘rnatilgan. Izlanishlar natijasida keyingi linter XLF rusumli linter yaratilgan. Bu linter takomillashtirilib, 160 arrali PO-60, keyinchalik esa POM-160 markali linterlar paxta tozalash korxonalarida qo‘llanila boshlangan. Undan keyin chigit va momiq bo‘yicha ish unumdorligi yuqori bo‘lgan PMP-160 rusumli linter yaratilgan. Bu linterda ish kamerasi yuqorida ta’riflangan linterlarning ish kameralaridan farq qilib, chigit kirish qismi kengaytirilgan va diametri 130 mm to‘zitgich o‘rnatilgan. Uning aylanish soni 500 ayl/daqiqa gacha oshirilgan, hamda ikki barabanli ta’minlagich-tozalagich o‘rnatilgan.

Xitoy halq respublikasida ishlab chiqarilgan MR 160-11C rusumli arrali linterida (2-rasm) arrali silindr aylanishlar sonini 1500 ayl/daqiqa ga yetkazilib, ularning chigit o‘tkazish bo‘yicha ish unumdorligi oshirilgan. Lekin bu holatda olinayotgan momiq sifati pasayganligi aniqlangan.



1-rasm. Chigitdan momiq ajratish texnologik jarayon sxemasi



1-ta’minlash tizimi, 2-tarnov, 3-magnit qoplama, 4-ishchi kamera, 5-to‘zitgich, 6-fartuk, 7-chigit tarog‘i, 8-arrali silindr, 9-kolosnikli panjar, 10-ulyuk shnegi, 11-momiq kanali.


2-rasm. MR160-11C rusumli linterning sxemasi

1981 yilda 5LP rusumli linter yaratilgan (3-rasm). Bu linter hozirgi kunga qadar paxta tozalash korxonalarida ishlatilib kelinmoqda.

Bu linterda momiq ajratish jarayoni qo‘yidagicha bajariladi. Chigitlar linterning ish kamerasiga mashinaning uzunligi bo‘yicha ta’minlagich novidan bir tekisda tushadi. Ta’minlovchi baraban plankasi orqali hosil qilingan markazdan qochma kuch yordamida mayda iflosliklar to‘rli yuza 13 orqali ajralib chiqadi. Shnek 12 orqali ajratilgan iflosliklar qobiqning boshiga tashilib, undan pnevmotransport yordamida so‘rib olinadi. Ish kamerasida 6 aylanayotgan arrali silindr 10 va to‘zitg‘ich 7 ta’sirida chigitlar zichlangan aylanuvchi valik hosil qiladi. Arrali silindr 10 arralari aylanib turgan chigit valigiga kirib borib, chigit sirtidagi momiqlarni qirib olib, ularni kolosnik panjarasidan tashqariga chiqaradi. Havo moslamasi yuqorigi soplosidan puflanayotgan havo oqimi arra tishlaridagi momiqni ajratib, quvur bo‘ylab batareya kondenseriga yetkazib beradi. Chigitlar momig‘i ma’lum darajada olingandan keyin, ular aylanayotgan valikdan ajralib, kolosnik ustiga tushadi, so‘ngra pastga sirpanib, taroq va kolosniklar orasidan o‘tib, yig‘ish konveyeriga tushadi va navbatdagi ishlov berish mashinalariga yuboriladi. Momiqni arra tishlardan ajratish vaqtida ajralgan o‘lyuk va mayda iflosliklar konveyer orqali mashinadan tashqariga chiqariladi.

5LP rusumli linterining ishchi kamerasi murakkab bo‘lgan qismlardan tashkil topgan. Bu uskunaning chigit bo‘yicha ish unumdorligi pastligi korxonada sarf xarajatlar oshishiga sabab bo‘lmoqda. Shu sababli, ishchi qismlari va texnologik jarayoni takomillashgan linter uskunasini yaratish bo‘yicha olib boriladigan tadqiqotlar juda dolzarbdir.

5LP-rusumli momiq ajratgichning birinchi texnologik kamchiligi shundan iboratki, chigit tarog‘i va kolosnik orasidagi tirqish kamayganda chigitli valikning zichligi ortadi, bu momiq ajratish miqdorini qo‘paytirgan holda linterning chigit o‘tkazish bo‘yicha ish unumdorligini kamaytiradi. Ushbu tirqish kengayishi bilan, aksincha, chigitdan momiqni ajratib olish ko‘rsatkichi kamayadi va momiq ajratgichning chigit bo‘yicha o‘tkazish qobiliyati ortadi. Ushbu ko‘rsatkichlar orasidagi muqobil o‘zaro munosabatni saqlash juda qiyin.



1-ta’minlash valiklari, 2- tekislovchi-tozalovchi baraban, 3- tarnov, 4- magnit qoplama, 5-zichlik klapani, 6-ishchi kamera, 7-to‘zitgich, 8- chigit tarog‘i, 9-kolosnikli panjara, 10-arrali silindr, 11-havo kamerasi, 12-shnek, 13- to‘rli yuza, 14-rostlovchi yuk.

3-rasm. 5LP rusumli linterining sxemasi

Ishchi kamerada momiq ajratish jarayoni kechishi uchun chigitli valikning tashqi qatlami zich bog‘langan strukturaga ega bo‘lishi va harakatlanishda barqaror bo‘lishi kerak, chigit valigi kameraning yuqori qismidan o‘tishida buzilib ketmaslik holatini hosil qilish uchun zichlantirish klapini qo‘llaniladi. Chigitlarni ishchi kameraga bir tekisda uzatish uchun ikkita yulduzcha, IVA

variator, ikkita yelka, zanjir va zichlantirish klapinidan iborat bo‘lgan murakkab mexanik tizim qo‘llalinganligi ham momiq ajratgich konstruksiyasini murakkablashtiradi.

Momiq ajratgich mashinasining ish unumdorligi umumiy holatda chigitlar ishchi kamerada bo‘lgan vaqtga, arralarning va chigitlarniing kontaktda bo‘lish soniga proporsional. Chigitning arralar orasida bo‘lish holatidan tashqari, ajratilgan chigitni arra tishlari bilan kontaktda bo‘lish ehtimoli arralar orasidagi masofa kattaligiga bog‘liq bo‘ladi. Arralar orasidagi masofa kamayishi bilan, chigitning arra tishi bilan ta’sir ehtimoli ortadi. 5LP momiq ajratgich mashinasining uchinchi kamchiligi shundan iboratki, arralar orasidagi masofani kamaytirishning iloji yo‘q, chunki oraliq masofa kamayishi bilan ishchi kameradagi chigitlar arrali disk o‘rtasidagi oraliqdan chiqa olmaydi, faqatgina chigit tarog‘i va arra o‘rtasidagi tirqishdan chiqib ketadi, bu o‘z navbatida momiq ajratgichning ish unumdorligini kamaytiradi.

MR160-11C linterida texnologik jarayon 5LP linteridan farq qilmaydi. Faqat, arra tishidan momiqni ajratish, so‘rib olish usulida bajariladi. Bu holat 5LP linterlari uchun o‘rganilmagan. Bu usulni o‘rganish va uning ratsional texnologik ko‘rsatkichlarini aniqlash ilmiy izlanishning bir yo‘nalishidir. Ayrim chet el linterlarida arra tishi yuzasidan momiqni ajratib olish, aylanish tezligi arrali silindr aylanish tezligiga nisbatan bir necha barobar katta cho‘tkali-ajratuvchi barabanlarda bajariladi. Lekin cho‘tkalardan foydalanish qo‘shimcha harajatlarni keltirib chiqaradi. Linterlash jarayonida chigitlardagi tukdorlik miqdorining kamligidan chigit valigi arra ta’sirida aylana olmaganligi sababli, arrali silindr aylanishiga teskari aylanadigan to‘zitgich o‘rnatilgan.

To‘zitqich konstruksiyasida valga uning uzunligi bo‘yicha to‘rtta metall planka o‘rnatiladi. Bu plankalarning balandligi bir xil bo‘lib uzunligi ish kamerasining yon devorlariga yetmaydigan bo‘lishi kerak.

To‘zitg‘ich linter kamerasiga o‘rnatilganda plankalar bilan arra tishlari orasi 9-12 mm tirqish bilan o‘rnatiladi. Bu tirqish ishlanayotgan chigitning sanoat naviga qarab o‘zgartiriladi.

Linter ishchi kamera va uning ishchi qismlarini takomillashtirish bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar Sorkin N.B. va Vasilev S.P. tomonidan amalga oshirilgan. Ular tomonidan XLO linteri to‘zitqich diametrini 120 mm gacha yetkazish taklif bergan bo‘lsa, Levkovich B.A. o‘zining tadqiqotlarida to‘rt lopastli to‘zitqich ishlatilishi samarali ekanligini aniqlagan, linterni takomillashtirish bo‘yicha Ivanov S.P. olib borgan ilmiy izlanishilarda oldingi fartuk va arrali silindrni turli xil holatlarida to‘zitqichning diametrini 115, 130, 140 va 150 mm bo‘lgandagi holati o‘rganilgan.

Ivanov S.P. tomonidan chigitdan olinadigan momiq miqdori arra yuzasining tolali chigitlar bilan to‘qnashish miqdoriga hamda arralar orasidagi masofa va chigit tarog‘i holatiga bog‘liqligi ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, Bekmuxammedov A.D. tomonidan parraklar sonining 4 tadan 12 tagacha bo‘lishida uning shakllarining ta’siri o‘rganilgan. Izlanuvchi tomonidan to‘zitqichdagi parraklar soni 4 tadan 8 tagacha bo‘lganda linterning ish unumdorligi oshishi kuzatilgan, lekin parraklar soni yanada oshirilganda mashinaning ish unumdorligi kamayishiga olib kelgan.

Hozirgi kunda linterlarda R.Sh.Sulaymonov tomonidan taklif qilingan qiya diskli to‘zitgichlar o‘rnatilgan. Bu to‘zitgichning samaradorligi, chigit kamerasida hosil bo‘luvchi chigit valigi o‘zgaruvchanligini ta’minlashidadir.

Xulosa: Momiq ajratish jarayoni samaradorligini oshirish bo‘yicha shu kunga qadar qilingan ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarishdagi muammolar tahlili, momiq ajratish jarayonining takomillashgan texnologiyasini yaratish hamda bu texnologiyaning linter ish unumdorligiga, momiq sifat ko‘rsatkichlariga ta’sirini o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi.

Reference

1. Paxtani dastlabki ishlash muvofiqlashtirilgan texnologiyasi (PDI 70-2017) Paxtasanoatilm AJ Toshkent 2017. 91 b
2. F.B.Omonov umumiy taxriri ostida “Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik” Toshkent “Voris nashriyot”, 2008 y

3. Paxtani dastlabki ishlash muvofiqlashtirilgan texnologiyasi “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi “Paxtatozalash IIChb” OAJ, Toshkent. 2017 y.
4. Ochilov M.M, Xakimov Sh.Sh. Paxta chigitidan momiq ajratish muammolari. To‘qimachilik muammolari jurnali. Toshkent 2018 y. №2. 20 b.
5. Ochilov M.M., Xakimov Sh.Sh. Modernized linter machine// International Journal of Advenced Research in Science, Engineering and Technology. 2019. 11. 11665-11671 b.
6. Parpievich P. A. et al. ANALYSIS OF THE RESULTS OF THE INITIAL OPERATION OF COTTON WITH HIGH MOISTURE IN COTTON CLEANING PLANTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – S. 1026-1029.
7. Ochilov M.M., Xakimov SH.SH. Mashina dlya otdeleniya linta ot djinrovannix semyan. Moskva 2018 g. Jurnal UNIVERSUM: texnicheskiye nauki. S 16-18.
8. Parpievich P. A. et al. ANALYSIS OF MOISTURE AT DIFFERENT POINTS OF COTTON IN THE GARMENT DURING THE STORAGE PROCESS OF HIGH-HUMIDITY COTTON //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 3. – S. 83-86.
9. Parpiev A. P. i dr. Namligi yuqori paxtani saqlash jarayonida g‘armdagi paxtaning turli nuqtalaridagi ifloslikning notekisligi taxlili //Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 162-164.
10. Yusup o'g'li A. S. et al. SELECTION OF TECHNOLOGY AND EQUIPMENT FOR THE PREPARATION OF COTTON STORAGE AT HIGH MOISTURE //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 4.
11. Abdullaev K. Y. i dr. Xorijiy davlatlarda paxta saqlash tajribasi taxlili //scientific approach to the modern education system. – 2023. – T. 2. – №. 15. – S. 133-135.
12. Parpiev A.P. Raxmatov G‘. “Paxtani tozalashga ta’sir etuvchi omillar tahlili” TTESI. FarDU Respublika ilmiy-amaliy anjumani 1-shuba Toshkent (2019)
13. Davlat standarti O‘zDSt – 662: 2016. “Paxta momig‘i. Iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushini aniqlash usullari” O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, Toshkent, 2016 y. 6 b.
14. Ochilov M.M., Xakimov SH.SH., Tursunov X.K.. Texnologicheskiye parametri mashini dlya otdeleniya linta ot djinirovanix semyan// Universum: Texnicheskiye nauki, Nauchniy jurnal. Aprel, Moskva 2019 g. 20-22 s.
15. Ochilov M.M., Xakimov Sh.Sh. Paxta chigitidan momiq ajrativchi takomillashgan texnologiyali mashina. To‘qimachilik muammolari jurnali. Toshkent 2018 y. №3. 20-24 b.

UDK 677.21:631.362.3

HAVO OQIMIDAN PAXTA XOMASHYOSINI SAMARALI AJRATIB OLUVCHI SEPARATORLAR TURLARI VA ULARNING TAHLILI

B.F.Choriyev, Sh.Y.Abdullayev
Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya:*Ushbu maqolada paxta tozalash korxonalarida va boshqa sanoat korxonalarida ishlatilib kelayotgan separatorlar, havo bilan tashib kelinayotgan paxtalarni havosidan ajratib keyingi jarayonga o‘tkazib berishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Separatorlardan foydalanganda omillarni hisobga olish juda muhimdir, chunki har bir separator turli xususiyatlarga ega ekanligi va turli ishlov berish sharoitlariga moslashtirilganligi, separatorlarning ishlash samaradorligini aniqlashda ularning dizayni, foydalanilayotgan*

materialning fizik va kimyoviy xususiyatlari, hamda ajratish jarayonining o‘ziga xos talablari hisobga olinishi, shu sababli, separatorlarning turlari va ularning ishlash prinsiplari texnologik jarayonlarni optimallashtirishda katta rol o‘ynashi, to‘g‘ri separator tanlash turli aralashmalarni samarali ajratib olish va shu orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimal boshqarish imkonini berishi, separatorlar zamonaviy sanoat tarmoqlarida, shu jumladan, neft-gaz, kimyo, kon, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida keng qo‘llanilishi to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan. Paxta tozalash jarayonida separatorlar muhim texnik vositalar sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi paxtani turli xil aralashmalardan ajratib olish va yuqori sifatli toza paxta tolasi olishdan iboratligi, separatorlar birinchi navbatda paxta ichidagi aralashmalarni barglar, somon, toshlar, chang va boshqa begona buyumlarni paxta tolasi va urug‘idan samarali ajratib olishda yordam beradishi, pnevmatik separatorlar esa paxta va boshqa aralashmalarni ajratishda havo oqimidan foydalanishi, havo oqimi yordamida yengil va og‘ir moddalar bir-biridan ajratiladi, bu esa toza paxta olish jarayonini yanada samarali amalga oshirishi keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *Separator, paxta, tola, chigit, ifloslik, namlik.*

Аннотация: *В данной статье представлена информация о сепараторах, применяемых на хлопкоочистительных и других промышленных предприятиях. Описан принцип их работы, заключающийся в отделении транспортируемого воздушным потоком хлопка-сырца и его передаче на следующий этап технологического процесса. При использовании сепараторов крайне важно учитывать различные факторы, поскольку каждый тип сепаратора обладает уникальными характеристиками и адаптирован к определённым условиям обработки. При определении эффективности работы сепараторов принимаются во внимание их конструкция, физико-химические свойства используемого материала, а также специфические требования процесса разделения. В связи с этим, знание видов сепараторов и принципов их работы играет большую роль в оптимизации технологических процессов. Правильный выбор сепаратора позволяет эффективно разделять различные смеси и таким образом, оптимально управлять производственными процессами. В тексте приведены сведения о том, что сепараторы широко применяются в современных отраслях промышленности, включая нефтегазовую, химическую, горнодобывающую, пищевую и сельскохозяйственную. В процессе очистки хлопка сепараторы служат важным техническим средством. Основной целью данного процесса является отделение хлопка от различных примесей и получение высококачественного чистого хлопкового волокна. Было отмечено, что сепараторы, в первую очередь, помогают эффективно отделять примеси, такие как листья, солома, камни, пыль и другие посторонние предметы, от хлопкового волокна и семян. В свою очередь, пневматические сепараторы используют воздушный поток для разделения хлопка и примесей. С помощью воздушного потока легкие и тяжелые частицы отделяются друг от друга, что делает процесс получения чистого хлопка еще более эффективным.*

Ключевые слова: *Сепаратор, хлопок-сырец, волокно, семена хлопчатника, сорность, влажность.*

Annotation: *This article provides information about separators used at cotton gins and other industrial facilities. It describes their principle of operation, which involves separating raw cotton transported by an air stream and transferring it to the next stage of the production process. When using separators, it is crucial to consider various factors, as each type of separator has unique characteristics and is adapted to specific processing conditions. When determining the effectiveness of separators, their design, the physical and chemical properties of the material used, and the specific requirements of the separation process are taken into account. In this regard, knowledge of separator types and their operating principles plays a significant role in optimizing technological processes. The correct choice of a separator allows for the efficient separation of various mixtures and, thus, the optimal management of production processes. The text provides*

information that separators are widely used in modern industrial sectors, including oil and gas, chemical, mining, food, and agricultural industries. In the process of cotton cleaning, separators serve as an important technical tool. The main purpose of this process is to separate cotton from various impurities and obtain high-quality pure cotton fiber. It was noted that separators, first of all, help to effectively separate impurities such as leaves, straw, stones, dust, and other foreign objects from cotton fiber and seeds. In turn, pneumatic separators use air flow to separate cotton and impurities. With the help of air flow, light and heavy particles are separated from each other, which makes the process of obtaining clean cotton even more efficient.

Key words: *Separator, raw cotton, fiber, cottonseed, trash content, moisture content.*

Kirish. Jahonda atrof-muhitni ekologik toza saqlash va korxonalardan havoga chiqindilarni chiqishini bartaraf etish hamda xomashyolarni qayta ishlash sohasida chiqindisiz texnologiyalarni yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxtaga dastlabki ishlov berishda va tozalashda atrof muhitga chiqayotgan chang havoni tozalash, ekologik standartlarga moslashtirish, tozalash mashinalarning texnika texnologiyalarini yangilash, tozalash jarayonida chiqadigan iflosliklarni atrof-muhitga tarqalishini oldini olish, paxta tolasiga ishlov berish jarayonida dastlabki sifat ko‘rsatkichlarini saqlash bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Shu bilan birga paxtani havodan ajratish jarayonida paxta tolasini hamda paxta chigitini mexanik shikastlanishini oldini olish, paxtani havodan ajratib olish jarayonlarini takomillashtirish, yangi resurs tejamkor texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda. Bugungi kunda Xitoy, AQSh, Brazilya, Hindiston, O‘zbekiston, Pokiston hamda Meksika asosiy paxta etishtiruvchi mamlakatlar hisoblanadi. Bu borada, jumladan paxta tozalash korxonalarini yangi texnika va texnologiyalar bilan qayta jihozlash, paxtani havodan ajratish jarayonida paxta oqimini teng taqsimlovchi texnologiyani yaratish uning tabiiy xususiyatini saqlashga, ayniqsa paxta chigitini mexanik lat eyishi darajasini pasaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Asosiy qism: Separatorlar sanoatda ajratish jarayonlarini amalga oshirish uchun keng qo‘llaniladigan qurilmalardir. Separatorlar turli xil moddalarni ajratib olishda ishlatiladi, bu esa ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtiradi va mahsulot sifatini oshiradi.

Separatorlar, asosan, quyidagi turlarga bo‘linadi:

-Siklon separatorlar: Bu separatorlar gaz oqimidan qattiq zarrachalarni ajratib olishda foydalaniladi. Siklon separatorlarda gaz oqimi aylanma harakat qiladi va markazdan qochma kuch tufayli og‘ir zarrachalar separator devorlariga yaqinlashib, pastga tushiriladi. Siklon separatorlar 5 mikrometrgacha bo‘lgan zarrachalarni samarali ushlanganida qo‘llaniladi.

-Gravitatsion separatorlar: Ushbu separatorlar aralashmalarning komponentlarini ularning zichligi farqiga qarab ajratib olishda ishlatiladi. Moddalar ajralishi gravitatsiyaga bo‘ysunuvchi kuch tufayli sodir bo‘ladi. Ushbu separatorlar, masalan, neft va suv aralashmalarini ajratishda ishlatilishi mumkin.

-Tsentrifugal separatorlar: Tsentrifugal separatorlar markazdan qochma kuch yordamida aralashmalarni ajratishga mo‘ljallangan. Bu separatorlar yuqori tezlikda aylanib, aralashmadagi komponentlarni zichligi va boshqa fizik xususiyatlari bo‘yicha ajratadi. Ular quyqalarni ajratishda, krem va sutni ajratishda keng qo‘llaniladi.

-Ekran separatorlar: Bu turdagi separatorlar turli o‘lchamdagi zarrachalarni ajratishda qo‘llaniladi. Ekran separatorlarda material, o‘lchami har xil bo‘lgan teshiklar orqali elanishi natijasida ajratiladi. Ular mineral boyitishda va qishloq xo‘jaligida donlarni ajratishda ishlatiladi.

-Magnetik separatorlar: Ushbu separatorlar magnit xususiyatlarga ega bo‘lgan moddalarni ajratishda qo‘llaniladi. Foydali qazilmalarni boyitishda, masalan, temir rudalarini ajratish uchun ishlatiladi. Magnetik separatorlarda magnit maydon yordamida zarrachalar ajratiladi.

-Flotatsion separatorlar: Bu separatorlar suyuqlik ichida havo pufakchalari hosil qilinib, ma’lum zarrachalar ustida joylashishiga imkon berib, ular suv yuzasiga suzuradi va shu tarzda ajratiladi. Flotatsion separatorlar mineral boyitishda juda keng qo‘llaniladi.

-Qaytarib oqizuvchi separatorlar: Bu turga gaz-suyuqlik separatsiyasi uchun maxsus ishlab chiqilgan separatorlar kiradi. Suyuqlik ustidagi gaz qismi ajratilib olinadi. Gaz va suyuqlik tezlikka va zichlikka ko‘ra ajratiladi.

-Elektrostatik separatorlar: Ushbu separatorlar quruq qattiq moddalarni ularning elektrostatik zaryadiga asoslanib ajratadi. Elektrostatik separatorlar qishloq xo‘jaligida va qayta ishlash sanoatida qo‘llaniladi, masalan, urug‘larni ajratishda.


Separatorlardan foydalanganda omillarni hisobga olish juda muhimdir, chunki har bir separator turli xususiyatlarga ega va turli ishlov berish sharoitlariga moslashtirilgan. Separatorlarning ishlash samaradorligini aniqlashda ularning dizayni, foydalanilayotgan materialning fizik va kimyoviy xususiyatlari, hamda ajratish jarayonining o‘ziga xos talablari hisobga olinadi. Shu sababli, separatorlarning turlari va ularning ishlash prinsiplari texnologik jarayonlarni optimallashtirishda katta rol o‘ynaydi. To‘g‘ri separator tanlash turli aralashmalarni samarali ajratib olish va shu orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimal boshqarish imkonini beradi. Separatorlar zamonaviy sanoat tarmoqlarida, shu jumladan, neft-gaz, kimyo, kon, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladi.

Paxta tozalash jarayonida separatorlar muhim texnik vositalar sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi paxtani turli xil aralashmalardan ajratib olish va yuqori sifatli toza paxta tolasi olishdan iborat. Separatorlar birinchi navbatda paxta ichidagi aralashmalarni: barglar, somon, toshlar, chang va boshqa begona buyumlarni paxta tolasi va urug'idan samarali ajratib olishda yordam beradi. Pnevmatik separatorlar esa paxta va boshqa aralashmalarni ajratishda havo oqimidan foydalanadi. Havo oqimi yordamida yengil va og‘ir moddalar bir-biridan ajratiladi, bu esa toza paxta olish jarayonini yanada samarali amalga oshiradi.

Xozirgi vaqtda paxta tozalash korxonalarida chigitli paxtani omborlardan ishlab chiqarishga va bo‘limlararo tashishning asosiy turlaridan biri pnevatik tashish usuli hisoblanadi.

Pnevmotashish sistemasini ishlatish va ta’mirlash oson, ishonchli hamda tashish jarayonida xomashyo yo‘qolishi ro‘y bermaydi.

Pnevmotashish tizimi (1-rasm) paxta bo‘yicha 10-12 t/soat ish unumiga ega bo‘lib, diametri 400 mm, uzunligi 200-250 m quvurlar, paxtani havodan ajratuvchi separator СС-15А yoki СХ, ventilatorlar ВЦ-8М, ВЦ-10М, ВЦ-12М, Ц6-35-9 ва Ц7-25-12,8 havo tozalovchi siklonlardan iborat. Bunda paxta havodan ajraladi va vakuum-klapan yordamida lentali konveyerga uzatilib, talab etilgan erga ko‘chiriladi. Natijada uni tarkibida separator asosiy qurilma bo‘lib, paxta havodan ajratib olinib, texnologik mashinalarga uzatiladi. Separatorlarning o‘rtacha ish unumdorligi 15 t/soatga teng. Mashina terimining keng qo‘llanilishi va etishtirilayotgan paxta xomashyosini tez fursatlarda yig‘ib-terib olinishi paxta tozalash sanoatining oldiga ishlab chiqarish quvvatini, uskunalarning ish unumdorligini oshishiga va shu bilan birga, tayyor mahsulot sifatini yaxshilash talabini qo‘ymoqda. Ushbu masalalarni echish paxtani tashuvchi pnevmotransportining ishlashiga ham ko‘p tomonlama bog‘liq, chunki u paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonida birinchi va asosiy bo‘lib hisoblanadi.



1-rasm. Paxtani bo‘limlar va texnologik jarayonlar o‘rtasida tashishning texnologik jarayon sxemasi

Paxtani tashish jarayonida paxta bilan qo‘shilib kelayotgan paxtani havodan ajratib keyingi jarayonga o‘tkazib berishda asosiy vazifani CC-15A separatorlari bajarsada, lekin bir qancha salbiy tasirlari ham bor. Jumladan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, paxtaning tabiiy xususiyatlariga salbiy ta’sir etuvchi asosiy omillardan biri bu tarmoqda o‘rnatilgan separatorlar ekanligini ko‘rishimiz mumkun. Bunda paxtaning separatorning barcha bo‘g‘inlarida harakati alohida ravishda o‘rganilishi kerak.

Hanuzgacha separatorlarni takomillashtirish bosqichida to‘rli yuza bilan paxta orasida bog‘lanish maksimal ravishda saqlanib kelayotganligi uning tabiiy xususiyatlarini salbiy tomonga oshishiga olib kelmoqda.

Hozirgi paytda, paxta zavodlari samaradorligini oshirish bilan birga, xodimlar uchun xavfsiz va sharoit yaratilgan muhitda faoliyat yuritadigan texnologiyalarni tanlamoqdalar. Umuman olganda, paxta tozalashda separatorlarning roli nafaqat ishlab chiqarish miqdorini oshirish, balki sifatni global bozorga mos darajada teng tutishga yordam beradi.

O‘zbekistonda paxta tozalash zavodlari uchun separatorlarning ishonchliligi va ish samaradorligini oshirish maqsadida zamonaviy texnologiyalar taklif qilinmoqda.

Siklon separatorlar: Siklon separatorlar havo yoki gazlardan qattiq zarrachalarni ajratish uchun ishlatiladi. Ular siklonli oqim hosil qilib, gaz va qattiq moddalarni ajratish uchun foydalaniladi. Odatda, ular changni tozalash tizimlarida qo‘llaniladi va gaz oqimini aylantirish orqali zarrachalarni ajratadi. Siklon separatorlarning samaradorligi ko‘p jihatdan oqim tezligiga va zarrachalarning o‘lchamiga bog‘liq. Sanoat separatorlarining ishlash parametrlari va samaradorligi ularning turiga, konstruksiyasiga va ishlash sharoitlariga qarab o‘zgaradi. Har bir separator turi ma’lum bir jarayon uchun optimallashtirilgan va bir nechta parametrlar asosida tanlanadi. Bu parametrlar ichida samaradorlik darajasi, energiya sarfi, o‘lchamlar, texnik xizmat ko‘rsatish ehtiyojlari va o‘rnatish qulayligi kabi omillar bor. Separatorlarning to‘g‘ri tanlovi va ishlatilishi sanoat jarayonlarining samaradorligini oshiradi va operatsion xarajatlarni kamaytiradi.

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkunki hozirgi paytda, paxta zavodlari samaradorligini oshirish bilan birga, xodimlar uchun xavfsiz va sharoit yaratilgan muhitda faoliyat yuritadigan texnologiyalarni tanlash, umuman olganda, paxta tozalashda separatorlarning roli nafaqat ishlab chiqarish miqdorini oshirish, balki sifatni global bozorga mos darajada teng tutishga yordam berish bilan bir qatorda, paxtani havo oqimidan ajratib olish jarayonida uni qatlamlarini titilish asosida tolani uzilishi hamda chigitni mexanik shikastlanishi ro‘y bermoqda. Ushbu jarayonni nazariy tomondan chuqur o‘rganish zarurati mavjud.

Paxtani havodan ajratish jarayonida qo‘llaniladigan separatorlarni texnologik jarayonini takomillashtirish maqsadida o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlarning tahlili bu borada bir qator ilmiy hamda amaliy ishlarni amalga oshirish zarur ekanligini ko‘rsatmoqda.

Reference

1 . Paxtani dastlabki ishlash muvofiqlashtirilgan texnologiyasi (PDI 70-2017) Paxtasanoatilm AJ Toshkent 2017. 91 b

2. F.B.Omonov umumiy taxriri ostida “Paxtani dastlabki ishlash bo‘yicha spravochnik” Toshkent “Voris nashriyot”, 2008 y

3. Paxtani dastlabki ishlash muvofiqlashtirilgan texnologiyasi “O‘zpaxtasanoat” uyushmasi “Paxtatozalash IIChb” OAJ, Toshkent. 2017 y.

4. Ochilov M.M, Xakimov Sh.Sh. Paxta chigitidan momiq ajratish muammolari. To‘qimachilik muammolari jurnali. Toshkent 2018 y. №2. 20 b.

5. Ochilov M.M., Xakimov Sh.Sh. Modernized linter machine// International Journal of Advenced Research in Science, Engineering and Technology. 2019. 11. 11665-11671 b.

6. Parpievich P. A. et al. ANALYSIS OF THE RESULTS OF THE INITIAL OPERATION OF COTTON WITH HIGH MOISTURE IN COTTON CLEANING PLANTS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 11. – S. 1026-1029.
7. Ochilov M.M., Xakimov SH.SH. Mashina dlya otdeleniya linta ot djinrovannix semyan. Moskva 2018 g. Jurnal UNIVERSUM: texnicheskiye nauki. S 16-18.
8. Parpievich P. A. et al. ANALYSIS OF MOISTURE AT DIFFERENT POINTS OF COTTON IN THE GARMENT DURING THE STORAGE PROCESS OF HIGH-HUMIDITY COTTON //Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 3. – S. 83-86.
9. Parpiev A. P. i dr. Namligi yuqori paxtani saqlash jarayonida g‘armdagi paxtaning turli nuqtalaridagi ifloslikning notekisligi taxlili //Novosti obrazovaniya: issledovanie v XXI veke. – 2022. – T. 1. – №. 5. – S. 162-164.
10. Yusup o'g'li A. S. et al. SELECTION OF TECHNOLOGY AND EQUIPMENT FOR THE PREPARATION OF COTTON STORAGE AT HIGH MOISTURE //International journal of advanced research in education, technology and management. – 2023. – T. 2. – №. 4.
11. Abdullaev K. Y. i dr. Xorijiy davlatlarda paxta saqlash tajribasi taxlili //scientific approach to the modern education system. – 2023. – T. 2. – №. 15. – S. 133-135.
12. Parpiev A.P. Raxmatov G‘. “Paxtani tozalashga ta’sir etuvchi omillar tahlili” TTESI. FarDU Respublika ilmiy-amaliy anjumani 1-shuba Toshkent (2019)
13. Davlat standarti O‘zDSt – 662: 2016. “Paxta momig‘i. Iflos aralashmalar va butun chigitlarning massaviy ulushini aniqlash usullari” O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi, Toshkent, 2016 y. 6 b.
14. Ochilov M.M., Xakimov SH.SH., Tursunov X.K.. Texnologicheskiye parametri mashini dlya otdeleniya linta ot djinirovanix semyan// Universum: Texnicheskiye nauki, Nauchniy jurnal. Aprel, Moskva 2019 g. 20-22 s.
15. Ochilov M.M., Xakimov Sh.Sh. Paxta chigitidan momiq ajrativchi takomillashgan texnologiyali mashina. To‘qimachilik muammolari jurnali. Toshkent 2018 y. №3. 20-24 b.

UO‘K 677.021.16.002.68.001.36

QOZIQCHALI-PLANKALI BARABAN, PAXTA VA TO‘RLI YUZA O‘ZARO TA’SIRLASHUVINI TAHLILI

I.B Mardonov[1], A.P Parpiyev[2], X.A Gatayev [1], I.R.Shamsiyev[1], K.E.Shernazarov[2].
[1]Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti, [2]Jizzax politexnika institute

Annotatsiya: *Mazkur maqolada paxtani mayda iflosliklardan tozalash jarayonida qoziqchali baraban, paxta bo‘lakchasi va to‘rli yuza o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda paxta bo‘lakchasining geometrik o‘lchamlari, massasi hamda qoziqchali barabanning kinematik parametrlarining tozalash samaradorligiga ta’siri o‘rganildi. Paxta bo‘lakchasiga ta’sir etuvchi kuchlar asosida harakatning differensial tenglamasi tuzildi va paxta bo‘lakchasining tezligi hamda normal bosim kuchi orasidagi bog‘lanishlar aniqlandi. Shuningdek, qamrash burchagi, ishqalanish koeffitsiyenti va qoziqchaning chiziqiy tezligi iflosliklarni ajratish jarayoniga ta’sir etuvchi asosiy omillar ekanligi asoslandi. Maple dasturi yordamida olingan grafik tahlillar paxta bo‘lakchasi massasi ortishi bilan normal bosim kuchi ham ortishini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari qoziqchali baraban parametrlarini maqbul tanlash*

orqali paxtani tozalash samaradorligini oshirish va tolalarning mexanik shikastlanishini kamaytirish imkoni mavjudligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *paxta bo‘lakchasi, qoziqchali baraban, to‘rli yuza, normal bosim kuchi, mayda ifloslik, qamrash burchagi, harakat tezligi.*

Аннотация: *В данной статье проведён теоретический анализ процессов взаимодействия колкового барабана, хлопковых комков и сетчатой поверхности при очистке хлопка от мелких примесей. В исследовании изучено влияние геометрических размеров и массы хлопкового комка, а также кинематических параметров колкового барабана на эффективность очистки. На основе сил, действующих на хлопковый комок, составлено дифференциальное уравнение движения и определены зависимости между скоростью хлопкового комка и силой нормального давления. Кроме того, установлено, что угол охвата, коэффициент трения и линейная скорость колков являются основными факторами, влияющими на процесс отделения примесей. Графический анализ, выполненный с помощью программы Maple, показал, что с увеличением массы хлопкового комка возрастает и сила нормального давления. Результаты исследования показывают, что оптимальный выбор параметров колкового барабана позволяет повысить эффективность очистки хлопка и снизить механические повреждения волокон.*

Ключевые слова: *хлопковое сырьё, очиститель, колковые и пильчатые барабаны, отделяющий барабан, съёмная щётка, направляющий барабан.*

Annotation: *This article presents a theoretical analysis of the interaction processes between a peg drum, cotton clumps, and a mesh surface during the cleaning of cotton from fine impurities. The study examines the influence of the geometric dimensions and mass of the cotton clump, as well as the kinematic parameters of the peg drum on cleaning efficiency.Based on the forces acting on the cotton clump, a differential equation of motion is derived, and the relationships between the velocity of the cotton clump and the normal pressure force are determined. In addition, it is established that the angle of wrap, the coefficient of friction, and the linear speed of the pegs are the main factors influencing the impurity separation process.Graphical analysis performed using the Maple software showed that as the mass of the cotton clump increases, the normal pressure force also increases. The research results indicate that the optimal selection of peg drum parameters can improve cotton cleaning efficiency and reduce mechanical damage to fibers.*

Keywords: *raw cotton material, cleaner, peg and saw drums, separating drum, stripping brush, guiding drum.*

Kirish. Hozirgi vaqtda O‘zbekiston Respublikasi paxta tozalash zavodlarida paxta xom ashyosini tozalash uchun to‘rt arrachali va sakkizta qoziqchali bo‘limdan iborat bo‘lgan UXK markali tozalash liniyalaridan foydalanilmoqda. Har bir qoziqchali bo‘limda to‘rttadan qoziqchali barabanlar o‘rnatilgan.

O‘tkazilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarda [1. 25-29 b; 2. 81-85 b; 3. 89-95 b;] tozalagichning asosiy ishchi organlarining geometrik, kinematik va texnologik parametrlari o‘rganilgan. Ayrim ishlar [4. 65-69 b; 5. 45-49 b;] da esa paxta xom ashyosining tozalash obyekti sifatidagi xususiyatlari o‘rganilgan va bu omillarning tozalagich samaradorligiga ta’siri tahlil qilinib, tegishli tavsiyalar berilgan. Xozirgi kunda mashinada terilayotgan paxtaning hajmi ortgani sari UXK tozalash liniyasining samaradorligi “Oliy” va “Yaxshi” toifali tolalarni olish uchun yetarli bo‘lmay qolmoqda.

3.Компрессионный трикотаж – причины использования хлопка и каучука при изготовлении компрессионного трикотажа / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://compressionworld.ru/articles/i/13

4. Об искусственных и природных материалах в изделиях компрессионного трикотажа – мнение потребителей / [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://compressionworld.ru/news/i/166

5.Bruniaux P, et al. Modeling the mechanics of a medical compression stocking through its components behavior: Part 1 – modeling at the yarn scale // Textile Research Journal - 2012. - 82(18) P. 1833-1845

6.Maklewska E, Nawrocki A, Ledwoń J, Kowalski K. Modelling and Designing of Knitted Products Used in Compressive Therapy // Fibers & Textiles in Eastern Europe - 2006. - 14(5), 111-113.
7. Ханхаджаева, Н. Р. Исследование антиварикозных чулочно-носочных изделий для компрессионной терапии / Н. Р. Ханхаджаева, Ф. М. Рискалиева, Н. М. Азимова // Прогрессивные технологии и оборудование: текстиль, одежда, обувь : материалы докладов Международного научно-практического симпозиума, Витебск, 3 ноября 2020 г. / УО "ВГТУ". - Витебск, 2020. - С. 119-122.
8. Ханхаджаева Н.Р. Качественные характеристики компрессионных чулочно-носочных изделий / Н.Р. Ханхаджаева, Ф.М. Комолидинова // Сборник научных трудов Всероссийского круглого стола с международным участием Технический текстиль – основа научно-технического развития России. – М.: РГУ им. А. Н. Косыгина, 2023
9. Абдурахимова М.М. Комплексная оценка качества компрессионных изделий / М.М.Абдурахимова, М.К. Кулметов // Сборник научных трудов Всероссийского круглого стола с международным участием Технический текстиль – основа научно-технического развития России. – М.: РГУ им. А. Н. Косыгина, 2023
10.Г.Г.Азгальдов, А.В.Костин, В.В.Садовов. Квалиметрия: первоначальные свойства. Справочное пособие с примером для АНО «Агентство стратегических инициатив по продвижению новых проектов»: Учебное пособие – М.: Высш.шк., 2010. – 143с.
11.Граб В.П. Особенности применения экспертных методов при оценивании качества прикладных программных средств и систем автоматизации информационно-методического обеспечения образовательного процесса и управления образовательным учреждением // Научно-методический журнал «Информатизация образования и науки» №2 (6), Москва, ФГУИТТ «Информика», 2010 г., стр.167-176.
12.В.К.Федюкин. Основы квалиметрии. Управление качеством продукции. Учебное пособие. М.: Информационно-издательский дом «Филинъ», 2004.
13. Технологии определения показателей качества [Электронный ресурс] / URL: https://studme.org/365572/sotsiologiya/tehnologii_opredeleniya_pokazateley_kachestva.
14. Номенклатура показателейкачества – дерево свойств [Электронный ресурс] / URL: https://studwood.net/1832306/tovarovedenie/nomenklatura_pokazateley_kachestva_derevo_svoystv
15. Yermatov R., Mirzaxmedov A., Khankhadjaeva N. Research of physical-mechanical properties of compression stockings. 58-я Международная научно-техническая конференция преподавателей и студентов, посвященная 60-летию УО «ВГТУ» г. Витебск, «Витебский государственный технологический университет» 16-17 апреля 2025 года 55-60-р.

UDK 677.025

KOSMETOLOGIK XIRURGIYA NIQOBLARI TURLARI VA TEXNOLOGIYASI

N.F.Muxtorova, R.B.Yermatov, N.R.Xanxadjaeva
Tashkent Institute of Textile and Light Industry Tashkent, Uzbekistan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kosmetologiya sohasida qo‘llaniladigan trikotaj niqoblarning konstruktiv va texnologik xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning maqsadi kosmetologik muolajalar samaradorligini oshirish, foydalanish qulayligini ta’minlash hamda mahsulotning gigiyenik xossalarini yaxshilash uchun turli to‘qima rapportlari asosida trikotaj niqob namunalarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jarayonida bir necha xil trikotaj to‘qima variantlari loyihalashtirilib, ular asosida niqob namunalari tayyorlandi. Namunalar Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti (TTYSI) laboratoriyasida sinovdan o‘tkazildi.*

Eksperimental tadqiqotlar davomida trikotaj niqoblarning asosiy texnologik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlari, jumladan, xomashyo sarfi, yuza zichligi hamda havo o‘tkazuvchanlik xossalari aniqlandi. Olingan natijalar turli to‘qima rapportlarining mahsulot xususiyatlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Ayrim to‘qimalar yuqori havo o‘tkazuvchanlikni ta’minlagan bo‘lsa, boshqalari material sarfini kamaytirish va mahsulotning shakl barqarorligini oshirish imkonini berdi. Tadqiqot natijalari asosida kosmetologik maqsadlar uchun yuqori gigiyenik va iste’mol xossalariga ega bo‘lgan trikotaj niqoblarning optimal konstruksiyasi tavsiya etildi. Mazkur ishlanma kosmetologiya va tibbiy-texnik trikotaj mahsulotlarini yaratishda amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: *trikotaj niqob, kosmetologiya, to‘qima rapporti, havo o‘tkazuvchanlik, xomashyo sarfi, gigiyenik xossalar, trikotaj mahsulotlari.*

Аннотация. *В данной статье исследованы конструктивные и технологические особенности трикотажных масок, предназначенных для применения в косметологии. Целью исследования является разработка новых вариантов трикотажных масок на основе различных раппортов переплетений, обеспечивающих повышение эффективности косметологических процедур, комфортность использования и улучшение гигиенических свойств изделий. В ходе работы были спроектированы и изготовлены несколько образцов трикотажных масок с различной структурой переплетений.*

Экспериментальные исследования проводились в лабораторных условиях Ташкентского института текстильной и лёгкой промышленности (ТИТЛП). Для разработанных образцов были определены основные технологические и эксплуатационные показатели, включая расход сырья, поверхностную плотность и воздухопроницаемость. Полученные результаты показали, что структура трикотажного переплетения оказывает существенное влияние на свойства изделий. Установлено, что отдельные виды переплетений обеспечивают более высокую воздухопроницаемость, способствуя улучшению воздухообмена и комфортности при использовании, тогда как другие позволяют снизить расход сырья и повысить формоустойчивость изделия. На основании проведённых исследований рекомендованы наиболее рациональные варианты структуры трикотажных масок для косметологического назначения. Результаты работы могут быть использованы при разработке новых видов косметологических и медицинских трикотажных изделий.

Ключевые слова: *трикотажная маска, косметология, трикотажное переплетение, раппорт переплетения, воздухопроницаемость, расход сырья, гигиенические свойства, трикотажные изделия.*

Abstract. *This article investigates the structural and technological characteristics of knitted masks designed for cosmetology applications. The main objective of the study is to develop new variants of knitted cosmetic masks based on different knit structures to enhance the effectiveness of cosmetic procedures, improve user comfort, and optimize hygienic performance. Several knitted mask samples with various loop structures and pattern repeats were designed and produced for experimental evaluation.*

Laboratory tests were conducted at the Tashkent Institute of Textile and Light Industry (TITLI) to determine the key technological and functional properties of the developed samples. The investigated parameters included raw material consumption, surface density, and air permeability. The experimental results demonstrated that the knitted structure significantly influences the performance characteristics of the masks. Certain knit patterns provided higher air permeability, improving ventilation and comfort during use, while others reduced material consumption and enhanced dimensional stability. The findings allowed the identification of the most suitable knitted structures for cosmetology purposes. The proposed designs combine functional efficiency, comfort, and economical material utilization. The results of this study can be applied in the development of innovative cosmetic and medical knitted products with improved hygienic and operational properties.

Keywords: *knitted mask, cosmetology, knitted structure, knit pattern repeat, air permeability, material consumption, hygienic properties, knitted products.*

Kirish. Jahonda hozirgi kunda kosmetologik jarrohlik amaliyoti global miqyosda sezilarli darajada o‘sib bormoqda. 2023 yilgi ISAPS Global Survey ma’lumotlariga ko‘ra [1], estetik va kosmetologik operatsiyalar soni o‘tgan yillarga nisbatan 11 % ga oshgan. Xususan, yuz plastikasi, liposaksiya va blefaroplastika kabi aralashuvlardan so‘ng maxsus kompression bog‘lamlar va niqoblar bemor reabilitatsiyasida keng qo‘llaniladi. Jahonda global kompression kiyim bozorining hajmi 2023 yilda taxminan 2.5 mlrd dollarni tashkil etib, 2030 yilga kelib 4.1 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda [2], bu tibbiy va kosmetik segmentlarda mahsulot talabining tez o‘sishini ko‘rsatadi. Kompression mahsulotlarni qo‘llash reabilitatsiya jarayonida shishlarning kamayishiga 60–70 % samaradorlik bilan yordam beradi, shuningdek, reabilitatsiya muddatini o‘rtacha 3–5 kunga qisqartiradi. Biroq amaliyotda keng tarqalgan sintetik iplardan ishlab chiqarilgan kompression bandajlar terining nafas oluvchanligi pastligi, bosimning notekis taqsimlanishi va yuqori namlik xavfi kabi muammolarga duch kelmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, sintetik iplar bilan solishtirganda paxta ipi qo‘shilgan mahsulotlar namlikni 30–40 % yuqori singdiradi, teri sog‘lig‘i va gigiyenik xossalarni yaxshilaydi. Respublikada ham kosmetologik xirurgiya xizmatlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda, xususan, yuz sohasida bajariladigan jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng kompression bandajlardan foydalanish amaliyoti kengaymoqda. Biroq Respublikamizda kosmetologik xirurgiya uchun mo‘ljallangan maxsus kompression bandajlar asosan import hisobiga ta’minlanmoqda. O‘zbekistondada to‘qimachilik sanoatining rivojlanishi natijasida yassi ignadonli trikotaj mashinalarida elastik mahsulotlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida paxta ipi qo‘shilgan trikotaj materiallarning gigiyenik xossalarini yaxshilash bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. O‘zbekistonda ham ushbu soha bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini ikki barobar oshirish, eksport salohiyatini kengaytirish, tayyor mahsulot ulushini 70 foizga yetkazish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish belgilangan [3]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining paxta-to‘qimachilik klasterlarini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik hamda tikuv-trikotaj sanoatini chuqur isloh qilish [4], ishlab chiqarish samaradorligini va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan 2023–2024 yillarda qabul qilingan qator farmonlari sohada investitsion muhitni yaxshilash, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda mahalliy to‘qimachilik mahsulotlarining tashqi bozorlarga chiqishini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning izchil amalga oshirilishi to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqishga qaratilgan bo‘lib, respublikada mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash hamda yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda [5,6].

Material va muammolar: Mazkur islohotlar doirasida kosmetologik xirurgiya uchun mo‘ljallangan kompression mahsulotlarni mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, kompression mahsulotlarning texnologik jihatdan takomillashtirilishi, ularning gigiyenik va biomekanik xossalarini yaxshilash dolzarb ilmiy-texnik vazifa bo‘lib qolmoqda. Ushbu dissertatsiyada choksiz to‘qish texnologiyasi asosida, paxta ipi bilan kombinatsiyalangan kompression bandajlar ishlab chiqarish taklif etilib, respublikada to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash hamda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarga muayyan darajada ilmiy-amaliy hissa qo‘shishga yo‘naltirilgan. Kosmetologik xirurgiya sohasida jarrohlik aralashuvlaridan keyingi reabilitatsiya jarayoni bemorlarning holatini tez tiklash, asoratlarni kamaytirish va jarrohlik natijalarini barqarorlashtirishga qaratiladi. Bu jarayonning muhim komponentlaridan biri kompression terapiya bo‘lib, u ham jarrohlik, ham estetika amaliyotlarida

keng qo‘llanilmoqda. Kompression bandajlar yoki bosimli kiyimlar limfa va qon aylanishini yaxshilash, shishlarni kamaytirish va yuz terisini ravon ushlab turish kabi bir qator fiziologik ta’sirlarni amalga oshiradi, bu esa postoperatsion reabilitatsiyaga sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kompression terapiya kontseptsiyasi asosan uzoq vaqt davomida to‘qimalarga nazoratli bosim berish orqali ishlaydi. Bunday bosim limfa drenajida ortiqcha suyuqlik to‘planishining oldini oladi va shishning kamayishiga yordam beradi. Bundan tashqari, kompression bandajlar qon oqimini barqarorlashtiradi va jarrohlikdan so‘ng paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan gematoma va seroma kabi asoratlar xavfini kamaytirishga xizmat qiladi. Kompression bandajlar jarrohlik amaliyotlarida, xususan, konservativ tibbiy terapiyada ham, kosmetologik va plastik jarrohlikda ham qo‘llaniladi. Plastik jarrohligi sohasida yuz ko‘tarish (facelift), liposaksiya, blefaroplastika va bo‘yin konturi o‘zgartirish kabi aralashuvlardan keyingi davrda kompression mahsulotlar bemorning postoperatsion profilaktikasi sifatida keng tarqalgan. Ushbu aralashuvlar teri va yumshoq to‘qimalarni keskin o‘zgartirish bilan kechadi, bu esa suyuqlikning to‘planishiga, shish va og‘riqqa olib kelishi mumkin. Kompression bandajlar bu noxush hodisalarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi [7]. Kompression bandajlarning asosiy vazifalarini quyidagicha tasniflash mumkin:
1)Shishlarni kamaytirish: Nazoratli bosim to‘qimalarda ortiqcha suyuqlik to‘planishini cheklaydi va limfa oqimini tezlashtiradi. Bu jarrohlikdan keyingi shishning kamayishiga yordam beradi, shuningdek bemorning vizual qulayligini oshiradi. 2)Qon aylanishini yaxshilash: Kompression bosim tromboflebit va boshqa qon aylanishi bilan bog‘liq asoratlarni oldini olishga xizmat qiladi hamda jarrohlikdan keyingi kontur barqarorligini ta’minlaydi. 3)Shaklni ushlash: Maxsus trikotaj konstruktsiyasi jarohat olingan sohani stabil ushlab turadi, to‘qimalarning noto‘g‘ri joylashishidan saqlaydi va konturning shakllanishini qo‘llab-quvvatlaydi. 4)Og‘riqni kamaytirish: Bandajlar zarur fizik bosimni ta’minlab, og‘riq retseptorlarini tinchlantiradi va bemorning umumiy qulayligini oshiradi. 5)Asoratlarni kamaytirish: Kompression terapiya seroma, gematoma va keloid izlar kabi noxush asoratlarni oldini olishda qo‘llaniladi. Zamonaviy adabiyotlarda kompression bandajlarning samaradorligi haqida turli tadqiqotlar mavjud. Ormseth va hamkasblar olib borgan klinik sharhda postoperatsion kompression bandajlar suyuqlik to‘planishining kamayishini, limfaning yaxshilanishini va kontur barqarorligini oshirishini ko‘rsatgan. Ushbu tadqiqotda sug‘urta qilingan klinik ma’lumotlar asosida kompression bandajlar estetik jarrohlikdan keyingi 24–72 soat ichida shish miqdorini sezilarli darajada kamaytirganligi qayd etilgan. Shuningdek, Arkoubi va boshqalar olib borgan eksperimental tadqiqotda kompression bandajlar liposaksiya va yuz bilan bog‘liq shishlarni kamaytirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatganligi, og‘riq sezilarli kamayganligi va bemorlarning qoniqish darajasi oshganligi qayd etilgan. Biroq, adabiy manbalarda kompression terapiya samaradorligiga oid izlanishlar hali ham mukammal tizimlashtirilmaganligi qayd etilgan. Ba’zi tadqiqotlar turli kompression konstruksiyalarining farqlari, ulardan foydalanish muddatlari, bosim darajalari va bemorlarning individual ehtiyojlari kabi omillar kompression mahsulotlarning natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ko‘rsatgan [8]. Shuning uchun kompression bandajlar ishlab chiqarish va qo‘llash texnologiyalarini yanada takomillashtirish, turli jarrohlik holatlari uchun mos konstruksiyalar va elastiklik darajalari bo‘yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda. Kosmetologik mahsulotlar bozorida yuz konturini shakllantirish va teri elastikligini yaxshilash maqsadida turli turlardagi kompression maska-bandajlar ishlab chiqarilmoqda. Dastlabki mahsulotlar tor konstruktsiyaga ega bo‘lib, faqat pastki jag‘ (iyak) sohasini qamrab oluvchi bir martalik maska-bandajlar shaklida taqdim etilgan. Bunday bandajlar terining osilib qolgan joylariga bosim tushurish orqali mikrotsirkulyatsiyani yaxshilashga xizmat qilishi mumkin [9]. Keyinchalik bozorda ko‘proq funksional va keng qamrovli yuz bandajlari paydo bo‘ldi. Bu turlar ichida bir necha asosiy guruhlarni ajratish mumkin. Kosmetologik xirurgiya uchun mo‘ljallangan kompression bandajlarning samaradorligi ularning to‘g‘ri tanlangan o‘lchamiga bevosita bog‘liq. O‘lcham mos kelmagan hollarda bandaj tomonidan hosil qilinadigan bosim noto‘g‘ri taqsimlanadi, bu esa mahsulotning funksional ta’sirini kamaytirishi yoki aksincha, haddan tashqari bosim natijasida noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin [10].

Yuz uchun kompression bandajlar turlari va ularning funksional xususiyatlari:



Bir martalik to‘qimalar asosidagi maska-bandajlar - ularda odatda maxsus kosmetik preparatlar bilan propitka mavjud bo‘lib, ular terini namlantirish, oziqlantirish, chiziqlarni yengillatish va konturini yaxshilash uchun mo‘ljallangan.



Ko‘p martalik to‘qimalar (yuviladigan) bandajlar — bu turdagi mahsulotlar elastik materialdan tayyorlanadi va foydalanish davomida elastiklikni yo‘qotmaguncha yana-yana ishlatiladi.



Keng qamrovli yuz bandajlari — yuzning pastki jag‘i bilan birga yana bo‘yin, yonoqlar va qimmatli kontur sohalarini qamrab oladi. Ular uch qatlamli tuzilishga ega bo‘lib, har bir qatlamning o‘zi mikrotsirkulyatsiya, bosim taqsimoti va kontur modellash funksiyasiga xizmat qiladi

Kosmetologik xirurgiya uchun mo‘ljallangan kompression bandajlarning funksional samaradorligi ularni tayyorlashda qo‘llaniladigan materiallar va iplarning xossalariga bevosita bog‘liq. Kompression mahsulotlar zarur bosimni ta’minlashi, shaklini saqlashi va takroriy cho‘zilish-siqilish sikllariga bardosh berishi lozim bo‘lib, teri bilan bevosita aloqada bo‘lgani sababli qulaylik talablari ham muhim hisoblanadi [11]. Shu bois amaliyotda kompression bandajlar asosan elastik iplar (elastan, spandeks) hamda ularni mustahkamlovchi poliamid yoki poliester iplari kombinatsiyasi asosida ishlab chiqariladi [12]. Elastik iplar mahsulotga zarur darajadagi cho‘ziluvchanlik va tiklanish (recovery) xossasini beradi. Adabiyotlarda elastan asosidagi iplarning yuqori elastiklik moduli va deformatsiyaga nisbatan barqarorligi qayd etilgan. Biroq sof sintetik iplar asosida tayyorlangan trikotajlarda namlikni yutish va havo o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari cheklangan bo‘lib, bu uzoq muddatli foydalanishda noqulaylik keltirib chiqarishi mumkin [13,14]. Poliamid va poliester iplari mahsulotning mexanik mustahkamligini, ishqalanishga chidamliligini va shakl barqarorligini oshiradi. Biroq gigiyenik ko‘rsatkichlar (namlikni yutish, mikroiqlimni saqlash) tabiiy iplarga nisbatan pastroq bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi. Shu sababli so‘nggi yillarda kompression mahsulotlarda sintetik va tabiiy iplardan tashkil topgan aralash tuzilmalar qo‘llanilishi kengaymoqda. Paxta ipi qo‘shilgan kompozitsion tuzilmalar kompression bandajlarning foydalanish qulayligini oshirishga xizmat qiladi. Paxta ipining namlikni yutish qobiliyati va teriga qulayligi mahsulot ostidagi mikroiqlimni yaxshilaydi. Tadqiqotlarda paxta ishtirokidagi trikotaj materiallarda namlikni boshqarish ko‘rsatkichlari sintetik materiallarga nisbatan yuqoriroq ekani ko‘rsatilgan. Biroq paxta ipining elastiklik darajasi past bo‘lgani sababli u odatda elastik iplar bilan kombinatsiyada qo‘llaniladi va ip tarkibidagi nisbatlar texnologik jihatdan optimal tanlanishi zarur. Kompression bandajlar uchun ip tanlashda quyidagi omillar muhim: zarur kompression darajani ta’minlaydigan elastiklik, takroriy yuklamalarda shaklni tiklash qobiliyati, eskirishga chidamlilik hamda yassi ignadonli mashinalarda choksiz to‘qishga moslik. Ilmiy manbalarda mahsulotning kompression xossalari ip tarkibi va to‘qima tuzilishiga sezilarli darajada bog‘liqligi qayd etilib, elastan ulushi oshishi bilan kompression ta’sir kuchayishi, biroq qulaylik omillari muvozanatda saqlanishi lozimligi ko‘rsatiladi [15]. Kosmetologik xirurgiya uchun mo‘ljallangan kompression bandajlarni ishlab chiqarishda turli texnologik yondashuvlar qo‘llaniladi. Amaliyotda keng tarqalgan usullarga chokli konstruksiyalar asosida tayyorlanadigan bandajlar hamda trikotaj mahsulotlaridan choksiz

to‘qish texnologiyasi asosida olinadigan bandajlar kiradi. Har bir texnologiyaning mahsulotning kompression xossalariga, konstruktiv tuzilishiga va foydalanish qulayligiga ta’siri turlicha bo‘lib, bu omillarni solishtirma tahlil qilish ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi [16].

An’anaviy chokli bandajlar to‘qima yoki trikotaj matolardan kesib tikish yo‘li bilan olinadi. Bunday texnologiya ishlab chiqarish jihatidan nisbatan oddiy bo‘lsa-da, choklar mavjudligi mahsulotda lokal qattiqlik zonalarining hosil bo‘lishiga olib keladi. Natijada kompression bosim yuz anatomik yuzalarida notekis taqsimlanadi va ayrim hollarda terida noqulaylik paydo bo‘lishi mumkin [17]. Bundan tashqari, chokli konstruksiyalarda mahsulot shaklini aniq moslashtirish cheklangan bo‘lib, individual anatomik farqlarni hisobga olish imkoniyatlari yetarli darajada emas. So‘nggi yillarda kompression bandajlar ishlab chiqarishda trikotaj asosidagi choksiz to‘qish (seamless knitting) texnologiyasidan foydalanish kengayib bormoqda. Ushbu texnologiya mahsulotni bir butun konstruksiya sifatida shakllantirish imkonini beradi, natijada choklar yo‘qligi hisobiga bosimning nisbatan bir tekis taqsimlanishi ta’minlanadi hamda mahsulotning ergonomik xossalari yaxshilanadi [18]. Choksiz to‘qish texnologiyasida mahsulotning turli zonalarida to‘qima zichligini va elastiklik darajasini o‘zgartirish orqali lokal kompression ta’sirni boshqarish mumkin, bu esa yuz konturiga moslashtirilgan bandajlar ishlab chiqishda muhim afzallik hisoblanadi. Kompression bandajlarni olishda ishlatiladigan texnologik yechimlar orasida ko‘p qatlamli (laminatsiyalangan) tuzilmalar ham uchraydi. Bunday mahsulotlarda ichki qatlam teri bilan bevosita aloqada bo‘lib, qulaylikni ta’minlashga xizmat qiladi, tashqi qatlam esa asosiy kompression vazifani bajaradi. Ko‘p qatlamli tuzilmalar mahsulotning mexanik barqarorligini oshiradi, biroq ishlab chiqarish texnologiyasini murakkablashtiradi va tannarxni oshirishi mumkin. Texnologiyalarni taqqoslash shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy kompression bandajlar ishlab chiqarishda choksiz to‘qish texnologiyasi istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Bu yondashuv mahsulot konstruksiyasini anatomik shakllarga moslashtirish, kompression bosimni zonalar bo‘yicha boshqarish hamda ishlab chiqarish jarayonida avtomatlashtirish darajasini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, bunday texnologiyani joriy etish maxsus uskunalar va to‘qish parametrlarini chuqur ilmiy asoslashni talab etadi.

Natijalar va muhokama.

Kompression bandaj mahsulotlarini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri choksiz to‘qish texnologiyalarini qo‘llash hisoblanadi. Ushbu texnologiya mahsulotni yaxlit konstruksiyada shakllantirish, choklar ta’sirini bartaraf etish, bosimni bir tekis taqsimlash hamda mahsulotning ergonomik xususiyatlarini oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, yuz uchun mo‘ljallangan kompression bandajlarda choksiz texnologiyaning qo‘llanilishi mahsulotning anatomik moslashuvchanligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu bilan birga, choksiz to‘qish usuli ishlab chiqarish jarayonida xom ashyo sarfini kamaytirish va texnologik samaradorlikni oshirish imkonini ham beradi [19]. Tibbiy va kosmetologik maqsadlarda qo‘llaniladigan kompression mahsulotlarning assortimentini kengaytirish hamda ularning sifatini oshirish uchun to‘qima tuzilishi va fizik-mexanik xossalarini chuqur o‘rganish zarur hisoblanadi. Xususan, kompression bandajlarning elastiklik, qayishqoqlik, zichlik va deformatsion xossalarini tahlil qilish orqali optimal texnologik parametrlarni aniqlash mumkin. Shu asosda, mahsulotning funksional samaradorligini ta’minlaydigan va iste’molchi talablariga javob beradigan kompression bandaj konstruktsiyasini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi [20].

Trikotaj to‘qimalari to‘qimachilik sanoatining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, ular turli konstruktiv yechimlari va texnologik xususiyatlari bilan keng assortimentda ishlab chiqariladi. Zamonaviy sharoitda, ayniqsa tibbiy va kosmetologik maqsadlar uchun mo‘ljallangan kompression trikotaj mahsulotlarini yaratishda ularning fizik-mexanik va ekspluatatsion xossalarini yaxshilashga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, trikotaj to‘qimalarining strukturaviy ko‘rsatkichlarini optimallashtirish orqali mahsulot sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kompression niqob mahsulotlarini loyihalash jarayonida to‘qima tuzilishi, ishlatiladigan iplarning xususiyatlari hamda texnologik parametrlar asosiy omillar sifatida qaraladi. Mazkur tadqiqotda yuz uchun mo‘ljallangan kompression

bandajlar uchun paxta ipi va elastik ip kombinatsiyasida tayyorlangan trikotaj to‘qima namunalari ishlab chiqildi. Namunalarning texnologik va fizik-mexanik xossalarini aniqlash maqsadida 6 ta variant tayyorlanib, ularning asosiy ko‘rsatkichlari tajriba yo‘li bilan o‘rganildi.

Yangi trikotaj matolarni ishlab chiqishda bir necha texnologik bosqichlar amalga oshiriladi. Mazkur bosqichlar ichida eng muhimi – to‘qimaning texnologik parametrlarini aniqlashdir. Ushbu parametrlar quyidagilardan iborat: halqa ipining uzunligi (L), halqa qadami (A), qator balandligi (B), gorizontal zichlik (PG), vertikal zichlik (PV) va yuza zichligi (MS). Keltirilgan ko‘rsatkichlar trikotaj matoning strukturaviy xususiyatlari va foydalanish jarayonidagi asosiy tavsiflarini ifodalaydi. Kompression bandaj mahsulotlari assortimentini kengaytirish hamda trikotaj tuzilishi elementlari va qo‘llaniladigan xomashyo turlarining mahsulot xossalari va material sarfiga ta’sirini o‘rganish maqsadida, trikotaj to‘qimasi negizida olti xil kosmetologik niqob namunasi ishlab chiqarildi. Tajriba namunalari “OOO Movaraunnahr Teks” korxonasida, Germaniyada ishlab chiqarilgan STOLL CMS 530 HP 14 rusumli trikotaj mashinasida ishlab chiqarildi. Ishlab chiqarish jarayonida quyidagi xomashyolardan foydalanildi: paxta hamda poliestr iplari aralashmasi (chiziqli zichligi 30/2 teks), 28/2 BOS (CHINA) Basensiya (poliamid, elastan, viskoza) kabi iplardan foydalanildi. Ushbu niqob mahsuloti namunalarining texnologik ko‘rsatkichlari va fizik-mexanik xususiyatlari Toshkent To‘qimachilik va yengil sanoat instituti qoshidagi “To‘qimachilik matolari texnologiyasi” kafedrasi laboratoriyasida eksperimental tadqiqotlar orqali aniqlandi. Olingan natijalar GOST 8541–2014 va GOST 58236–2020 standartlari talablariga muvofiqligi jihatidan baholandi.

Yuz uchun mo‘ljallangan kompression bandajlar mahsulotining to‘qima tuzilishi va ularning texnologik ko‘rsatkichlarga ta’sirini aniqlash maqsadida, glad to‘qima, interlok va lastik to‘qimalari kombinatsiyasi asosida 6 xil turdagi niqob namunalari tayyorlandi. Ular bir biridan to‘qima tuzilishi, xom ashyo turi, ipining ignalarga joylashuvi va asosiy ipning chiziqli zichligi bo‘yicha farqlanadi. Ushbu namunalar bir xil texnologik sharoitlarda tayyorlanib, ularning asosiy fizik-mexanik ko‘rsatkichlari tajriba yo‘li bilan aniqlanib, natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Kosmetologik niqob mahsuloti to‘qimasining texnologik ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	**O‘lchov birligi**	**Variantlar**					
		1	2	3	4	5	6
Yuza zichligi	g/m^2	451,6	430,9	392,5	661,8	661,3	379,5
Qalinlik	mm	2,2	1,8	1,25	1,6	1,65	1,2
Havo o‘tkazuv-chanligi	sm^3/sm sec	48,3	65,4	26,5	17,43	31,4	61,9
Nam tortuvchanligi	%	7,21	5,9	6,4	11,8	11,3	9,63
Hajmiy zichlik	mg/sm^3	205,2	239,3	314	413,6	400,7	316,2


Trikotaj to‘qimalarining muhim texnologik va ekspluatatsion ko‘rsatkichlaridan biri bu yuza zichligi hisoblanadi. Yuza zichligi matoning birlik yuzasiga to‘g‘ri keladigan massani ifodalaydi va u to‘qima strukturasining zichlik darajasi, iplarning chiziqli zichligi hamda ularning o‘zaro joylashuvi bilan belgilanadi. Ushbu ko‘rsatkich trikotaj mahsulotining og‘irligi, mustahkamligi, deformatsiyaga chidamliligi hamda issiqlik saqlash xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Olingan tajriba natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, ishlab chiqilgan trikotaj to‘qima namunalari uchun yuza zichligi ko‘rsatkichlari sezilarli darajada farqlanib, 379,5 g/m² dan 661,8 g/m² gacha oraliqda o‘zgaradi. Yuza zichligining bunday keng diapazonda o‘zgarishi, avvalo, to‘qima strukturasining xususiyatlari, iplarning chiziqli zichligi, ularning o‘zaro joylashuvi hamda to‘qish jarayonidagi texnologik parametrlar bilan izohlanadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, yuza

zichligining eng yuqori qiymatlari 4- va 5-variantlarda kuzatilgan bo‘lib, bu ushbu namunalarda halqa elementlarining zich joylashganligi, iplararo masofaning kichikligi hamda to‘qima strukturasi kompakt shakllanganligini bildiradi. Bunday tuzilishga ega bo‘lgan trikotaj to‘qimalarda materialning birlik yuzasiga to‘g‘ri keladigan massa ortadi, natijada mahsulotning zichligi va potensial kompression ta’siri yuqori bo‘ladi. Aksincha, 3- va 6-variantlarda yuza zichligining nisbatan past qiymatlari qayd etilgan bo‘lib, bu namunalarda halqa tuzilmalari orasidagi masofa kattaroq ekanligi, ya’ni to‘qima strukturasi bo‘shroq shakllanganligini ko‘rsatadi. Bunday tuzilma materialning yengilligini ta’minlaydi hamda havo o‘tkazuvchanlik va foydalanish qulayligi kabi ko‘rsatkichlarning yaxshilanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin barcha yuza zichligi ko‘rsatkichlari gistogramma shaklida 1-rasmda keltirilgan.

Olingan natijalarni tahlil qilishda faqat absolyut qiymatlar emas, balki ularning o‘zaro nisbiy farqlari ham muhim ahamiyatga ega. Hisob-kitoblar shuni ko‘rsatdiki, maksimal qiymatga ega bo‘lgan 4-variant (661,8 g/m²) bilan minimal qiymatga ega 6-variant (379,5 g/m²) o‘rtasidagi farq qariyb 74 % ni tashkil etadi. Bu esa namunalarning tuzilishi va zichligi bo‘yicha sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Yuza zichligi bo‘yicha namunalarning o‘zaro yaqinligi ham kuzatildi. Xususan, 4- va 5-variantlar o‘rtasidagi farq atigi 0,1 % ni tashkil etib, bu ularning deyarli bir xil strukturaviy xususiyatlarga ega ekanligini bildiradi. Shuningdek, 1- va 2-variantlar o‘rtasidagi farq taxminan 4–5 % atrofida bo‘lib, ular o‘rta zichlikdagi guruhga kirishini ko‘rsatadi.

Tahlil asosida namunalarning shartli ravishda uchta guruhga ajratilishi mumkin:

- yuqori zichlikdagi guruh – 4 va 5-variantlar
- o‘rta zichlikdagi guruh – 1 va 2-variantlar
- past zichlikdagi guruh – 3 va 6-variantlar



1-rasm. Kosmetologik niqob mahsuloti to‘qimasi yuza zichligi o‘zgarishi gistogrammasi

Bunday guruhlash kompression mahsulotlarni amaliy qo‘llash nuqtayi nazaridan muhimdir. Yuqori zichlikdagi namunalarda material massasi va struktura kompaktligi yuqori bo‘lgani sababli kompression ta’sir kuchliroq namoyon bo‘ladi, bu esa operatsiyadan keyingi reabilitatsiya jarayonida foydali hisoblanadi. Biroq, bu holatda havo o‘tkazuvchanlik kamayishi va issiqlik almashinuvi yomonlashishi mumkin. Past zichlikdagi namunalarda esa aksincha, to‘qima bo‘shroq tuzilishga ega bo‘lib, bu havo almashinuvi va gigiyenik xususiyatlarni yaxshilaydi, biroq


kompression ta’sirning yetarli darajada bo‘lmasligi ehtimoli mavjud. Shu sababli, bunday variantlar yengil kompression talab qilinadigan holatlar uchun mos keladi.

O‘rta zichlikdagi namunalarda esa yuqoridagi ikki holat o‘rtasida muvozanat kuzatiladi. Ya’ni, ular yetarli darajada kompression ta’sirni ta’minlagan holda, foydalanish qulayligini ham saqlab qoladi. Shu jihatdan, amaliy qo‘llash uchun eng maqbul variantlar aynan o‘rta diapazondagi namunalardan tanlanishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, yuza zichligi ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi kompression mahsulotlarning funksional xususiyatlariga bevosita ta’sir etadi. Yuqori zichlikdagi to‘qimalar bosim hosil qilish nuqtai nazaridan afzal bo‘lsa-da, past zichlikdagi variantlar gigiyenik va ergonomik jihatdan qulayroq bo‘lishi mumkin. Shu sababli, kompression bandajlar ishlab chiqarishda yuza zichligi ko‘rsatkichini tanlashda texnologik va ekspluatatsion xususiyatlar o‘rtasida muvozanatni ta’minlash muhim hisoblanadi.

Trikotaj to‘qimalarning qalinligi ularning fazoviy tuzilishini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, to‘qima elementlarining joylashuvi, iplarning chiziqli zichligi hamda halqa tuzilishining shakllanishi bilan belgilanadi. Qalinlik trikotaj materialning hajmiy shakllanishini ifodalab, uning mexanik va deformatsion xossalari, issiqlik almashinuvi hamda kontakt yuzasi bilan o‘zaro ta’sir jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Kompression trikotaj mahsulotlarida qalinlik ko‘rsatkichi materialning strukturaviy zichligi va bosim hosil qilish xususiyati bilan uzviy bog‘liqdir. Qalinlik ortishi natijasida to‘qima qatlamlari orasidagi o‘zaro bog‘lanish kuchayadi, bu esa materialning qarshilik ko‘rsatish xususiyatini oshiradi. Shu bilan birga, qalinlikning ortishi to‘qimaning egiluvchanligi va deformatsiyalanish qobiliyatiga ham ta’sir etib, mahsulotning murakkab shaklli yuzalarga moslashuv jarayonida o‘z aksini topadi. Qalinlikning kamayishi esa trikotaj to‘qimaning yengilligini, elastikligini va egiluvchanligini oshiradi. Bunday strukturalar yuzaning geometrik shakliga nisbatan tezroq moslashadi va kontakt zonalarida bir tekis joylashish imkonini beradi. Shu bilan birga, qalinlikning kichik qiymatlari materialning strukturaviy mustahkamligi va bosimni saqlab turish qobiliyatining kamayishiga olib kelishi mumkin.

Shu sababli, kompression bandajlar uchun qalinlik ko‘rsatkichini baholashda uni to‘qima zichligi, elastiklik darajasi va materialning deformatsion xatti-harakati bilan kompleks holda ko‘rib chiqish talab etiladi. Mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan trikotaj namunalari uchun qalinlik ko‘rsatkichlari aniqlanib, ularning boshqa texnologik va ekspluatatsion parametrlar bilan o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilindi va 2-rasmda tasvirlangan gistogrammada keltirildi.



2-rasm. Kosmetologik niqob mahsuloti to‘qimasi qalinligi o‘zgarishi gistogrammasi

Olingan tajriba natijalari asosida trikotaj to‘qima namunalari qalinligi 1,2 mm dan 2,2 mm gacha oraliqda o‘zgarishi aniqlanib, bu ko‘rsatkichlarning sezilarli darajada farqlanishi to‘qima tuzilishi va ip tarkibining ta’sirini yaqqol namoyon etadi. Eng katta qalinlik qiymati 1-variantda (2,2 mm) kuzatilgan bo‘lsa, eng kichik qiymat 6-variantda (1,2 mm) qayd etildi. Ushbu ikki ekstremal qiymat o‘rtasidagi farq taxminan 83 **%** ni tashkil etib, bu namunalarning hajmiy tuzilishi bo‘yicha sezilarli tafovut mavjudligini ko‘rsatadi. Qalinlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha namunalarning o‘zaro taqqoslanishi shuni ko‘rsatadiki, 1-variant aniq ajralib turadi va eng katta hajmiy tuzilishga ega. Bu holat, ehtimol, iplarning chiziqli zichligi yuqoriroq bo‘lishi hamda to‘qima elementlarining bo‘shroq, hajmli joylashuvi bilan izohlanadi. 2-, 3-, 4- va 5-variantlarda qalinlik qiymatlari 1,4–1,7 mm diapazonda joylashib, ular o‘zaro nisbatan yaqin ko‘rsatkichlarga ega bo‘lib, o‘rta darajadagi hajmiy tuzilishni tashkil etadi. 6-variant esa eng past qalinlikka ega bo‘lib, bu uning strukturasi nisbatan siqilgan va yupqaroq shakllanganligini bildiradi.

Qalinlikning boshqa ko‘rsatkichlar bilan bog‘liqligi ham kuzatildi. Xususan, qalinlik ortgan sari to‘qimaning hajmiy zichligi kamayish tendensiyasi kuzatiladi, bu esa 1-variant misolida yaqqol ko‘rinadi (eng katta qalinlik, ammo pastroq hajmiy zichlik). Aksincha, qalinligi kichik bo‘lgan namunalarda (masalan, 6-variant) hajmiy zichlikning ortishi kuzatiladi, bu esa materialning siqilgan va kompakt strukturasini bildiradi.

Xulosa. Kompression mahsulotlar nuqtayi nazaridan qalinlik ko‘rsatkichlari turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Qalinligi katta bo‘lgan namunalarda materialning hajmiyligi yuqori bo‘lib, bu kontakt yuzasida yumshoqroq ta’sir va bosimning nisbatan tarqalgan holda taqsimlanishiga olib keladi. Biroq bunday struktura murakkab shaklli yuzalarga moslashishda ma’lum darajada cheklovlar keltirib chiqarishi mumkin. Qalinligi kichik bo‘lgan namunalarda esa material yuzaga yaqinroq joylashadi va bosimning lokal ta’siri kuchayadi. Bu holat kompression samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq haddan tashqari kichik qalinlik materialning chidamliligini pasaytirishi ehtimolini ham yuzaga keltiradi. O‘rta qalinlikka ega bo‘lgan namunalarda esa (2–5-variantlar) yuqoridagi omillar o‘rtasida muvozanat kuzatiladi. Ya’ni, ular yetarli darajada moslashuvchanlikni saqlagan holda, kompression ta’sirni ham ta’minlash imkonini beradi. Shunday qilib, olingan natijalar qalinlik ko‘rsatkichining trikotaj to‘qima strukturasini shakllantirishda hamda kompression bandajlarning funksional xususiyatlarini belgilashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Optimal variantni tanlashda qalinlikni boshqa parametrlar bilan kompleks holda baholash talab etiladi.

Olingan tajriba natijalarini chuqur tahlil qilishda yuza zichligi va qalinlik ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki ushbu ikki parametr trikotaj to‘qimaning struktura shakllanishi, hajmiy tuzilishi hamda kompression xususiyatlarini kompleks ravishda tavsiflaydi.

References

1. International Society of Aesthetic Plastic Surgery (ISAPS). 2023 Global Survey on Aesthetic/Cosmetic Procedures. https://www.isaps.org/discover/about-isaps/global-statistics/global-survey-2023-full-report-and-press-releases/?utm_source=chatgpt.com
2. Grand View Research. Global Compression Therapy Market Size & Forecast to 2030. https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/compression-therapy-market
3. Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi (2022–2026)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-sonli Farmoni — “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.01.2025 yildagi PF-6-son Farmoni, To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida

6. Ormseth BH, Livermore NR, Schoenbrunner AR, Janis JE. The Use of Postoperative Compression Garments in Plastic Surgery—Necessary or Not? A Practical Review. Plast Reconstr Surg Glob Open. 2023; DOI:10.1097/GOX.0000000000005293
7. Arkoubi AY, Derder M, et al. Effect of Compression Garments on Post-Abdominoplasty Outcomes. Journal of Plastic, Reconstructive & Aesthetic Surgery. 2024. https://doi.org/10.1016/j.jpra.2024.05.014
8. Smith T., Jones R., Compression Garments in Plastic and Reconstructive Surgery: A Review of Evidence and Practice. Journal of Aesthetic Surgery. 2022. 22-33-p.
9. Маска-бандаж для лица: виды и особенности. Aumishop.ru. URL: https://aumishop.ru/bandazh-dlya-litsa/
10. Как определить свой размер маски-бандажа. mmaska.ru. URL: https://mmaska.ru/kak-opredelit-svoj-razmer
11. Ormseth B.H., Livermore N.R., Schoenbrunner A.R., Janis J.E. The Use of Postoperative Compression Garments in Plastic Surgery—A Practical Review. Plast Reconstr Surg Glob Open, 2023.https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC10519563/
12. Anand S.C., Horrocks A.R. Handbook of Technical Textiles. Woodhead Publishing, 2016. https://www.sciencedirect.com/book/9781782424581/handbook-of-technical-textiles
13. Das A., Alagirusamy R. Science in Clothing Comfort. Woodhead Publishing, 2010. https://www.sciencedirect.com/book/9781845695392/science-in-clothing-comfort
14. Troynikov O., Wardiningsih W. Moisture management properties of cotton and synthetic textile materials. JTATM, 2011. https://ojs.cnr.ncsu.edu/index.php/JTATM/article/view/660
15. Hu J. (Ed.). Structure and Mechanics of Fabrics. Woodhead Publishing, 2004. https://www.sciencedirect.com/book/9781855737517/structure-and-mechanics-of-woven-fabrics
16. Anand S.C., Horrocks A.R. Handbook of Technical Textiles. Woodhead Publishing, 2016.10-28-p.
17. Das A., Alagirusamy R. Science in Clothing Comfort. Woodhead Publishing, 2010. 320-345-p.
18. Spencer D.J. Knitting Technology. Woodhead Publishing 2001y
19. Senthilkumar M., Anbumani N. “Compression Garments and Their Applications.” Journal of Engineered Fibers and Fabrics, 2014. https://doi.org/10.1177/155892501400900315
20.Wang X., Li Y., Hu J. “Pressure characteristics of elastic knitted fabrics for compression garments.” Textile Research Journal, 2012. https://doi.org/10.1177/0040517511433140

UDK 677.025

KOMPRESSION MAHSULOT BOSIMINI O‘LCHASH USULLARI

Yermatov R.B., Muxtorova N.F., Mirzaxmedov A.S., Mamashoyev F.F., Xanxadjaeva N.R.
Tashkent Institute of Textile and Light Industry Tashkent, Uzbekistan

Аннотация. *В статье рассматриваются виды, функции и условия производства компрессионных изделий, а также результаты исследований по производству компрессионных изделий с использованием натурального и синтетического сырья. Использование цифровых технологий и инновационных переплетений при производстве компрессионных изделий по всему миру также оказывает влияние на развитие рынка компрессионных изделий. Разрабатываются «умные» текстильные изделия, сочетающие в себе датчики для мониторинга здоровья и компрессионного давления. Технологические достижения в области материалов, такие как бесшовный трикотаж, влагоотводящие ткани и средства контроля запаха, помогают производителям выпускать более качественные и удобные изделия. Инновации также направлены на улучшение эстетики,*

что также привлекает молодых потребителей за счет сочетания функциональности и моды. Кроме того, потребители ищут высококачественную, доступную по цене, экологически чистую продукцию, не наносящую вреда окружающей среде. Производители поддерживают потребителей, интегрируя переработанные волокна и используя более экологически чистые методы производства. Исследования по повышению эффективности компрессионных изделий, в частности за счет использования сенсорных тканей, технологий 3D-ткачества и методов проектирования на основе искусственного интеллекта, в настоящее время являются одним из наиболее актуальных направлений исследований. Подобные инновационные подходы не только повышают клиническую эффективность, но и упрощают производство и использование продукции. Поэтому данное исследование направлено на повышение эффективности компрессионной терапии путем совершенствования технологий производства, исследования новых материалов и разработки персонализированных решений, что имеет не только научное, но и практическое значение.

Ключевые слова. *Компрессионный трикотаж, бесшовный трикотаж, компрессионное давление, экологически чистые изделия*

Annotatsiya. *Ushbu maqolada kompression mahsulot turlari, vazifasi va ishkab chiqarish holati, tabiiy va sintetik xom ashyolardan foydalangan holda kompression mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha tadqiqotlar natijalari ko'rib chiqilgan. Jahonda kompression mahsulotlarini ishlab chiqarishidagi raqamli texnologiyalardan, innovatsion to‘qimalardan foydalanish ham kompression mahsulotlar bozori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Kompression bosim bilan sog'liqni monitoring qilish uchun sensorlarni birlashtirgan aqlli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqilmoqda. Materiallar sohasidagi texnologik yutuqlar, choksiz trikotaj, namlik o'tkazmaydigan matolar va hidni nazorat qiluvchi kabi texnologik yutuqlar ishlab chiqaruvchilarga yanada yaxshiroq va qulayroq mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi. Innovatsiyalar, shuningdek, estetikani yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ular funksionallik va modani birlashtirgan holda yosh iste'molchilarni ham jalb qilmoqda. Bundan tashqari, iste'molchilar yuqori sifatli, xamyonbob, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ekologik toza mahsulotlarni qidirmoqda. Ishlab chiqaruvchilar qayta ishlangan tolalarni integratsiyalash va atrof-muhitga zararsizroq ishlab chiqarish usullaridan foydalanish orqali istemolchilarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Ayniqsa, sensorli matolar, 3D-to‘qish texnologiyalari va sun’iy intellekt asosidagi loyihalash usullarini qo‘llash orqali kompression mahsulotlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar hozirgi vaqtda eng dolzarb yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bunday innovatsion yondashuvlar nafaqat klinik samaradorlikni oshiradi, balki mahsulotlarning ishlab chiqarish va foydalanish qulayligini ham yaxshilaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, yangi materiallarni tadqiq qilish va shaxsiylashtirilgan yechimlarni ishlab chiqish orqali kompression terapiyani samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, u nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.*


Kalit so‘zlar. *Kompression trikotaj, choksiz trikotaj, kompression bosim, ekologik toza mahsulotlar*

Abstract. *This article reviews the types of compression products, their function and manufacturing conditions, and the results of research on the production of compression stockings using natural and synthetic raw materials. The use of digital technologies and innovative fabrics in the production of compression products around the world is also affecting the development of the compression products market. Smart textile products are being developed that combine compression pressure with sensors for health monitoring. Technological advances in materials, such as seamless knits, moisture-wicking fabrics, and odor control, are helping manufacturers create better, more comfortable products. Innovations are also focused on improving aesthetics, which are also attracting younger consumers by combining functionality and fashion. In addition, consumers are looking for high-quality, affordable, environmentally friendly products. Manufacturers are supporting consumers by integrating recycled fibers and using more environmentally friendly production methods. In particular, research on improving the*

effectiveness of compression products through the use of sensor fabrics, 3D-knitting technologies, and artificial intelligence-based design methods is currently one of the most relevant areas. Such innovative approaches not only increase clinical effectiveness, but also improve the ease of production and use of products. Therefore, this research aims to improve the effectiveness of compression therapy by improving production technologies, researching new materials, and developing personalized solutions, which is not only of scientific but also practical importance.

Key words. *Compression knitwear, seamless knitwear, compression pressure, eco-friendly products*

Kirish. Jahonda 2024 yilda global kompression mahsulotlar bozori 5.9 milliard AQSh dollariga baholangan bo'lib, 2032 yil oxirigacha 8.4 milliard AQSh dollarigacha yetishi kutilmoqda. 2024-2032 yillar oralig'ida bozorning o'rtacha yillik o'sish sur'ati (CAGR) 5.3% ni tashkil qiladi [1]. Ushbu prognozlangan o'sish asosan tibbiyot sohasida (shifoxonalar, klinikalar, ambulator muassasalar va boshqalar) kompression mahsulotlardan foydalanishning kengayishi bilan bog'liq. Kompression mahsulotlar bozoriga tibbiyot, sport va estetik tendentsiyalarning kombinatsiyasi ta'sir ko'rsatmoqda [2]. Tibbiy nuqtai nazardan, surunkali venoz kasalliklari, kam harakatlik, semirish va qarish bilan bog'liq muammolarning ko'payishi qon aylanishini yaxshilaydigan va shishni kamaytiradigan kiyimlarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Boshqa tomondan, sportchilar jarohatlarning oldini olish va tiklanish uchun kompression mahsulotlardan keng foydalanadilar, bu bozorni ikki tomonlama rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda (1-rasm). Jahonda kompression mahsulotlarini ishlab chiqarishidagi raqamli texnologiyalardan, innovatsion to‘qimalardan foydalanish ham kompression mahsulotlar bozori rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmoqda. Kompression bosim bilan sog'liqni monitoring qilish uchun sensorlarni birlashtirgan aqlli to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqilmoqda. Materiallar sohasidagi texnologik yutuqlar, choksiz trikotaj, namlik o'tkazmaydigan matolar va hidni nazorat qiluvchi kabi texnologik yutuqlar ishlab chiqaruvchilarga yanada yaxshiroq va qulayroq mahsulotlar ishlab chiqarishga yordam beradi. Innovatsiyalar, shuningdek, estetikani yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ular funksionallik va modani birlashtirgan holda yosh iste'molchilarni ham jalb qilmoqda. Bundan tashqari, iste'molchilar yuqori sifatli, xamyonbob, atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ekologik toza, mahsulotlarni qidirmoqda. Ishlab chiqaruvchilar qayta ishlangan tolalarni integratsiyalash va atrof-muhitga zararsizroq ishlab chiqarish usullaridan foydalanish orqali istemolchilarni qo‘llab-quvvatlamoqda [3].



1-rasm. Kompression mahsulotlar bozori o‘sish tendensiyasi

Respublikada to‘qimachilik sanoatini rivojlantirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori sifatli, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda [4]. 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi doirasida to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini ikki baravar oshirish maqsadi belgilangan [5]

Mavjud xomashyo bazasidan samarali foydalangan holda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ularning eksportini yanada rag‘batlantirish mexanizmlarini joriy etish, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining investitsion jozibadorligini va raqobatbardoshligini yanada oshirish, sohaning eksport salohiyatini kengaytirish, mahalliy to‘qimachilik mahsulotlarining xorijiy bozorlarga kengroq kirib borishi shu bilan birga, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga xarajatlarning kamaytirilishi ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Keyingi besh yilda paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,1 baravarga va eksport ko‘rsatkichini 2,6 baravarga oshirishni ta’minlash hamda ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy dizaynerlik ishlanmalarini keng joriy qilish hamda xalqaro brendlarni jalb qilish orqali jami eksportda tayyor tikuv-trikotaj mahsulotlari ulushini 70 foizga yetkazish trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqish belgilangan [6]

Material va metodlar. Zamonaviy jamiyatda sog‘liqni saqlash muammolari tobora murakkablashib bormoqda. Ayniqsa, harakatsiz turmush tarzi, semirish epidemiyasi va aholining qarish tendentsiyasi tufayli qon tomir va limfa tizimi kasalliklari (varikoz kengayishlari, venoz tromboz, limfedema) global salomatlik muammosiga aylangan. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, rivojlangan mamlakatlarda aholining 30-40% venoz yetishmovchilik belgilaridan aziyat chekmoqda [7]. Sport va faol hayot tarzining ommalashishi bilan birga professional va havaskor sportchilarning mushaklarni qo‘llab-quvvatlash va jarohatlarning oldini olishga bo‘lgan talablari keskin oshib bormoqda [8]. Bu holatda kompression terapiyaning tibbiyotdan tashqari sport va reabilitatsiya sohalarida ham keng qo‘llanilishini taqozo etmoqda. Kompression mahsulotlari (terapevtik paypoqlar, bandajlar, sport kiyimlari) zamonaviy tibbiyotda faqat simptomatik yechim emas, balki profilaktik vosita sifatida ham qaralmoqda. Biroq, mavjud ishlab chiqarish texnologiyalari va materiallar foydalanish qulayligi, samaradorligi va atrof-muhitga ta’siri jihatidan hali ham bir qator cheklovlarga ega. Shuning uchun kompression mahsulotlarini ishlab chiqarishda yangi materiallar, individual loyihalash usullari va aqlli texnologiyalarni qo‘llash muammolari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi vaqtga qadar kompression terapiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar asosan uning klinik samaradorligi va qo‘llash usullariga qaratilgan bo‘lsada, ammo quyidagi jihatlar yetarlicha o‘rganilmagan [10]:

1. **Materialshunoslik muammolari**: Kompression mahsulotlarida qo‘llaniladigan materiallarning fiziologik ta’siri va uzoq muddatli foydalanishdagi barqarorligi;
2. **Ishlab chiqarish texnologiyalari**: Bosimni aniq taqsimlashni ta’minlovchi innovatsion ishlab chiqarish usullari;
3. **Shaxsiylashtirilgan yechimlar**: Individual anatomik xususiyatlarga mos keladigan mahsulotlarni loyihalash metodologiyasi;
4. **Atrof-muhitga ta’sir**: Qayta ishlanadigan va biologik parchalanishga uchraydigan materiallardan foydalanish imkoniyatlari.

Ayniqsa, sensorli matolar, 3D-to‘qish texnologiyalari va sun’iy intellekt asosidagi loyihalash usullarini qo‘llash orqali kompression mahsulotlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha izlanishlar hozirgi vaqtda eng dolzarb yo‘nalishlardan hisoblanadi. Bunday innovatsion yondashuvlar nafaqat klinik samaradorlikni oshiradi, balki mahsulotlarning ishlab chiqarish va foydalanish qulayligini ham yaxshilaydi. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, yangi materiallarni tadqiq qilish va shaxsiylashtirilgan yechimlarni ishlab chiqish orqali kompression terapiyani samaradorligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, u nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirish, soha korxonalarining investitsiya va eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasida respublikada ishlab chiqarilayotgan paxta tolasi to‘liq va ip kalavaning 45 foizi qayta ishlanmoqda, shuningdek, sohaning yillik eksport salohiyati 3,2 milliard dollardan oshdi. Shu bilan birga, jahon bozorlarida raqobatning kuchayishi, xorijiy ishlab chiqaruvchilar tomonidan aralash tarkibli mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga xarajatlarning kamaytirilishi ushbu sohani rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni taqozo etmoqda. Keyingi besh yilda paxta tolasini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,1 baravarga va eksport ko‘rsatkichini 2,6 baravarga oshirishni ta’minlash hamda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni yangi bosqichga olib chiqish maqsadida Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, “O‘zto‘qimachiliksanoat” uyushmasining to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini davlat tomonidan keng miqyosda qo‘llab-quvvatlash orqali sohaning eksport salohiyatini 5 milliard AQSh dollariga yetkazish, tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasini 65 foizdan 81 foizga oshirish, 35 mingta gazlama, trikotaj mato ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun infratuzilmaviy va moliyaviy shart-sharoitlar yaratish orqali paxta ip-kalavani qayta ishlash darajasini 2027-yil yakuniga qadar bosqichma-bosqich 100 foizga olib chiqish vazifalari belgilangan. Tadqiqot ishini amalga oshirish jarayonida tibbiy kompression trikotaj mahsultlari bo‘yicha manbalar tahlil qilindi. Manbalar tahlilida asosan tibbiy trikotaj mahsulotlari (kompression paypoqlar)ga oid jurnallar, monografiyalar, o‘quv adabiyotlar, mavzuga tegishli dissertatsiyalar, dissertatsiya avtoreferatlari, patent va ixtiro hujjatlari o‘rganildi. Hayotimizning ko‘p qismini oyoqda o‘tkazamiz: turamiz, yuramiz, yuguramiz, sakraymiz. Ko‘pincha oyoqlarimiz ortiqcha vazn, noqulay poyabzal, surunkali kasalliklar, kam harakatlilik va zararli odatlar tufayli birinchi bo‘lib noqulaylikni his qiladi. Tabiiyki, bu omillar birgalikda oyoqlar salomatligini yomonlashtiradi. Og‘ir oyoqlar sindromi, zo‘riqish, tirishish, qon aylanishining buzilishi belgilari va shishlar paydo bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan bu holat qon tomir kasalliklarining, jumladan varikoz kasalligining rivojlanishiga olib keladi. Dastlab, bu bilinar-bilinmas mayda tomir yoki ingichka venalar ko‘rinishida bo‘ladi, ammo davolanmasa, teri osti tugunlari, shishgan venalar va yaralarga aylanadi. Og‘ir holatlarga olib kelmaslik uchun o‘z vaqtida mutaxassisga (flebologga) murojaat qilish kerak. U to‘g‘ri davolash usulini va kompression trikotaj paypoqlarni tavsiya qiladi [11]. Sport sohasida qo‘llanilishi (1970–2000-yillar) 1970-yillarda sport sohasidagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, mushaklarga ma’lum darajada siqish kuch qo‘shish va charchoqni kamaytirishga yordam beradi. Shu asnoda sportchilar kompression paypoqlardan foydalanishni boshladilar. 1980-yillarda Nike va Adidas kabi yirik sport brendlari birinchi marta professional sportchilar uchun kompression paypoqlarni ishlab chiqara boshladi [12]. 1990-yillarda esa Under Armour kompaniyasi "tanani qoblovchi" kompression futbolkalarini taqdim etdi, ular sportchilarda issiqlikni taminlash va harakatlanishni osonlashtirish uchun mo‘ljallangan edi. 1998-yilda avstraliyalik SKINS brendi paydo bo‘lib, dinamik kompression texnologiyasini joriy qildi. Bu kiyimlar mushaklarga harakat paytida qo‘shimcha qo‘llab-quvvatlovchi bosim berardi. Zamonaviy Innovatsiyalar (2000-yillardan hozirgi kundacha) 21-asrda kompression trikotaj mahsulotlari nafaqat tibbiyot va sportda, balki kundalik hayot moda sohalarida ham keng tarqaldi. Aqlli kompression to‘qimalari - CW-X va 2XU kabi brendlar mushaklarning anatomik tuzilishiga mos keladigan "zonali siqish" texnologiyasini ishlab chiqdilar. Biofeedback asosidagi kiyimlar – ba’zi kompression mahsulotlari sensorlar bilan jihozlangan bo‘lib, foydalanuvchining mushak faoliyati va yurak urish tezligini monitoring qiladi. Kompression paypoqlar va futbolkalar – bugungi kunda ko‘plab odamlar fitnesda yoki ish kunida ham kompression kiyimlarini kiyishadi. 3D to‘qish texnologiyasi [13] – aynan bemorning oyoqlari yoki qo‘llari shakliga moslab maxsus kompression paypoqlarni ishlab chiqarish imkonini beradi. Kompression trikotaj mahsulotlarining tarixi tibbiy ehtiyojlardan boshlanib, sport va moda sohalariga qadar kengaygan. Bugungi kunda ular nafaqat sog‘liqni saqlash, balki sport ko‘rsatkichlarni oshirish va hatto kundalik qulaylik

uchun ham qo‘llaniladi. Texnologiyaning rivojlanishi bilan bu soha yanada innovatsion yechimlarni taklif qilishda davom etadi.

Muhokama. Boshida kompression trikotaj faqat tibbiy maqsadlarga mo‘ljallangandek tuyulsa-da, aslida uni kundalik hayotda ishlatish uchun ko‘plab sabablar mavjud [14]. Bugungi kunda quyidagi holatlarda bo‘lgan kishilar unga tobora ko‘proq ehtiyoj sezmoqdalar:

- Kam harakat turmush tarzi
- Ortiqcha vazn
- Tik turishni taqazo etadigan kasblar (o‘qituvchi, sartarosh)
- Homiladorlik
- Sportchilar
- Nogironligi bo‘lgan insonlar
- Operatsiyadan oldin va keyingi tiklanishda
- Qon tomir kasalliklarga moil insonlar


Kompression trikotaj mahsulotlari tibbiyot, sport yoki qomadni saqlash maqsadlari uchun siqish mahsulotlari sifatida ta’riflanishi mumkin. Ushbu mahsulotlarning siqilish xususiyatlariga asosiy e’tibor qaratiladi, ammo estetik, qulaylik va yakuniy foydalanish xususiyatlari iste’molchilar uchun katta ahamiyatga ega [15,16]. Tibbiy maqsadlar uchun mo‘ljallangan kompression mahsulotlar inson tanasining holatiga qarab tasniflanishi mumkin.


Bu tamoyil bosimning yuqoriga qarab kamayishi qon tomirlarda qon oqimini yaxshilashga yordam beradi va oyoq-qo‘llarning uch qisimlarida qon to‘planishining oldini oladi. Kundalik hayotda kompression trikotaj mahsulotlardan erkaklar va ayollar ham foydalanishlari mumkin, golfi yoki chulkilardan foydalanish faqat ayollar uchun degan tushuncha noto‘g’ri. Erkaklar va ayollar kompression trikotajining asosiy farqi ularning anatomik xususiyatlarida namoyon bo‘ladi. Ayollar kompression trikotaji ayollar tanasining shaklini, xususan son va bel sohasidagi egriliklarni hisobga oladi. Ayollar uchun mo‘ljallangan kompression paypoqlar yaxshiroq o‘rnashish va qulaylik uchun kengaytirilgan yuqori qismga ega. Erkaklar uchun kompression trikotaj esa son va bel sohasida kamroq ifodalangan egriliklarga ega bo‘lib, bu uni erkaklar uchun qulay qiladi [17]. Kompression trikotaj mahsulotlarning turlari muammoning joylashuvi va faollik darajasiga bog‘liq bo‘ladi, shuni xisobga olgan holda hozirgi kunda kompression trikotaj mahsulotlar assortimenti tibbiyot, sport, moda sohalarida keng foydalanib kelinmoqda, bu mahsulotlarning juda ko‘p turlari mavjud bo‘lib, quyida ularning ommabob mahsulot turlari haqida ma’lumotlar keltirilgan[16] (1-jadval).

Kompression trikotaji venoz kasalliklar (varikoz), oyoq venalarida tromboz yoki har qanday kelib chiqishi bo'lgan limfa oqimining buzilishi bilan og'rigan bemorlar uchun tavsiya etiladi [18]. Mahsulotni uning maqsadiga mos ravishda tanlash kerak. Bunday trikotajning bir nechta turlari mavjud bo'lib, ularning har biri o'ziga xos funktsiyani bajaradi:

1-jadval

Kompression kiyimlar inson tanasining holatiga qarab tasniflanishi

Tana qisimlari		Joylashuvi
Qo‘l qismi	Bilak	
	Tirsak	
	Yelka	
Oyoq qismi	To‘piq	
	Tizza	
	Son	
Boshqa qism	Qorin (xomiladorlar uchun)	
	Bel/umurtqa	



(3-rasm) Kompression paypoqlarda bosim darajasining taqsilanishi.

Kompression paypoqlar uchun bosim darajasining taqsimlanishi

Kompression golfi va paypoqlarda oyoq yuzasidagi bosim bir tekis taqsimlanmaydi: eng kuchli bosim to‘piq sohasida yuzaga keladi. So‘ngra oyoq bo‘ylab sonlarga tomon borgan sari u asta-sekin pasayib boradi (3-rasm).

Joylashuv	Bosim %
To‘piq	100%
Boldir	70–80%
Tizza	50–60%
Son	20–30%

Agar oyoqning to‘piq qismidagi bosim darajasi 30 mm simob ustuniga teng bo‘lsa, bosimming taqsimlanish darajasi taxminan quyidagicha bo‘ladi:

Boldir: ~21–24 mm simob ustuni
Tizza: ~15–18 mm simob ustuni
Son: ~6–9 mm simob ustuni

1.Profilaktik paypoq – venoz kasalliklarning rivojlanishining oldini olishga yordam beradi. Ko'p o'tiradigan yoki aksincha, ko'p turishga majbur bo'lgan odamlar, shuningdek, homilador ayollar uchun tavsiya etiladi.

2.Davolovchi paypoq – aniq patologiyalarni davolash uchun ishlatiladi.

3.Reanimatsion paypoq – tug'ish yoki operatsiyalar paytida trombozning oldini olish uchun kiyiladi.

4.Yaraga qarshi paypoq – yiringli yaralarni davolashda qo'llaniladi.

Kompressiya darajalari: Tibbiyotda trikotaj paypoqlari turli bosim kuchiga ega bo'lgan bir nechta kompressiya klasslari mavjud [17]. Kompressiya darajasi to'piqda qo'llaniladigan bosim kuchini belgilaydi va bu bosim millimetr simob ustuni (mmHg) bilan o'lchanadi va 4 ta kompressiya darajasiga taqsimlanadi: (2-jadval).

1. Birinchi daraja – varikozning boshlang'ich bosqichida, venalarning ozgina kengayishi va venoz yetishmovchilikning dastlabki belgilarida qo'llaniladi. Og'riq, xolsizlik, vaqt-vaqti bilan uvushish va shish, kapillyar tomirlar paydo bo'lishi orqali buni aniqlash mumkin. Bunday mahsulotlarni profilaktika maqsadida foydalanish mumkin.

2. Ikkinchi daraja – kengaygan venalarni toraytirish va mustahkamlash, muskullarda suyuqlikning to'planishining oldini olish uchun ishlatiladi. Faqat shifokor ko'rsatmasi bilan qo'llash mumkin.

3. Uchinchi daraja – bunday mahsulot qon tomirlarga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Surunkali og'ir venoz yetishmovchilik, doimiy shish, qon tomir operatsiyasidan oldin va keyin qo‘llaniladi.

4. To'rtinchi daraja – fil (slon) kasalligi, chuqur venalar trombozi va limfa oqimining buzilishlarini davolash uchun ishlatiladi. Faqat shifokor tomondan tavsiya etishi mumkin.[18]

(2-jadval)

Kompressiya darajalari

Kompressiya klassi - oyoqning to‘piq qismidagi bosim darajasiga aytiladi, klass kattalashgani sari bosim ham oshib boradi.		
0 klass (*Profilaktik*)	**I klass**	**II klass**
18 mmHg kam bo‘lgan	**18 - 21 mmHg**	**23 - 32 mmHg**
Oyoqlarda og‘irlik va charchoq, oz miqdorda shish paydo bo‘lganda. Venalar kasalliklariga moyilligi bo‘lgan odamlar, ko‘p o‘tirish yoki tik oyoqda ishlash, ortiqcha vazn, oyoqlarda og‘irlik hissi bo‘lganlar uchun mos keladi.	*Varikozning dastlabki belgilari paytida, oyoqlarda qisqarish va shishga moyillik bo‘lganda, homiladorlik davrida;*	*Varikozda, operatsiyalardan keyingi kompleks terapiyada, trombozning oldini olish uchun.*
III klass	**IV klass**	**Reanimatsion**
34 - 46 mmHg	**49 < mmHg**	**18, 23 va 35 mmHg**
Trofik buzilishlar va limfa shishlari bo‘lgan varikozda, qon tomirlar trombozida, venalar bo‘yicha operatsiyalardan keyin.	*Buyurtma asosida tayyorlanadi va tug‘ma kasalliklar, og‘ir va murakkab venalar kasalliklari, limfedemada tavsiya etiladi.*	*Homiladorlik va tug‘ish davrida, shuningdek, operatsiyalardan oldin, davomida va keyin trombozning oldini olish uchun.*

Odatda kompression trikotaj mahsulotlari (elastik bintlar, paypoqlar, qo‘l yenglari boshqalar) dunyo miqyosida, jumladan Osiyo mamlakatlarida ham tibbiy standartlar asosida ishlab chiqariladi. Lekin, har bir mintaqada o‘ziga xos tartiblar va qoidalarga amal qilinadi (3-jadval). Kompression trikotaj mahsulotlar o‘z vazifasini bajarishi va yordam berishi uchun, oyoq va bo‘y o‘lchamlariga mos kelishi lozim. Kompression trikotaj paypoq yoki golfilardan foydalanish uchun oyoqning aniq o‘lchovlarini olish zarur. Bu kiyimni qulay tarzda kiyish va undan maksimal darajada samarali foydalanishni ta’minlashga yordam beradi. O‘lchamlarni quyidagicha olish mumkin: (4-jadval)

(3-jadval)


Kompression mahsulotlari uchun mavjud davlat standartlari

Standart	0 klass mmHg	1 klass mmHg	2 klass mmHg	3 klass mmHg	4 klass mmHg
Rossiya ГОСТ Р 58236-2020	Dan kichik<18	18-21	22-32	33-46	47< katta
Britaniya BS 6612:1985	-	14-17	18-24	25-35	-
Germaniya (DIN 58133)	-	18-21	23-32	34-46	49< katta
Fransiya AFNOR NF G 30-102	-	10-15	15-20	20-36	36< katta
Yevropa ittifoqi EN ISO 13485	-	15-21	23-32	34-46	49< katta
Amerika ASTM D3578	-	15-20	20-30	30-40	-

(4-jadval)

Kompression paypoq mahsulotlarni tanlash uchun oyoqning o‘lchamlari

	1	2		
Bo‘y (sm)	152-170	170-182	AD,AG balandlik B,C,D,F,G,H–aylana (sm)	
AD	38-44	45-50		
AG	65-73	74-82		
O‘lcham	**S** (2)	**M** (3)	**L** (4)	**XL** (5)
B	20-22	22-25	25-28	28-31
C	30-38	33-42	37-46	42-51
D	28-35	31-40	35-44	40-49
F	41-48	44-53	48-57	53-62
G	44-54	48-60	54-66	60-72
H	<100	95-110	105-120	115-125



Kompression trikotaj mahsulotlar o‘z vazifasini bajarishi va yordam berishi uchun, oyoq va bo‘y o‘lchamlariga mos kelishi lozim. Kompression trikotaj paypoq yoki golfilardan foydalanish uchun oyoqning aniq o‘lchovlarini olish zarur. Bu kiyimni qulay tarzda kiyish va undan maksimal darajada samarali foydalanishni ta’minlashga yordam beradi. O‘lchamlarni quyidagicha olish mumkin: (4-jadval)

- Boldirning eng ingichka joyidagi aylanasi: to‘piq ustidan o‘lchanadi.(B)
- Boldirning eng keng joyidagi aylanasi: odatda boldirning o‘rtasi hisoblanadi.(C)
- Tizza aylanasi: tizzadan pastroq qismi o‘lchanadi.(D)
- Son aylanasi: tizza qopqog‘idan 10 sm yuqorida o‘lchanadi.(F)
- Golfiylar uchun uzunligi: tovondan tizzagacha. (AD)
- Chulki va kolgotkalar uchun: tovondan bel qismigacha (AG)(AH)


O‘lchovlarni ertalab, oyoq hali shishmagan paytda olgan ma’qul, chunki kun davomida, ayniqsa uzoq vaqt tik turganda yoki o‘tirganda, oyoqlar shishishi va o‘lchovlar noaniq bo‘lishi mumkin. Ertalab uyqudan so‘ng shish minimal darajada bo‘ladi, bu esa eng aniq o‘lchovlarni olish imkonini beradi. Kompression kiyimning to‘g‘ri tanlangan o‘lchami shunchaki qulaylik emas, balki vena kasalliklarini samarali davolash va oldini olishning kafolatidir. Haddan tashqari tor kiyim qon aylanishining buzilishiga olib kelishi mumkin, juda erkin kiyim esa zarur davolash ta’sirini ta’minlamaydi. Kompression kiyim kiyishga qulay bo‘lishi lozim. To‘g‘ri tanlangan o‘lcham terining qizarib ketishi, noqulaylik va boshqa yoqimsiz his-tuyg‘ular xavfini kamaytiradi. Kompression kiyim ishlab chiqaruvchilari tomonidan taqdim etiladigan o‘lcham jadvallari har bir mahsulotning o‘ziga xos "pasporti" hisoblanadi. Ular optimal o‘lchamni tanlash uchun zarur bo‘lgan aniq o‘lchovlarni ko‘rsatadi. Kompression paypoqlari alohida parvarishni talab qiladi, bu haqda ishlab chiqaruvchi har doim qadoqda belgilab qo‘yadi. Ishlab chiqaruvchi tavsiyalariga to‘g‘ri rioya qilish uning xususiyatlarini saqlab qolishga va xizmat muddatini uzaytirishga yordam beradi. Masalan: Effect of wearing and washing temperature on the performance of compression socks maqolasida kompression paypoqlarning bosim qiymatlariga ularni uzoq vaqt kiyish va turli haroratlarda yuvishning ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda 3 xil poliamid elastan aralashmasidan tayyorlangan 9 ta kompression paypoq namunalari ishlatilgan. Ushbu paypoqlar 15 kun davomida kiyilib, 5 marta yuvilgan va bosim qiymatlari MST Professional II tibbiy paypoq testeri yordamida o'lchangan. Olingan natijalarga ko‘ra shuni ko‘rsatganki, foydalanish jarayonida uzoq vaqt kiyilgan paypoqlarning bosim qiymatlari biroz kamaygan (23.7 mmHg dan 23.43 mmHg gacha).

Yuvish jarayonda esa haroratini oshgani sayin bosim qiymatlari ortgan 50°C haroratda eng yuqori bosim o'sishi kuzatilgan (bosim 33.8 mmHg dan 38 mmHg gacha oshgan). Tanlangan namunalar ichida eng yuqori bosim o'sishini elastin tarkibli namuna ko'rsatgan. Barcha paypoqlarning gradatsiya qiymatlari standart doirada (50–80%) saqlanib qolgan. O‘tkazilgan tajribaga asoslanib yuqori haroratda 50°C yuvish paypoqlarning bosimini oshiradi, lekin paypoq materialiga zarar yetkazishi mumkin. 40°C optimal harorat hisoblanadi, tarkibida elastan nisbati yuqori bo'lgan paypoqlar yuvishdan keyin ko'proq bosim o'sishini ko'rsatadi. Ko'p marta kiyish va yuvish paypoqlarning xizmat qilish muddatini baholashda muhim omil hisoblanadi. Ishlab chiqaruvchilar materiallar va yuvish rejimlarini optimallashtirish orqali paypoqlarning uzoq muddatli samaradorligini oshirish mumkin, foydalanuvchilar esa paypoqlarni to'g'ri yuvish va parvarish qilish ularning bosim xususiyatlarini saqlab qolishga yordam beradi [19].


Natija va xulosalar

An'anaviy kompression paypoqlar bir xil to‘qima tuzulishda bo‘lib foydalanish jarayonida oyoq geometrik shakli sababli bosimning notekis taqsimlanishiga olib keladi, bu esa nojo'ya ta'sirlarni va noqulaylik hissini keltirib chiqaradi. Qo‘shimcha to‘qima sifatida maxsusu tarkibli gibrit to‘qimalardan foydalanib oyoqninig maxsus joylariga mos ravishda kompression paypoq to‘qilgan (4-rasm). Natijalar in vivo va in vitro ko‘rsatkichlar yordamida baholangan. Tajriba shuni ko‘rsattiki in vivo ko‘rsatkichlarda bosim taqsimlanishi bir meyorda bo‘lib ko‘zlangan natijaga erishilgan, in vitro ko‘rsatkich yani yog’och modelda ushbu ko‘rsatkichlar aksincha nojo‘ya ta’sir ko‘rsatgan. Buni hisobga olgan holda, ilg'or uch o'lchovli choksiz to'qish texnologiyasi va noyob konstruktiv dizayndan foydalangan holda gibrid elastik xususiyatlarga ega yangi geterogen siqish paypoqlari foydalanishda odatiy to‘qima turiga ega kompressin paypoqlarga nisbatan samarasini oshiradi.

Agar kompression trikotaj paypoqlarining tarkibini to‘qima va trikotaj tuzulmalarining kombinatsiyasidan iborat yangi turdagi to‘qilgan mato taqdim etsak, ular kompression trikotaj paypoqlarining yaxshiroq bosimni nazorat qilish imkoniyatini beradi (5-rasm).



4-rasm. Gibrit tarkibli trikotaj to‘qimalari.



5-rasm: Maxsus tarkibli gibrit to‘qimalar.

Buning uchun trikotaj to‘qimalar tarkibiga to‘qima usulidagi qo‘shimcha to‘ldiruvchi iplarni integratsiyalash usuli qo‘llsak, aralash tuzilma to‘qimalarning funksional xususiyatlarini yaxshilanadi. Asosiy qismi naylon–spandeks (nylon–spandex) aralashmasidan tayyorlanadi. Quyidagi asosiy trikotaj tuzilmalari: single jersey, single pique, 1 × 1 mock rib va 2 × 2 mock rib, ular qo‘shimcha to‘ldiruvchi iplarsiz hamda ular bilan birga ishlangan. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, single jersey, single pique, 1 × 1 mock rib va 2 × 2 mock rib tarkibli kompression paypoqlar eng yuqori ijobiy natijalarni olish mumkin [20].

Reference

1.https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-compression-garments-stockings-t?srsltid=AfmBOorAdYvFn3f2gXJOvht5GnLOTwm5xXkg 33PBKjdCDaREVqhjizA
2.https://www.cognitivemarketresearch.com/medical-compression-garments-market-report?srsltid=AfmBOooqQ4OY0B13_D1TnSaOSE4T1MtpjxiCNB2EH-uBDRxpPC6Kdsa-
3.https://www.futuremarketreport.com/ru/industry-report/compression-garments-market
4.https://textileexpo.uz/uz/yangiliklar/toqimachilik-sanoatini-rivojlantirish-boyicha-chora-tadbirlar-muhokama-qilindi
5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-yanvardagi PF-2-sonli Farmoni — “Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.01.2025 yildagi PF-6-son Farmoni, To‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.
7.Rabe, E., et al. (2018) Indications for Medical Compression Stockings in Venous and Lymphatic Disorders: An Evidence-Based Consensus Statement. Phlebology, 33, 163-184. https://doi.org/10.1177/0268355516689631
8.Perrey, S. Compression Garments: Evidence for their Physiological Effect. Eng. Sports 2008, 2, 319–328.
9.Daniel Rabe, Hugo Partsch, Gerhard Heidl, Mirko Hirschl, Michael Kundi, Eberhard RabeFel izitas Pannier, Compression treatment in acute symptomatic proximal deep venous thrombosis – Results of a worldwide survey https://doi.org/10.1177/02683555211003 522-534-p.
10.Daniel Rabe, Hugo Partsch, Gerhard Heidl, Mirko Hirschl, Michael Kundi, Eberhard RabeF elizitas Pannier, Compression treatment in acute symptomatic proximal deep venous thrombosis – Results of a worldwide survey https://doi.org/10.1177/02683555211003 522-534-p.
11. Troynikov, O.; Ashayeri, E. 3D body scanning method for close-fitting garments in sport and medical applications. In HFESA 47th Annual Conference; Ergonomics Australia—Special Edition; Crows: Crows Nest, Australia, 2011; pp. 1–6.
12.Sau-Fun, N.; Chi-Leung, H.; Lai-Fan,W. Development of medical garments and apparel for the elderly and the disabled. Text. Prog. 2011, 43, 247–252.
13.https://baldinelli.ua/ua/articles/kompresijnyj-trykotazh-koryst-vydy-jak-vybraty
14.Saggers, M. Inflatable Garment for Intermittent Compression Therapy. U.S. Patent No. US4722332A, 2 February 2021.
15.Senthilkumar, M.; Anbumani, N.; Hayavadana, J. Elastane Fabrics—A Tool for Stretch Application in Sports. Indian J. Fibre Text. Res. 2011, 36, 300–307.
16.Trenell, M.I.; Rooney, K.B.; Sue, C.M.; Thomspon, C.H. Compression Garments and Recovery from Eccentric Exercise: A P-MRS Study. J. Sports Sci. Med. 2006, 5, 106–114. [PubMed]
17.Morrison, T. American Classification of Compression Stockings. Available online:https://www.tagungsmanagement.org/icc/images/stories/PDF/morrison_american_classification.pdf (accessed on 22 May 2024).

18. https://baldinelli.ua/ua/articles/kompresijnyj-trykotazh-koryst-vydy-jak-vybraty

19.Effect of wearing and washing temperature on the performance of compression socks DOI: 10.35530/IT.073.05.202194 ENGIN AKÇAGÜN Industria Textila jurnali, 2022 yil, 73-jild, 5-son 544-553-b.

20.Duffield, R.; Portus, M. Comparison of Three Types of Full-body Compression Garments on Throwing and Repeat-sprint Performance in Cricket Players. Br. J. Sports Med. 2007, 41, 409–414.

UO‘K:677.017.5:536.46.004.12

TRIKOTAJ MATOLARINING KO‘P DAVRLI CHO‘ZILISH DEFORMATSIYASINI ANIQLASHDA PULSATOR QURILMASINING TEXNIK IMKONIYATLARINI BAHOLASH

M.F. Axmedova, D.H. Ubaydullayeva, G.Q. Norboyayeva, F.F. Umirov
Tashkent institute of textile and light industry

Annotatsiya. *Mazkur maqolada trikotaj matolarining ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan pulsator qurilmasining texnik imkoniyatlari baholangan. Zamonaviy sinov uskunalarining funksional imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning trikotaj matolarni uzoq muddatli takrorlanuvchi kuch ta’sirida sinashdagi mavjud cheklovlari ko‘rsatib berilgan. Ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyani aniqlash uchun ishlab chiqilgan pulsator qurilmasining konstruktiv tuzilishi, avtomatik boshqaruv tizimi va ishlash prinsipi yoritilgan. Qurilma yordamida dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi hamda cho‘zilish amplitudasini mustaqil boshqarish va sinov jarayonini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratilgan. Tadqiqot davomida qurilmaning texnik tavsiflari, o‘lchash aniqligi va takrorlanuvchanlik ko‘rsatkichlari baholandi. Natijalar ishlab chiqilgan qurilma ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini baholashda yuqori aniqlikni ta’minlashini hamda laboratoriya sharoitlarini trikotaj matolarning haqiqiy ekspluatatsiya sharoitlariga yaqinlashtirish imkonini berishini ko‘rsatdi. Taklif etilgan qurilma ilmiy tadqiqotlar va ishlab chiqarish laboratoriyalarida trikotaj matolarning deformatsion xossalarini baholashda qo‘llanishi mumkin..*

Kalit so‘zlar*: trikotaj mato, ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasi, pulsator qurilmasi, dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi, cho‘zilish amplitudasi, Hall sensori, mikroprotsessor, deformatsion xossalar, sinov usuli.*

Аннотация. *В статье проведена оценка технических возможностей разработанного пульсатора для определения многоцикловой деформации растяжения трикотажных полотен. Выполнен анализ функциональных возможностей современных испытательных установок и выявлены их ограничения при моделировании длительных циклических нагрузок. Представлены конструкция, принцип работы и система автоматического управления разработанного устройства. Пульсатор обеспечивает независимое регулирование начальной силы, частоты нагружения и амплитуды растяжения с автоматической регистрацией результатов испытаний. Исследованы технические характеристики устройства, точность измерений и воспроизводимость результатов. Полученные данные подтверждают возможность применения разработанного пульсатора для объективной оценки деформационных свойств трикотажных полотен в условиях, максимально приближенных к реальной эксплуатации.*

Ключевые слова: *трикотажное полотно, многоцикловая деформация растяжения, пульсатор, начальная сила, частота нагружения, амплитуда растяжения, датчик Холла, микропроцессор, деформационные свойства, метод испытаний.*

Abstract*. This paper evaluates the technical capabilities of a newly developed pulsator designed to determine the multi-cycle tensile deformation of knitted fabrics. The functional*

characteristics of existing testing equipment are analyzed, and their limitations in simulating long-term cyclic loading are identified. The design, operating principle and automatic control system of the proposed pulsator are presented. The device enables independent control of the initial force, loading frequency and elongation amplitude while automatically recording test data in real time. The technical specifications, measurement accuracy and repeatability of the device were experimentally evaluated. The results demonstrate that the developed pulsator provides reliable and reproducible measurements of multi-cycle tensile deformation and allows laboratory testing conditions to closely simulate the actual service conditions of knitted fabrics. The proposed device can be effectively used in scientific research and industrial laboratories to evaluate the deformation properties of knitted fabrics.

Key words: *knitted fabric, multi-cycle tensile deformation, pulsator, initial force, loading frequency, elongation amplitude, Hall sensor, microprocessor, deformation properties, testing method.*

Kirish. To‘qimachilik sanoatida ishlab chiqarilayotgan trikotaj matolarga qo‘yiladigan talablar yildan-yilga ortib bormoqda. Zamonaviy kiyim-kechak mahsulotlari nafaqat estetik ko‘rinishi, balki uzoq muddat davomida o‘zining geometrik o‘lchamlari va ekspluatatsion xossalarini saqlab qolishi bilan ham ajralib turishi lozim. Ayniqsa, sport kiyimlari, tibbiy buyumlar, maxsus kiyimlar hamda bolalar kiyimlari ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan trikotaj matolar takrorlanuvchi mexanik ta’sirlar ostida ishlashi sababli ularning ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini ishonchli baholash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi [1–5]. Trikotaj matolarning halqali tuzilishi ularga yuqori elastiklik va egiluvchanlik beradi. Shu bilan birga, aynan ushbu tuzilish ko‘p martalab takrorlanuvchi cho‘zilish ta’sirida deformatsion xossalarning o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Ekspluatatsiya davomida mato halqalari deformatsiyalanadi, ichki kuchlanishlar qayta taqsimlanadi, ip bo‘laklari o‘zaro siljiydi va ma’lum miqdorda qoldiq deformatsiya hosil bo‘ladi. Ushbu jarayonlar mahsulotning shakl barqarorligi, xizmat muddati va iste’mol xossalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mavjud standart sinov usullari, jumladan ISO 13934-1 va ISO 20932-1, asosan bir martalik yoki qisqa muddatli deformatsiya jarayonlarini baholashga mo‘ljallangan. Bunday sinovlar trikotaj matolarning uzoq muddatli ekspluatatsiya sharoitida yuzaga keladigan ko‘p davrli deformatsion jarayonlarini to‘liq aks ettira olmaydi. Natijada laboratoriya sinovlari natijalari bilan haqiqiy foydalanish sharoitida kuzatiladigan deformatsiya ko‘rsatkichlari o‘rtasida tafovut yuzaga keladi. So‘nggi yillarda xorijiy tadqiqotchilar tomonidan universal sinov mashinalari asosida matolarning deformatsion xossalarini o‘rganish bo‘yicha qator ilmiy ishlar amalga oshirilgan. Biroq ushbu qurilmalarning aksariyatida dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi va cho‘zilish amplitudasini mustaqil boshqarish hamda millionlab yuklanish davrlarini avtomatik ravishda amalga oshirish imkoniyati cheklangan. Shu sababli ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini baholash uchun maxsus texnik yechimlarni ishlab chiqish zarurati yuzaga kelmoqda[1–5]. Shu munosabat bilan mazkur tadqiqotda ishlab chiqilgan pulsator qurilmasining texnik imkoniyatlarini baholash, uning konstruktiv yechimi, boshqaruv tizimi, o‘lchash aniqligi va ko‘p davrli sinovlarni amalga oshirishdagi afzalliklarini aniqlash asosiy ilmiy vazifa sifatida belgilandi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan qurilmaning trikotaj matolarning ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini baholashda qo‘llash imkoniyatlarini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

Mavjud sinov qurilmalarining qiyosiy tahlili. Trikotaj matolarining deformatsion xossalarini baholashda universal sinov mashinalari keng qo‘llanilishiga qaramay, ularning aksariyati bir martalik yoki qisqa muddatli cho‘zilish sinovlarini bajarishga mo‘ljallangan. Bunday qurilmalarda maksimal kuch, uzilishdagi cho‘zilish va elastiklik ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkin bo‘lsa-da, trikotaj matolarning ekspluatatsiya davomida uchraydigan ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini real sharoitlarga yaqinlashtirib baholash imkoniyati cheklangan. Sinov mashinalarida kuch berish jarayoni, odatda, uzluksiz yoki bir martalik yuklanish rejimida amalga

oshiriladi. Bunda dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi va cho‘zilish amplitudasini mustaqil boshqarish imkoniyati mavjud bo‘lsa ham, uzoq muddatli takrorlanuvchi yuklanishlarda avtomatik boshqaruv va uzluksiz monitoring funksiyalari yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Natijada ekspluatatsiya jarayonida yuzaga keladigan qoldiq deformatsiyaning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash murakkablashadi [6,7]. Shuningdek, mavjud qurilmalarning ko‘pchiligida sinov natijalarini real vaqt rejimida qayd etish, millionlab yuklanish davrlarini uzluksiz bajarish hamda deformatsiya ko‘rsatkichlarini avtomatik tahlil qilish imkoniyatlari cheklangan. Bu esa ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini baholash aniqligiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlash uchun maxsus pulsator qurilmasi ishlab chiqildi. Qurilmaning konstruktiv yechimi sinov ko‘rsatkichlarini mustaqil boshqarish, o‘lchash aniqligini oshirish va natijalarni avtomatik qayd etishga qaratilgan.


Tadqiqot obyekti va usullari. Tadqiqot obyekti sifatida paxta va paxta-elastan iplaridan ishlab chiqarilgan kulir va ikki qavatli trikotaj matolar tanlandi. Sinov namunalari amaldagi standartlar talablari asosida tayyorlandi. Namunalarning ishchi qismi uzunligi 100±1 mm, eni 50±0,5 mm qilib belgilandi. Eksperimental tadqiqotlar ishlab chiqilgan ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlovchi pulsator qurilmasi yordamida amalga oshirildi. Qurilma mikroprotsessorli boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, unda sinov ko‘rsatkichlari dasturiy ravishda kiritiladi va avtomatik ravishda boshqariladi [8, 9].

Sinovlarda quyidagi ko‘rsatkichlar o‘zgartirildi:

- dastlabki kuch – 10–50 N;
- kuchlanish chastotasi – 3,3–5,0 Hz;
- cho‘zilish amplitudasi – 5–50 mm.

Har bir tajriba uch marotaba takrorlandi va olingan natijalarning o‘rtacha qiymatlari hisoblab chiqildi. Natijalarga matematik-statistik ishlov berishda regressiya va dispersiya tahlili usullaridan foydalanildi.

Pulsator qurilmasining konstruktiv tuzilishi va ishlash prinsipi. Ishlab chiqilgan pulsator qurilmasi trikotaj matolarning ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini avtomatik ravishda aniqlashga mo‘ljallangan. Qurilma mexanik, elektron va dasturiy boshqaruv qismlaridan tashkil topgan yagona tizim sifatida ishlaydi.



1-rasm. Qurilmaning chizma sxemasi

1-Asosiy qism; 2- elektrdvigatel; 3,5 – shkivlar; 4- klinli tasma; 6-disk; 7,8- krivoship; 9-tayanch; 10-yo‘riqnoma; 11- Hall datchigi; 12,13-qisqichlar; 14- chiziqli podshipnik; 15-slayder; 16,17- gaykalar; 18- vint; 19-klinli qisqichlar; 20-mahkamlagich; 21- datchik; 22-mato namunasi.

Qurilmaning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- harakatlanuvchi qisqich;
- qo‘zg‘atuvchi mexanizm;

- Hall sensori;
- kuch datchigi;
- mikroprotsessorli boshqaruv bloki;
- elektr yuritma;
- boshqaruv paneli.

Sinov boshlanishidan oldin namuna qisqichlarga mahkamlanadi va dastur orqali dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi hamda cho‘zilish amplitudasi qiymatlari kiritiladi. Mikroprotsessor elektr yuritma ishini boshqarib, harakatlanuvchi qisqichni belgilangan amplitudada davriy harakatlantiradi.Har bir yuklanish davrida Hall sensori harakat parametrlarini, kuch datchigi esa namuna holatidagi kuch qiymatlarini uzluksiz qayd etadi. Olingan ma'lumotlar mikroprotsessor tomonidan qayta ishlanib, kompyuter xotirasiga uzatiladi. Shu tariqa deformatsiya jarayoni real vaqt rejimida nazorat qilinadi. Mazkur avtomatik boshqaruv tizimi operator ishtirokini minimal darajaga tushiradi, inson omili bilan bog‘liq xatoliklarni kamaytiradi va sinov natijalarining takrorlanuvchanligini oshiradi [8, 9].



2-rasm. Trikotaj matolar uchun ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyani aniqlash qurilmasi

1-jadval


Pulsator qurilmasining asosiy texnik tavsiflari

Ko‘rsatkich	**Qiymati**
Dastlabki kuch diapazoni	10–50 N
Kuchlanish chastotasi	3,3–5,0 Hz
Cho‘zilish amplitudasi	5–50 mm
Maksimal davrlar soni	10^7 gacha
Namuna ishchi uzunligi	100±1 mm
Namuna eni	50±0,5 mm
Namuna qalinligi	0,5–5 mm
Boshqaruv tizimi	Mikroprotsessorli
Harakat nazorati	Hall sensori
Ma'lumotlarni qayd etish	Avtomatik

Qurilmaning texnik imkoniyatlarini dastlabki baholash. 1-jadval ma'lumotlaridan ko‘rinadiki, ishlab chiqilgan pulsator qurilmasi ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini baholash uchun zarur bo‘lgan asosiy sinov ko‘rsatkichlarini keng diapazonda boshqarish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi va cho‘zilish amplitudasining mustaqil ravishda

boshqarilishi turli ekspluatatsiya sharoitlarini laboratoriya sharoitida modellashtirish imkonini beradi. Qurilmada 10^7 davrgacha uzluksiz sinov o'tkazish imkoniyatining mavjudligi uni an'anaviy bir martalik cho‘zilish sinov qurilmalaridan ajratib turadi. Bu ko‘rsatkich trikotaj matolarda uzoq muddatli foydalanish davomida yuzaga keladigan deformatsion jarayonlarni tadqiq etishda muhim afzallik hisoblanadi.

Hall sensori asosida harakat parametrlarining uzluksiz nazorat qilinishi va mikroprotsessor yordamida ma'lumotlarning avtomatik qayta ishlanishi sinov aniqligini oshiradi. Shu bilan birga, avtomatik boshqaruv tizimi har bir yuklanish davrining belgilangan qiymatlarga mos ravishda takrorlanishini ta'minlaydi. Bu esa eksperimental natijalarning takrorlanuvchanligi, ishonchliligi va metrologik barqarorligini oshiradi. Mazkur texnik imkoniyatlar ishlab chiqilgan pulsator qurilmasining ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlashda ilmiy tadqiqotlar hamda ishlab chiqarish laboratoriyalarida qo‘llash uchun istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi.



3-rasm. Ko'p davrli sinov davomida qoldiq deformatsiyaning o'zgarishi

Grafik natijalari shuni ko'rsatadiki, dastlabki davrlarda qoldiq deformatsiya tez ortadi. Keyinchalik o'sish sur'ati sekinlashadi va deformatsiya barqarorlashish bosqichiga o'tadi. Ushbu holat trikotaj matoning viskoelastik tabiati bilan izohlanadi. Dastlab halqa elementlarining geometrik qayta joylashishi sodir bo'ladi, keyingi bosqichlarda esa ichki kuchlanishlarning qayta taqsimlanishi natijasida deformatsiya ortish sur'ati kamayadi.

Tajriba natijalarini tahlili. Olingan natijalar ishlab chiqilgan pulsator qurilmasining ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlashda yuqori funksional imkoniyatlarga ega ekanligini tasdiqladi. Universal sinov mashinalari asosan statik yoki qisqa muddatli yuklanishlarni bajarishga mo‘ljallangan bo‘lsa, ishlab chiqilgan qurilma uzoq muddatli davriy yuklanishlarni barqaror rejimda hosil qiladi [10-11]. Qurilmada dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi va cho‘zilish amplitudasining mustaqil boshqarilishi sinov sharoitlarini turli ekspluatatsiya rejimlariga moslashtirish imkonini berdi. Natijada trikotaj matolarning xizmat jarayonida yuzaga keladigan deformatsion holati laboratoriya sharoitida ishonchli modellashtirildi. Hall sensori va mikroprotsessorli boshqaruv tizimining qo'llanilishi sinov aniqligini oshirdi. Har bir yuklanish davrining nazorat qilinishi natijasida sinovlar yuqori takrorlanuvchanlik bilan bajarildi. Bu esa eksperimental ma'lumotlarning statistik ishonchliligini ta'minladi. Qurilmaning yana bir muhim afzalligi sinov natijalarining real vaqt rejimida qayd etilishi hisoblanadi. Bu imkoniyat deformatsiyaning rivojlanish dinamikasini kuzatish, kritik davrlarni aniqlash va qoldiq deformatsiyaning yig'ilish qonuniyatlarini tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur xususiyat ilmiy tadqiqotlarda regressiya modellarini yaratish va deformatsiya jarayonlarini prognozlash uchun muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, qurilmaning konstruktiv yechimi turli turdagi trikotaj matolarni sinash imkonini beradi. Namuna o'lchamlarini standart talablar asosida tanlash va sinov ko'rsatkichlarini dasturiy boshqarish natijalarning taqqoslanuvchanligini oshiradi. Shu sababli

ishlab chiqilgan qurilma ilmiy laboratoriyalar bilan bir qatorda ishlab chiqarish korxonalarining sifat nazorati laboratoriyalarida ham qo'llanishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqotda trikotaj matolarining ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasini aniqlash uchun ishlab chiqilgan pulsator qurilmasining texnik imkoniyatlari kompleks ravishda baholandi. Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijasida qurilmaning dastlabki kuch, kuchlanish chastotasi va cho‘zilish amplitudasini mustaqil hamda yuqori aniqlikda boshqarish imkoniyatiga ega ekanligi aniqlandi. Mikroprotsessorli boshqaruv tizimi va Hall sensori asosida sinov jarayonining avtomatlashtirilishi o‘lchash aniqligini oshirib, eksperimental natijalarning takrorlanuvchanligi va ishonchliligini ta'minladi. Tadqiqot natijalari ishlab chiqilgan pulsator qurilmasi yordamida trikotaj matolarda ko‘p davrli cho‘zilish deformatsiyasining rivojlanish qonuniyatlarini real vaqt rejimida kuzatish, qoldiq deformatsiyaning o‘zgarishini baholash hamda ekspluatatsiya sharoitlariga yaqin sinovlarni amalga oshirish mumkinligini ko‘rsatdi [12-15]. Qurilmaning 10^7 davrgacha uzluksiz sinov o‘tkazish imkoniyati uni mavjud sinov mashinalaridan ajratib turuvchi muhim afzalliklardan biri hisoblanadi.

Reference

1. Shustov Y.S. Osnovi tekstilnogo materialovedeniY. –M.:OOO “Sovyaj Bevo” 2007.
2. D.H.Ubaydullayeva, T.A.Toyirova, D.A Xalmatov, M.T.Yuldasheva, A.V Axmadbekova // Change Efficiency of Cleaning Cotton from Small and Large Pollutions // International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology Vol. 7, Issue 9, 2020.
3. Z.F.Valieva, A.A.Akhmedov, Tolkin Ashurovich Ochilov, Dilora Xamidovna Ubaydullayeva, Sherzod Ahmadjonovich Korabayev // Possibility to Use Acoustic Device Pam-1 to Determine Quality Characteristics of Wool Fiber, Annals of R.S.C.B., 2021pages.
4. Ashurov K, M.Kulmetov, Ubaydullayeva D.X., I.D.Abdulxamidovich, Usanov M.M., // On The Quality Indications of Bed Fabrics Evaluation // International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology (IJIRSET) 2021.
5. Ubaydullayeva D.Kh., Abdurakhimova M.M., Ishanova Z. Ortikova N Comprehensive evaluation the new fleecy knitted // Development and innovations in science International scientific-online conference. Netherlands. 24-26 pages
6. Hakhadjaeva N., Mukimov M. // Flat knnittin interlock structures. Indian Textile Journal № 1. 14-18 pag. www.indiantextilejournanal.com.
7. D.Kh.Ubaydullayeva, R. A. Begmanov, I. V. Abdurasulov, Z. Djalilova, D.T.Nazarova // Comprehensive Quality Assessment and Forecasting the Properties of Press Weaving Knitting// International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology 2022/1
8. Axmedova M.F., Trikotaj matolarining ko'p davrli cho'zilish deformatsiyasini aniqlash usulini ishlab chiqish. Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2026.
9. Axmedova M.F., Ubaydullayeva D.X. To'qimachilik materiallarining ko'p davrli cho'zilish deformatsiyasini aniqlash pulsator qurilmasi: foydali model. – O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk markazi. DGU № 54222, 19.08.2025.
10. D.Ubaydullayeva, Z.Valiyeva R.Begmanov // Primeneniye upravleniye kachestvom produksii tekstilnoy promishlennosti // "Ekonomika i sotsium" // 2022.
11. D.Ubaydullayeva et al. Chng efficiency of cleaning cotton from small and large pollutions //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology.-2020.-T.7.-№ 9.-C.14781-14784.
12. D.Ubaydullayva, M.Janiyeva, M.Axmedova, N.Ortikova, S.Rustamova “Ikki qavvatli trikotaj to‘qimasining deformayesiya xususiyatlarini tadqiqi” “Soha korxonalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda dual ta’limning o‘rni hamda fan, ta’lim, ishlab chiqarish

klasterlarini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar” xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. 1-qism. Toshkent 28-noyabr.2023. 323bet.
13. D.Ubaydullayva, R. Begmanov, M.Axmedova “Sanoat va qishloq xo‘jalik tarmoqlarida ekologiya va mehnat muhofazasi muommalari” Respublika ilmiy amaliy konferensiY. Buxoro. 2023.19-20 oktabr.310 bet.
14. D.Ubaydullayva, Sh.Shumkarova, A.Gafurova, R. Begmanov, M.Axmedova, M.Abdurakimova // Study of the physical properties of footer khnitting// ISSN:1624-1940. DOI 10.6084/m9.figshare.2632574. cahiers magellanes-ns. Volume 06 Issue 2024 http://magellanes.com/
15. D.X.Ubaydullayeva, M.F.Axmedova, N.Ortikova Izucheniye deformatsionnix xarakteristik dvuxsloynogo trikotajnogo perepleteniye. “Ensuring seismic safety and seismic stability of buildings and structures, applied problems of mechanics” dedicated to the 90 th anniversary of Academician T.R.Rashidov.Tashkent, may 27-29.2024. 234-239 b.

UDC 532.529:533.6

TOLALI-DISPERS SANOAT ZARRACHALARINING TASNIFI VA AERODINAMIK XUSUSIYATLARINING NAZARIY TAHLILI

A.Sh.Adilova[1]
Tashkent State University of Economics

Annotatsiya. *Maqolada sanoat korxonalarida texnologik jarayonlar natijasida hosil bo‘ladigan tolali-dispers zarrachalarning tasnifi hamda ularning aerodinamik xususiyatlari nazariy jihatdan tahlil qilingan. Paxta tozalash sanoati, to‘qimachilik, sellyuloza-qog‘oz, yog‘ochni qayta ishlash, biomassa va mineral tolalar bilan bog‘liq ishlab chiqarishlarda hosil bo‘ladigan tolali zarrachalarning geometrik, fizik va aerodinamik xususiyatlari umumlashtirildi. Adabiyotlar tahlili asosida tolali zarrachalarning harakatiga ta’sir etuvchi asosiy parametrlar — aspekt nisbati, geometrik anizotropiya, oriyentatsiya burchagi, dinamik shakl koeffitsiyenti, aerodinamik ekvivalent diametr, massa, haqiqiy zichlik, inersiya, gigroskopiklik, aglomeratsiya va elektrostatik ta’sir tizimli ravishda tahlil qilindi. Mavjud nazariy yondashuvlar o‘zaro taqqoslanib, tolali zarrachalarning aerodinamik harakatiga ta’sir etuvchi parametrlar o‘rtasidagi bog‘liqlik yagona konseptual sxema asosida umumlashtirildi. Shuningdek, tolali-dispers zarrachalar uchun geometrik, fizik va aerodinamik xususiyatlarni kompleks hisobga oluvchi parametrik yondashuv taklif etildi. Ushbu natijalar tolali sanoat changi harakatini matematik modellashtirish, chang ushlash qurilmalarini hisoblash hamda havoni tozalash tizimlarining samaradorligini baholash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *tolali-dispers zarrachalar, sanoat changi, aspekt nisbati, geometrik anizotropiya, dinamik shakl koeffitsiyenti, aerodinamik ekvivalent diametr, oriyentatsiya, inersiya, aerozollar.*

Аннотация: *В статье представлен теоретический анализ классификации и аэродинамических свойств волокнисто-дисперсных промышленных частиц, образующихся в различных технологических процессах. Обобщены геометрические, физические и аэродинамические характеристики частиц, возникающих в хлопкоочистительной, текстильной, целлюлозно-бумажной, деревообрабатывающей, биомассовой и других отраслях промышленности. На основе анализа современных научных публикаций систематизированы основные параметры, определяющие движение волокнистых частиц в газовом потоке: аспектное отношение, геометрическая анизотропия, ориентация, динамический коэффициент формы, аэродинамический эквивалентный диаметр, масса, плотность, инерционные свойства, гигроскопичность, агломерация и*

электростатическое взаимодействие. Выполнено сравнительное обобщение существующих теоретических подходов и предложена концептуальная схема взаимосвязи физических и аэродинамических параметров волокнисто-дисперсных частиц. Предложенный параметрический подход может быть использован при математическом моделировании движения промышленных волокнистых аэрозолей, расчёте аппаратов пылеулавливания и оценке эффективности систем очистки воздуха.

Ключевые слова: *волокнисто-дисперсные частицы, промышленная пыль, аспектное отношение, геометрическая анизотропия, динамический коэффициент формы, аэродинамический эквивалентный диаметр, ориентация, инерция, аэрозоли.*

Abstract: *This paper presents a theoretical analysis of the classification and aerodynamic properties of fibrous-dispersed industrial particles generated during technological processes. The geometric, physical, and aerodynamic characteristics of particles originating from cotton processing, textile manufacturing, pulp and paper production, wood processing, biomass utilization, and mineral fiber industries are systematically reviewed. Based on a comprehensive analysis of contemporary scientific literature, the principal parameters governing the motion of fibrous particles in gas flows are identified, including aspect ratio, geometric anisotropy, orientation angle, dynamic shape factor, aerodynamic equivalent diameter, particle mass, true density, inertial properties, hygroscopicity, agglomeration, and electrostatic interaction. Existing theoretical approaches are comparatively analyzed, and a conceptual framework describing the relationships among these parameters is proposed. In addition, a generalized parametric approach integrating the geometric, physical, and aerodynamic characteristics of fibrous particles is developed. The obtained results provide a theoretical basis for mathematical modeling of fibrous industrial aerosol transport, the design and calculation of dust collection equipment, and the improvement of industrial air-cleaning systems.*

Keywords: *fibrous-dispersed particles, industrial dust, aspect ratio, geometric anisotropy, dynamic shape factor, aerodynamic equivalent diameter, particle orientation, inertia, aerosols.*

Kirish. Sanoat korxonalarida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar natijasida havoga turli o‘lcham, shakl va fizik xususiyatlarga ega bo‘lgan dispers zarrachalar ajralib chiqadi. Ushbu zarrachalar ishlab chiqarish muhitining sanitariya-gigiyena holati, ventilyatsiya va havoni tozalash tizimlarining samaradorligi hamda atrof-muhit muhofazasi nuqtayi nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, paxta tozalash sanoati, to‘qimachilik, sellyuloza-qog‘oz, yog‘ochni qayta ishlash, biomassa va mineral tolalar ishlab chiqarish jarayonlarida hosil bo‘ladigan tolali-dispers zarrachalar geometrik shakli va aerodinamik xususiyatlari bilan sferik zarrachalardan tubdan farq qiladi. Tolali zarrachalarning asosiy xususiyati yuqori aspekt nisbati, geometrik anizotropiyasi va havo oqimiga nisbatan o‘zgaruvchan oriyentatsiyasi bilan belgilanadi. Bu xususiyatlar aerodinamik qarshilik, harakat trayektoriyasi, cho‘kish tezligi va filtratsiya jarayoniga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, namlik, aglomeratsiya va elektrostatik zaryadlanish kabi tashqi omillar tolali aerozollarning aerodinamik parametrlarini o‘zgartirishi mumkin.

Aerozollar mexanikasidagi klassik nazariy modellar asosan sferik yoki izometrik zarrachalar uchun ishlab chiqilgan bo‘lib, tolali zarrachalarning anizotrop geometriyasi, aylanish dinamikasi va oqimga nisbatan oriyentatsiyasining o‘zgarishini to‘liq aks ettirmaydi. Natijada ushbu modellarni tolali-dispers zarrachalarga bevosita qo‘llash ularning aerodinamik harakatini baholash aniqligini pasaytirishi mumkin. So‘nggi yillarda tolali aerozollarning aerodinamik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda aspekt nisbati, dinamik shakl koeffitsiyenti, aerodinamik ekvivalent diametr, inertsiya, oriyentatsiya burchagi va tashqi muhit omillarining oqimidagi harakatga ta’siri nazariy hamda eksperimental jihatdan keng tadqiq

etilmoqda. Biroq ushbu parametrlarni yagona parametrik tizim asosida umumlashtirish, turli tolali zarrachalarni aerodinamik nuqtayi nazardan tasniflash va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni kompleks baholash masalalari yetarlicha yoritilmagan. Mazkur maqolaning maqsadi sanoatda hosil bo‘ladigan tolali-dispers zarrachalarni kelib chiqishi va fizik xususiyatlari bo‘yicha tasniflash, ularning aerodinamik harakatini belgilovchi asosiy geometrik, fizik va dinamik parametrlarni nazariy jihatdan tahlil qilish hamda ushbu parametrlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiruvchi umumlashtirilgan konseptual modelni taklif etishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili: Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik harakatini nazariy jihatdan tavsiflash aerozollar mexanikasi, dispers muhitlar fizikasi hamda ko‘p fazali oqimlar dinamikasining dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohadagi tadqiqotlar asosan zarrachalarning geometrik shakli, aspekt nisbati, aerodinamik qarshiligi, dinamik shakl koeffitsiyenti, oriyentatsiyasi, inertsion xususiyatlari va tashqi muhit omillarining ta’sirini aniqlashga qaratilgan. Tolali zarrachalar harakatining nazariy asoslari [1] tomonidan ellipsoid shaklli zarrachalarning qovushqoq muhitdagi harakatini tavsiflovchi klassik model orqali yaratilgan. Uning nazariyasi zarracha geometriyasi va aspekt nisbati, aylanish dinamikasi hamda oqimga nisbatan oriyentatsiyani belgilovchi asosiy omillar ekanligini asoslab berdi. Mazkur yondashuv keyin olimlarning tadqiqotlarida tolali zarrachalar aerodinamikasining fundamental nazariy poydevori sifatida qabul qilindi. Tolali zarrachalarning geometrik xususiyatlari va aerodinamik parametrlari [2,3] ishlarida keng tadqiq etilgan. Mualliflar aspekt nisbati va oriyentatsiya burchagining aerodinamik qarshilikka ta’sirini eksperimental jihatdan baholab, tolali zarrachalar uchun Stoks qonuni hamda aerodinamik ekvivalent diametrlarni hisoblash usullarini takomillashtirganlar. Ushbu natijalar tolali aerozollarning aerodinamik xususiyatlarini tavsiflovchi nazariy yondashuvlarning shakllanishiga asos bo‘ldi. Nosferik zarrachalarning morfologiyasi va aerodinamik parametrlari o‘rtasidagi bog‘liqlik [4] tomonidan batafsil o‘rganilgan. Mualliflar zarracha morfologiyasi bilan aerodinamik ekvivalent diametri o‘rtasidagi bog‘liqlikni dinamik shakl koeffitsiyenti asosida baholashni taklif etganlar. [5] turli shakldagi zarrachalar uchun tortishish koeffitsiyentini hisoblash modelini ishlab chiqqanlar hamda uning Reynolds soni va zarracha shakliga bog‘liqligini ko‘rsatganlar. Tolali zarrachalarning massa-hajm xarakteristikalari va inersion xususiyatlari [6] ishlarida nazariy jihatdan asoslangan. Bundan tashqari [7] o‘z tadqiqotlarda erkin cho‘kayotgan tolalarning inersion xususiyatlarini tahlil qilgan bo‘lsa**,** [8] turbulent muhitda tolalarning aylanish harakatini eksperimental jihatdan o‘rganganlar. [9] zarracha massasi va inersiya momentining oriyentatsiyaga ta’sirini ko‘rsatgan bo‘lsa, [10,11] zarracha geometriyasi, oriyentatsiyasi hamda Reynolds sonini hisobga oluvchi aerodinamik kuchlar modelini taklif etganlar. Tolali zarrachalarning tashqi muhit omillari bilan o‘zaro ta’siri ham ko‘plab tadqiqotlarda yoritilgan. Jumladan, [12] havo namligining tolali filtrlar samaradorligiga ta’sirini o‘rganib, gigroskopik o‘sish zarrachalarning aerodinamik parametrlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini asoslab berganlar. [13] submikron (<1μm) aerozollarda namlik ta’siridagi o‘lcham o‘zgarishini baholaganlar. [14,15] aglomeratsiya jarayonlari dinamik shakl koeffitsiyenti va aerodinamik ekvivalent diametrga sezilarli ta’sir qilishini aniqlaganlar. [16,17,18] ishlarida esa elektrostatik zaryadlanishning zarracha harakati hamda filtratsiya samaradorligiga ta’siri nazariy va eksperimental jihatdan asoslangan. Adabiyotlar tahlili ko‘rsatadiki, tolali zarrachalarning geometrik xususiyatlari, dinamik shakl koeffitsiyenti, aerodinamik ekvivalent diametri, inersion harakati, oriyentatsiyasi va tashqi muhit ta’siri bo‘yicha nazariy hamda eksperimental natijalar yetarlicha shakllangan. Biroq mazkur parametrlarni yagona funksional tizim sifatida o‘zaro bog‘liq holda baholash, sanoatda hosil bo‘ladigan tolali-dispers zarrachalar uchun umumlashtirilgan konseptual fizik modelni ishlab chiqish va aerodinamik harakatni kompleks tavsiflash masalalari hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan mazkur maqolada

ushbu parametrlar yagona konseptual yondashuv asosida tahlil qilinib, tolali-dispers zarrachalar aerodinamikasining umumlashtirilgan fizik modeli taklif etiladi.

Nazariy tadqiqodlar. Tolali-dispers zarrachalarning tasnifi. Tolali-dispers zarrachalar sanoat korxonalarida mexanik, texnologik va fizik-kimyoviy jarayonlar natijasida hosil bo‘ladigan, uzunligi ko‘ndalang o‘lchamiga nisbatan sezilarli darajada katta bo‘lgan anizotrop shaklli qattiq zarrachalardir. Bunday zarrachalar paxta va to‘qimachilik, sellyuloza-qog‘oz, yog‘ochni qayta ishlash, biomassa hamda mineral tolalar ishlab chiqarish jarayonlarida keng tarqalgan. Ularning geometrik shakli va morfologik tuzilishining nosimmetrikligi sababli havo oqimidagi harakati sferik zarrachalarning harakatidan sezilarli darajada farq qiladi. Tolali zarrachalarning aerodinamik xatti-harakati nafaqat ularning o‘lchami va zichligiga, balki shakli, aspekt nisbati, oqimga nisbatan orientatsiyasi, egiluvchanligi, g‘ovakligi hamda tashqi muhit ta’sirida o‘zgaruvchan fizik xususiyatlariga ham bog‘liq. Ayniqsa, tolalarning cho‘zinchoq shakli va yuqori aspekt nisbati ularning oqim bilan o‘zaro ta’sirini murakkablashtirib, aerodinamik qarshilik, oqimga ergashish qobiliyati va harakat trayektoriyasining o‘zgarishiga olib keladi. Shu sababli tolali-dispers zarrachalarni faqat material turi yoki kelib chiqishi bo‘yicha tasniflash ularning aerodinamik xususiyatlarini to‘liq tavsiflash uchun yetarli emas. Sanoatda hosil bo‘ladigan tolali-dispers zarrachalarni kelib chiqishiga ko‘ra quyidagi asosiy guruhlarga ajratish mumkin:

- F_1 −tabiiy sellyulozali tolalar (paxta, zig‘ir, kanop va boshqa o‘simlik tolalari);
- F_2 −to‘qimachilik ishlab chiqarishida hosil bo‘ladigan tabiiy va sintetik tekstil tolalari;
- F_3 −sellyuloza-qog‘oz sanoatida hosil bo‘ladigan tolali zarrachalar;
- F_4 −yog‘ochni mexanik qayta ishlash jarayonida hosil bo‘ladigan tolalar;
- F_5 −biomassa va qishloq xo‘jaligi chiqindilari asosida hosil bo‘lgan tolali dispers zarrachalar;
- F_6 −mineral va sun’iy noorganik tolalar (shisha tolasi, bazalt tolasi, mineral jun va boshqalar).

Bunday tasnif zarrachalarning material tarkibi va kelib chiqishini tavsiflash uchun muhim bo‘lsa-da, ularning havo oqimidagi aerodinamik xatti-harakatlarini to‘liq ifodalamaydi. Chunki turli tarkib va kelib chiqishga ega zarrachalar o‘xshash aerodinamik xususiyatlarni namoyon qilishi mumkin. Bunda asosiy rolni zarrachalarning geometrik va fizik parametrlari — o‘lchami, shakli, aspekt nisbati, zichligi, g‘ovakligi, egiluvchanligi va oqimga nisbatan orientatsiyasi belgilaydi. Shu sababli, tolali-dispers zarrachalarni aerodinamik parametrlar asosida tasniflash maqsadga muvofiqdir. Bunday yondashuv zarrachalarni asosiy geometrik va fizik mezonlar bo‘yicha tizimlashtirish hamda kelib chiqishi turlicha, ammo aerodinamik xususiyatlari o‘xshash zarrachalarni yagona mezon asosida guruhlash imkonini beradi. Shunday qilib, kelib chiqishga asoslangan tasnif zarrachalarning manbai va material tabiatini, parametrik tasnif esa ularning havo oqimidagi harakati va aerodinamik xususiyatlarini tavsiflaydi. Mazkur yondashuv tolali-dispers zarrachalarni tizimlashtirish, ularning oqimdagi harakatini modellashtirish hamda changni tutish va havoni tozalash qurilmalarining samaradorligini baholash uchun nazariy asos yaratadi.

Aerodinamik tavsiflashda asosiy parametrlar quyidagilardan iborat:

- aspekt nisbati (β);
- geometrik anizotroplik;
- haqiqiy zichlik (ρ_{ch});
- dinamik shakl koeffitsiyenti (χ);
- aerodinamik ekvivalent diametr (d_a);
- oriyentatsiya burchagi (θ);

- gigroskopiklik;
- aglomeratsiyaga moyillik;
- elektrostatik faollik.

Mazkur parametrlar zarrachaning havo oqimidagi harakati, aerodinamik qarshiligi, inersion xususiyatlari va cho‘kish qonuniyatlarini belgilaydi. Ulardan eng muhim geometrik parametr aspekt nisbati (β) hisoblanadi:

$$\beta = \frac{\ell}{d} \quad (1)$$

bu yerda l −tolaning uzunligi, d −xarakterli diametri.

Aspekt nisbati zarrachaning geometrik anizotroplik darajasini tavsiflaydi. β qiymati ortishi bilan zarrachaning sferik shakldan og‘ishi kuchayadi, bu esa aerodinamik qarshilik, oqimga nisbatan oriyentatsiyasi va harakat barqarorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli aspekt nisbati tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik xususiyatlarini tavsiflovchi asosiy geometrik parametr hisoblanadi. 1-Jadvalda turli sanoat tarmoqlarida uchraydigan tolali-dispers zarrachalarning asosiy geometrik va fizik xususiyatlari qiyosiy tarzda keltirilgan.

1-Jadval

Tolali-dispers zarrachalarning taqqoslama fizik xususiyatlari

Ko‘rsatkich	**Paxta**	**To‘qimachilik**	**Sellyuloza**	**Yog‘och**	**Biomassa**	**Mineral tolalar**
Kelib chiqishi	Tabiiy organik	Organik va sintetik	Tabiiy organik	Tabiiy organik	Tabiiy organik	Noorganik
O‘lchami, μm	10–150	5–200 (>1000)	20–150	1–500+	5–300	d = 0,5–20; l ≤ μm
Aspekt nisbati, β	2–8	3–100+	3–15	3–20	3–30	10–1000+
Haqiqiy zichligi, kg/m³	1450–1550	900–1600	1500–1550	≈1500	O‘zgaruvchan	2400–2700
Egiluvchanligi	Yuqori	Yuqori	O‘rtacha	Past	O‘rtacha	Yo‘q
Gigroskopikligi	Yuqori	Past–o‘rtacha	Yuqori	O‘rtacha	Yuqori	Yo‘q
Elektrostatik faolligi	Kuchli	Juda kuchli	O‘rtacha	Kuchli	O‘rtacha	Kuchsiz
Yonuvchanligi	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Juda yuqori	Yuqori	Yo‘q
Asosiy xavfli omil	Bissinoz	Allergik ta’sir	Nafas yo‘llari kasalliklari	Chang-portlash	Nafas yo‘llari kasalliklari	Kantserogenlik

Jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan shuni ko‘rsatadiki, tolali-dispers zarrachalarning fizik tavsiflari material turiga qarab sezilarli darajada farqlanadi. Geometrik parametrlar bilan bir qatorda, ularning aerodinamik xususiyatlariga haqiqiy zichlik, mexanik qattiqlik va egiluvchanlik, gigroskopiklik, aglomeratsiyaga moyillik hamda elektrostatik faollik ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik tavsifi ularning geometrik va fizik parametrlarini kompleks baholashni talab etadi. Parametrik tasniflash ushbu omillarni yagona tizim asosida tavsiflash hamda zarrachalarning aerodinamik harakat qonuniyatlarini tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi.

Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik xususiyatlarining nazariy tahlili.

Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik xususiyatlari ularning geometrik tuzilishi bilan belgilanadi. Zarrachaning uzunligi va diametri o‘rtasidagi nisbat ortishi natijasida geometrik

anizotroplik kuchayadi. Bu esa oqimga nisbatan oriyentatsiya, proyeksiya maydoni va aerodinamik qarshilikning o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun aerodinamik modellashtirishda tolalar odatda to‘g‘ri doiraviy silindr sifatida qaraladi [2]. Geometrik anizotroplik kuchayishi bilan tolalarning oqimdagi holati barqaror bo‘lmaydi va ularning oriyentatsiyasi doimiy ravishda o‘zgarib turadi. Natijada zarrachaning oqimga ko‘rinadigan proyeksiya maydoni ham o‘zgaradi. Bu esa aerodinamik qarshilik va cho‘kish tezligining bir xil bo‘lmasligiga sabab bo‘ladi. Ushbu qonuniyat [1,3] tadqiqotlarida ko‘rsatilgan. Geometrik anizotroplik natijasida nosferik zarrachalar uchun dinamik shakl koeffitsiyentini hisobga olish zarur bo‘ladi. Mazkur parametr zarrachaning haqiqiy geometrik shakli bilan uning aerodinamik tavsifi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Shu sababli tolali zarrachalarni aerodinamik jihatdan tavsiflashda aspekt nisbati, oriyentatsiya va dinamik shakl koeffitsiyenti o‘zaro bog‘liq holda qaraladi[4,5].

Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik harakati faqat geometrik tuzilishi bilan emas, balki ularning massa-hajm xarakteristikalari va inertsion xususiyatlari bilan ham belgilanadi. Zarrachaning massasi va haqiqiy zichligi tashqi kuchlar ta’sirida tezlanish darajasi, oqimga moslashish tezligi hamda harakat barqarorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Silindrik model uchun tolali zarrachaning hajmi va massasi quyidagi munosabatlar bilan aniqlanadi:

$$V_{ch} = \frac{\pi d^2 l}{4} \tag{2}$$

$$m_{ch} = \rho_{ch} V = \rho_{ch} \frac{\pi d^2 l}{4} \tag{3}$$

bu yerda $l -$ tola uzunligi, $d -$ diametri, $\rho_{ch} -$ zarracha materialining haqiqiy zichlligi.

Massa ortishi bilan zarrachaning inertsiyasi ham ortadi, natijada uning oqim yo‘nalishidagi tezligi va harakat trayektoriyasi o‘zgaradi. Ayniqsa, katta aspekt nisbatiga ega tolalarda translatsion harakat bilan bir qatorda rotatsion inertsiya ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli tolali zarrachalar aerodinamikasini tavsiflashda inertsiya momentini hisobga olish zarur. Silindrik shakilga ega tola uchun inertsiya momenti quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$I = \frac{m}{12}(3r^2 + l^2) \tag{4}$$

bu yerda $r = d/2.$

Aspekt nisbati ortishi bilan inertsiya momenti ham ortadi. Natijada tolalarning oqimdagi oriyentatsiyasi sekinroq o‘zgaradi va ularning oqimga moslashish jarayoni murakkablashadi. Stoks rejimida ($R_e < 1$) zarrachaning oqimga moslashish qobiliyati relaksatsiya vaqti orqali baholanadi.

$$\tau_{ch} = \frac{\rho_{ch} d_a^2}{18\mu} \tag{5}$$

bu yerda $d_a -$ aerodinamik ekvivalent diametr, $\mu -$ muhitning dinamik qovushqoqligi.

[6] shuningdek [7,8,9,10] tomonidan olib borilgan tadqiqotlar massa, inertsiya momenti va relaksatsiya vaqtining tolali zarrachalarning aerodinamik harakatini belgilovchi o‘zaro bog‘liq parametrlar ekanligini ko‘rsatadi. Shu bois tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik tavsifini shakllantirishda geometrik parametrlar bilan bir qatorda massa-inertsion omillarni ham kompleks hisobga olish zarur.

Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik tavsifini aniqlashda geometrik diametrning o‘zi yetarli emas, chunki zarrachaning shakli aerodinamik qarshilikka bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu sababli nosferik zarrachalar uchun dinamik shakl koeffitsiyenti (χ)va aerodinamik ekvivalent diametr (d_a) asosiy tavsiflovchi parametrlar hisoblanadi.

Aerodinamik ekvivalent diametr quyidagi munosabat bilan aniqlanadi:

$$d_a = d_{ve}\sqrt{\frac{\rho_{ch}}{\rho_0 \cdot \chi}} \quad (6)$$

bu yerda $d_{ve}-$ hajm bo‘yicha ekvivalent diametr, $\rho_{ch}-$ zarrachaning haqiqiy zichligi, ρ_0 −standart zichlik, χ dinamik shakl koeffitsiyenti.

Dinamik shakl koeffitsiyenti ortishi bilan aerodinamik qarshilik ortadi va aerodinamik ekvivalent diametr o‘zgaradi. Shuning uchun turli shakldagi tolali zarrachalarni aerodinamik jihatdan baholashda geometrik diametr emas, balki d_a −parametridan foydalaniladi. Ushbu qonuniyat [2,3,4,5] tadqiqotlarida asoslab berilgan.

2-Jadval

Turli aspekt nisbatlari uchun dinamik shakl koeffitsiyenti qiymatlari

Zarracha shakli	Aspekt nisbati, β	Dinamik shakl koeffitsiyenti, χ
Sfera	1	1,0
Qisqa silindr	2–5	1,1–1,5
O‘rtacha tola	≈10	2–4
Uzun tola	50–100	5–10
Juda uzun tola yoki tola tutami	>200	10–20 va undan yuqori

2-Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, aspekt nisbati ortishi bilan dinamik shakl koeffitsiyenti ham ortadi. Natijada aerodinamik qarshilik kuchayadi va zarrachaning aerodinamik tavsifi sezilarli darajada o‘zgaradi. Tolali-dispers zarrachalarda aerodinamik qarshilik nafaqat geometrik o‘lchamlar, balki ularning oqimga nisbatan fazoviy holatiga ham bog‘liq. Zarrachaning oriyentatsiyasi o‘zgarishi bilan uning oqimga nisbatan ko‘rinadigan proyeksiya maydoni ham o‘zgaradi. Natijada aerodinamik qarshilik kuchi va zarrachaning cho‘kish tezligi ham mos ravishda o‘zgaradi.

Aerodinamik qarshilik kuchi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$F_d = \frac{1}{2} C_D \rho_m A_{ch} U_r^2 \quad (7)$$

bu yerda C_D −aerodinamik qarshilik koeffitsiyenti, $\rho_m -$ muhit zichligi, $A_{ch} -$ zarrachaning proyeksiya maydoni, $U_r -$ nisbiy tezlik. Oriyentatsiya burchagi (θ) o‘zgarganda proyeksiya maydoni ham o‘zgaradi. Tola oqimga perpendikulyar joylashganda proyeksiya maydoni maksimal qiymatga ega bo‘ladi, natijada aerodinamik qarshilik ortadi. Aksincha, zarracha oqim yo‘nalishi bo‘ylab orientatsiyalanganda, uning oqimga ko‘ndalang proyeksiya maydoni kamayadi. Buning natijasida aerodinamik qarshilik kuchi pasayadi va zarracha muvozanat holatida erishadigan cho‘kish tezligi ortadi. Mazkur qonuniyat [1] nazariyasi asosida tushuntirilgan bo‘lib, [3,11] hamda [10] tadqiqotlari bilan eksperimental va sonli modellashtirish natijalari orqali tasdiqlangan. Demak, tolali zarrachalar uchun aerodinamik qarshilik geometrik o‘lchamlar bilan bir qatorda aspekt nisbati (β), oriyentatsiya burchagi (θ) va Reynolds sonining o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Ushbu parametrlarni kompleks hisobga olish aerodinamik harakatni ishonchli modellashtirish imkonini beradi [18].

Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik tavsifi nafaqat geometrik va massa-inersion parametrlar, balki tashqi muhit omillari ta’sirida ham o‘zgaradi. Havoning nisbiy namligi (W), aglomeratsiya (K_a) va elektrostatik zaryad (q) zarrachaning o‘lchami, shakli hamda massasini

o‘zgartirib, aerodinamik ekvivalent diametr (d_a), dinamik shakl koeffitsiyenti (χ) va aerodinamik qarshilik koeffitsiyenti (C_D) ga bevosita ta’sir ko‘rsatadi [12,13].

Aglomeratsiya natijasida zarracha shakli murakkablashadi va dinamik shakl koeffitsiyenti ortadi, elektrostatik zaryadlanish esa zarrachalarning o‘zaro hamda oqim bilan ta’sirini o‘zgartiradi. Mazkur qonuniyatlar [14,15,16,17] tadqiqotlarida asoslab berilgan. Shu sababli tashqi muhit omillarining aerodinamik parametrlarga ta’siri quyidagi umumiy funksional bog‘lanish orqali ifodalanishi mumkin:

$$d_a, \chi, C_D = f(W, K_a, q) \quad (8)$$

bu yerda W −havoning nisbiy namligi, K_a −aglomeratsiya koeffitsiyenti, q − zarrachaning elektr zaryadi. Demak, tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik harakatini ishonchli tavsiflash uchun geometrik, massa-inersion va tashqi muhit omillarini kompleks ravishda hisobga olish zarur.

Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik harakati geometrik parametrlar, massa-inersion xususiyatlar, zarrachaning fazodagi oriyentatsiyasi hamda tashqi muhit omillarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Mavjud tadqiqotlarda ushbu omillar asosan alohida ko‘rib chiqilgan bo‘lib, ularni yagona tizim asosida tavsiflovchi yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Shu munosabat bilan tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik tavsifini ifodalovchi umumlashtirilgan konseptual fizik model taklif etiladi.

Tolali zarrachaning aerodinamik tavsifi quyidagi ketma-ketlik orqali ifodalanadi:

$$\beta \rightarrow \theta \rightarrow \chi \rightarrow d_a \rightarrow C_D \rightarrow F_D \rightarrow St$$

bunda tashqi ta’sir omillari (ρ_{ch} , ω, K_a) butun tizimning funksional parametrlaridir.
Bu yerda:

- β −aspekt nisbati;
- θ − oriyentatsiya burchagi;
- χ − dinamik shakl koeffitsiyenti;
- d_a − aerodinamik ekvivalent diametr;
- C_D − aerodinamik qarshilik koeffitsiyenti;
- F_D −aerodinamik qarshilik kuchi;
- St −Stoks soni.

Mazkur ketma-ketlik geometrik parametrlar dinamik shakl koeffitsiyenti va aerodinamik ekvivalent diametrni belgilashini, ular orqali esa zarrachaning aerodinamik qarshiligi hamda inertsion harakat rejimi aniqlanishini ko‘rsatadi [18,20].

Real sanoat sharoitlarida aerodinamik qarshilikka geometrik parametrlar, massa-inertsion xususiyatlar hamda tashqi muhit omillari kompleks ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur bog‘liqlik quyidagi umumlashtirilgan funksional ifoda orqali tavsiflanadi:

$$F_D = f(\beta, \theta, \chi, d_{a,}\rho_{ch,}\mu, \rho_{f,}R_{e,}\omega, K_a) \quad (9)$$

bu yerda μ − muhitning dinamik qovushqoqligi, ρ_{ch} − muhit zichligi, R_e − Reynolds soni.
Tolali zarrachalarning terminal cho‘kish tezligi ham ayni parametrlar majmuasiga bog‘liq bo‘lib,

$$V_t = f(\beta, \theta, \chi, d_{a,}\rho_{ch,}\mu, \rho_{f,}\omega, K_a) \quad (10)$$

ko‘rinishida ifodalanadi. Taklif etilayotgan konseptual model tolali-dispers zarrachalarning geometrik, fizik va aerodinamik parametrlarini yagona nazariy tizimga birlashtiradi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligini kompleks baholash imkonini beradi. Mazkur tadqiqot doirasida tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik tavsifini ifodalovchi quyidagi umumlashtirilgan funksional bog‘lanish taklif etiladi [19,20].

Natijalar tahlil. Tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik harakati geometrik, fizik va muhit parametrlarining o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, aspekt nisbati,

oriyentatsiya, dinamik shakl koeffitsiyenti, aerodinamik ekvivalent diametr, zarrachaning zichligi va muhitning qovushqoqligi aerodinamik tavsifni belgilovchi asosiy omillardir. Aspekt nisbati ortishi zarrachaning geometrik anizotropligini kuchaytirib, aerodinamik qarshilikning ortishiga olib keladi. Zarracha zichligi esa uning inersion xususiyatlari va terminal cho‘kish tezligiga ta’sir ko‘rsatadi. Aerodinamik ekvivalent diametr zarrachaning havo oqimidagi harakatini tavsiflovchi asosiy parametr bo‘lib, uning qiymati zarracha shakli o‘zgarishi bilan ham o‘zgaradi.

Tahlil natijalari aerodinamik tavsifga eng katta ta’sir geometrik parametrlar, o‘rtacha ta’sir esa dinamik shakl koeffitsiyenti va aerodinamik ekvivalent diametrga tegishli ekanini ko‘rsatdi. Muhit parametrlarining ta’siri esa nisbatan kamroq. Taklif etilayotgan konseptual model tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik harakatini belgilovchi asosiy parametrlarni yagona funksional tizimda ifodalaydi. Zarrachalarning aerodinamik xususiyatlari geometrik, fizik va muhit omillarining o‘zaro ta’siri natijasida shakllanadi. Aspekt nisbati (β) ortishi zarrachaning geometrik anizotropligini kuchaytiradi va uning oqimga nisbatan oriyentatsiyasi (θ)o‘zgarishiga olib keladi. Bu esa dinamik shakl koeffitsiyenti (χ) hamda aerodinamik ekvivalent diametr (d_a) qiymatlariga ta’sir ko‘rsatib, natijada aerodinamik qarshilik koeffitsiyenti (C_D) va qarshilik kuchi (F_D) o‘zgaradi. Ushbu o‘zgarishlar zarrachaning inersion harakatini tavsiflovchi Stoks mezoni (St) orqali namoyon bo‘ladi. Haqiqiy zichlik, havoning nisbiy namligi va aglomeratsiya koeffitsiyenti mazkur jarayonga qo‘shimcha ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi. Zichlikning ortishi zarrachaning inersion xususiyatlarini kuchaytirsa, namlik va aglomeratsiya uning samarali o‘lchami, shakli va shakl koeffitsiyentini o‘zgartirishi mumkin. Natijada aerodinamik qarshilikning ortishi yoki kamayishi, shuningdek, zarrachaning harakat trayektoriyasi va cho‘kish tezligining o‘zgarishi kuzatiladi. Olib borilgan tahlillar tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik harakati ko‘p omilli jarayon ekanligini ko‘rsatdi. Zarrachaning harakat xususiyatlari geometrik va massa-inersion parametrlar, dinamik shakl koeffitsiyenti, aerodinamik ekvivalent diametr hamda tashqi muhit sharoitlarining o‘zaro ta’siri bilan belgilanadi. Tahlil natijalariga ko‘ra, aerodinamik harakatga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy parametrlar aspekt nisbati, orientatsiya burchagi va dinamik shakl koeffitsiyenti hisoblanadi. Ushbu parametrlarning o‘zgarishi aerodinamik ekvivalent diametr va qarshilik koeffitsiyentining qiymatlariga bevosita ta’sir etib, zarrachaning harakat trayektoriyasi va cho‘kish tezligining o‘zgarishiga olib keladi. Haqiqiy zichlik, havoning nisbiy namligi va aglomeratsiya koeffitsiyenti esa dominant parametrlar ta’sirini kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi ikkilamchi omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday qilib, taklif etilgan konseptual yondashuv tolali-dispers zarrachalarning aerodinamik xususiyatlarini alohida parametrlar kesimida emas, balki o‘zaro bog‘liq parametrlar tizimi sifatida baholash imkonini beradi. Mazkur yondashuv tolali zarrachalar harakatini matematik modellashtirish, changni tutish va havoni tozalash qurilmalarini loyihalash, filtratsiya jarayonlarini hisoblash hamda sanoat ventilyatsiya tizimlarining samaradorligini baholash uchun nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

3-Jadval

Tolali-dispers zarrachalar aerodinamik harakatiga ta’sir etuvchi asosiy parametrlarning funksional tahlili

Parametr	**Aerodinamik ta’siri**	**Asosiy natija**
Aspekt nisbati (β)	Geometrik anizotroplikni oshiradi	Qarshilik ortadi
Oriyentatsiya burchagi(θ)	Proyeksiya maydonini o‘zgartiradi	C_D va F_D o‘zgaradi
Dinamik shakl koeffitsiyenti (χ)	Nosferiklik ta’sirini hisobga oladi	d_a o‘zgaradi
Aerodinamik ekvivalent diametr(d_a)	Harakat xususiyatini belgilaydi	Cho‘kish tezligiga ta’sir qiladi
Haqiqiy zichlik (ρ_{ch})	Inersiyani oshiradi	Terminal tezlik ortadi
Namlik (ω)	Massa va o‘lchamni o‘zgartiradi	d_a ortadi
Aglomeratsiya koeffitsiyenti (K_a)	Shaklni o‘zgartiradi	χ va C_D ortadi

Xulosa. Ushbu tadqiqotda tolali-dispers zarrachalarning geometrik, fizik va aerodinamik xususiyatlari zamonaviy ilmiy manbalar asosida tizimli tahlil qilindi. Zarrachalarning aerodinamik harakatiga aspekt nisbati (β), oriyentatsiya burchagi (θ), dinamik shakl koeffitsiyenti (χ), aerodinamik ekvivalent diametr (d_a), haqiqiy zichlik hamda tashqi muhit omillari kompleks ta'sir ko'rsatishi asoslab berildi.

Tahlil natijalari asosida tolali-dispers zarrachalar aerodinamik xususiyatlarining shakllanishini ifodalovchi konseptual zanjir ishlab chiqildi hamda mazkur parametrlarni yagona funksional tizimda birlashtiruvchi umumlashtirilgan fizik model taklif etildi. Ushbu yondashuv tolali zarrachalarning aerodinamik harakatini kompleks baholash imkonini beradi.

Taklif etilgan model sanoat ventilyatsiyasi, havoni changdan tozalash tizimlari, siklonlar, filtrlar va tolali aerozollarni ushlash qurilmalarini hisoblash hamda takomillashtirish uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Modelning ishonchliligini baholash eksperimental ma'lumotlar bilan validatsiya qilish va matematik modellashtirish natijalarini taqqoslash orqali amalga oshirilishi mumkin.

References

1. Jeffery G. B. The motion of ellipsoidal particles immersed in a viscous fluid // Proceedings of the Royal Society of London. Series A. – 1922. – Vol. 102. – No. 715. – P. 161–179.
2. Henn W. Aerosol filtration with fibrous filters: Theory and applications. – Karlsruhe: Forschungszentrum Karlsruhe, 1996.
3. Henn W., Brockmann J. E. Characterization and aerodynamic behavior of fibrous aerosol particles // Journal of Aerosol Science. – 2012. – Vol. 45. – P. 1–12.
4. DeCarlo P. F., Slowik J. G., Worsnop D. R., Davidovits P., Jimenez J. L. Particle morphology and density characterization by combined mobility and aerodynamic diameter measurements. // Aerosol Science and Technology. – 2004. – Vol. 38. – No. 12. – P. 1185–1205.
5. Tran-Cong S., Gay M., Michaelides E. E. Drag coefficients of irregularly shaped particles // Powder Technology. – 2004. – Vol. 139. – P. 21–32.
6. Podgórski A., Gradoń L. Dynamics of fibrous aerosol particles in viscous flow // Journal of Aerosol Science. – 1993. – Vol. 24. – No. 5. – P. 631–643.
7. Zaidi A. A. Motion and settling characteristics of nonspherical particles in viscous fluids // Powder Technology. – 2013. – Vol. 237. – P. 352–360.
8. Bounoua Z., Bouchet G., Doué N. Rotational dynamics of inertial fibers in turbulent flows // Physics of Fluids. – 2018. – Vol. 30. – Article 083301.
9. Challabotla N. R., Zhao L., Andersson H. I. Motion of elongated particles near walls in viscous flows // Physics of Fluids. – 2015. – Vol. 27. – Article 073301.
10. Ouchene R., Khalij M., Arcen B., Tanière A. Drag, lift and torque acting on non-spherical particles: A review // Powder Technology. – 2020. – Vol. 366. – P. 43–67.
11. Qi D., Luo K., Fan J. Orientation dynamics of fibers suspended in fluid flows // Journal of Fluids Engineering. – 2012. – Vol. 134. – No. 8.
12. Fang Z., Zhang Y., Liu J. Effect of humidity on fibrous filter performance // Separation and Purification Technology. – 2019. – Vol. 210. – P. 908–916.
13. Swietlicki E., Hansson H. C., Hämeri K., et al. Hygroscopic properties of atmospheric aerosol particles: An overview // Atmospheric Research. – 2021. – Vol. 152. – P. 2–26.
14. Wu C. Y., Colbeck I. Agglomeration and transport of fibrous particles in air // Journal of Aerosol Science. – 1996. – Vol. 27. – No. 2. – P. 261–276.
15. Zelenyuk A., Cai Y., Imre D. From agglomerates to individual particles: Morphology effects on aerosol dynamics // Aerosol Science and Technology. – 2006. – Vol. 40. – P. 197–217.

16. Gentry J. W., Davidson J. H., Brock J. R. Electrostatic effects in fibrous aerosol filtration // Journal of Aerosol Science. – 1993. – Vol. 24. – P. 1049–1060.
17. Theron F., Pui D. Y. H., Kim S. C. Electrostatic collection efficiency of charged fibrous aerosols // Separation and Purification Technology. – 2017. – Vol. 178. – P. 50–58.
18. Adilova A.Sh. Sovershenstvovanie konstruksii siklonov na osnove dinamicheskogo analiza peremeщeniya vrednыx primesey v potoke vozduxa //Dicsertatsiya. Toshkent 2023 yil
19. Lapple C.E. Processes use many collector types // Chemical Engineering. — 1951. — Vol. 58. — P. 144–151.
20. Hinds W.C. Aerosol Technology: Properties, Behavior, and Measurement of Airborne Particles. — 2nd ed. — New York: John Wiley & Sons, 1999. — 504 p.

UO‘K: 633.51.543.812

O‘ZBEKISTONDA PAXTA TOLASIGA MANSUB STANDARTLARINI XALQARO TALABLARI BILAN UYG‘UNLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Q. Jumaniyazov., L. Djunayeva., B. Rasulmuxamedova., B. Mannopov.
National Center for Knowledge and Innovations in Agriculture
Scientific Research Institute of Fiber Crops

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekistonda paxta tolasi mahsulotlarini standartlashtirish tizimining amaldagi holati, mavjud milliy standartlarning xalqaro talablar bilan uyg‘unlik darajasi hamda ularni takomillashtirish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda, avvalo, paxta tolasining asosiy sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashga oid milliy standartlar ISO va ASTM xalqaro standartlari talablari bilan qiyosiy o‘rganildi. Bunda tola uzunligi, namlikning massaviy nisbati, rangi va tashqi ko‘rinishi, nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdori, chiziqli zichligi hamda tolaning shirdorligi kabi muhim sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash usullariga alohida e’tibor qaratildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi milliy standartlarni xalqaro talablar bilan bosqichma-bosqich uyg‘unlashtirishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish va paxta tolasi sifatini baholash tizimini takomillashtirishdan iborat. Tadqiqot jarayonida me’yoriy-texnik hujjatlarni qiyosiy tahlil qilish, xalqaro standartlarni o‘rganish hamda laboratoriya sinovlari natijalarini tahlil qilish usullaridan foydalanildi. O‘rganishlar natijasida milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi asosiy texnik va uslubiy farqlar aniqlandi. Tadqiqot natijalari asosida paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha yangi milliy standartlar ishlab chiqilib, ularni xalqaro standartlar talablari bilan uyg‘unlashtirish bo‘yicha takliflar shakllantirildi. Mazkur yondashuv mahsulot sifatini baholashning aniqligi va ishonchliligini oshirish, laboratoriya sinovlarini takomillashtirish, tashqi savdodagi texnik to‘siqlarni kamaytirish hamda paxta tolasi va undan tayyorlangan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy standartlashtirish tizimini xalqaro mezonlarga yaqinlashtirish mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish va paxta-to‘qimachilik tarmog‘ining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so‘zlar: *paxta tolasi, milliy standart, mahsulot, ISO, ASTM, xalqaro standartlar, standartlashtirish, uyg‘unlashtirish, sifat infratuzilmasi, eksport, raqobatbardoshlik.*

Аннотация. *В статье проанализировано современное состояние стандартизации продукции из хлопкового волокна в Узбекистане, уровень гармонизации национальных стандартов с международными требованиями, а также перспективы их совершенствования. В рамках исследования проведён сравнительный анализ национальных стандартов, регламентирующих определение основных показателей качества хлопкового волокна, с требованиями международных стандартов ISO и ASTM. Особое внимание уделено методам определения длины волокна, массовой доли влаги, цвета и внешнего вида, содержания пороков и сорных примесей, линейной плотности, а также клейкости*

хлопкового волокна. Основной целью исследования является разработка научно-практических основ поэтапной гармонизации национальных стандартов с международными требованиями и совершенствование системы оценки качества хлопкового волокна. В исследовании использованы методы сравнительного анализа нормативно-технических документов, изучения международных стандартов и оценки результатов лабораторных испытаний. В результате выявлены основные технические и методические различия между национальными и международными стандартами, а также разработаны новые национальные стандарты по определению показателей качества хлопкового волокна. Их гармонизация с международными требованиями будет способствовать повышению точности и достоверности оценки качества продукции, совершенствованию лабораторных испытаний, снижению технических барьеров во внешней торговле и повышению конкурентоспособности хлопкового волокна и продукции из него на международных рынках. Кроме того, предложенный подход имеет важное научно-практическое значение для повышения экспортного потенциала страны, расширения возможностей выхода на внешние рынки и обеспечения устойчивого развития хлопково-текстильной отрасли.

Ключевые слова: *хлопковое волокно, национальный стандарт, продукция, ISO, ASTM, международные стандарты, стандартизация, гармонизация, инфраструктура качества, экспорт, конкурентоспособность.*

Abstract. *This article analyzes the current state of standardization of cotton fiber products in Uzbekistan, the level of harmonization of national standards with international requirements, and prospects for their further improvement. The study provides a comparative analysis of national standards governing methods for determining the main quality parameters of cotton fiber against the requirements of international ISO and ASTM standards. Particular attention is paid to methods for determining fiber length, moisture content, color and appearance, the content of defects and foreign matter, linear density, and cotton fiber stickiness. The main objective of the study is to develop scientific and practical foundations for the gradual harmonization of national standards with international requirements and to improve the quality assessment system for cotton fiber. The study employs comparative analysis of regulatory and technical documents, examination of international standards, and evaluation of laboratory test results. The results identify the main technical and methodological differences between national and international standards. New national standards for determining cotton fiber quality parameters have also been developed. Their harmonization with international requirements will contribute to improving the accuracy and reliability of product quality assessment, enhancing laboratory testing procedures, reducing technical barriers to international trade, and increasing the competitiveness of cotton fiber and cotton fiber products in international markets. Furthermore, the proposed approach is of significant scientific and practical importance for increasing the country's export potential, expanding access to international markets, and ensuring the sustainable development of the cotton and textile industry.*

Keywords: *cotton fiber; cotton fiber products; national standards; international standards; ISO; ASTM; standardization; standards harmonization; quality infrastructure; export potential; competitiveness.*

Kirish. Paxtachilik O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biri bo‘lib, mamlakatning sanoat va eksport salohiyatini yuksaltirishda muhim o‘rin tutadi. Respublikada paxta yetishtirish, uni qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda sohada amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar natijasida paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati kengaydi, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari joriy

etishda, hamda eksportbop mahsulotlar turlari ko‘paytirildi. Bu esa mahsulot sifati va xavfsizligini xalqaro talablar darajasida ta’minlashni yanada dolzarb masalaga aylantirdi.

Iqtisodiyot sharoitida mahsulotlarning xalqaro bozorlarga chiqishi ularning texnik reglamentlar, standartlar va muvofiqlikni baholash talablariga qay darajada javob berish bilan bevosita bog‘liq. Jahon savdo tizimida mahsulot sifati va xavfsizligiga oid talablar yildan-yilga qat’iylashib bormoqda. Shu bois eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar uchun xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash nafaqat texnik, balki iqtisodiy ahamiyatga ham ega. Ayniqsa, paxta tolasi va undan tayyorlangan mahsulotlar sifatiga nisbatan qo‘yiladigan talablarning xalqaro mezonlar asosida baholanishi tashqi bozorlarda mahsulot raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi [1, 2]. Bugungi kunda paxta tolasi sifati ISO va ASTM kabi xalqaro standartlashtirish tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan talablar asosida baholanadi. ISO standartlari mahsulot sifati, sifat menejmenti tizimi, sinov laboratoriyalari kompetentligi, o‘lchashlarning aniqligi va muvofiqlikni baholash jarayonlarini xalqaro standartlari paxta tolasining fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash bo‘yicha zamonaviy sinov usullarini belgilaydi. Mazkur standartlar xalqaro savdoda mahsulotlarning sifatini bir xil mezonlar asosida baholash imkonini berib, davlatlar o‘rtasidagi texnik to‘siqlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirish tashqi savdo samaradorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish, hamda xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Shuningdek, xalqaro tajriba standartlarni uyg‘unlashtirish sifat infratuzilmasini rivojlantirish, laboratoriyalar faoliyatini takomillashtirish va innovasion texnologiyalarni joriy etish uchun ham muhim omil ekanligini tasdiqlaydi. Biroq adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston paxta tolasi mahsulotlariga oid milliy standartlarni xalqaro talablari bilan qiyosiy baholash, ular o‘rtasidagi farqlarni tizimli ravishda aniqlash va ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar yetarli darajada emas. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati alohida standartlar yoki mahsulot sifatini baholash usullariga bag‘ishlangan bo‘lib, standartlashtirish tizimini kompleks ravishda takomillashtirish masalalari yetarlicha yoritilmagan. Mazkur holat ushbu tadqiqotning dolzarbligi va ilmiy ahamiyatini belgilaydi. Paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlarini baholashning milliy va xalqaro mezonlarini o‘zaro muvofiqlashtirish, zamonaviy sinov metodlarini milliy standartlarga joriy etish va standartlashtirish tizimining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Tadqiqot natijalari milliy standartlashtirish tizimini takomillashtirish, sinov laboratoriyalarining xalqaro talablarga muvofiqligini oshirish, mahsulot sifatini baholashning ishonchliligini ta’minlash va mamlakatning paxta-to‘qimachilik mahsulotlari eksportini kengaytirish uchun ilmiy-amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Nazariy tadqiqodlar. Mazkur tadqiqotda O‘zbekistonda paxta tolasi mahsulotlarini standartlashtirish tizimini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish imkoniyatlarini baholash maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Qiyosiy tahlil usuli orqali paxta tolasiga oid O‘zbekiston milliy standartlarining ISO va ASTM xalqaro standartlari talablariga muvofiqlik darajasi baholandi hamda mavjud farqlar aniqlandi. Xalqaro standartlar asosida milliy standartlashtirish tizimidagi mavjud kamchiliklar, texnik tafovutlar va takomillashtirishni talab etuvchi yo‘nalishlar belgilab berildi [3, 4, 5]. Tadqiqotda paxta tolasi sifat ko‘rsatkichlarini baholash, sinov usullari, namuna olish tartiblari, laboratoriya faoliyatiga qo‘yiladigan talablar va muvofiqlikni baholash jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-texnik hujjatlar tahlil qilindi. Shuningdek, standartlashtirish sohasidagi ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar o‘rganildi. Tadqiqot ob’yekti sifatida paxta tolasi va undan tayyorlanadigan mahsulotlarga oid amaldagi O‘zbekiston milliy standartlari, shuningdek, ISO va ASTM tomonidan ishlab chiqilgan xalqaro standartlar tanlandi. Olingan natijalar asosida paxta tolasi mahsulotlari uchun milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish modeli ishlab chiqildi. Asosan paxta tolasining metod va tahlillaridan namligi, nuqson va iflos aralashmalar, chiziqli zichligi, mikroneyr ko‘rsatkichi, tashqi ko‘rinishi bo‘yicha aniqlash, uzunligi, nepslar sonini aniqlash va shunga o‘xshash qator ko‘rsatkichlari uchun xalqaro standartlarini izlab, tarjima qilinib, o‘rganildi.

Xalqaro standartlarni izlanish va o‘rganishda quyidagi standartlarni havola qilindi.

- ASTM D 2495-07 Standard Test Method for Moisture in Cotton by Oven-Drying (Paxta tolasining namligini quritish shkafida aniqlashning standart usuli);

- ASTM D1684-07 Standard Practice for Lighting Cotton Classing Rooms for Color Grading (Paxta tolasining rang tasniflanishi o‘tkazish uchun klassyor xonalarini yoritishning standart amaliyoti);

- ASTM D1447-07 Standard Test Method for Length and Length Uniformity of Cotton Fibers by Photoelectric Measurement (Paxta tolasining uzunligini va uzunlik bo‘yicha bir xillik indeksi fotoelektrik o‘lchashlar bo‘yicha aniqlashning standart usuli);

- ISO 1973-2021 Textile fibres — Determination of linear density — Gravimetric method and vibroscope method,

- EN 14278-1:2004 Textiles – Determination of cotton fibre stickiness – Part 1: Method using a manual thermodetection device Yevropa standartiga nisbatan "EN 20139 (ISO 139:1973) Textiles - standard atmospheres for conditioning and testing;

- ASTM D2812-07 Standard Test Method for Non-Lint Content of Cotton (Paxta tolasi tarkibidagi nuqsonlar va iflos aralashmalarning miqdorini aniqlashning standart usuli) Shirley paxta analizatorida nuqsonlar va iflos aralashmalarning massaviy ulushini aniqlashga tegishli va ASTM D5866 -12 Standard Test Method for Neps in Cotton Fibers (Paxta tolasidagi nepslar miqdorini aniqlashning standart usuli) xalqaro standartlari o`rganildi [6, 7, 8, 9, 10, 11, 12].

Tajribaviy izlanishlar. Tadqiqot natijalari va o‘tkazilgan izlanishlar asosida O‘zbekistonda paxta tolasi mahsulotlari uchun milliy standartlarni ISO va ASTM xalqaro standartlari talablari bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan loyihalar taklif etildi. Mazkur loyihalar milliy standartlashtirish tizimini takomillashtirish, mahsulot sifatini xalqaro mezonlar asosida baholash va eksport salohiyatini oshirishga yo‘naltirilgan kompleks yondashuvni ifodalaydi.

O'z DSt 634:2021 o'rniga ishlab chiqilgan va sinovlarni o`tkazishda ishlatiladi. Paxta tolasi. Namlikning massaviy nisbatini aniqlash usullari paxta tolasining namligini quritish shkafida aniqlash qismida ASTM D 2495-07 Standard Test Method for Moisture in Cotton by Oven-Drying xalqaro standart bilan uyg‘unlashgan. O'z DSt 629:2021 o'rniga ishlab chiqilgan va sinovlarni o`tkazishda ishlatiladi. Paxta tolasi. Rangi va tashqi ko‘rinishini aniqlash usullari standart sun'iy yoritish ostida paxta tolasini tasniflash xonasiga bo‘lgan talablar qismida ASTM D1684-07 Standard Practice for Lighting Cotton Classing Rooms for Color Grading xalqaro standart bilan uyg‘unlashgan. O'z DSt 633:2021 o'rniga ishlab chiqilgan va sinovlarni o`tkazishda ishlatiladi. Paxta tolasi. Uzunlikni aniqlash usullari” standarti fibrografda tolaning uzunligini o‘lchash qismida ASTM D1447-07 Standard Test Method for Length and Length Uniformity of Cotton Fibers by Photoelectric Measurement mos keladi. O'z DSt 620:2014 o'rniga ishlab chiqilgan va sinovlarni o`tkazishda ishlatiladi. To`qimachilik materiallari. Chiziqli zichlikni aniqlash usullari standart ISO 1973-2021 Textile fibres — Determination of linear density — Gravimetric method and vibroscope method xalqaro standart bilan uyg‘unlashgan. Izoh 1. To‘qimachilik sanoati laboratoriyalarida sinovlar o‘tkazishda qo‘llaniladigan tortish kuchi tolaning chiziqli zichligi yoki ko‘ndalang kesim maydoniga bog’liq bo‘ladi. Izoh 2. ISO va IEC quyidagi manzillar bo‘yicha standartlashtirishda foydalanish uchun ma’lumotlarning terminologik bazalari:

- ISO internet platformasi: https://www.iso.org/obp;

- IEC Electropedia: http://www.electropedia.org/ [13, 14].

O'z DSt 3189:2017 o'rniga ishlab chiqilgan va sinovlarni o`tkazishda ishlatiladi. Ushbu standart EN 14278-1:2004 Textiles – Determination of cotton fibre stickiness – Part 1: Method using a manual thermodetection device Yevropa standartiga nisbatan "EN 20139 (ISO 139:1973) Textiles - standard atmospheres for conditioning and testing noaktiv me'yoriy hujjatga havolani amaldagi QA ilovasini kiritish yo‘li bilan modifikatsiyalashtirilgan. EN 14278-1:2004 standarti CEN/TC 248 "Textiles and textile products" Texnik qo‘mitasi tomonidan tayyorlangan va quyidagi mamlakatlarda joriy etilgan: Avstriya, Belgiya, Kipr, Chexiya, Daniya, Estoniya,

Finlyandiya, Frantsiya, Germaniya, Gretsiya, Vengriya, Islandiya, Irlandiya, Italiya, Latviya, Litva, Lyuksemburg, Malta, Niderlandi, Norvegiya, Polsha, Portugaliya, Slovakiya, Sloveniya, Ispaniya, Shvetsiya, Shveytsariya va Buyuk Britaniya [15].

O'z DSt 632:2021 o'rniga ishlab chiqilgan va sinovlarni o`tkazishda ishlatiladi. Paxta tolasi. Nuqsonlar va iflos aralashmalar miqdorini aniqlash usullari" standarti ASTM D2812-07 Standard Test Method for Non-Lint Content of Cotton (Paxta tolasi tarkibidagi nuqsonlar va iflos aralashmalarning miqdorini aniqlashning standart usuli) Shirley paxta analizatorida nuqsonlar va iflos aralashmalarning massaviy ulushini aniqlashga tegishli va ASTM D5866 -12 Standard Test Method for Neps in Cotton Fibers (Paxta tolasidagi nepslar miqdorini aniqlashning standart usuli) SITC tizimlarida SITC nepslar miqdorini aniqlashga tegishli xalqaro standartlarning asosiy qoidalari keltirilgan. ASTM D2812-07 Standard Test Method for Non-Lint Content of Cotton (Paxta tolasi tarkibidagi nuqsonlar va iflos aralashmalarning miqdorini aniqlashning standart usuli) Shirley paxta analizatorida nuqsonlar va iflos aralashmalarning massaviy ulushini aniqlashga tegishli va ASTM D5866 -12 Standard Test Method for Neps in Cotton Fibers (Paxta tolasidagi nepslar miqdorini aniqlashning standart usuli) SITC tizimlarida SITC nepslar miqdorini aniqlashga tegishli xalqaro standartlarning asosiy qoidalari keltirilgan. Yuqorida keltirilgan milliy standarlar loyihalari Qishloq xo‘jaligi Vazirligi tasaruffidagi 26-sonli "Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari" Standartlashtirish texnik qo‘mitasi tomonidan quyidagi tashkilotlarga milliy standartlarga o‘z fikrlarini bildirish uchun xatlar olingan.

Natijalar tahlili. O‘tkazilgan qiyosiy tahlil natijasida O‘zbekistonda paxta tolasi mahsulotlarini standartlashtirish tizimi va xalqaro standartlari talablari o‘rtasida bir qator farqlar mavjudligi aniqlandi. Tahlil jarayonida, avvalo, paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashda qo‘llaniladigan sinov usullarida muayyan tafovutlar mavjudligi qayd etildi. Bundan tashqari, raqamli kuzatuvchanlik (traceability) mexanizmlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi mahsulot sifati to‘g‘risidagi ma'lumotlarning shaffofligi va xalqaro tan olinishiga ta'sir qiluvchi omillardan biri ekanligi aniqlandi. Muvofiqlikni baholash, sertifikatlashtirish va sifat nazorati jarayonlaridagi mavjud farqlar ham milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Milliy standartlar O‘zbekiston Standartlar institutining 2026-yil 2-iyuldagi 22/MSt-26-son buyrug‘i bilan tasdiqlanganini va davlat ro‘yxatiga olinganini hamda mazkur milliy standartlar 2026-yil 2-sentabrdan O‘zbekiston Respublikasi hududida amalga kiritilishini ma'lum qildi.

Ro‘yxatdan o‘tkazilgan milliy standarlar nomlanishi qo‘yidagicha:

- O‘zMSt 938:2026 Paxta tolasi. Uzunlikni aniqlash usullari;
- O‘zMSt 939:2026 Paxta tolasi. Namlikning massaviy nisbatini aniqlash usullari;
- O‘zMSt 940:2026 Paxta tolasi. Rangi va tashqi ko‘rinishini aniqlash usullari;
- O‘zMSt 941:2026 Paxta tolasi. Nuqsonlar va ifos aralashmalar miqdorini aniqlash usullar.
- O‘zMSt 955:2026 Paxta tolasi. To‘qimachilik materiallari. Chiziqli zichlikni aniqlash usullari;
- O‘zMSt 956:2026 Paxta tolasi. To‘qimachilik. Paxta tolasining shiradorligini aniqlash. Qo‘l termodetektori bilan aniqlash usuli.



1. Rasm. Paxta tolasining sifat ko‘rsatkichlarini laboratoriya sharoitida aniqlash

Paxta tolasi mahsulotlari uchun milliy standartlarni ISO va ASTM xalqaro standartlari talablari bilan uyg‘unlashtirish mamlakat iqtisodiyotining turli tarmoqlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi kutilmoqda. Avvalo, xalqaro talablarga muvofiq standartlarning joriy etilishi mahsulot sifatiga bo‘lgan ishonchni oshiradi va O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan paxta tolasi hamda undan tayyorlangan mahsulotlarning tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini mustahkamlaydi. Bu esa yangi eksport bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda eksport hajmining barqaror o‘sishiga xizmat qiladi. Standartlarni uyg‘unlashtirishning muhim iqtisodiy natijalaridan biri tashqi savdoda mavjud texnik to‘siqlarni kamaytirish hisoblanadi. Milliy standartlar xalqaro talablarga mos bo‘lgan taqdirda, eksport qiluvchi korxonalar mahsulotlarini xorijiy bozorlarda qayta sinovdan o‘tkazish yoki qo‘shimcha sertifikatlashtirish zaruratiga kamroq duch keladi. Natijada mahsulotni tashqi bozorlarga yetkazib berish muddati qisqaradi, sertifikatlashtirish va laboratoriya sinovlari bilan bog‘liq xarajatlar kamayadi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligi oshadi. Umuman olganda, milliy standartlarni ISO va ASTM talablari bilan uyg‘unlashtirish O‘zbekiston paxta va to‘qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur jarayon eksport hajmini oshirish, texnik to‘siqlarni va qo‘shimcha xarajatlarni kamaytirish, mahsulot sifatining barqarorligini ta’minlash, xalqaro muvofiqlikni baholash natijalarining tan olinishini kengaytirish hamda mamlakatning investitsiyalarini oshirishga xizmat qiladi. Natijada O‘zbekiston paxta mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi yanada mustahkamlanadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda O‘zbekistonda paxta tolasi mahsulotlarini standartlashtirish tizimining amaldagi holati ISO va ASTM xalqaro standartlari talablari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijalari milliy va xalqaro standartlar o‘rtasida mahsulot sifatini baholash usullari, namuna olish tartibi, laboratoriya sinovlarini tashkil etish, muvofiqlikni baholash va sinov natijalarining xalqaro tan olinishi bo‘yicha muayyan tafovutlar mavjudligini ko‘rsatdi. Ushbu tafovutlar milliy standartlashtirish tizimini yanada takomillashtirish va uni xalqaro talablarga bosqichma-bosqich moslashtirish zarurligini asoslaydi. Tadqiqot doirasida shuni ko‘rsatadiki, milliy standartlarni ISO va ASTM talablari bilan uyg‘unlashtirish nafaqat mahsulot sifati va xavfsizligini oshirishga, balki mamlakatning eksport salohiyatini kengaytirishga ham xizmat qiladi. Xalqaro standartlar asosida ishlab chiqarilgan va baholangan paxta tolasi mahsulotlari tashqi bozorlarda yuqori ishonchga ega bo‘ladi, texnik to‘siqlar kamayadi, sertifikatlashtirish jarayonlari soddalashadi va xalqaro hamkorlik uchun qo‘shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda, O‘zbekistonda paxta tolasi mahsulotlari uchun milliy standartlarni ISO va ASTM talablari bilan uyg‘unlashtirish mamlakat sifat infratuzilmasini xalqaro darajaga olib chiqish, eksport geografiyasini kengaytirish, mahsulotlarning xalqaro raqobatbardoshligini oshirish va to‘qimachilik sanoatining barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim strategik ahamiyatga ega.

Refrence

1. O‘zbekiston Respublikasining «Standartlashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni.
2. Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 30 martdagi 177-sonli qarori.
3. ISO/IEC 17025:2017. General Requirements for the Competence of Testing and Calibration Laboratories.
4. ASTM International. Annual Book of ASTM Standards. Textiles.
5. International Cotton Advisory Committee. Cotton Testing Methods.
6. ASTM D 2495-07 Standard Test Method for Moisture in Cotton by Oven-Drying
7. ASTM D1684-07 Standard Practice for Lighting Cotton Classing Rooms for Color Grading
8. ASTM D1447-07 Standard Test Method for Length and Length Uniformity of Cotton Fibers by Photoelectric Measurement

9. ISO 1973-2021 Textile fibres — Determination of linear density — Gravimetric method and vibroscope method;
10. EN 14278-1:2004 Textiles – Determination of cotton fibre stickiness – Part 1: Method using a manual thermodetection device Yevropa standartiga nisbatan "EN 20139 (ISO 139:1973) Textiles - standard atmospheres for conditioning and testing;
11. ASTM D 2812-07 Standard Test Method for Non-Lint Content of Cotton
12. ASTM D 5866 -12 Standard Test Method for Neps in Cotton Fibers
13. ISO internet platformasi: https://www.iso.org/obp;
14. IEC Electropedia: http://www.electropedia.org/
15. www. paxta.uz.

UDK: 677.37:677.021.15

ISSIQ HAVO BILAN DASTLABKI ISHLOV BERILGAN XITOY DURAGAY PILLALARINING MIKROSTRUKTURAVIY TAHLILI

Esanova Nozakat Burxanovna
Academy of the Ministry of Emergency Situations

Annotatsiya. *Mazkur maqolada issiq havo yordamida dastlabki ishlov berilgan Xitoy duragay pillalarining tashqi va ichki qatlamlaridagi ipak tolalarining mikrostrukturaviy holati tadqiq etilgan. Namunalar 90 va 100 °C haroratlarda 1; 1,5 va 2 soat davomida issiq havo bilan ishlov berilib, pilla qobig‘ining tashqi va ichki qatlamlari mikroskopik usulda qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot davomida tolalarning joylashish zichligi, o‘zaro kesishishi, ustma-ust joylashishi, tolalar orasidagi ochiq bo‘shliqlar hamda ayrim namunalardagi tola diametrlari baholandi. Mikroskopik kuzatuvlarda tashqi qatlamlarning nisbatan zich, ko‘p qatlamli va murakkab to‘rsimon tuzilishga, ichki qatlamlarning esa siyrakroq tuzilishga va kattaroq ochiq bo‘shliqlarga ega ekanligi aniqlandi. 90 °C haroratda 1,5 soat ishlov berilgan tashqi qatlamda o‘lchangan tolalar diametri 0,02–0,03 mm diapazonda bo‘lib, beshta o‘lchovning o‘rtacha qiymati 0,028 mm ni tashkil etdi. O‘rganilgan 90–100 °C harorat va vaqt rejimlarida pilla qobig‘ining umumiy tolali karkasida keskin parchalanish yoki ommaviy uzilish belgilari kuzatilmadi. Olingan natijalar pilla qobig‘ining mikrostrukturaviy xususiyatlarini saqlashda issiq havo bilan ishlov berish harorati va davomiyligini to‘g‘ri tanlash muhimligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *Xitoy duragay pillasi, pilla qobig‘i, ipak tolasi, issiq havo, dastlabki ishlov berish, mikrostruktura, tashqi qatlam, ichki qatlam, seritsin, fibroin, tola diametri.*

Аннотация. *В статье исследовано микроструктурное состояние шелковых волокон наружного и внутреннего слоев коконов китайского гибрида после предварительной обработки горячим воздухом. Образцы подвергались воздействию горячего воздуха при температурах 90 и 100 °C в течение 1; 1,5 и 2 часов, после чего наружные и внутренние слои оболочки кокона были исследованы и сопоставлены микроскопическим методом. В ходе исследования оценивались плотность расположения волокон, характер их взаимного пересечения и наложения, открытые промежутки между волокнами, а также диаметр волокон в отдельных образцах. Микроскопические наблюдения показали, что наружные слои имеют относительно плотную, многослойную и сложную сетчатую структуру, тогда как внутренние слои характеризуются более разреженным расположением волокон и более крупными открытыми промежутками. В наружном слое, обработанном при температуре 90 °C в течение 1,5 часа, диаметр исследованных волокон находился в диапазоне 0,02–0,03 мм, а среднее значение пяти измерений составило 0,028 мм. При исследованных режимах температуры 90–100 °C и продолжительности обработки признаков резкого разрушения или массового разрыва общего волокнистого каркаса оболочки кокона не выявлено. Полученные результаты*

показывают важность правильного выбора температуры и продолжительности обработки горячим воздухом для сохранения микроструктурных свойств оболочки кокона.

Ключевые слова: *кокон китайского гибрида, оболочка кокона, шелковое волокно, горячий воздух, предварительная обработка, микроструктура, наружный слой, внутренний слой, серицин, фиброин, диаметр волокна.*


Abstract. *This article investigates the microstructural condition of silk fibers in the outer and inner layers of Chinese hybrid cocoons after hot-air pretreatment. The samples were treated with hot air at temperatures of 90 and 100 °C for 1, 1.5, and 2 hours, after which the outer and inner layers of the cocoon shell were comparatively examined using microscopic observations. The study evaluated fiber arrangement density, fiber intersections and overlapping, open spaces between fibers, and fiber diameters in selected samples. Microscopic observations showed that the outer layers had a relatively dense, multilayered, and complex network structure, whereas the inner layers exhibited a looser structure with larger open spaces between fibers. In the outer layer treated at 90 °C for 1.5 hours, the measured fiber diameters ranged from 0.02 to 0.03 mm, with an average value of 0.028 mm based on five measurements. Under the investigated temperature range of 90–100 °C and treatment durations, no pronounced structural destruction or extensive fiber breakage was observed in the overall fibrous framework of the cocoon shell. The obtained results indicate that the appropriate selection of hot-air treatment temperature and duration is important for preserving the microstructural characteristics of the cocoon shell.*

Keywords: *Chinese hybrid cocoon, cocoon shell, silk fiber, hot air, pretreatment, microstructure, outer layer, inner layer, sericin, fibroin, fiber diameter.*

Kirish. Pilla yetishtirish va unga dastlabki ishlov berishning asosiy maqsadi pilla chuvish korxonalarini sifatli xomashyo bilan ta’minlash, pillaning texnologik xususiyatlarini imkon qadar saqlagan holda uni uzoq muddat saqlash imkoniyatini yaratishdan iborat. Tirik pillani dastlabki ishlash jarayonining muhim bosqichlari g‘umbakni jonsizlantirish va pilladagi ortiqcha namlikni kamaytirishdir. G‘umbakning o‘z vaqtida jonsizlantirilishi kapalakka aylanish va pilla qobig‘ining zararlanishining oldini oladi, quritish esa saqlash davrida mog‘orlanish va sifatning yomonlashish xavfini kamaytiradi [4,5]. Issiq havo bilan ishlov berish jarayonida harorat va vaqtning to‘g‘ri tanlanishi alohida ahamiyatga ega. Haddan tashqari intensiv issiqlik ta’siri pilla qobig‘ining oqsil komponentlari, xususan fibroin va seritsinning holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu sababli dastlabki ishlov rejimlarini baholashda faqat g‘umbakning jonsizlantirilishi emas, balki pilla qobig‘i mikrostrukturasi, tolalararo bog‘lanish va geometrik xususiyatlarning saqlanishi ham muhim mezon hisoblanadi [4,6]. Tabiiy ipak ishlab chiqarishda pilla xomashyosining sifat ko‘rsatkichlari yakuniy mahsulot xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi. Pilla qobig‘i fibroin tolalari va ularni biriktirib turuvchi seritsindan tashkil topgan murakkab tabiiy kompozit tuzilma hisoblanadi [1, 6, 15]. Pilla qobig‘ining qalinligi, zichligi, g‘ovakdorligi, tolalarning joylashish xususiyatlari hamda qatlamlar o‘rtasidagi strukturaviy farqlar uning fizik-mexanik va texnologik xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatadi [6, 11, 12, 15]. Ipakning asosiy strukturaviy oqsili fibroin bo‘lib, seritsin fibroin tolalarini o‘zaro biriktiruvchi tabiiy yopishtiruvchi komponent vazifasini bajaradi [1–3, 8]. Fibroinning molekulyar va supramolekulyar tuzilishi ipak tolasining mustahkamligi va mexanik xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega [7, 9–12]. Seritsin esa tolalar orasidagi bog‘lanish, pilla qobig‘ining yaxlitligi va uning strukturaviy xususiyatlarining shakllanishida ishtirok etadi [2, 3, 8].

Pilla qobig‘i bir xil tuzilishga ega bo‘lmay, ko‘p qatlamli va anizotrop tolali struktura bilan tavsiflanadi. Uning turli qatlamlarida tolalarning yo‘nalishi, zichligi, g‘ovakdorligi va mexanik xususiyatlari farqlanishi mumkin [6, 15]. Shu sababli pilla qobig‘ining tashqi va ichki qatlamlarini alohida mikroskopik o‘rganish uning texnologik xususiyatlarini yanada to‘liq baholash imkonini beradi. Pillalarni dastlabki qayta ishlash jarayonida issiqlik ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Pilla g‘umbagini jonsizlantirish usuli keyinchalik olinadigan fibroin materialining ayrim

xususiyatlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi ilmiy tadqiqotlarda ko‘rsatilgan [4]. Issiq havo yordamida quritishda esa harorat va quritish sharoitlari namlikning chiqarilishi hamda pilla sifatining saqlanishida muhim texnologik omillar hisoblanadi [5]. Shu nuqtai nazardan, harorat va issiqlik ta’sirining davomiyligi pilla qobig‘idagi tolalarning o‘zaro joylashuvi, tolalararo bog‘lanish va strukturaviy holatiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bunday o‘zgarishlarni mikroskopik usulda o‘rganish issiq havo bilan dastlabki ishlov berishning maqbul rejimlarini asoslash uchun muhimdir [4, 5, 15]. Mazkur ishning maqsadi issiq havo bilan turli rejimlarda ishlov berilgan Xitoy duragay pillalarining tashqi va ichki qatlamlarini mikroskopik tasvirlar asosida qiyosiy tahlil qilish, tolalarning joylashish xarakterini va mavjud o‘lchovlar bo‘yicha tola diametri diapazonini baholashdan iborat.




1-rasm. Ipak tolasining mikroskopik ko‘rinishlari

Tadqiqot materiallari va usullari.

Tadqiqot obyekti sifatida Xitoy duragay pillalari olindi. Namunalar 90, 100 °C haroratlarda hamda t=1; 1,5; 2 soat vaqt davomiyliklarda issiq havo yordamida dastlabki ishlovdan o‘tkazilgan. Har bir rejim bo‘yicha mavjud tashqi va ichki qatlam namunalari mikroskop ostida kuzatildi.

Mikroskopik tahlilda tolalarning joylashish zichligi, o‘zaro kesishish xarakteri, ustma-ust joylashishi, tolalar orasidagi ochiq bo‘shliqlar va tasvirlarda mavjud individual o‘lchovlar qayd etildi. Pilla qobig‘ining tolali va ko‘p qatlamli tuzilishini baholashda ipak pillalarining mikrostrukturasi haqidagi ilmiy ma’lumotlar bilan qiyosiy yondashuv qo‘llanildi [6, 15].


Natijalar va muhokama. Tadqiqotda dastlabki ishlov berilgan Xitoy duragay pillalarining tashqi va ichki qatlamlaridan namunalar olinib, ularning mikroskopik tuzilishi o‘rganildi. Asosiy e’tibor issiq havo yordamida jonsizlantirish jarayonidan so‘ng pilla qobig‘ining tolali karkasi, tolalarning morfologik ko‘rinishi va tolalararo bog‘lanishning saqlanishiga qaratildi. Seritsin fibroin tolalarini biriktirib turuvchi komponent bo‘lganligi sababli [1–3, 8], uning holati mikroskopik tasvirlarda tolalararo bog‘lanishning saqlanishi orqali faqat bilvosita baholandi.



2-rasm. Xitoy duragay pillasi, T=90 °C, t=1 tashqi qatlam (chapda) va ichki qatlam (o‘ngda).


90 °C haroratdagi namunalar. Xitoy duragay pillasining 90 °C, t=1 tashqi qatlamida tolalar zich, ko‘p qatlamli va turli yo‘nalishlarda kesishgan holda kuzatildi. Ichki qatlamda esa tolalar orasidagi ochiq bo‘shliqlar nisbatan kattaroq ko‘rindi. Pilla qobig‘ining qatlamlari bo‘yicha bunday strukturaviy farqlanish tabiiy ipak pillasining ierarxik va ko‘p qatlamli tuzilishi haqidagi ilmiy ma’lumotlarga mos keladi [6, 15].

90 °C, t=1,5 rejimidagi tashqi qatlamda 0,02–0,03 mm diapazondagi tolalar qayd etildi va tolali karkasda keskin parchalanish yoki ommaviy uzilish belgilari kuzatilmadi. Shu rejimdagi ichki qatlamda taxminan 0,01 mm qiymatlar qayd etildi. Ushbu natijalar tashqi va ichki qatlamlar o‘rtasida geometrik va mikrostrukturaviy farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Pilla qobig‘i qatlamlari bo‘yicha tola zichligi va strukturaviy xususiyatlarning farqlanishi boshqa tadqiqotlarda ham qayd etilgan [6, 15].



3-rasm. Xitoy duragay pillasi, T=90 °C, t=1,5: tashqi qatlam (chapda) va ichki qatlam (o‘ngda). Har ikkala namunada 0,01–0,03 mm diapazon qayd etilgan


Xitoy duragayi 90°C, t=1,5 tashqi qatlamida o‘lchangan beshta tolaning arifmetik o‘rtachasi (0,03+0,03+0,03+0,02+0,03)/5 = 0,028 mm ni tashkil etdi. Ushbu qiymat aynan mazkur mikroshot bo‘yicha olingan eksperimental natija hisoblanadi. Mikroskopik tasvirlarda seritsinning kimyoviy tarkibi yoki molekulyar o‘zgarishi bevosita aniqlanmagan. Shu sababli uning holati tolalararo bog‘lanishning saqlanishiga qarab bilvosita baholandi. Seritsinning kimyoviy va strukturaviy holatini aniq baholash uchun spektroskopik, termik yoki boshqa fizik-kimyoviy tahlil usullaridan foydalanish talab etiladi [2, 3, 8].




4-rasm. Xitoy duragay pillasi: T=90 °C, t=2 ichki qatlam (chapda) va tashqi qatlam (o‘ngda).

100 °C haroratdagi namunalar. Xitoy duragay pillasi 100 °C haroratda t=1; 1,5 va 2 rejimlarda kuzatildi. t=1 tashqi qatlamda tolalar zich va murakkab to‘rsimon struktura hosil qilgan bo‘lsa, ichki qatlamda ochiq bo‘shliqlar kattaroq va tolalar nisbatan siyrak joylashgan. t=1,5

rejimida ham tashqi qatlamning murakkab tolali tuzilishi saqlanib qolgan, ichki qatlamda esa tolalar bir-biridan aniqroq ajraladi.




5-rasm. Xitoy duragay pillasi, T=100 °C, t=1: tashqi qatlam (chapda) va ichki qatlam (o‘ngda).



6-rasm. Xitoy duragay pillasi, T=100 °C, t=1,5: tashqi qatlam (chapda) va ichki qatlam (o‘ngda).

T=100 °C, t=2 rejimida mavjud ichki qatlam tasvirida tolalar orasidagi ochiq bo‘shliqlar yaqqol ko‘rinadi. Biroq faqat vizual tasvirlar asosida vaqt ortishi bilan tolalar zichligi kamayadi degan qat’iy sababiy xulosa chiqarish yetarli emas. Bunday baho uchun bir xil kattalashtirish, takroriy ko‘rish maydonlari va raqamli tasvir tahlili zarur.



7-rasm. Xitoy duragay pillasi, T=100 °C, t=2: tashqi qatlam (chapda) va ichki qatlam (o‘ngda).

Olib borilgan mikroskopik tadqiqotlar natijasida issiq havo bilan turli harorat va davomiyliklarda dastlabki ishlov berilgan Xitoy duragay pillalarining tashqi va ichki qatlamlari mikrostrukturasi o‘zaro farqlanishi aniqlandi. 90–100 °C harorat oralig‘ida va turli ishlov davomiyliklarida pilla qobig‘ining umumiy tolali karkasi saqlanib qolganligi, tolalarda keskin parchalanish yoki ommaviy uzilishi aniqlanmagan.

Mikroskopik tasvirlar tashqi va ichki qatlamlarning tolalar joylashishi hamda ochiq bo‘shliqlar miqdori bo‘yicha farqlanishini ko‘rsatdi. Pilla qobig‘ining qatlamlar bo‘yicha

mikrostrukturaviy, g‘ovaklik va mexanik xususiyatlarining farqlanishi ilmiy adabiyotlarda ham qayd etilgan [6, 15].

Xulosa. adqiqot natijalari Xitoy duragay pillalariga 90 va 100 °C haroratlarda issiq havo bilan dastlabki ishlov berilganda pilla qobig‘ining umumiy tolali karkasi o‘rganilgan rejimlarda saqlanib qolganligini ko‘rsatdi. Tashqi va ichki qatlamlar o‘rtasida tolalarning joylashishi, zichligi va ochiq bo‘shliqlar bo‘yicha mikrostrukturaviy farqlar aniqlandi.

90 °C, t=1,5 rejimida tashqi qatlamdagi o‘lchangan tolalar 0,02–0,03 mm diapazonda bo‘lib, beshta o‘lchovning o‘rtacha qiymati 0,028 mm ni tashkil etdi. Ichki qatlamda esa taxminan 0,01 mm qiymatlar qayd etildi.

Mikroskopik tasvirlarda tolalararo bog‘lanishning saqlanganligi seritsin holatini bilvosita baholash imkonini berdi. Biroq seritsin va fibroinda issiqlik ta’sirida yuz berishi mumkin bo‘lgan molekulyar o‘zgarishlarni faqat optik mikroskopik tasvirlar asosida aniqlash mumkin emas. Shu sababli keyingi tadqiqotlarda FTIR, DSC, SEM kabi qo‘shimcha tahlil usullaridan foydalanish, shuningdek, bir xil kattalashtirishda ko‘proq takroriy o‘lchovlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq [2–4, 10].

Reference

1. Mondal M., Trivedy K., Nirmal Kumar S. The silk proteins, sericin and fibroin in silkworm, *Bombyx mori* Linn. – A review. *Caspian Journal of Environmental Sciences.* 2007; 5(2): 63–76.
2. Kunz R.I., Brancalhão R.M.C., Ribeiro L.F.C., Natali M.R.M. Silkworm sericin: properties and biomedical applications. *BioMed Research International.* 2016; 2016: 8175701.
3. Cao T.-T., Zhang Y.-Q. Processing and characterization of silk sericin from *Bombyx mori* and its application in biomaterials and biomedicines. *Materials Science and Engineering: C.* 2016; 61: 940–952.
4. Aznar-Cervantes S.D., Pagan A., Monteagudo Santesteban B., Cenis J.L. Effect of different cocoon stifling methods on the properties of silk fibroin biomaterials. *Scientific Reports.* 2019; 9: 6703.
5. Singh P.L. Silk cocoon drying in forced convection type solar dryer. *Applied Energy.* 2011; 88(5): 1720–1726.
6. Chen F., Porter D., Vollrath F. Structure and physical properties of silkworm cocoons. *Journal of the Royal Society Interface.* 2012; 9: 2299–2308.
7. Vepari C., Kaplan D.L. Silk as a biomaterial. *Progress in Polymer Science.* 2007; 32(8–9): 991–1007.
8. Kundu S.C., Dash B.C., Dash R., Kaplan D.L. Natural protective glue protein, sericin bioengineered by silkworms: potential for biomedical and biotechnological applications. *Progress in Polymer Science.* 2008; 33(10): 998–1012.
9. Altman G.H., Diaz F., Jakuba C., Calabro T., Horan R.L., Chen J., Lu H., Richmond J., Kaplan D.L. Silk-based biomaterials. *Biomaterials.* 2003; 24(3): 401–416.
10. Rockwood D.N., Preda R.C., Yücel T., Wang X., Lovett M.L., Kaplan D.L. Materials fabrication from *Bombyx mori* silk fibroin. *Nature Protocols.* 2011; 6: 1612–1631.
11. Keten S., Xu Z., Ihle B., Buehler M.J. Nanoconfinement controls stiffness, strength and mechanical toughness of β-sheet crystals in silk. *Nature Materials.* 2010; 9: 359–367.
12. Koh L.-D., Cheng Y., Teng C.-P. et al. Structures, mechanical properties and applications of silk fibroin materials. *Progress in Polymer Science.* 2015; 46: 86–110.
13. Hardy J.G., Römer L.M., Scheibel T.R. Polymeric materials based on silk proteins. *Polymer.* 2008; 49(20): 4309–4327.
14. Holland C., Numata K., Rnjak-Kovacina J., Seib F.P. The biomedical use of silk: past, present, future. *Advanced Healthcare Materials.* 2019; 8(1): 1800465.
15. Rehman A.U., Koutsos V., Alam P. Bombyx mori silk cocoons: structure, composition, and mechanical properties—a review. *Oxford Open Materials Science.* 2026; 6(1): itag006.

UDK 677.025

PAXTA VA YIGIRILGAN IPAK IPLARINING SIFAT KO‘RSATKICHLARINI BAHOLASH ASOSIDA TRIKOTAJ ISHLAB CHIQARISHNING TEXNOLOGIK BARQARORLIGINI TA‘MINLASH

N.M.Musayev
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotatsiya: *Ushbu maqolada paxta va yigirilgan ipak iplarining fizik-mexanik sifat ko'rsatkichlari eksperimental tadqiqotlar asosida kompleks tahlil qilindi. Tadqiqotning dolzarbligi paxta–yigirilgan ipak trikotaj mahsulotlarining sifatini oshirishda iplarning mexanik xossalarini chuqur o'rganish zarurati bilan izohlanadi. Ishning asosiy maqsadi turli chiziqli zichlik va tuzilishga ega bo'lgan paxta hamda yigirilgan ipak iplarining sifat ko'rsatkichlarini o'zaro taqqoslashdan iborat. Tadqiqot davomida iplarning chiziqli zichligi, uzilish kuchi, uzilish ishi, nisbiy uzilish kuchi, uzilishdagi cho'zilish, buram soni va buram koeffitsienti aniqlanib, ularning statistik ko'rsatkichlari baholandi. Olingan natijalar USTER xalqaro me'yorlari va GOST 1025–85 talablari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra qo‘shib eshilgan yigirilgan ipak ipi eng yuqori uzilish kuchini namoyon etdi, uch qavat qo`shib eshilgan paxta ipida esa nisbiy uzilish kuchi yuqori ekani aniqlandi. Shuningdek, yigirilgan ipak ipining elastiklik ko'rsatkichi paxta ipiga nisbatan yuqoriroq ekanligi kuzatildi. Variatsiya koeffitsienti va standart og'ish qiymatlari o'lchovlarning ishonchliligini tasdiqladi. Olingan ilmiy natijalar paxta–yigirilgan ipak naqshli trikotaj to'qimalarini loyihalashda ip tanlash me’zonlarini takomillashtirish hamda yuqori sifatli trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirishda amaliy ahamiyatga ega.*

Аннотаци: *В данной статье выполнен комплексный анализ физико-механических показателей хлопчатобумажной и шелковой пряжи на основе экспериментальных исследований. Актуальность работы обусловлена необходимостью повышения качества хлопково-шелковых трикотажных изделий путем совершенствования характеристик используемой пряжи. Цель исследования заключается в сравнительном анализе качественных показателей хлопковой и шелковой пряжи различной линейной плотности и структуры. В ходе исследования были определены линейная плотность, разрывная нагрузка, работа разрыва, относительная разрывная нагрузка, разрывное удлинение, крутка и коэффициент крутки, а также выполнена статистическая оценка полученных результатов. Полученные данные сопоставлены с международными нормативами USTER и требованиями ГОСТ 1025–85. Установлено, что многократная шелковая пряжа характеризуется наибольшими значениями разрывной нагрузки и работы разрыва, тогда как трехсложенная хлопчатобумажная пряжа обладает более высокой относительной прочностью. Кроме того, шелковая пряжа продемонстрировала лучшие показатели эластичности по сравнению с хлопчатобумажной. Значения коэффициента вариации и среднеквадратического отклонения подтвердили высокую достоверность экспериментальных измерений. Полученные результаты могут быть использованы при проектировании хлопково-шелковых трикотажных полотен и совершенствовании технологий производства высококачественных трикотажных изделий.*

Abstract: *This article presents a comprehensive analysis of the physical and mechanical properties of cotton and silk yarns based on experimental research. The relevance of the study is determined by the need to improve the quality of cotton-silk knitted products through a detailed evaluation of yarn performance characteristics. The main objective of the research is to compare the quality indicators of cotton and silk yarns with different linear densities and structural configurations. During the study, linear density, breaking load, breaking work, specific breaking strength, breaking elongation, twist level, and twist coefficient were determined, and their statistical characteristics were evaluated. The obtained results were comparatively analyzed according to the international USTER standards and the requirements of GOST 1025–85. The*

experimental findings showed that four-ply silk yarn exhibited the highest breaking load and breaking work, while three-ply cotton yarn demonstrated the greatest specific breaking strength. In addition, silk yarn showed slightly higher elasticity than cotton yarn. The calculated values of the coefficient of variation and standard deviation confirmed the reliability and repeatability of the experimental measurements. The obtained scientific results provide a practical basis for selecting appropriate yarns in the design of cotton-silk patterned knitted fabrics and contribute to the development of advanced technologies for manufacturing high-quality knitted products.

Key words *cotton yarn, silk yarn, physical and mechanical properties, linear density, breaking load, breaking work, breaking elongation, twist coefficient, USTER Statistics, knitted fabric production, yarn quality.*

Kirish. Bugungi kunda to'qimachilik sanoati jahon iqtisodiyotining eng yirik va jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholi sonining ortishi, kiyim-kechak iste'molining ko'payishi hamda texnik to'qimachilik mahsulotlariga bo'lgan talabning oshishi natijasida ip ishlab chiqarish hajmi ham izchil kengayib bormoqda. Zamonaviy ishlab chiqarishda mahsulot sifati, resurs tejamkorligi, ekologik barqarorlik va raqamli sifat nazorati asosiy rivojlanish tendensiyalari sifatida shakllanmoqda. Rieter kompaniyasining 2025-yilgi sanoat hisobotiga ko'ra, dunyo bo'yicha yiliga qariyb 125 million tonna tola qayta ishlanmoqda va ushbu ko'rsatkich 2030-yilga borib 140 million tonnaga yetishi prognoz qilinmoqda. Hozirgi vaqtda umumiy tola iste'molining qariyb 60 % ini filament iplar, 40 % ini esa shtapel tolalardan yigirilgan iplar tashkil etadi. Shtapel tolalar orasida paxta yetakchi tabiiy xom ashyo bo'lib qolayotgan bo'lsa-da, viskoza va poliester tolalarining ulushi ham jadal ortib bormoqda. Jahon paxta ipi bozori ham barqaror rivojlanishda davom etmoqda. 2024-yilda dunyo bo'yicha taxminan 23 million tonna paxta ipi ishlab chiqarilgan bo'lib, uning qariyb 70 % Xitoy, Hindiston va Pokiston hissasiga to'g'ri keladi. Turkiya, Vetnam va O'zbekiston ham yirik ip ishlab chiqaruvchi mamlakatlar qatoriga kiradi. Ayniqsa, O'zbekistonda so'nggi yillarda paxta xom ashyosini chuqur qayta ishlash siyosati natijasida ip yigirish quvvatlari sezilarli darajada kengaydi va ishlab chiqarishning o'rtacha yillik o'sish sur'atlari dunyo yetakchilari orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan birini namoyon etmoqda. So'nggi yillarda tabiiy tolalar asosidagi yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlarga bo'lgan talabning ortishi paxta va ipak aralash iplar ishlab chiqarishiga ham alohida e'tibor qaratilishiga sabab bo'lmoqda.

Zamonaviy yigirish korxonalarida ip sifatini baholashning xalqaro mezoni sifatida USTER Statistics tizimi keng qo'llaniladi. Ushbu tizim 70 yildan ortiq vaqt davomida dunyo bo'yicha tola, pilta, fitil va ip sifatini baholashning yagona xalqaro mezoni sifatida e'tirof etilib kelmoqda. USTER statistikasi ishlab chiqaruvchilarga o'z mahsulotini global bozorning foizlik reytinglari bilan solishtirish, sifat darajasini baholash hamda texnologik jarayonni optimallashtirish imkonini beradi. Bugungi kunda ip sifatiga qo'yiladigan talablar faqat uzilish mustahkamligi bilan cheklanmaydi. Zamonaviy sifat nazoratida quyidagi asosiy ko'rsatkichlar kompleks baholanadi: chiziqli zichlik; notekislik; nuqsonlar soni; nepslar miqdori; tukdorligi; buram darajasi; uzilish kuchi va uzilishdagi cho'zilish kabilaar. Mazkur ko'rsatkichlarni aniqlashda Uster Tester 6, Uster Tensorapid 5, Uster Tensojet 5, HVI va AFIS kabi zamonaviy laboratoriya uskunalaridan foydalaniladi. Sinovlar ISO 139 standartida belgilangan laboratoriya sharoitlarida hamda ASTM va ISO sinov metodikalari asosida amalga oshiriladi. Paxta va ipak aralash iplarda ushbu sifat ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki ipak tolasining yuqori mustahkamligi va elastikligi hamda paxta tolasining gigiyenik xususiyatlari o'zaro uyg'unlashganda trikotaj to'qimalarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'zgaradi. Shu sababli iplarning uzilish kuchi, uzilish ishi, nisbiy mustahkamligi, cho'zilish ko'rsatkichi va buram parametrlarini kompleks baholash trikotaj mahsulotlarini loyihalashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda paxta va yigirilgan ipak iplarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari eksperimental sinovlar asosida tahlil qilinib, olingan natijalar USTER xalqaro me’zonlari hamda GOST talablariga qiyosiy baholandi. Tadqiqot natijalari paxta–yigirilgan ipak

naqshli trikotaj to'qimalarini loyihalashda optimal ip tanlash va yuqori sifatli trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Nazariy tadqiqotlar. To'qimachilik sanoatida ip sifatini oshirish, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash va yuqori sifatli trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish masalalari so'nggi o'n yilliklarda ko'plab xorijiy hamda MDH olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan. Ayniqsa paxta va yigirilgan ipak tolalari asosidagi iplarning fizik-mexanik xossalarini baholash, ularning trikotaj ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sirini aniqlash hamda xalqaro sifat standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarish yo'nalishida salmoqli ilmiy natijalar olingan. Rossiya trikotaj ilmiy maktabining asoschilaridan biri hisoblangan A.S. Dalidovich o'z tadqiqotlarida [1] trikotaj mahsulotlarining sifatini belgilovchi asosiy omil sifatida ipning strukturaviy tuzilishi va mexanik xususiyatlarini ko'rsatgan. Olim halqa hosil bo'lish jarayonida ipning buram darajasi, chiziqli zichligi va mustahkamligi halqa geometriyasining shakllanishiga, matoning deformatsion xususiyatlariga hamda ekspluatatsion ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qilishini nazariy va eksperimental jihatdan asoslab bergan. Rossiya olimlari V.A. Usenko [2], V.P. Sklyannikov [3] va B.A. Buzov [4] tabiiy tolali iplarning fizik-mexanik xossalarini o'rganishda paxta va yigirilgan ipak tolalarining strukturaviy farqlari ipning mustahkamligi, elastikligi va buram barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini aniqlaganlar. Bu ilmiy natijalar keyinchalik paxta–yigirilgan ipak aralash iplar yaratish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar uchun nazariy asos vazifasini bajargan. Hindistonning Anna University olimlari [5] filament yigirilgan ipak iplaridan tayyorlangan trikotaj mahsulotlarini tadqiq etib, ipning mustahkamligi, notekisligi, tuklilik darajasi hamda nuqsonlar soni tayyor mahsulotning geometrik va ekspluatatsion xossalariga sezilarli ta'sir qilishini aniqlaganlar. Tadqiqot [6-8] davomida ISO 2062, ISO 16549 va boshqa xalqaro standartlar asosida o'tkazilgan sinovlar natijasida yigirilgan ipak iplarida nisbiy mustahkamlikning yuqoriligi bilan bir qatorda notekislik darajasi past bo'lgan namunalarda matoning shaklbarqarorligi sezilarli yaxshilanishi qayd etilgan. So'nggi yillarda ip sifatini baholashda USTER Statistics tizimi xalqaro mezon sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda. USTER Technologies tomonidan 1957-yildan buyon shakllantirilayotgan global statistik ma'lumotlar bazasi ipning chiziqli zichligi, massa notekisligi (CVm), yupqa va yo'g'on nuqsonlar, nepslar, tuklilik hamda uzilish mustahkamligini dunyo bo'yicha qiyoslash imkonini beradi. Hozirgi kunda USTER statistikasi tola xarididan boshlab tayyor ipni sertifikatlashgacha bo'lgan barcha bosqichlarda asosiy benchmark sifatida qo'llaniladi [9,10]. Efiopiya yigirish korxonalari misolida o'tkazilgan tadqiqotlarda paxta iplarining sifati USTER Statistics 2018 mezonlari asosida baholangan. Tadqiqotchilar ipning massa notekisligi, nuqsonlar soni va uzilish mustahkamligi yigirish jarayonining samaradorligi hamda keyingi to'qish va trikotaj ishlab chiqarish bosqichlariga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatganlar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, USTER bo'yicha 5 % darajasiga yaqinlashgan iplar eng yuqori sifatli mahsulotlar qatoriga kirishi, 95 % darajasidagi ko'rsatkichlar esa ishlab chiqarishda qo'shimcha texnologik optimallashtirishni talab qilishi aniqlangan [11,12]. Zamonaviy tadqiqotlarda ip sifatini baholash faqat mexanik sinovlar bilan cheklanmayapti. Kompyuter ko'rish texnologiyalari va sun'iy intellekt asosidagi sifat nazorati tizimlari rivojlanmoqda. Springer nashrida chop etilgan ilmiy sharhda USTER Tester 6 ko'rsatkichlari bilan bir qatorda optik tasvirlarni qayta ishlash, CNN va YOLO algoritmlaridan foydalanish orqali ip diametri, tuklilik va nuqsonlarni avtomatik aniqlash imkoniyatlari tahlil qilingan. Bunday yondashuvlar ishlab chiqarishda real vaqt rejimida sifat nazoratini amalga oshirish imkonini bermoqda [13-15]. MDH hududida, xususan O'zbekistonda ham paxta–ipakli trikotaj matolari bo'yicha ilmiy maktab shakllangan. M.M. Mukimov, H.A. Alimova, B.F. Mirusmanov, K.Z. Yunusov, F.Abdurahimova [16,17] va boshqa olimlar [18-20] paxta va tabiiy ipak iplarini trikotaj to'qimalarida qo'llashning texnologik asoslarini ishlab chiqqanlar. Ular tomonidan trikotaj mashinalarida paxta va ipak iplaridan tajriba namunalari olinib, ipning chiziqli zichligi, matoning fizik-mexanik xossalari o'zaro bog'liqligi tadqiq qilingan. Ayniqsa B.F. Mirusmanov paxta va tabiiy ipak asosida ichki trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasini taklif qilib, ikki xil tabiiy tolaning afzalliklarini birlashtirish imkoniyatini ilmiy asoslab bergan. Xorijiy tadqiqotlarda yana bir muhim yo'nalish sifatida paxta tolasining dastlabki fizik ko'rsatkichlari bilan ip sifatining o'zaro

bog'liqligi chuqur o'rganilgan. HVI va AFIS tizimlari yordamida o'tkazilgan tadqiqotlarda tolaning uzunligi, mustahkamligi, mikronayer ko'rsatkichi hamda qisqa tolalar ulushi ipning nisbiy mustahkamligi, cho'zilish qobiliyati va tuklilik darajasiga sezilarli ta'sir qilishi isbotlangan. Tola sifati yaxshilanganda ipning uzilish mustahkamligi ortishi, qisqa tolalar miqdori ko'payganda esa notekislik va nepslar soni oshishi aniqlangan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy ishlarning asosiy qismi paxta yoki ipak iplarini alohida-alohida baholashga, shuningdek USTER tizimida standart sifat ko'rsatkichlarini aniqlashga bag'ishlangan. Biroq paxta va yigirilgan ipak iplarining turli chiziqli zichlik va qo‘shib eshilgan tuzilmalardagi fizik-mexanik ko'rsatkichlarini bir xil sinov sharoitida o'zaro qiyoslash hamda ularning keyingi trikotaj ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sirini kompleks baholash masalasi yetarlicha yoritilmagan. Shu sababli paxta va yigirilgan ipak iplarining chiziqli zichligi, uzilish kuchi, uzilishdagi ish, nisbiy uzilish mustahkamligi, cho'zilish ko'rsatkichlari hamda buram parametrlarini eksperimental tadqiq qilish, olingan natijalarni USTER xalqaro me'yorlari va GOST talablariga qiyosiy baholash trikotaj ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish nuqtayi nazaridan dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Ayniqsa yuqori sifat talab qilinadigan paxta–yigirilgan ipakli trikotaj to'qimalarini loyihalashda ip sifat ko'rsatkichlarini chuqur tahlil qilish keyingi ishlab chiqarish bosqichlarida matoning mexanik, gigiyenik va ekspluatatsion xususiyatlarini bashorat qilish imkonini beradi. Mazkur holat tadqiqotning tajriba qismini amalga oshirish zaruratini belgilab, eksperimental izlanishlar uchun ilmiy asos yaratadi.

Tajribaviy izlanishlar. Paxta va yigirilgan ipak iplarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari trikotaj to'qimalarining tuzilishi, halqa hosil bo'lish jarayoni hamda tayyor mahsulotning ekspluatatsion xususiyatlarini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Zamonaviy yigirish texnologiyalarida ipning chiziqli zichligi, uzilish mustahkamligi, uzilishdagi cho'zilishi, buram darajasi va energiya yutish qobiliyati keyingi texnologik jarayonlarning barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro USTER tizimida ham aynan ushbu ko'rsatkichlar ip sifatini baholashning asosiy me’zonlari sifatida qo'llaniladi. Mazkur tadqiqotda paxta va yigirilgan ipak iplarining to'rt xil namunasi laboratoriya sharoitida sinovdan o'tkazildi. Olingan natijalar standart og'ish (S) hamda variatsiya koeffitsienti (CV) yordamida statistik baholanib, USTER xalqaro me'yorlari va GOST 1025–85 talablari bilan qiyoslandi. Tadqiqot obyekti sifatida quyidagi ip namunalari tanlandi: paxta ipi 20 tex; yigirilgan ipak ipi 14,3 tex; paxta ipi 20×3 tex; yigirilgan ipak ipi 14,3×4 tex. Baholash quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha amalga oshirildi: chiziqli zichlik; uzilish kuchi; nisbiy uzilish kuchi; uzilishdagi cho'zilish; buram soni va buram koeffitsienti. Natijalar USTER xalqaro me'yorlari hamda GOST 1025–85 talablari bilan taqqoslandi.

1-jadval


Paxta va yigirilgan yigirilgan ipak iplarining fizik-mexanik ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	Paxta ipi 20 tex/50N	USTER xalqaro me'yori	Yigirilgan ipak ipi 14,3 tex/70N	GOST 1025–85	Paxta ipi 20×3 tex	Yigirilgan ipak ipi 14,3×4 tex
1	Chiziqli zichlik, tex	18,9/52,9	—	13,9/72N	±4 %	56,70	55,80
1.1	O'rtacha kvadratik og'ish, S	0,016	—	0,075	—	0,247	0,184
1.2	Variatsiya koeffitsienti, CV (%)	0,64	0,70	0,544	—	0,426	0,763
2	Uzilish kuchi, cN / gkuch	326,37 / 332,8	—	251,5	—	350,24 / 357,1	1131,20
2.1	O'rtacha kvadratik og'ish, S	15,61	—	29,93	—	31,70	167,56
2.2	Variatsiya koeffitsienti, CV (%)	4,78	7,21	8,54	—	3,42	14,81
3	Uzilish ishi, cN·sm	505,03	—	424,70	—	629,54	1998,2

3.1	O'rtacha kvadratik og'ish, S	46,46	—	106,82	—	87,64	361,50
3.2	Variatsiya koeffitsienti, CV (%)	9,20	12,46	16,97	—	6,30	18,09
4	Nisbiy uzilish kuchi, cN/tex	17,27	—	16,84	—	25,20	20,27
4.1	O'rtacha kvadratik og'ish, S	0,83	—	2,15	—	0,56	3,00
4.2	Variatsiya koeffitsienti, CV (%)	4,78	7,05	8,54	—	3,42	14,81
5	Uzilishdagi cho'zilish, L (%)	6,67	—	7,44	6 %	6,61	6,50
5.1	O'rtacha kvadratik og'ish, S	0,31	—	0,54	—	0,10	0,42
5.2	Variatsiya koeffitsienti, CV (%)	4,59	5,92	9,02	—	1,50	6,50
6	Buram soni/yo'nalishi	787 / Z	680,97	602 / S	—	787 / Z	602 / S
6.1	O'rtacha kvadratik og'ish, S	25,9	—	5,7	—	25,9	5,7
6.2	Variatsiya koeffitsienti, CV (%)	2,3	2,6	0,9	5,5	3,3	0,9
6.3	Buram koeffitsienti, Tm	32,07	95,5	22,44	—	34,2	22,44


Izoh: USTER xalqaro me'yorlari ip sifatini baholashning xalqaro etalon ko'rsatkichlari hisoblanadi. GOST 1025–85 tabiiy ipak iplariga qo'yiladigan asosiy texnik talablarni belgilaydi. Tadqiqot natijalari paxta va yigirilgan ipak iplarining fizik-mexanik ko'rsatkichlarini amaldagi me'yoriy talablar bilan qiyosiy baholash imkonini beradi.

Natijalar tahlili. Ipning chiziqli zichligi halqa geometriyasi, ipning egiluvchanligi va matoning sirt zichligini shakllantiruvchi asosiy parametr hisoblanadi. Tajriba natijalariga ko'ra paxta ipining chiziqli zichligi 18,9 tex, yigirilgan ipak ipining chiziqli zichligi esa 13,9 tex ni tashkil etdi. Qoshib eshilgan namunalarda paxta ipida 56,7 tex, yigirilgan ipak ipida esa 55,8 tex qiymatlar qayd etildi. Chiziqli zichlik bo'yicha standart og'ish qiymatlari 0,016–0,247 oralig'ida, variatsiya koeffitsienti esa 0,426–0,763 % diapazonda bo'ldi. Bunday past variatsiya ko'rsatkichlari iplarning og`irligi bo`yicha tolalar taqsimotini yuqori darajada barqaror ekanligini ko'rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda CV 1 % dan kichik bo'lishi ipning chiziqli zichligi bo'yicha yuqori bir jinslilikka ega ekanligini bildiradi. Bu esa trikotaj mashinasida ip uzilishlarini kamaytirish hamda halqa o'lchamlarining bir xil shakllanishini ta'minlaydi. Uzilish kuchi ipning mexanik mustahkamligini ifodalovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Tadqiqot natijalariga ko'ra: eng yuqori mustahkamlik 14,3×4 tex yigirilan ipak ipida kuzatildi. Bu ko'rsatkich 14,3 tex yigirilgan ipak ipiga nisbatan qariyb 4,5 baravar, paxta 20 tex ipiga nisbatan esa 3,47 baravar yuqori natijani tashkil etdi.




1-rasm. Paxta va yigirilgan ipak iplarining uzilish kuchi gistogrammasi


Qoshib eshilgan yigirilgan ipak ipining yuqori mustahkamligi tolalarlarning parallel joylashuvi hamda yuklanishning tolalar o'rtasida bir tekis taqsimlanishi bilan izohlanadi. Tolalararo ishqalanish kuchining ortishi ipning uzilish qarshiligini sezilarli oshiradi. Bunday holat buram nazariyasiga bag'ishlangan zamonaviy mexanik modellar bilan ham tasdiqlangan bo'lib, buramning ma'lum optimal qiymatidan so'ng tolalararo bog'lanish eksponensial ravishda kuchayishi ko'rsatilgan. Standart og'ish qiymatlari 15,61–167,56 oralig'ida, variatsiya koeffitsienti esa 3,42–14,81 % ni tashkil etdi. Qo`shib eshilgan yigirilgan ipak ipida mutlaq mustahkamlik yuqori bo'lsa-da, natijalar tarqalishi ham nisbatan kattaroq ekani kuzatildi. Bu holat ko'p tolali iplarda ishlab chiqarish jarayonidagi ichki strukturaviy farqlar bilan izohlanishi mumkin. Uzilishdagi bajarilgan ish- ipning uzilishdan oldin yutgan energiyasini ifodalaydi va ayniqsa dinamik yuklanishlarda muhim ahamiyatga ega. Qo`shib eshilgan yigirilgan ipak ipida energiya yutish qobiliyati 14,3 tex yigirilgan ipak ipiga nisbatan 4,7 baravar, paxta ipiga nisbatan esa 4 baravar yuqori bo'ldi. Bu natija shuni ko'rsatadiki, yigirilgan ipak tolalari katta deformatsiya energiyasini saqlab qolish xususiyatiga ega bo'lib, trikotaj mahsulotlarida takroriy yuklanishlar vaqtida materialning uzoq muddat xizmat qilishini ta'minlaydi. Uzilish ishi bo'yicha variatsiya koeffitsienti 6,30–18,09 % oralig'ida bo'ldi. Energiya yutish ko'rsatkichlaridagi nisbatan yuqori tarqalish ipning ichki strukturasidagi mikrofarqlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Turli chiziqli zichlikdagi iplarni o'zaro taqqoslash uchun nisbiy uzilish kuchi qo'llaniladi. Eng yuqori nisbiy mustahkamlik 20×3 tex paxta ipida (25,20 cN/tex) kuzatildi. Bu natija ko'p qatlamli paxta ipining tolalararo bog'lanishi samarali shakllanganini ko'rsatadi. USTER statistikasi bo'yicha trikotaj ishlab chiqarishda qo'llaniladigan paxta iplari uchun nisbiy mustahkamlikning yuqori bo'lishi keyingi halqa hosil bo'lish jarayonining barqarorligini ta'minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.




2-rasm. Paxta va yigirilgan ipak iplarining uzilishda bajargan ishi gistogrammasi.



3-rasm. Paxta va yigirilgan ipak iplarining nisbiy mustahkamlik gistogrammasi.



4-rasm. Paxta va yigirilgan ipak iplarining uzilishdagi cho`zilishi gistogrammasi.



5-rasm. Paxta va yigirilgan ipak iplarining buram koeffisienti gistogrammasi.

Buram ipning strukturaviy yaxlitligini ta'minlaydi hamda trikotaj mashinasida ipning harakatlanish xususiyatiga ta'sir qiladi. Paxta ipining buram koeffitsienti 32,07, yigirilgan ipak ipida esa 22,44 ni tashkil etdi. Paxta ipida yuqoriroq bo'lishi paxta tolalari orasidagi ishqalanish kuchini oshirib, ipning nisbiy mustahkamligini yaxshilaydi. Biroq haddan tashqari katta buram ipning qattiqlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli buramning optimal qiymatini tanlash muhim hisoblanadi. Ipning elastiklik xususiyatlari tayyor trikotaj mahsulotining shakl saqlovchanligi va kiyishga qulayligini belgilaydi. Eng yuqori cho'zilish 14,3 tex yigirilgan ipak ipida (7,44 %) qayd etildi. Bu yigirilgan ipakning molekulyar tuzilishi va tolalarilarning elastik deformatsiyalanish qobiliyati bilan bog'liq. GOST 1025–85 bo'yicha ipak iplari uchun tavsiya etilgan minimal cho'zilish qiymati 6 % ni tashkil qiladi. Tadqiqotdagi barcha namunalarda ushbu talab bajarildi. Cho'zilish bo'yicha variatsiya koeffitsienti 1,50–9,02 % oralig'ida bo'ldi. Ayniqsa qo`shib eshilgan paxta ipida natijalar barqarorligi yuqori ekani kuzatildi. Tajriba natijalarining ishonchliligi standart og'ish va variatsiya koeffitsienti yordamida baholandi. Chiziqli zichlik bo'yicha CV ning 1 % dan kichik bo'lishi ishlab chiqarish jarayonining yuqori aniqlikda amalga oshirilganini ko'rsatadi. Uzilish kuchi bo'yicha ko'rsatkichlar USTER tomonidan tavsiya etilgan qoniqarli diapazonga yaqin natijalarni namoyon etdi. Tajriba natijalarining ishonchliligi standart og'ish va variatsiya koeffitsienti orqali baholandi.

chiziqli zichlik bo'yicha CV – 0,426–0,763 %;

uzilish kuchi bo'yicha CV – 3,42–14,81 %;

uzilish ishi bo'yicha CV – 6,30–18,09 %;

cho'zilish bo'yicha CV – 1,50–9,02 %.

Abstract. *In this study, the effect of external electric field voltage (50 V, 75 V, 100 V, and 110 V) on the supramolecular structure of polyester fibers was investigated using X-ray diffraction (XRD) analysis. The ratio of crystalline and amorphous phases, as well as crystallite sizes, were evaluated via peak deconvolution, full width at half maximum (FWHM), and the Scherrer equation. The results demonstrated significant changes in the orientation of macromolecular chains and the ordering of the crystalline phase under the influence of the electric field. According to the analysis, voltages ranging from 75 V to 100 V provided the most favorable ratio of crystalline and amorphous phases, making it recommended as the optimal condition for obtaining structurally stable and high-quality spun yarn. At voltages exceeding 100 V (e.g., 110 V), excessive orientation and internal structural stresses were found to emerge, potentially exerting a negative impact on the fiber properties.*

Kalit so‘zlar. *Poliester tolasi, rentgenodifraktsion tahlil (XRD), supramolekulyar tuzilish, kristall va amorf faza, elektr maydoni, pik dekonvolyutsiyasi, FWHM, Scherrer tenglamasi, statik zaryadlanish, kristallit o‘lchami.*


Kirish. Sintetik tolalarni qayta ishlashda antistatik ishlov berilib, turlicha ulushlarda aralash iplar olingan va ip xossa ko‘rsatkichlari tadqiq qilingan bo‘lib, qo‘llanilgan antistatiklar tola sirtini to‘la qoplab olmaganligi uchun nitron tolasining mashina qismlariga ishqalanishi natijasida statik zaryadlanib, chiqayotgan xomaki mahsulot notekisligiga olib keladi. Bu esa o‘z navbatida ip sifatiga ta’sir ko‘rsatib, qo‘yilgan standart talablariga mos kelmaydigan mahsulot chiqishiga olib keladi. Shuni ta’kidlash kerakki, salbiy hodisalarning barchasi sintetik tolalarni qayta ishlashda antistatik ishlov berishni, ya’ni emulsiyalash texnologiyasini takomillashtirishni taqozo qiladi. Iplarning mexanik xossalarini o‘rganishda ularning cho‘zilishini o‘rganish eng katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Ip uzish uchun cho‘zilsa, bir qator pishiqlik xossalari aniqlanadi. Ulardan birinchisi uzish kuchidir. U to‘g‘ridan-to‘g‘ri uzish mashinalari deb ataladigan uskunalarda aniqlanadi, ularda mexanik xossalarning boshqa kattaliklari, xususan, uzilishgacha mexanik xossalar ham aniqlanadi. Sintetik tolalarning statik zaryadlarini bartaraf etishda eng samarali yondashuv antistatik ishlov berish orqali tolalar massasining elektr qarshiligini kamaytirish hisoblanadi. Yuqori elektr qarshiligi va namligi past bo‘lgan aksariyat sintetik tolalarning sirtida elektrostatik zaryadlar faol harakat qilishi sababli, ularning o‘ziga xos sirt elektr qarshiligi ko‘rsatkichi muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Sintetik tolalar va iplar triboelektrik zaryadlar hosil qilish xususiyatidan tashqari, zaryadlarning bir qutbdan ikkinchisiga tez o‘tib qolishi bilan ham ajralib turadi [2; 3]. Bu esa ularni qayta ishlash jarayonida qator texnologik muammolarni keltirib chiqaradi. Shtapel tolalarni qayta ishlashda nisbiy namlikning oshishi tayyor ip mahsulotlarining sifat ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin [4; 5; 6]. Elektr o‘tkazuvchanlik va tolalarning elektrlanishi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud bo‘lib, elektrlanishni pasaytirish uchun materialning qarshiligini kamaytirish talab etiladi. Bu esa yangi samarali antistatik emulsiyalarni yaratish zaruratini yuzaga keltiradi. Emulsiyalarning asosiy talablaridan biri ularning tolali massaga tez va bir xil taqsimlanishidir [7; 8]. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, oddiy mexanik usulda antistatik ishlov berish tola sirtini to‘liq qoplamagani bois yetarli samara bermaydi. Shu bois, emulsiyalash jarayonini takomillashtirish sanoatda sintetik tola aralash mahsulotlarni olishda dolzarb vazifalardan biridir [9]. Mavjud kimyoviy emulsiyalash usullarini tahlil qilganda, ularning ayrim turlari, xususan, suyuq membranaga ferment kiritib immobilizatsiya qilish yoki liposomalarga kiritish usullari ma’lum xossa ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilsa-da, ularda sintetik tolalarning elektrostatik zaryadlanishini bartaraf etish masalasi nazarda tutilmagan. Shuningdek, amaliyotda qo‘llaniladigan mashinalarni yerga ulash yoki havoni ionlash kabi an'anaviy usullar barcha sharoitlarda ham barqaror natija bermaydi. Polimer materiallar, jumladan, poliester tolalari zamonaviy funksional va maxsus qoplamali to‘qimachilik mahsulotlarini olishning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi [10; 11]. Tadqiqotlarimiz shuni ko‘rsatmoqdaki, poliester tolalarining ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash va ularning statik zaryadlanishini bartaraf etish uchun qo‘llaniladigan aktiv ishlov berish usullari yuqori antistatik va elektrofizik mezonlarga javob berishi shart [12]. Yuqoridagilarni inobatga olib tadqiqotning maqsadi poliester tolalarining statik zaryadlanishini sezilarli darajada kamaytirish uchun ularni tashqi elektr maydonida zaryadlab emulsiyalash usulidan fotdalanildi. Bu jarayonda kompozitsiya tarkibiga polimer tabiatli stabilizatorlarni kiritish hamda tizimning reologik omillari (namlanish, sirt tarangligi va qovushqoqlik) muhim rol o‘ynaydi [13; 14].

Nazariy tadqiqotlar. O‘tkazilgan tajribalar davomida sintetik tolalarning statik zaryadlanishini kamaytirish ularning ichki strukturasiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatishi isbotlandi. Ma’lumki, sintetik tolalar amorf va kristall uchastkalardan iborat bo‘lib, tola sirtiga ma’lum miqdorda zaryad berilganda kristall qismi biroz kamayib, amorf qismi ortishi kuzatildi. Bu kabi strukturaviy o‘zgarishlar o‘z navbatida tolalarning cho‘ziluvchanlik va bo‘yaluvchanlik qobiliyatlarini sezilarli darajada oshishini ta’minlaydi. So‘nggi yillarda o‘tkazuvchanlik va sirt

zaryadini boshqarish xususiyatlariga ega bo‘lgan zamonaviy nanokompozitsiyalarni sintez qilish va ularni qo‘llashdagi ilmiy-texnik yutuqlar poliester tolalarini modifikatsiyalash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi [15]. Odatda, poliester tolalarining sirt xossalarini yaxshilashga qaratilgan bunday emulsiya va funksional qoplamalar tarkibiga yuqori faollikka ega nanozarralar, tez uchuvchi organik erituvchilar hamda samarali sirt faol moddalar kiritiladi [16]. Bu kompozitsion tizimlar tola sirtida funksional jihatdan barqaror qatlam hosil qilishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Tajribaviy izlanishlar. Shuni alohida ta’kidlash joizki, qo‘llanilgan usulda tashqi elektr maydonining yo‘naltirilgan ta’siri nanozarralarning poliester tolasi yuzasiga yuqori aniqlikda va bir tekis o‘rnashishini kafolatlaydi. Elektr maydoni kuchlari ta’sirida zarrachalarning o‘zaro yopishib qolishi (aglomeratsiyasi) jarayoni batamom oldi olinadi, bu esa ularning tola bo‘ylab optimal fazoviy taqsimlanishiga sharoit yaratadi. Natijada, olingan modifikatsiyalangan materialning elektr o‘tkazuvchanlik ko‘rsatkichlari yaxshilanib, uning statik zaryadlanishga qarshi (antistatik) xossalari keskin ortadi.

Bunday innovatsion yondashuv poliester tolali materiallarning ekspluatatsion chidamliligini oshirish bilan bir qatorda, ularning turli zamonaviy tarmoqlarda, xususan, elektrostatik xavfsizlik talab etiladigan muhitlarda muvaffaqiyatli qo‘llanilishini ta’minlaydi. Elektr maydoni parametrlarini texnologik talablarga mos ravishda boshqarish orqali qoplamaning sifati, mustahkamligi va strukturaviy barqarorligini ilmiy jihatdan asoslagan holda yanada takomillashtirish mumkin bo‘ladi.




1-rasm. Emulsiyalanmagan poliester tolasining XRD spektrida kristall va amorf fazalar hissasining rentgenogrammasi (rentgen nurlarining difraksiyasi) va uning pik dekonvolyutsiya tahlili grafigi.

Ushbu XRD spektrining pik dekonvolyutsiyasi natijalari poliester tolasining kristall-amorf ikki fazali, ya’ni yarim kristall strukturaga ega ekanligini ko‘rsatadi. Spektrdagi asosiy difraksion maksimum $2\theta = 16{,}2°$ da kuzatilib, uning maksimal intensivligi $I_{max} \approx 1200$ birlikni tashkil etadi. Ushbu pikning kichik kenglik parametri ($w_3 = 0{,}6$) makromolekulyar zanjirlarning nisbatan yuqori darajada tartiblanganligini va kristall domenlarning mavjudligini ko‘rsatadi.


Natijalar tahlili. Olingan eksperimental natijalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, tashqi elektr maydoni ta’sirida poliester tolalarini zaryadlagan holda emulsiyalash jarayoni yuqori texnologik samaradorlikka erishish imkonini bersa-da, u jarayon parametrlarini o‘ta aniqlik bilan optimallashtirishni hamda rentgenostrukturaviy tahlil kabi murakkab va fundamental yondashuvlarni qo‘llashni taqozo etadi.Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, elektr maydonida zaryadlab emulsiyalash jarayoni yuqori samaradorlikka erishish imkonini bersada, u parametrlarni aniq optimallashtirish va rentgenogramma tahlili kabi murakkab texnologik yondashuvlarni talab

qiladi. Dastlabki tahlil shuni ko‘rsatdiki, poliester tolalarining rentgenogrammasini (XRD) tahlil qilingan va modellash jarayoni (1- rasm) aks ettirilgan. 16,2° atrofidagi tor kristall pikning keng amorf komponent bilan qoplanishi poliester tolasida kristall va amorf sohalarning bir vaqtda mavjudligini tasdiqlaydi. 2θ = 28,5° atrofidagi ikkilamchi komponent esa tolaning boshqa strukturaviy tartiblangan domenlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, emulsiyalanmagan poliester tolasining strukturasi yuqori darajada tartiblangan kristall domenlar va keng amorf fazalardan tashkil topgan yarim kristall sistema sifatida tavsiflanadi. Pik dekonvolyutsiyasi natijasida olingan komponentlarning eksperimental spektr bilan yaxshi moslashishi tanlangan matematik model poliester tolasining strukturaviy xususiyatlarini tavsiflash uchun yaroqli ekanligini ko‘rsatadi. Emulsiyalanmagan poliester tolasining ichki tuzilishi fazoviy jihatdan tartiblangan kristall domenlar hamda keng tarqalgan amorf fazalardan tashkil topgan yarim kristall sistema sifatida namoyon bo'ladi. Matematik dekonvolyutsiya jarayonida olingan nazariy komponentlarning eksperimental spektr chizig'i bilan yuqori darajada mos kelishi tanlagan matematik modelimiz poliester tolalarining nozik strukturaviy o'zgarishlarini va fazaviy xarakteristikalarini baholash uchun to'laqonli yaroqli ekanligini isbotlaydi.



2-rasm. Poliester tolasining 50V kuchlanish ta’siridagi rentgenogrammasi (rentgen nurlarining difraksiyasi) va uning pik dekonvolyutsiya tahlili grafigi


Rentgenogramma tahlili bo‘yicha 50 V kuchlanish sharoitida olingan poliester tolasining XRD spektri uning yarim kristall strukturaga ega ekanligini ko‘rsatadi. Spektrdagi asosiy difraksion maksimum 2θ = 16,2° da joylashgan bo‘lib, uning amplitudasi a_3 = 1500 birlikni tashkil etadi. Mazkur tor va intensiv maksimum tola tarkibidagi kristall domenlarning yuqori darajada ifodalanganligini ko‘rsatadi. 16–20° oralig‘idagi keng amorf komponent esa kristall struktura bilan bir qatorda tartibsiz amorf sohalar ham mavjudligini tasdiqlaydi.



3-rasm. Poliester tolasining 75V kuchlanish ta’siridagi rentgenogrammasi (rentgen nurlarining difraksiyasi) va uning pik dekonvolyutsiya tahlili grafigi


Bundan tashqari, 26,2° va 28,7° atrofida kuzatilgan qo‘shimcha difraksion komponentlar poliesterning murakkab kristall strukturaviy tashkil topganligini ko‘rsatadi. Tajriba va dekonvolyutsiya natijasida olingan hisoblangan spektrlarning yaxshi mosligi tanlangan matematik model asosiy difraksion komponentlarni yetarli darajada tavsiflashini ko‘rsatadi. Umuman olganda, 50 V elektr maydoni sharoitidagi namuna kristall va amorf fazalarning birgalikdagi mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Poliester tolasining 75V kuchlanish ta’siridagi XRD difraktogrammasi uning yarim kristall polimer tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. Tajribalar natijasida olingan spektrning dekonvolyutsiyasi natijasida taxminan 16.8° sohada asosiy kristall refleksi va 25-27° oralig‘ida ikkilamchi kristall komponent aniqlangan. Keng amorf fon polyester makromolekulalarining tartibsiz qismlari mavjudligini tasdiqlaydi. Asosiy kristall pikning yuqori intensivligi va nisbatan aniq shakllanganligi makromolekulyar zanjirlarning strukturaviy tartiblanishi mavjudligini ko‘rsatadi. Eksperimental va hisoblangan profillarning o‘zaro mosligi pik dekonvolyutsiyasi natijalarining qoniqarli ekanligini ko‘rsatadi.



4-rasm. Poliester tolasining 100V kuchlanish ta’siridagi rentgenogrammasi (rentgen nurlarining difraksiyasi) va uning pik dekonvolyutsiya tahlili grafigi

Yuqoridagi grafigda 100 V kuchlanishda ishlov berilgan poliester tolasining XRD spektri materialning yarim kristall tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. 2θ ≈ 16,8° dagi (110) kristall refleksining yuqori intensivligi kristall fazaning strukturada muhim ulushga ega ekanligini, 16-19° oralig‘idagi keng amorf komponent esa makromolekulyar zanjirlarning tartibsiz qismlari mavjudligini ifodalaydi. 23-24° sohadagi (021) refleks esa poliesterning qo‘shimcha kristallografik yo‘nalishini tasdiqlaydi. Piklarning dekonvolyutsiya qilinishi kristall va amorf fazalar hissasini alohida baholash imkonini beradi.



5-rasm. Poliester tolasining 110V kuchlanish ta’siridagi rentgenogrammasi (rentgen nurlarining difraksiyasi) va uning pik dekonvolyutsiya tahlili grafigi

Umuman olganda, 110 V kuchlanish ostida olingan XRD spektri poliester tolasining kristall-amorf ikki fazali tuzilishga ega ekanligini ko‘rsatadi. 2θ≈16.4∘ sohasidagi (110) kristall refleksi asosiy kristall strukturaviy tartibni ifodalasa, 2θ≈26.3∘ dagi (021) refleksi qo‘shimcha kristallografik tartiblangan sohalarning mavjudligini ko‘rsatadi. Amorf fazaga tegishli keng difraksion komponent esa makromolekulyar zanjirlarning tartibsiz qismlari mavjudligini tasdiqlaydi. Piklarning dekonvolyutsiyasi natijasida kristall va amorf komponentlarning alohida ajratilishi 110 V elektr maydonining poliester tolasining supramolekulyar strukturasiga ta’sirini miqdoriy baholash uchun asos yaratadi.

Yuqori kuchlanishdagi namunalar bo‘yicha XRD natijalarini umumlashtirganda, elektr maydoni poliester tolasining supramolekulyar tuzilishiga bir xil darajada emas, balki optimal kuchlanishgacha ijobiy ta’sir ko‘rsatishishini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, kristall faza piklarining shakli, intensivligi va amorf komponent bilan nisbatidagi o‘zgarishlar muhim. Shu bilan birga, juda yuqori elektr maydoni makromolekulyar zanjirlarning haddan tashqari orientatsiyasi va ichki kuchlanishlarning ortishiga olib kelishi mumkin. Bu esa tolani mo‘rtlashtirish yoki uning deformatsion xususiyatlarini yomonlashtirish ehtimolini oshiradi.

Xulosa. O‘tkazilgan kompleks tahlillar va eksperimental natijalar shuni ko‘rsatadiki, poliester tolalarini elektr maydoni yordamida modifikatsiyalash jarayonida kuchlanishni 75 V dan 100 V gacha bo‘lgan diapazonda saqlash eng maqbul (optimal) texnologik shart-sharoitlarni ta’minlaydi. Ushbu oraliqdagi elektr maydoni tolaning supramolekulyar tuzilishidagi kristall va amorf fazalar nisbatini o‘zaro muvozanatga keltirib, polimer makromolekulalarining fazoviy joylashuvini sezilarli darajada yaxshilaydi. Mazkur rejim tolaning strukturaviy barqarorligini oshirish bilan birga, uning fizik-mexanik ko‘rsatkichlarini, jumladan, cho‘ziluvchanlik va keyingi bosqichlardagi bo‘yaluvchanlik xossalarini yuqori darajaga ko‘taradi. Bu esa tola sirtida bir tekis va mukammal emulsion qatlam hosil qilib, pirovardida sanoat miqyosida yuqori sifatli va pishiq yigirilgan ip olish imkonini beradi.

Reference

1. Q.G‘ofurov, O.Rajapov, J.S.Arabov. To‘qimachilik sanoatida tolalarni emulsiyalash holati // Xalqaro anjuman ilmiy ishlar to‘plami. –Toshkent. ToshDTU, 2020. 110-112 b.
2. Arabov, J.; G‘ofurov, Q.; and Rajapov, O. (2020) "The effect of emulsification of chemical fiber on the properties of yarn,"Textile Journal of Uzbekistan: Vol. 9 : No. 1, Article 9.
3. Arabov J.S., G‘ofurov Q.; Rajapov O.O. Nisbiy namlikning kimyoviy tolalar zaryadlanishiga ta’siri. «Tendensii razvitnya tekstilnoy promishlennosti: problemi i puti resheniya» I-Mejdunarodnaya nauchno-prakticheskaya konferensiya Termiz.2021. 204-208 b.
4. Jamoliddin Arabov, Khusankhon Bobojanov, Jamila Ergashova, Shoaziz Shorakhmedov, In The Polarized Field Of Synthetic Fibres Improving Emulsification. (2024). Eurasian Journal of Engineering and Technology, 29,26-33. https://geniusjournals.org/index.php/ejet/article/view/5893
5. Arabov J. Rajapov O.O., Gafurov K.G., Bobojonov H. Устройство для эмульсирования волокна и свойства смешанной пряжи// *https://7universum.com/ru/tech/archive/item/14390 10(103) 2022*
6. J.S.Arabov, Q.G‘ofurov, O.O.Rajapov Kimyoviy tolalarni yigirishda emulsiyadan foydalanish.//TTYeSI ,xalqaro konferensiya 07.06.2020 y. 18-22 b.
7. N. D. Nabiev; J. J. Ergashova; J. S. Arabov, Adding flammable properties to cotton fiber fabric with sulfur and phosphorus based antipyrine// AIP Conf. Proc. 3304, 030071 (2025) https://doi.org/10.1063/5.0269614
8. Rajapov O.O., Gafurov K.G., Arabov J. Usloviya polucheniya ravnomernoy smesi iz xlopko-nitronovogo volokna s minimalnoy neravnomernostyu smeshivaniya // Universum: texnicheskie nauki : elektron. nauchn. jurn. 2020. 11(80)

9. J.Arabov, S.Matismailov, G.Matchanova, J.Ergashova, Sh. Shoraxmedov The Effect of Strength in Polar Field Emulsification on the Deformation of Synthetic Fibers\AIP Conf. Proc. 22 June 2025; 3304, 030002 (2025) https://doi.org/10.1063/5.0269613
10. J.S.Arabov, J.Q.Gofurov, A.T.Rosaboyev, Q.Gofurov, S.L.Matismailov, U.B.Imamkulov, O.O.Rajapov. "Device for emulsification of fibrous materials" UZ FAP 01795 28.02.2022. Bul., No. 2.
11. https://inlibrary.uz/index.php/ijsr/article/view/130431
12. https://srcyrl.fiber-yarn.com/info/what-are-the-physical-properties-of-polyester-100324385.html
13. J. Arabov., Q. G'ofurov. O. Rajapov A. Erdanov Qutblangan maydonda tolaga ta'sir etuvchi Panderomator kuch.// https://cyberleninka.ru/article/n/qutblangan-maydonda-tolaga-ta-sir-etuvchi-panderomator-kuch
14. Arabov J., G'ofurov Q., Rajapov O., & Erdanov, A. (2023). Qutblangan maydonda tolaga ta'sir etuvchi panderomator kuch. Academic research in educational sciences, 4(3), 371-376.
15. https://www.researchgate.net/figure/XRD-pattern-of-polyester-control-and-polyester-treated-polyester_fig2_286072578
16. https://www.eurolab.net/uz/testler/element-analizleri/x-isini-kirinim-xrd-analizi/

УДК 675.6.061.2/.027.017.001.36

АНАЛИЗ МЕТОДОВ ФОРМОВАНИЯ КАРАКУЛЕВОГО МЕХА С УЧЁТОМ ЕГО ФИЗИКО-МЕХАНИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

Х.Ҳ.Камилова, Н.А.Ханкельдиева
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Аннотация: *В настоящем исследовании в комплексном и системном ракурсе анализируются методы формирования морфологической конфигурации каракульского мехового сырья в процессах конструирования современной верхней одежды. Авторами последовательно изучена многофакторная корреляция между параметрами технологической обработки и сложными физико-механическими деформационными свойствами каракульских полуфабрикатов. В работе особый научный акцент сделан на феномене пространственной анизотропии, присущем структуре меха, который определяется природно-топографической архитектоникой шкуры, степенью гетерогенности гистологического строения дермы, а также диверсификацией направления волосяного покрова в различных ее сегментах. В ходе научных исследований была полностью систематизирована традиционная и инновационно-технологическая методология придания объемно-пространственной формы конструктивным элементам. В статье критически оцениваются технологические преференции, технические ограничения и трансформационное влияние этих подходов на показатели качества и эксплуатационной устойчивости готовой продукции. Установлено, что отсутствие верификации анизотропных и физико-механических параметров каракуля на стадиях раскроя и формирования генерирует локальные внутренние напряжения в изделиях и приводит к резкой деградации формоустойчивости меховых изделий в период эксплуатации. На основании результатов сравнительного анализа авторами была объективно доказана необходимость разработки научно обоснованной новой концептуальной методологии, направленной на оптимизацию процессов формулирования. Предложенный алгоритм основан на принципах предварительного математического моделирования и прогнозирования реакции деформации различных топографических зон*

каракулевых полуфабрикатов под воздействием внешних механических нагрузок. Полученные результаты служат прямым источником для цифровизации систем проектирования (SAPR) и оценки качества высококонкурентных меховых изделий.

Ключевые слова: *сырье для каракуля, способы формования, деформационно-механические свойства, пространственная анизотропия, дермальная архитектоника, топографические сегменты, устойчивость формы, конструкция одежды, технологические параметры*

Аннотация. *Мазкур тадқиқотда замонавий устки кийим-кечакларни конструкциялаш жараёнларида қоракўл мўйна хомашёларининг морфологик конфигурациясини шакллантириш усуллари комплекс ва тизимли ракурсда таҳлил этилган. Муаллифлар томонидан технологик ишлов бериш параметрлари ҳамда қоракўл яримфабрикатларининг мураккаб физик-механик деформацияланиш хоссалари ўртасидаги мультифакторли корреляция изчиллик билан ўрганилган. Изланишда мўйна тузилмасига хос бўлган фазовий анизотропия феноменига алоҳида илмий урғу берилган бўлиб, мазкур холат тери қопламининг табиий-топографик архитектоникаси, дерма (кўн) тўқимаси гистологик тузилишининг гетерогенлик даражаси ҳамда турли сегментлардаги туклар йўналишининг диверсификацияси билан детерминацияланади. Илмий изланишлар давомида конструктив элементларга ҳажмий-фазовий шакл беришнинг анъанавий ҳамда инновацион-технологик методологияси тўлиқ тизимлаштирилди. Мақолада ушбу ёндашувларнинг технологик преференциялари, техник чекловлари ва тайёр маҳсулотнинг сифат ҳамда эксплуатацион турғунлик кўрсаткичларига бўлган трансформацияловчи таъсири критик баҳоланган. Бичиш ва формофикациялаш босқичларида қоракўлнинг анизотроп ҳамда физик-механик параметрларини верификация қилмаслик буюмларда локал ички кучланишларни генерация қилиши ва эксплуатация даврида мўйна маҳсулотларининг шакл барқарорлигини кескин деградацияга учратиши аниқланган. Қиёсий-компаратив таҳлил натижаларига таянган ҳолда, муаллифлар томонидан формофикация жараёнларини оптималлаштиришга қаратилган илмий асосланган янги концептуал методикани лойиҳалаш зарурлиги объектив равишда исботланган. Тавсия этилаётган алгоритм ташқи механик юкламалар таъсирида қоракўл яримтайёр маҳсулоти турли топографик зоналарининг деформацион реакциясини олдиндан математик моделлаштириш ва прогнозлаш тамойилларига асосланади. Олинган натижалар лойиҳалаш тизимларини рақамлаштириш (САПР) ва юқори рақобатбардошликка эга бўлган мўйна кийимлари сифатини констатация қилишда бевосита манаба бўлиб хизмат қилади.*

Калит сўзлар: *қоракўл хомашёси, формофикация усуллари, деформацион-механик хоссалар, фазовий анизотропия, дерма архитектоникаси, топографик сегментлар, шакл турғунлиги, кийимларни конструкциялаш, технологик параметрлар*

Abstract. *This study comprehensively and systematically analyzes methods for forming the morphological configuration of karakul fur raw materials in the processes of constructing modern outerwear. The authors have consistently studied the multifactorial correlation between technological processing parameters and the complex physical-mechanical deformation properties of karakul semi-finished products. In the work, special scientific emphasis is placed on the phenomenon of spatial anisotropy inherent in the structure of fur, which is determined by the natural-topographic architecture of the skin, the degree of heterogeneity in the histological structure of the dermis, as well as the diversification of the direction of hair cover in its various segments. During the scientific research, the traditional and innovative technological methodology for giving volumetric-spatial form to structural elements was fully systematized. The article critically evaluates technological preferences, technical limitations, and the transformational impact of these approaches on quality indicators and operational stability of finished products. It has been established that the lack of verification of karakul's anisotropic and physico-mechanical parameters during the cutting and shaping stages generates local internal stresses in the products and leads to a sharp degradation of the shape stability of fur products*

during operation. Based on the results of the comparative analysis, the authors have objectively proven the necessity of designing a scientifically grounded new conceptual methodology aimed at optimizing formulation processes. The proposed algorithm is based on the principles of preliminary mathematical modeling and forecasting of the deformation reaction of various topographic zones of karakul semi-finished products under the influence of external mechanical loads. The results obtained serve as a direct source for the digitalization of design systems (SAPR) and the assessment of the quality of high-competitiveness fur garments.

Keywords: *karakul raw material, forming methods, deformation-mechanical properties, spatial anisotropy, dermal architectonics, topographic segments, shape stability, clothing design, technological parameters.*

Введение. На современном этапе в республике наблюдается интенсивная интенсификация выпуска высокотехнологичной и модернизированной продукции в различных секторах индустриального производства, при этом изделия из натурального пушно-мехового сырья демонстрируют стабильно высокий волатильный спрос как на национальном, так и на трансграничных рынках. Параллельно с векторами макродинамичного развития глобальной индустрии моды претерпевает существенные трансформации и производственно-стратегическая парадигма предприятий меховой индустрии [4,6]. Технологический цикл изготовления, а также последующий эксплуатационный период меховой одежды неразрывно сопряжены с комплексными деструктивными физико-механическими факторами экзогенного характера (включая влажно-тепловую обработку, разнонаправленное растяжение, знакопеременный изгиб и пластическую деформацию), которые непосредственно детерминируют показатели износостойкости, резистентности и долговечности готовых изделий [1,7]. В данном контексте стратегически актуальной научно-производственной задачей выступает оптимизация и рационализация векторов деривации уникального каракулевого сырья в структуре легкой промышленности. Достижение высокого качества конечной продукции и пролонгация ее конкурентоспособного потенциала на мировом меховом рынке обосновывается необходимостью фундаментального и системного мониторинга физико-механических и структурно-морфологических свойств исходного полуфабриката.

Цель исследования. Целевая направленность настоящего диссертационного (научного) изыскания заключается в осуществлении системно-комплексного мониторинга и дескриптивного анализа деформационно-механических и физико-структурных параметров каракулевого мехового полуфабриката, а также в научно обоснованной модернизации существующих методологических подходов к его пространственному формообразованию [2,3]. Реализация данной цели ориентирована на пролонгацию показателей формоустойчивости, детерминацию улучшенных эксплуатационных дескрипторов готовых швейных изделий и стратегически рациональную интенсификацию освоения регионального (локального) сырьевого потенциала меховой индустрии.

Материалы и методы исследования. В качестве объектов исследования использовались полуфабрикаты каракулевого меха (сырье мелкого рогатого скота). Комплексная оценка параметров проводилась по двум составляющим: свойствам кожевой ткани и свойствам волосяного покрова.

1. *Физические испытания:* Массу образцов определяли на прецизионных лабораторных весах марки «SK-60H». Толщину кожевой ткани измеряли настольным толщиномером в различных топографических участках шкурки. Воздухопроницаемость оценивали по объему воздуха, проходящего через единицу площади 1 см² в единицу времени на специализированных аэродинамических установках.

2. *Механические испытания:* Исследование устойчивости к многократному знакопеременному изгибу проводилось на флексиометре марки «Leather Flex Testing

Machine». Определение деформационно-прочностных свойств (растяжимости и прочности на разрыв) выполняли на разрывной машине РТ-250. Исследования проводились согласно действующим методикам испытания пушно-мехового полуфабриката. Поверхностную плотность определяли на лабораторных весах SK-60H, толщину кожевой ткани - настольным толщиномером, сопротивление многократному изгибу - на приборе Leather Flex Testing Machine, деформационно-прочностные характеристики - на разрывной машине РТ-250. Перед испытаниями образцы кондиционировали в течение 24 часов при нормативной влажности [5,14,19]. По мере роста механического напряжения наступает критическая точка деформации, при которой происходит разрушение (разрыв) образца. Максимальная разрывная нагрузка (прочность) пушно-мехового полуфабриката фиксируется по шкале силоизмерителя, а величина его абсолютного деформирования (прирост длины) — по шкале линейного удлинения. Определение относительного удлинения кожевой ткани пушно-мехового полуфабриката осуществляется одновременно с фиксацией предела прочности при растяжении на разрывной машине. Общая деформация растяжения представляет собой сумму упругого (обратимого) и остаточного (пластического) удлинений. Полная деформация кожевой ткани при разрыве обусловлена величиной приложенного разрывного усилия, соотнесенного с исходными геометрическими параметрами образца, и выражается в процентах от первоначальной длины рабочей зоны. Относительное удлинение при разрыве $\varepsilon_р$, % рассчитывают по формуле:

$$\varepsilon_p = \frac{\Delta l}{l} \cdot 100$$

где, Δl- абсолютное удлинение образца в момент разрыва, мм;

l - начальная расчетная длина рабочей зоны образца, мм.

Для определения относительного удлинения меха при заданном напряжении 4,9 МПа рассчитывают среднюю толщину и среднюю ширину каждого образца. Произведение этих величин даёт среднюю площадь поперечного сечения. Затем значение среднего сечения умножается на заданное напряжение, и таким образом получается величина силы, соответствующая этому напряжению. Во время испытания ведётся наблюдение за шкалой силы до достижения расчётного усилия. Относительное удлинение εn, %, при заданном напряжении 4,9 МПа:

$$\varepsilon_н = \frac{\Delta l_н}{l} \cdot 100$$

где, $\Delta l_н$ - удлинение в соответствии с заданным напряжением, мм

l - начальная рабочая длина образца, мм.

Относительное удлинение кожевой ткани в момент образования трещин на лицевом слое $\varepsilon_ё$ (%) рассчитывают по формуле:

$$\varepsilon_ё = \frac{\Delta l_ё}{l} \cdot 100$$

Здесь $\Delta l_ё$– абсолютное удлинение образца в момент появления первой трещины на лицевой поверхности, мм.

Результаты исследования. В ходе проведения ряда лабораторно-экспериментальных испытаний были подтверждены и систематизированы фундаментальные материаловедческие константы каракулевого мехового полуфабриката (таблица 1).

В целях обеспечения высокой метрологической точности, воспроизводимости и строгой нормативной верификации результатов экспериментальных исследований, комплексный материаловедческий анализ каракулевых полуфабрикатов базировался на системной интеграции профильных государственных стандартов: ГОСТ 10545-63, ГОСТ 22596-77 и ГОСТ 22599-77**.** Имплементация данного стандартизированного комплекса

позволила научно обосновать и количественно интерпретировать параметры структурно-механической гетерогенности и пространственной анизотропии исследуемого сырья.

Таблица 1.


Физико-механические показатели исследуемого каракулевого меха

Наименование показателя	Единица измерения	Значение показателя	ГОСТ
Поверхностная плотность	д/м²	20,35	10545-63
Толщина кожевой ткани (общий диапазон)	мм	1,5 – 2,0	22596-77
Средняя воздухопроницаемость	$см^3/ см^2 \cdot 2$	0,3	10545-63
Выносливость к изгибу (тонкое сырье)	циклов	800	22599-77

Методом прецизионного взвешивания на лабораторных весах «SK-60H» и сканирования на специализированных аэродинамических установках были детерминированы фундаментальные константы поверхностной плотности и средней воздухопроницаемости материала. Дифференциальная оценка пространственной архитектоники дермы, выполненная с помощью настольного толщиномера и разрывной машины «РТ-250», позволила выявить многофакторную корреляцию между топографической толщиной кожевой ткани и ее кинетикой деформационно-прочностных изменений в условиях одноосного растяжения. Мониторинг усталостной выносливости коллагенового каркаса к многократному знакопеременному изгибу на флексиометре «Leather Flex Testing Machine» эксплицировал синергетическую зависимость между жесткостными характеристиками субстрата и его способностью к пролонгированному сохранению заданной объемно-пространственной конфигурации**.** Сформированный в результате стандартизированных испытаний массив эмпирических констант служит инвариантным базисом для превентивного математического моделирования локальных деформационных реакций каракуля, что открывает прямые перспективы для цифровой трансформации сквозных процессов проектирования в среде САПР и прецизионной оценки качества высококонкурентных меховых изделий. [10]

Дифференцированный топографический мониторинг каракулевых шкурок выявил явную гетерогенность метрических параметров кожевой ткани по всей площади полуфабриката. В частности, наибольшие значения толщины (1,9–2,0 мм) наблюдались в огузочной части шкуры, а наименьшие значения (1,5–1,6 мм) были зафиксированы на брюшной и боковых частях [9,12]. Выявленная в ходе эксперимента градация толщины обусловливает необходимость внедрения селективного алгоритма в процессы технологического раскроя и пространственного формоизменения полуфабрикатов.

При деформационном сканировании образцов на одноосное растяжение был верифицирован феномен преждевременной деструкции (микрорастрескивания) эпидермального (лицевого) слоя мездры. Данный фактор выступает в качестве специфической органолептической и структурной константы, имманентно присущей именно каракулевому сырью. Эмпирический анализ полученных результатов эксплицирует, что доминирующее триггерное воздействие на архитектонику пространственного формообразования каракуля оказывает не изолированный вектор прочности или эластичности, а синергетический комплекс когерентных характеристик дермы и трихологического (волосяного) покрова. Установлено, что восходящий тренд толщины кожевой ткани коррелирует с увеличением жесткостных параметров материала, что закономерно влечет за собой редукцию его потенциала к локальным пластическим деформациям.



1-рис. Визуальное представление результатов физико-механических показателей каракулевого меха в виде диаграммы

Вместе с тем фиксируется прямо пропорциональный рост стабильности геометрической конфигурации после ее окончательной фиксации [11,18]. Внутритопографическая асимметрия толщины кожевой ткани, варьирующаяся в интервале до 7%, служит научным обоснованием для реализации строгого партионного и зонального подхода при раскрое. Конвергенция шкурок с высоким градиентом разнотолщинности в структуре единого изделия существенно пролонгирует трудоемкость скорняжно-пошивочных операций и деградирует эстетико-товарный вид готовой одежды. Общая деформационная компонента дермы в момент деструкции, генерируемая суммой обратимого (упругого) и остаточного (пластического) удлинений, диктует необходимость превентивной интеграции деформационно-стабилизирующих технологических методов на этапе непосредственного монтажа изделия.

Конструктивно-деформационные методы формообразования. Опираясь на верифицированные эмпирические константы о пространственной асимметрии и выраженной топографической анизотропии деформационно-механических параметров каракулевого полуфабриката, была сформирована и систематизирована комплексная научно обоснованная классификация методологий формомодификации и структурной стабилизации элементов кроя меховых швейных изделий [8,13]. Дифференцированный цикл генерации перманентной объемно-пространственной конфигурации конструктивных элементов из каракулевого сырья декомпозируется на три интергрированных и когерентных базиса: конструктивно-технологический алгоритм, деформационно-механический способ и финальная стадия физико-химической импрегнации и модификации биополимерными композитами. Конструктивно-технологическая методология формообразования имплементируется непосредственно на превентивной стадии геометрического моделирования изделий в цифровом пространстве систем автоматизированного проектирования (САПР). Архитектоника данного подхода базируется на антропометрически ориентированном дискретном членении элементов кроя, интеграции ортогональных конструктивно-технологических швов, вытачек и пластических складок, а также на прецизионном проектировании сложных пространственных конфигураций композитных модулей кроя с обязательной верификацией вектора направленности завитков волосяного покрова. Для минимизации материальных потерь и максимизации коэффициента рационального использования высокостоимостного сырья в рамках парадигмы циркулярной экономики и безотходного производства (Zero Waste), научно верифицировано и внедрено применение высокотехнологичных методов сложной дискретно-элементной сборки единого мехового полотна, включая технологические приемы «роспуска», «тетриса», а также методики меховой мозаики и пэчворка. Подобный

подход позволяет эффективно нивелировать визуальную и структурно-морфологическую топографическую диспропорцию шкурок еще до инициации швейного монтажа конечного изделия. Деформационный (физико-механический) вектор формообразования аппроксимирован на целенаправленной активации и перераспределении упругопластического потенциала дермы каракулевого полуфабриката. Направленная трансформация линейно-геометрических параметров и получение заданной объемной архитектоники материала реализуется посредством индуцированного перестроения его внутренней микроструктурной сетки в процессе интенсивной влажно-тепловой обработки (ВТО) [20]. Механическое натяжение и пространственное формование, сопряженное с последующей жесткой фиксацией приобретенной геометрии, осуществляется на стадии дегидратации (удаления влаги) в процессе сушки под воздействием комбинированного конвективно-теплового поля. Данная термическая экспозиция инициирует временную реконфигурацию лабильных межмолекулярных связей в полимерной структуре кожевой ткани, обеспечивая пролонгированную стабилизацию заданной формы [15].

Модификация полимерными композициями на основе коллагена выступает в качестве завершающего и наиболее эффективного стабилизирующего фактора. Поскольку каракулевый мех обладает высокой анизотропией и склонностью к пластическим деформациям при эксплуатации, традиционные текстильные каркасные прокладки не обеспечивают долговечную формоустойчивость. Для радикального устранения этого недостатка разработана технология нанесения жидких коллагенсодержащих биополимерных модификаторов на внутреннюю поверхность кожевой ткани. Обладая идентичным с дермой химическим составом и волокнистым строением, биополимер легко проникает в межволоконные поры материала. В процессе высыхания модификатор формирует на поверхности и внутри пор сложную жесткую макроструктуру (пространственный каркас), которая прочно связывает подвижные пучки коллагена дермы. Экспериментально доказано, что такая модификация снижает остаточную пластическую деформацию каракуля на 35–40%, полностью нивелирует проявления анизотропии, минимизирует эксплуатационную усадку и обеспечивает стабильное сохранение заданной пространственной формы изделия под действием внешних факторов [17].

Научная новизна и практическая значимость статьи заключается в том, что впервые теоретически и экспериментально обосновано синергетическое влияние анизотропии деформационных свойств каракуля и модификации пор его кожевой ткани коллагенсодержащими биополимерами на показатели долговечности и формоустойчивости деталей кроя.

Разработаны технологические рекомендации для меховых предприятий по дифференцированному раскрою каракуля с учетом 7%-го градиента толщины. Реализован алгоритм цифровой сборки («роспуск», «тетрис») в среде САПР в рамках безотходного производства (Zero Waste), что снижает расход мехового сырья на 12-15%.

Заключение. В результате исследования установлено, что эффективность формообразования деталей одежды из каракулевого меха определяется комплексом физико-механических характеристик кожевой ткани и волосяного покрова. Наиболее существенное влияние на формоустойчивость оказывают толщина кожевой ткани, поверхностная плотность, прочность при растяжении, упругопластические свойства и воздухопроницаемость материала. Экспериментально подтверждена необходимость предварительной сортировки каракулевого полуфабриката по толщине и физико-механическим характеристикам перед раскроем, что обеспечивает повышение точности формообразования и качества готовых изделий [16]. Проведенный сравнительный анализ механических, термических и химических способов формообразования показал, что наиболее эффективным является их комплексное применение с использованием разработанных коллагенсодержащих полимерных композиций, обеспечивающих

стабилизацию структуры кожевой ткани и сохранение заданной пространственной формы деталей. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании технологий проектирования и изготовления меховой одежды, а также при разработке ресурсосберегающих технологий переработки каракулевого сырья.

Reference:

1. A.A.Golovteyeva, D.A.Kutsidi, L.B.Sankin. Laboratorniy praktikum po ximii i texnologii koji i mexa» Moskva. Lekprombizdat 1999g. S 209-229.
2. Toktorbayeva E.I. Razrabotka metoda proyektirovaniya jenskoy odejdi iz mexa zavitkovoy gruppi: Dis. kand. Texn. Nauk: MGUDT. –M.: 2002. - 193 s.
3. Toktorbayeva E.I., Lopasova L.V. Osobennosti izgotovleniya skroyev izdeliy iz pushno-mexovogo polufabrikata: uchebnoye posobiye. - M.: 2001 g.
4. Medvedev v.Yu. sushnost dizayna: ucheb. posobiye. 3-ye izd., ispr. i dop. sPb.: sPGUTD, 2009. 110 s.
5. Balandin A.A. «Grafen va nanostrukturali uglerod materiallarining issiqlik xossalari» // Nature Materials, 10(8), 2011. – 569–575-betlar.
6. Sovostyanova I. I. Izdeliya iz koji i mexa. – M.: Poligrafizdat, 2011. – 224 s.
7. Tovarovedeniye i ekspertiza odejno-obuvnix i pushno-mexovix tovarov / pod red. T. P. Slavnovoy. – M.: 2012. – 168 s.
8. Terskaya L.A., Sinenko r.i. sistematizatsiya obyektov mexovogo dizayna po napravle niyu predmetnogo tvorchestva dizaynera // Koja i mex v XXI veke: materiali mejdunar. nauch.-prakt. konf. Ulan-Ude, 2014. s. 260–265.
9. Terskaya L. A. Texnologiya raskroya i poshiva mexovoy odejdi: ucheb. posobiye. – M.: Akademiya, 2015. – 272 s.
10. Nematova L. X. Rekomendatsiya siluetnix form odejdi na figuri razlichnix polnotno-vozrastnix grupp // Voprosi nauki i obrazovaniya. – 2017. – № 2. – S. 72.
11. Xolikova N. Sh. Modelirovaniye i proyektirovaniye mexovoy odejdi // Molodoy ucheniy. – 2017. – № 14. – S. 152–154.
12. Cherunova I. V. et al. The study of physical and mechanical properties of karakul for creating smart-clothing // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – 2021. – Vol. 1031. – Art. 012023.
13. Sayfullayeva D. A., Tosheva N. M., Nematova L. H., Zokirova D. N., Inoyatov I. S. Methodology of using innovative technologies in technical institutions // Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – Vol. 25(4). – P. 7505–7522.
14. Azimov J.Sh. “Issledovaniye potrebitelskix svoystv pushno-mexovogo polufabrikata” Monografiya. T.: 2023 g.
15. Sokolova Y., Petrova M. The use of shape-memory materials in stabilizing the spatial form of fur products // Textile Industry News (RSCI). – 2023. – № 4. – P. 12–18.
16. Kamilova X. X., Xankeldiyeva N. A. Analiz istorii karakulya v Uzbekistane // Actual Problems in Science and Education: Materials of Int. Conf. (London, Great Britain). – 2024. – P. 45–51.
17. Kamilova H. H., Khonkeldiyeva N. A. Types of sewing machines used in the processing of fur products // Advanced Journal of University Science and Creative Innovations (AJOU SCI). – 2025. – № 3. – P. 89–95.
18. Kamilova X. X., Xonkeldiyeva N. A. Mo‘ynaning fizik va mexanik xususiyatlarining tahlili // Kompozitsion materiallar. – 2026. – № 1. – B. 174.
19. Beskorovaynaya G. P. Proyektirovaniye odejdi iz mexa s uchetom deformatsionnix svoystv polufabrikata / G. P. Beskorovaynaya, Ye. A. Kuznetsova // Shveynaya promishlennost. – 2018. – № 4. – S. 28–31

20. Sultonova S. A. Qorako‘l mo‘ynasidan tayyorlanadigan kiyim detallariga konstruktiv-deformatsion shakl berish jarayonlarini takomillashtirish // Tekstil va tikuvchilik sanoati muammolari : ilmiy-texnik jurnal. – Buxoro, 2023. – № 2. – B. 45–51.

21. Sareva S. V. Razrabotka metodov avtomatizirovannogo proyektirovaniya mexovix izdeliy s uchetom anizotropii svoystv polufabrikata: avtoref. dis. ... kand. texn. nauk: 05.19.04 / Sareva Svetlana Vladimirovna. – Moskva, 2017. – 24 s

UO‘K 687.016-055.26.001.76

HOMILADOR AYOLLAR UCHUN QISHKI USTKI KIYIMLARNI LOYIHALASHDA ISTE’MOLCHI TALABLARINI TADQIQ ETISH

D.R.Sattarova, U.A.Vaxidova
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotatsiya*. Ushbu maqolada O‘zbekiston sharoitida homilador ayollar uchun qishki ustki kiyimlarni loyihalashda iste’molchi talablarini o‘rganishga qaratilgan tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqotning maqsadi homiladorlik davrida ayol qomatida yuz beradigan antropometrik va fiziologik o‘zgarishlarni hisobga olgan holda, qulay, funksional va transformatsiyalanuvchi qishki kiyim assortimentini shakllantirish uchun zarur bo‘lgan talablarni aniqlashdan iborat. Homilador ayollar kiyimlarini ishlab chiqarishning zamonaviy holati va iste’mol bozorini tahlil qilish natijalari mavjud kiyimlar hamda maxsus iste’mol buyumlari iste’molchilar ehtiyojlarini to‘liq qondirmasligi va komfort talablariga yetarli darajada javob bermasligini ko‘rsatdi. Tadqiqot davomida ilmiy manbalar, xorijiy ishlab chiqaruvchilarning qishki ustki kiyim analoglari hamda 140 nafar respondent ishtirokidagi ijtimoiy so‘rov natijalari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari homilador ayollar kiyimlarini ishlab chiqishda qorin sohasida moslashuvchanlikni ta’minlash, issiqlik va namlikdan himoyalash, foydalanish muddatini uzaytirish hamda ergonomik qulaylik yaratish muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Olingan ma’lumotlar asosida bo‘lajak onalar uchun qishki ustki kiyimlarni loyihalashda qo‘llaniladigan konstruktiv yechimlar va materiallar paketiga qo‘yiladigan asosiy talablar shakllantirildi. Tadqiqot natijalari mahalliy mahsulotlar assortimentini takomillashtirish, iste’molchiga yo‘naltirilgan kiyim materiallari paketini shakllantirish hamda homilador ayollar uchun funksional qishki ustsotki kiyimlarni loyihalashning ilmiy-amaliy asosi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: *homilador ayollar kiyimi, qishki ustki kiyim, iste’molchi afzalliklari, ergonomik qulaylik, transformatsiyalanuvchi konstruksiya, kiyim materiallari paketi, kiyim dizayni.*

Аннотация. *В статье представлены результаты исследования, направленного на изучение потребительских предпочтений при проектировании зимней верхней одежды для беременных женщин в условиях Узбекистана. Цель исследования заключается в выявлении требований, необходимых для формирования ассортимента удобной, функциональной и трансформируемой зимней одежды с учётом антропометрических и физиологических изменений женской фигуры в период беременности. Анализ современного уровня состояния производства и рынка потребления одежды беременных женщин показал, что одежда и специализированные предметы потребления не удовлетворяет запросам потребителей и не отвечает требованиям комфортности. В ходе работы были проанализированы научные источники, аналоги зимней верхней одежды зарубежных производителей, а также результаты социологического опроса с участием 140 респондентов. Результаты исследования показали, что при разработке одежды для беременных женщин важное значение имеют адаптация изделия в области живота, обеспечение теплозащиты и*

защиты от влаги, увеличение срока эксплуатации, а также создание эргономического комфорта. На основе полученных данных сформированы основные требования к конструктивным решениям и материалам, используемым при проектировании зимней верхней одежды для будущих матерей. Полученные результаты могут служить научно-практической основой для совершенствования ассортимента отечественной продукции, формирования ориентированного на потребителя пакета материалов одежды и проектирования функциональной зимней верхней одежды для беременных женщин.

Ключевые слова: *одежда для беременных женщин, зимняя верхняя одежда, потребительские предпочтения, комфорт и эргономика, трансформируемая конструкция, пакет материалов одежды, дизайн одежды.*

Abstract. *This article presents the results of a study aimed at investigating consumer preferences in the design of winter outerwear for pregnant women under the conditions of Uzbekistan. The purpose of the study is to identify the requirements necessary for the formation of a range of comfortable, functional, and transformable winter garments, taking into account anthropometric and physiological changes in the female body during pregnancy. The analysis of the current state of production and the consumer market of maternity clothing showed that existing garments and specialized consumer products do not fully meet consumer needs and do not sufficiently satisfy comfort requirements. The study involved the analysis of scientific sources, samples of winter outerwear from foreign manufacturers, and the results of a sociological survey involving 140 respondents. The research findings demonstrated that the adaptation of garments in the abdominal area, provision of thermal insulation and moisture protection, extension of service life, and creation of ergonomic comfort are of great importance in the development of clothing for pregnant women. Based on the obtained data, the main requirements for design solutions and material packages used in the development of winter outerwear for expectant mothers were formulated. The results obtained can serve as a scientific and practical basis for improving the assortment of domestic products, developing consumer-oriented clothing material packages, and designing functional winter outerwear for pregnant women.*

Keywords: *maternity clothing, winter outerwear, consumer preferences, ergonomic comfort, transformable design, clothing material package, clothing design.*

Kirish. So‘nggi yillarda yurtimizda onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish hamda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-sentabrdagi PQ-296-sonli qarori doirasida olib borilayotgan ishlar mamlakatdagi demografik rivojlanish, tug‘ilish ko‘rsatkichlari va reproduktiv yoshdagi ayollar sonining o‘zgarishi bilan bevosita bog‘liqdir. Mazkur demografik tendensiyalar homilador ayollar salomatligi va qulayligini ta’minlovchi maxsus kiyimlarga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga hamda ushbu mahsulotlar iste’mol bozorining kengayishiga sabab bo‘lmoqda. [1]. Demografik jarayonlar maxsus kiyimlar bozoriga bevosita ta’sir ko‘rsatadi: reproduktiv yoshdagi ayollar soni, tug‘ilish intensivligi, yashash hududi va oilalarning xarid qobiliyati homiladorlik davrida foydalaniladigan kiyimlarga talab hajmi hamda tarkibini belgilaydi. BMT ma’lumotlariga ko‘ra, jahon miqyosida tug‘ilish ko‘rsatkichlari hududlar bo‘yicha farqlansa-da, onalik va homiladorlik bilan bog‘liq mahsulotlarga barqaror ehtiyoj saqlanib qolmoqda [2]. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti 2023-yilda 3,445, 2024-yilda 3,35 va 2025-yilda 3,23 bolani tashkil etgan [3]. 2026-yil yanvar–mart oylarida esa mamlakatda 191 086 ta tirik tug‘ilish qayd etilib, ularning 49,1 foizi shahar va 50,9 foizi qishloq hududlariga to‘g‘ri kelgan [4]. Mazkur ko‘rsatkichlar bozor hajmini bevosita belgilamaydi, biroq homiladorlik va tug‘ruqdan keyingi davr uchun moslashtirilgan kiyimlarga muntazam ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatadi. Ma’lumki, homiladorlik davrida ayol organizmidagi fiziologik o‘zgarishlar bilan birga, nisbatan qisqa vaqt ichida qomatining ayrim qismlari shakli va o‘lchamlari ham o‘zgaradi. Homiladorlikning ilk davrlaridayoq ayol qomatida sezilarli fiziologik o‘zgarishlar yuz beradi:

ko‘krak qafasi kengayadi, qorinning pastki qismida, dumba va sut bezlari sohasida yog‘ to‘planadi, sut bezlari kattalashadi, tana vazni esa muttasil ortib boradi (haftasiga 500 grammgacha). 3-oydan boshlab, homilador ayolning gavda tuzilishiga, suyuqlik miqdoriga, homilaning joylashuviga va hokazolarga qarab, qorin kattalasha boshlaydi. Homilador ayolning qaddi-qomati ham o‘zgaradi: bachadon o‘sishi va qorin kattalashgani sari umurtqa pog‘onasi tekislanadi, yelka va ensa orqaga tortiladi, umurtqaning bel qismidagi egiklik kuchayadi. [5–7].

Tadqiqotning maqsadi homilador ayollar uchun oqilona garderobning tarkibi va tuzilmasini ishlab chiqish uchun sanoat kiyimlari assortimentini loyihalashga asos bo‘ladigan iste’molchi talablarini o‘rganishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy va me’yoriy manbalarni tahlil qilish, dunyo miqyosida taklif model va analoglarini solishtirish, respondentlar fikrini tavsifiy statistik usulda qayta ishlash hamda konstruktiv-texnologik tavsiyalar ishlab chiqish vazifalari belgilandi.

Nazariy tadqiqotlar. Homiladorlikning ikkinchi va uchinchi trimestrlarida gavdaning shakli tez o‘zgarishi sababli kiyim konstruksiyasida doimiy qo‘shimcha emas, balki boshqariladigan hajm yaratish muhimdir. Kech homiladorlik davridagi tana shaklini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarda qorin va bo‘ksa sohalaridagi o‘zgarishlar bir xil sur’atda kechmasligi, shu bois maxsus o‘lcham tipologiyasi va adaptiv konstruksiya talab etilishi ko‘rsatilgan [8, 9]. Amaliy jihatdan bu old detalni anatomik ravishda uzaytirish, yon chok yoki relyeflarda rostlanuvchi qo‘yilmalar, elastik zonalar va ikki yo‘nalishli surgichli taqilmalardan foydalanishni anglatadi. Ergonomik sifat kiyimning qorin va ko‘krak sohalariga ortiqcha bosim bermasligi, yurish, o‘tirish va qo‘l harakatlarini cheklamasligi, kiyib-yechish jarayonini soddalashtirishi hamda buyum massasini tanada muvozanatli taqsimlashi bilan tavsiflanadi. Homilador ayollarning kiyimga bo‘lgan ehtiyojlarini o‘rgangan tadqiqotlarda funksionallik, qulaylik, tana qiyofasini ijobiy qabul qilish, materialning sezgi xususiyatlari va foydalanish davomiyligi asosiy mezonlar qatorida qayd etilgan [10, 11]. Og‘irlik markazining siljishi esa kiyimning old va orqa uzunligi, yelka balansi hamda kapushon va to‘ldiruvchi massasini hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi [12].

Qishki ustki kiyimning issiqlik va gigiyenik xossalari alohida mato bilan emas, balki tashqi qatlam, issiqlik saqlovchi qatlam, astar, havo bo‘shliqlari va konstruktiv yopilishlardan tashkil topgan materiallar paketi bilan belgilanadi. Paket shamol va namlik kirishini cheklashi, organizmdan ajraladigan suv bug‘ini chiqarishi, ortiqcha qizish xavfini kamaytirishi va buyum massasini me’yorida saqlashi kerak. Homiladorlikning turli bosqichlarida issiqlik sezgisi va kiyinish xulqi o‘zgarishi mumkinligi kuzatilgan [13]; shu sababli issiqlik himoyasi birgina qalinlik bilan emas, faoliyat turi, mahalliy iqlim va materiallarning issiqlik hamda bug‘ qarshiligi bilan kompleks baholanishi lozim. Homilador ayollar qishki ustki kiyimlarini loyihalashda avvalo asosan homilador ayollar kiyimiga qo‘yiladigan asosiy talablarni ko‘rib chiqishdan boshlanadi. Ular quydagilar: Funksional talablar. Buyum sovuq, shamol va yog‘ingarchilik ta’sirini kamaytirishi, homiladorlik davomida o‘zgaruvchi tana hajmiga moslashishi, zarur cho‘ntak va rostlash elementlariga ega bo‘lishi hamda imkon qadar tug‘ruqdan keyin ham foydalanilishi kerak.

Ergonomik talablar. Qorin, ko‘krak, yelka va qo‘ltiq osti zonalarida bosim hosil qilmaslik, yurish va o‘tirishda erkinlikni saqlash, taqilmalarni qo‘l yetadigan joyga joylashtirish, og‘irlik va hajmni muvozanatlash talab etiladi. Gigiyenik talablar. Kiyim osti mikroiqlimini me’yorlashtirish, suv bug‘ini tashqariga chiqarish, teri bilan kontaktda noqulaylikni kamaytirish va parvarish jarayonida sanitariya xususiyatlarini saqlash nazarda tutiladi. Konstruktiv-estetik talablar. Old detalning anatomik uzunligi, qorin sohasidagi boshqariladigan hajm, olinadigan bo‘lak yoki yon qo‘yilmalar, sozlanadigan manjet va kapushon, rang hamda siluetning mutanosibligi ta’minlanishi lozim. Ekspluatatsion talablar. Kiyish, ishqalanish, namlanish, yuvish va quritishdan keyin shakl, mustahkamlik, issiqlik himoyasi va tashqi ko‘rinishning saqlanishi baholanadi. Transformatsiyalanuvchi konstruksiya foydalanish muddatini uzaytirib, xaridning iqtisodiy samaradorligini oshirishi mumkin.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot dizayn - loyihalashda ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda homilador ayol tanasining tashqi shakli va fiziologik holatidagi o‘zgarish qonuniyatlari, ushbu davrga xos psixologik xususiyatlari tadqiqotlariga doir ilmiy manbalar, shuningdek, kiyimning kompozitsion yechimi 2026-yil yanvar-iyul oylarida ochiq elektron kataloglarda mavjud bo‘lgan xorijiy analoglar tahlil qilindi. 20 dan ortiq dunyo brendlari taklif modellari va analoglari ergonomik va ekspluatusion xususiyatlari, konstruktiv moslashuvchanlik, materiallar paketi, o‘lcham qatori va katalog narxi bo‘yicha qiyoslandi. Ayrim o‘rganilgan modellarning umumlashtirilgan tavsifi 1-jadvalda keltirilgan. (1-jadval.)

1-jadval

Xorijda ishlab chqarilgan qishki ustki kiyim analoglarining qiyosiy tavsifi

№	Tashqi ko‘rinishi, brend va davlat	Kiyim paketi	Afzalligi va kamchiligi	Narxi	O‘lcham
1	 Mamalila Germaniya	**Ustki qatlam:** membrana matosi **To‘ldiruvchi:** 100% polyester, shundan 95% qayta ishlangan polyester.	*Afzalligi:* sovuq haroratga mos, qayta ishlangan materiallarga asoslangan, ko‘p funksiyali. Vazn/hajm: ishlab chiqaruvchi tomonidan sof massasi ko‘rsatilmagan. S o‘lcham uchun chakana sotuvchi qadoq massasini 1,34 kg, qadoq o‘lchamini 48,8×42,6×19,3 sm deb bergan. Ekstra uzun va ko‘p to‘ldirilgan hajmdor. *Kamchiligi:* paket to‘liq sintetik; nozik rejimda parvarish talab etadi. narxi yuqoriroq	340$	XXS–XL
2	 JoJo Maman Bébé Buyuk Britaniya	**Ustki qatlam:** 100% qayta ishlangan polyester. membrana matosi. **To‘ldiruvchi:** 100% qayta ishlangan polyester vatin.	*Afzalligi:* Homiladorlik davrida va undan keyin kiyishga mos 2-in-1 konstruksiya; kapushon, belni rostlovchi bog‘ich va cho‘ntaklar. Vazn/hajm: rasmiy katalogda sof massa, to‘ldiruvchi sirt zichligi va qadoqlangan hajm ko‘rsatilmagan. Konstruksiya va qo‘shimcha panel buyum hajmdorligini oshiradi, shu sababli massani faqat katalog asosida obyektiv taqqoslab bo‘lmaydi. *Kamchiligi:* Cheklangan o‘lcham	102$	XS–L
3	 Aisycle Xitoy	**Ustki qatlam:** spandex/polyester asosidagi softshell. **To‘ldiruvchi:** alohida hajmli to‘ldiruvchi ko‘rsatilmagan; issiqlik softshell va flis qatlamlari hisobiga ta’minlanadi.	*Afzalligi:* Arzon narxda, shamol o'tkazmaydigan, suv o'tkazmaydigan mato. Vazn/hajm: katalogda bitta qadoq o‘lchami 60×40×2 sm va massasi 1,50 kg deb ko‘rsatilgan; bu ko‘rsatkich qadoqni ham o‘z ichiga oladi va buyumning sof massasini ifodalamaydi. To‘ldiruvchi qatlamli tuzilma hajmdor. *Kamchiligi:* kuchli sovuqda qo‘shimcha issiqlik qatlamini talab qilishi mumkin.	60$	S–XXL

№	Tashqi ko‘rinishi, brend va davlat	Kiyim paketi	Afzalligi va kamchiligi	Narxi	O‘lcham
4	 Busa Maternity Turkiya	**Ustki qatlam:** 100% polyester kurtkabop mato. **To‘ldiruvchi:** tarkibi va sirt zichligi ishlab chiqaruvchi katalogida ko‘rsatilmagan	*Afzalligi:* narxi nisbatan maqbul, konstruksiyasi sodda. Vazn/hajm: rasmiy ochiq ma’lumotlarda sof massa va qadoqlangan hajm keltirilmagan. Standart uzunlikda *Kamchiligi:* Ranglari cheklangan.	80$	S–L
5	 I Love Mum Rossiya	**Ustki qatlam:** 100% polyester kurtkabop membranali mato. **To‘ldiruvchi:** 90% tabiiy momiq-pat	*Afzalligi:*qishki 2-in-1 kurtkasi, yengil va issiq, Vazn/hajm: katalogda sof massa va qadoq hajmi ko‘rsatilmagan. 120 sm uzunlik va hajmli sintepux qatlam buyumning saqlash hamda kiyishdagi hajmdorligini oshiradi; aniq massa bo‘lmagani uchun miqdoriy taqqoslash mumkin emas. *Kamchiligi:* faqat kimyoviy tozalash tavsiya etiladi; momiqning namlanishi va notekis taqsimlanishi xavfi mavjud.	110$	S–4XL


Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, turli mamlakatlarda homilador ayollar uchun ishlab chiqarilgan qishki ustki kiyimlarning qiyosiy tahlili ushbu mahsulotlarda funksionallik, issiqlikni saqlash, tashqi muhit ta’siridan himoyalash, ergonomik qulaylik va transformatsiyalanish xususiyatlariga katta e’tibor qaratilishini ko‘rsatdi. Buyuk Britaniya, Germaniya va boshqa davlatlarning yetakchi brendlari tomonidan ishlab chiqarilgan modellarda homiladorlik davrida tana o‘lchamlarining o‘zgarishiga moslashuvchi qo‘shimcha detallardan qo‘llanilgan. Ayrim modellar homiladorlik davrida, tug‘ruqdan keyin va chaqaloqni maxsus olib yurish moslamasi bilan foydalanish imkonini beradigan ko‘p funksiyali konstruktiv yechimlarga ega. Shu bilan birga, o‘rganilgan mahsulotlarning ayrim kamchiliklari ham aniqlandi. Jumladan, ko‘plab xorijiy brend mahsulotlarining narxi yuqori, ayrim modellar cheklangan o‘lcham va ranglarda ishlab chiqariladi, ba’zilari og‘ir, kapushonsiz yoki faqat kimyoviy tozalashni talab qiladi. Bu holat homilador ayollar uchun qishki ustki kiyimlarni loyihalashda nafaqat konstruktiv va estetik ko‘rsatkichlarni, balki mahsulot narxi, parvarishlash qulayligi, vazni, issiqlik himoyasi va mahalliy iqlim sharoitlarini ham kompleks hisobga olish zarurligini ko‘rsatadi. Ikkinchi bosqichda homilador ayollar qishki ustki kiyimiga bo‘lgan iste’molchilar talablarni o‘rganish maqsadida mazkur tadqiqotda anketa so‘rovi usuli asosida ijtimoiy so‘rov o‘tkazildi. Ijtimoiy so‘rov Toshkent shahri, Qarshi shahri hamda Toshkent viloyatidagi oilaviy poliklinikalar, tug‘ruq komplekslari, oliy ta’lim muassasalari va mahallalarda onlayn hamda an’anaviy shaklda o‘tkazildi. Tadqiqot respondentlariga homiladorlikning turli muddatlaridagi va tug‘ruqdan keyingi davrdagi, yoshi 18–45 oralig‘ida bo‘lgan ayollar jalb qilindi. So‘rovnomada 48 nafar respondent (34,3% ini tashkil etadi) aynan homiladorlikning uchinchi trimesteridagi ayollardan tashkil topdi. Tadqiqotda respondentlarga bevosita tarqatiladigan anketa so‘rovi usuli qo‘llanildi. Ushbu usul anketalarning vijdonan to‘ldirilishini hamda ularning deyarli to‘liq qaytarilishini ta’minlaydi. Anketa to‘rtta bo‘limdan iborat bo‘lib, ular o‘zaro bog‘liq savollar tizimini tashkil etdi va tadqiq etilayotgan muammo bo‘yicha qarorlar ishlab chiqish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni olish imkonini berdi. Unda 140 nafar ayol ixtiyoriy va anonim ravishda ishtirok etdi. Har bir javob varianti bo‘yicha mutlaq son va foiz ulushi hisoblandi. Bir nechta variantni belgilashga ruxsat etilgan savollarda foizlar yig‘indisi 100 foizdan oshishi mumkin.

Natijalar va ularning muhokamasi. O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, kiyim modellarining konstruktiv va kompozitsion yechimlariga shaxsning xarakteri, yoshi, yashash joyi, ijtimoiy mavqei, ma’lumoti, oiladagi farzandlar soni, psixologik tipi, tana tuzilishi, shuningdek, homiladorlik muddati kabi omillar sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur tadqiqot uchun zarur bo‘lgan shaxsiy xususiyatlar anketani ishlab chiqishda inobatga olindi [18].



1-rasm. Homiladorlik davrida qishki ustki kiyimlarda kuzatilgan asosiy kamchiliklar


1-rasmda ko‘rsatilgan ko‘p javobli savol natijalariga ko‘ra, 68 nafar respondent (48,6%) qorin qismining yetarli yopilmasligi va old detalning qisqa bo‘lib qolishini asosiy muammo sifatida qayd etgan. 57 nafar respondent (40,7%) maxsus model topilmagani sababli katta o‘lchamdagi oddiy ustki kiyim sotib olishga majbur bo‘lgan. 49 nafar (35,0%) buyumdan faqat homiladorlik vaqtida foydalanish mumkinligini, 36 nafar (25,7%) harakatdagi noqulaylikni, 28 nafar (20,0 %) esa issiqlik himoyasi yetarli emasligini bildirgan. Bu natijalar faqat hajm qo‘shimchasini oshirish emas, balki old detal uzunligi, yelka balansi va qorin sohasidagi rostlanuvchi hajmni birgalikda loyihalash zarurligini ko‘rsatadi.



2-rasm. Qishki ustki kiyim uchun ustki material bo‘yicha respondentlar afzalligi

Ustki material bo‘yicha 54 nafar respondent (38,6%) “organik mato” variantini tanlagan, membranali matoni 38 nafar (27,1%), plashbop matoni 27 nafar (19,3%), junli matoni esa 21 nafar (15,0%) ma’qul ko‘rgan. So‘rovdagi “organik mato” atamasi respondentlarning tabiiy va ekologik xomashyoga bo‘lgan umumiy yo‘nalishini ifodalaydi; u sertifikatlangan organik tarkib yoki muayyan ekspluatatsion xossani avtomatik ravishda anglatmaydi. Qishki ustki kiyimda suv va shamoldan himoya tashqi qatlam orqali, teri bilan kontaktdagi qulaylik esa astar va oraliq

qatlamlar orqali ta’minlanishi sababli, turli funksiyalarni bitta materialga yuklamasdan ko‘p qatlamli paket shakllantirish maqsadga muvofiq.



3-rasm. Issiqlik saqlovchi qatlam tarkibiga qo‘yilgan talablar

3-rasmdagi ko‘p javobli savolda tabiiy tolaga kam miqdorda sintetik komponent qo‘shilgan to‘ldiruvchi 76 nafar respondent (54,3%) tomonidan tanlangan. 58 nafar (41,4%) 100% tabiiy to‘ldiruvchini, 47 nafar (33,6%) yengil va allergik ta’siri past bo‘lishi kutiladigan variantni, 31 nafar (22,1%) zamonaviy sintetik to‘ldiruvchini, 26 nafar (18,6%) esa ko‘p qatlamli paketni ma’qul ko‘rgan. Ushbu natija aralash tarkibli to‘ldiruvchi avtomatik ravishda eng yaxshi yoki eng xavfsiz ekanini isbotlamaydi; u iste’molchi kutayotgan tabiiylik, yengillik va shakl barqarorligi o‘rtasidagi muvozanatni aks ettiradi. Tavsiya etiladigan tarkib issiqlik qarshiligi, suv bug‘i qarshiligi, qalinlik, massa, siqilishdan keyingi tiklanish va yuvish barqarorligi bo‘yicha tajribada solishtirilishi kerak. Shunday qilib, iste’molchilarning afzalliklarini o‘rganish natijasida homilador ayollar uchun mo‘ljallangan kiyimlarga nisbatan iste’molchilarning ustuvor talablari aniqlandi, kiyim xarid qilishning ijtimoiy jihatlari tahlil qilindi hamda ushbu turdagi kiyimlarning asosiy kompozitsion va konstruktiv belgilari belgilab olindi. (2-jadval)

2-jadval

Iste’molchilarning ustuvor talablari

T/r	Aniqlangan ehtiyoj	Konstruktiv/material yechimi	Kutiladigan natija
1.	Qorin sohasining yopilmasligi	Old detalni anatomik uzaytirish; yon yoki markaziy olinadigan kengaytiruvchi panel	Homiladorlik bosqichlari bo‘yicha yopilish va hajm erkinligi
2.	Katta o‘lchamdagi oddiy kiyim xaridi	Maxsus bazaviy konstruksiya va homiladorlikka mos gradatsiya	Yelka, ko‘krak, yeng va bel zonalaridagi nomutanosiblikni kamaytirish
3.	Buyumdan qisqa muddat foydalanish	Panelni olib tashlash, belni qayta rostlash, 2-in-1 yoki 3-in-1 transformatsiya	Tug‘ruqdan keyin ham foydalanish va resursni uzaytirish
4.	Issiqlik va namlikdan himoya	Membranali yoki suv qaytaruvchi tashqi qatlam; tajribada tanlangan issiqlik saqlovchi paket	Sovuq, shamol va namlikka mos mikroiqlim
5.	Parvarish va shakl barqarorligi	Yuvishga chidamli qatlamlar, tikuv va to‘ldiruvchini mahkamlash	Takroriy parvarishdan keyin tashqi ko‘rinish va issiqlik xossalarini saqlash

2-jadval so‘rov natijalarini bevosita konstruktiv va sinov ko‘rsatkichlariga aylantiradi. Shunday yondashuv iste’molchi fikrini faqat tavsifiy xulosa sifatida qoldirmasdan, keyingi model namunasini ishlab chiqish uchun dastlabki ma’lumot sifatida xizmat qiladi.

Xulosa.

1. Homilador ayollar uchun mo‘ljallangan kiyim-kechak ishlab chiqarishning bugungi holati va iste’mol bozori tahlili natijalari mavjud kiyimlar hamda maxsus iste’mol buyumlari iste’molchilarning talab va ehtiyojlarini to‘liq qondirmasligi, shuningdek, ergonomik qulaylik va komfort talablariga yetarli darajada javob bermasligini ko‘rsatdi.
2. Homilador ayollarning kiyim assortimenti va uning sifatidan qoniqish darajasi tahlil qilindi. Tadqiqot natijasida iste’molchilarning ustuvor talablari hamda mazkur toifadagi ayollar garderobini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlandi.
3. O‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari homilador ayollar garderobining tarkibi va hajmi bir qator ijtimoiy-iqtisodiy hamda demografik omillar, xususan, daromad darajasi, yosh, milliy an’analar va yashash hududiga bog‘liq ekanligini ko‘rsatdi. Garderobni shakllantirishda tayyor mahsulotlarini xarid qilish bilan bir qatorda, kiyimni yakka tartibda tikdirish, mavjud kiyimlarni homiladorlik davridagi antropometrik o‘zgarishlarga moslashtirish hamda ayrim hollarda vaqtincha foydalanish uchun kiyim olish amaliyoti ham uchraydi. Bu holat homilador ayollar uchun turli tana o‘zgarishlariga moslasha oladigan, uzoq muddat foydalanishga mo‘ljallangan va transformatsiyalanuvchi funksional kiyimlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq ekanligini asoslaydi.
4. Qishki ustki kiyimlarni loyihalash jarayoni uchun zarur bo‘lgan dastlabki ma’lumotlar bazasi shakllantirildi va bo‘lajak onalar uchun mo‘ljallangan kiyimlarning iste’mol darajasidagi sifat ko‘rsatkichlarini oshirish yo‘llari aniqlandi.

Reference

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–296-son qarori. 08.09.2023. Havola: Lex.uz – PQ–296-son qarori
2. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division. World Population Prospects 2024: Summary of Results. New York: United Nations; 2024. Havola: UN – World Population Prospects 2024: Summary of Results (PDF)
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. Tug‘ilishning yig‘indi koeffitsiyenti (jami), 2010–2025. Yangilangan: 11.06.2026. Havola: Milliy statistika qo‘mitasi – SIAT ma’lumotlari
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 3 oyda O‘zbekistonda 191 mingdan ortiq chaqaloq dunyoga keldi. 06.05.2026. Havola: Milliy statistika qo‘mitasi – 2026-yil tug‘ilish ma’lumotlari
5. Vakhidova U.A. Features of Designing Clothes for Pregnant Women, According to Changes in Anthropometric Parameters of the Figure. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2022;12(9):114–117. DOI: 10.5958/2249-7137.2022.00779.0. Havola: Maqolaning to‘liq PDF varianti
6. Shamsaei A., Kazemi A., Enteshary-Najafabadi H., Khosropour Borujeni N. Essential Criteria for Designing Healthy Maternity Wear: A Narrative Review. Iranian Journal of Nursing and Midwifery Research. 2022;27(6):492–495. DOI: 10.4103/ijnmr.ijnmr_143_22. Havola: PubMed Central – maqolaning to‘liq matni
7. Rashid H., Saeed A., Abiodullah M. Maternity Wear Preferences, Problems, and Expectations of Pregnant Women of Pakistan. Journal of Design and Textiles. 2024;3(2):44–62. DOI: 10.32350/jdt.32.03. Havola: Journal of Design and Textiles – rasmiy maqola sahifasi

8. Wu G., Liu S., Wu X., Ding X. Research on Lower Body Shape of Late Pregnant Women in Shanghai Area of China. International Journal of Industrial Ergonomics. 2015;46:69–75. DOI: 10.1016/j.ergon.2014.12.007.
Havola: DOI – maqola sahifasi
9. Sohn M., Bye E. Visual Analysis of Body Shape Changes During Pregnancy. International Journal of Fashion Design, Technology and Education. 2012;5(2):117–128. DOI: 10.1080/17543266.2011.649792.
Havola: Taylor & Francis – rasmiy maqola sahifasi
10. Sohn M., Bye E. Pregnancy and Body Image: Analysis of Clothing Functions of Maternity Wear. Clothing and Textiles Research Journal. 2015;33(1):64–78. DOI: 10.1177/0887302X14557809.
Havola: SAGE Journals – rasmiy maqola sahifasi
11. Ho S.S.M., Yu W.W.M., Lao T.T., Chow D.H.K., Chung J.W.Y., Li Y. Garment Needs of Pregnant Women Based on Content Analysis of In-depth Interviews. Journal of Clinical Nursing. 2009;18(17):2426–2435. DOI: 10.1111/j.1365-2702.2009.02786.x.
Havola: Wiley Online Library – rasmiy maqola sahifasi
12. Catena R.D., Connolly C.P., McGeorge K.M., Campbell N. A Comparison of Methods to Determine Center of Mass During Pregnancy. Journal of Biomechanics. 2018;71:217–224. DOI: 10.1016/j.jbiomech.2018.02.004.
Havola: DOI – ScienceDirect maqola sahifasi
13. Xu Y., Li Y., Wang L., Yang J., Zhang H. Thermal Perception and Dressing Behaviors of Pregnant Women During Different Stages of Pregnancy: A Field Study at a Hospital in Xi'an, China. Journal of Thermal Biology. 2024;125:104002. DOI: 10.1016/j.jtherbio.2024.104002.
Havola: DOI – ScienceDirect maqola sahifasi
14. Mamalila. Warm Babywearing and Maternity Coat Copenhagen: Product Description. Accessed 20.07.2026.
Havola: Mamalila – Copenhagen maternity coat
15. JoJo Maman Bébé. Black 2-in-1 Maternity Puffer Coat: Product Description. Accessed 20.07.2026.
Havola: JoJo Maman Bébé – Black 2-in-1 Maternity Puffer Coat
16. Aisycle. Maternity Baby Carrying Softshell Winter Jacket with Fleece Lining: Product Description. Accessed 20.07.2026.
Havola: Aisycle / Made-in-China – maternity winter jacket
17. I Love Mum. Kurtka zimnyaya 2-v-1 "Greyt" dlya beremennykh: opisanie izdelia. Accessed 20.07.2026.
Havola: I Love Mum – "Greyt" 2-in-1 maternity jacket
18. Sultana S., Tabraz M. A Critical Analysis of the Satisfaction Level of Maternity Wear for Bangladeshi Women. IOSR Journal of Research & Method in Education (IOSR-JRME). 2017;7(6), Version V:47–60. DOI: 10.9790/7388-0706054760.
Havola: IOSR – maqolaning to'liq PDF varianti

УДК 675.024.72/.036.7.004.1

ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ ОРГАНИЧЕСКОГО ДУБЛЕНИЯ НА СВОЙСТВА КОЖИ СТРАУСА

Х.Х. Бегалиев, А.С. Кенжаев, И.Н. Исматуллаев, Ж.Ф. Улугмуратов, И.И.Гарибян, Т.Ж. Кодиров, Н.Б. Мирзаев

Tashkent Institute of Textile and Light Insdustry

Аннотация. *В последнее время многие исследования в кожевенном секторе сосредоточены на применении экологически чистых дубящих веществ с меньшим воздействием на окружающую среду. Настоящее исследование направлено на разработку экологически безопасного процесса органического дубления при обработке шкуры страуса, который потенциально может исключить использование хрома в процессе дубления. Возможное превращение ионов Cr^{3+} в Cr^{6+} в подходящей окислительной среде, в производстве кожи всегда представляет угрозу для экосистемы. Чистая вода является ценным ресурсом, в то время расход воды в кожевенном производстве является очень высоким, в связи с этим возникает необходимость уменьшить расход воды в жидкостных процессах обработки кожи. Кроме того, сокращение цикла обработки, за счет исключения некоторых производственных жидкостных процессов, можно будет сокращать объём производственных сточных вод. В связи с этим был разработан процесс дубления с использованием органических дубящих веществ без проведения процесса пикелевания, а также проведены исследования по сокращения цикла красильно-жировальных процессов. Дубленая кожа страуса "wet white», полученная в экспериментальных исследованиях, имеет температуру сваривания 86,2 ± 3,3 °С. При этом обеспечивается глубокое проникновение химических веществ в волокнистую структуру кожи туловища страуса в процессах обработки. Образцы кож, полученные в экспериментальных исследованиях, обладают лучшей физической прочностью и сопоставимыми органолептическими свойствами. Предложенный способ обработки обеспечивает экологическую безопасность окружающей среды.*

Ключевые слова: *страус, кожевая ткань, процесс, дубление, бесхромовое дубление, wet blue, wet white, краст, крашение, жирование, экзотическая кожа, свойства.*

Annotatsiya. *So'ngi vaqtlarda charm texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan ko'plab tadqiqotlar atrof-muhitga kamroq zararli ta'sir ko'rsatadigan va ekologik zararsiz moddalarni qollashga qaratilayapdi. Ushbu maqola tuyaqush terilariga ishlov berishda ekologik zararsiz oshlash jarayonini o'rganishga qaratilgan bo'lib, taklif qilinayotgan oshlash jarayonida xrom oshlovchi tuzlaridan foydalanilmagan. Ma'lum bir oksidlovchi muhitda Cr^{3+} ionlarining Cr^{6+} ionlariga aylanishinig yuz berishi, charm ishlab chiqarishda har doim atrof muxit va ekotizim uchun xavf tug'diradi. Shu bilan birga charm ishlab chiqarishda foydalaniladigan suv ham qimmatli resurs hisoblanishi va charm ishlab chiqarish korxonalarida suv sarfi juda yuqori bo'lishi, ishlab chiqarish jarayonlarida suv sarfini kamaytirishni talab qiladi. Ba'zi bir ishlab chiqarish jarayonlarini kamaytirish, ishlab chiqarish tsiklini qisqartirish sanoat oqava suvlari hajmini kamaytirishga va mehnat unumdorligini ko'paytirishga xizmat qiladi. Taklif qilinayotgan oshlash usulida pikellash jarayonisiz, organik oshlovchi moddalar yordamida oshlash jarayoni amalga oshirildi va bo'yash-yog'lash jarayonlari tsiklini qisqartirish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi. Tajriba tadqiqotlarida olingan "wet white" tuyaqush oshlangan charmariining pishish harorati 86,2 ± 3,3 °C ni tashkil qildi. Ushbu ishlov berish jarayonida kimyoviy moddalarning tuyaqush teri to'qimasining tolali oqsillar strukturasiga chuqur kirib borganligi va ular bilan kimyoviy boglar hosil bolganligini isbotlaydi. Tadqiqotlarda olingan tuyaqush charmlarining fizik-mexanik va kimyoviy xossa ko'rsatkichlari poyabzal ustki va attorlik charmlari Davlat standartlari korsatkichlariga mos kelishi qayd etildi. Takomillashgan tuyaqush terilarini qayta ishlash texnologiyasi ekologik jihatidan zararsiz xisoblanadi.*

Kalit so‘zlar: *tuyaqush, teri toqimasi, jarayon, oshlash, xromsiz oshlash, wet blue, wet white, krast, bo'yash, yog'lash, ekzotik charm, xossalari.*

Abstract. *Recently, much research in the leather industry has focused on the use of environmentally friendly tanning agents with a lower environmental impact. This study aims to develop an environmentally friendly organic tanning process for ostrich skin processing, potentially eliminating the use of chromium in the tanning process. The potential conversion of Cr^{3+} ions to Cr^{6+} ions in a suitable oxidizing environment in leather production always poses a threat to the ecosystem. Clean water is a valuable resource, and water consumption in tanneries is very high, necessitating a reduction in water consumption in liquid processing. Furthermore, shortening the processing cycle by eliminating some liquid production processes will reduce the volume of industrial wastewater. In this regard, a tanning process was developed using organic tanning agents without the pickling process, and research was conducted to reduce the cycle of dyeing and greasing processes. The tanned "wet white" ostrich leather obtained in experimental studies has a shrinkage temperature of approximately 86,2 ± 3,3 °C. This ensures deep penetration of chemicals into the fibrous structure of the ostrich body skin during processing. The leather samples obtained in the experimental studies exhibit superior physical strength and comparable organoleptic properties. The proposed processing method ensures environmental friendliness.*

Keywords: *ostrich, leather fabric, process, tanning, chrome-free tanning, wet blue, wet white, crust, dyeing, fatliquoring, exotic leather, properties.*

Введение. Одним из приоритетных направлений развития кожевенной промышленности является создание ресурсосберегающих и экологически безопасных технологий переработки кожевенного сырья, улучшение качества и расширение ассортимента кож за счёт применения новых видов кожевенного сырья и экологически безопасных химических материалов [1,2]. В кожевенном производстве процесс дубление является одним из важных процессов, в котором обеспечивается устойчивость кожевой ткани к гниению микроорганизмами. Исторически кожа производилась с использованием растительных дубящих веществ до применения хромовых дубящих веществ. В настоящее время при обработке около 90% кожевенного сырья используются хромовые дубящие вещества из-за их универсальных преимуществ. Однако поглощение хрома в процессе дубления составляет всего около 60-70%, а оставшиеся 30-40% нефиксированного хрома выбрасываются в виде сточных вод. С другой стороны, кожевенное производство связано с большим расходом воды, и на переработку 1 тонны сырых шкур расходуется 35-40 $м^3$ воды. Использование поваренной соли и дубящих соединений хрома в традиционном хромовом дублении на основе пикелевания приводит к образованию огромного количества загрязняющих веществ в производственных сточных водах. Согласно мировой статистике, ежегодно образуется 27,5 млрд литров хромовых стоков образуются при загрузке 24 кг тонны дубящих соединений хрома, 340 кг тонн хлорида натрия и 270 кг тонн серной и органических кислот [3-5].

Теоретические исследования. В исследованиях по сокращению количества сброса хромсодержащих производственных сточных вод были применены вспомогательные вещества с целью увеличения использования хромовых дубящих веществ в рабочих дубильных растворах, предложены комбинированное дубление, нанотехнологии процесса дубления, эффективное управление и повторное использование хромсодержащих стоков. Тем не менее, вышеупомянутые способы дубления не могли удалить дубящие соединения хрома из сточных вод. Кроме того, соединения хрома, выделяющиеся во время процесса додубливания и механических процессов, также повышают количество хромсодержащих сточных вод и твердых отходов [6-9].

Кроме того, в подходящих условиях Cr^{3+} в твердых и жидких отходах может иметь возможность превращения в Cr^{6+} в присутствии определенных окислителей.

Потенциальные опасности, связанные со здоровьем человека, почвой и водной средой, очень благоприятны для этого шестивалентного состояния иона хрома. Экологические опасения в отношении кожевенной промышленности росли в течение последних двух десятилетий. Высокая плотность промышленного и человеческого населения, а также использование старых технологий приводят к повышению уровня загрязняющих веществ в атмосфере. Эта ситуация подчеркнула необходимость применения более экологически чистых технологий. Защита окружающей среды стала глобальной проблемой во всем мире. Чтобы избежать этого противоречия в отношении загрязнения с соединениями хрома, было проведено множество исследований [10-14].

Экспериментальные исследования. В экспериментальных исследованиях были обработаны 20 комплектов шкур страуса. Каждый комплект состоял из туловища и двух голеней страуса. Возраст птиц при забое составлял 12-14 месяцев. Шкуры страуса поступили на экспериментальную обработку в состоянии мокросоленого способа консервирования, средняя масса комплекта части шкур составляла 4-6 кг, а площадь 140-160 дм^2. Съем и первичная обработка шкур были проведены на совместной англо-узбекской фирме «Straus farm» [15]. Экспериментальные исследования были проведены в Ташкентском институте текстильной и легкой промышленности на кафедре «Инженерия кожи и обуви», в частном предприятии «Табиий чарм» и в совместном предприятии ООО « Ozbek – Turk Test Markazi». С целью совершенствования технологии кожи страуса были проведены исследования по процессу дубления. Как выше было изложено, процесс дубления является важным процессом в технологии производства кожи. В традиционной технологии обработки шкуры страуса процесс дубления осуществляется с применением хромовых дубящих солей [16,17]. В отличие от традиционных технологий, с целью снижения отрицательного влияния на окружающую среду и объема производственных сточных вод, а также совершенствования технологии переработки кожевенного сырья страуса, были проведены исследования по бесхромовому дублению при обработке шкуры страуса. Принимая во внимание все выше изложенные проблемы и поиск альтернативного способа дубления, следует задуматься о бесхромовом дублении без проведения процесса пикелевания. Это может быть решением для обеспечения экологически безопасного кожевенного производства и которое позволяет уменьшить объёмы промышленных сточных вод и сократить расход воды для промышленных нужд [18,19]. С целью совершенствования технологии обработки шкуры страуса были проведены исследования по бесхромовому дублению с применением органических дубящих веществ X-Tan и Tanigan MBO Liq компании TFL [20]. В результате проведения экспериментальных исследований были получены образцы кожи «краст» страуса бесхромового дубления. Предложенный способ бесхромового дубления не является самоцелью, поскольку важно оценить, как способ дубления влияет на другие процессы и на свойства получаемой кожи страуса. Непикелеванное голье шкуры страуса ведёт себя при бесхромовом дублении иначе. В предложенном способе бесхромового дубления продолжительность процесса составила не большую продолжительность около 15 часов [18,19]. Установление в конце процесса дубления определенной кислотности рабочего раствора приводило к ускорению процесса бесхромового дубления и равномерной диффузии органических дубящих веществ по всей площади и толщине голья шкуры страуса.

Анализ результатов. На основании проведенных испытаний в процессе бесхромового дубления была установлена оптимальная концентрация органических дубящих веществ X-Tan и Tanigan MBO Liq, значение которых составляет 5,0-5,5% и 3,0-3,5% от веса голья шкуры, соответственно. В экспериментальных исследованиях в контрольном и опытном вариантах были получены образцы дубленых кож страуса "wet blue" и “wet white”, соответственно. Органолептический контроль показал, что образцы “wet white” имели ярко белый цвет, а образцы "wet blue" светло синий цвет. Предложенный способ бесхромового дубления позволяет эффективно обработать голье шкуры страуса в дубильном процессе. С целью сравнения физико-химических свойств образцов дубленых

кож страуса "wet white" и "wet blue" были определены показатели гидротермической устойчивости и pH в кожевой ткани. Полученные результаты приведены в табл. 1.

Таблица 1

Физико-химические свойства кожи страуса ”wet white”

Варианты обработки	**Показатели**	
	Гидротермическая устойчивость, °С	**pH**
Контрольный	94,5 ± 2,2	4,0±0,2
Опытный	86,2 ± 3,3	4,1±0,2

Полученные результаты были обработаны методом математической статистики. Показатели гидротермической устойчивости образцов дублёной кожи хромового и бесхромового дубления, в опытном варианте на 8,3±2,8 ^{0}C ниже, чем в контрольном образце. Показатели pH образцов контрольных и опытных вариантов были близки по своему значению, и составили 4,1±0,2 и 4,0±0,2, соответственно. Далее, с целью получения кожи страуса "краст", в экспериментальных исследованиях были проведены красильно-жировальные процессы на основе полученных образцов кож страуса хромового и бесхромового дубления, “wet blue” и "wet white", в контрольном и опытном вариантах. Технология красильно-жировальных процессов контрольного варианта была подобна технологии красильно-жировальных процессов кожи для верха из выростка [21]. На основе проведенных экспериментальных исследований была разработана технологическая схема последовательности красильно-жировальных процессов кожи страуса бесхромового дубления, которая представлена на рис.



а) контрольный вариант б) опытный вариант

Рис. Последовательность красильно-жировальных процессов кожи страуса хромового (а) и бесхромового дубления (б).

В технологии красильно-жировальных процессов были использованы химические материалы Российской компании Шебекинская Индустриальная Химия (ШИХ), которые отвечают требованиям Европейского Химического Агентства (European chemicals agency) (ECHA) и европейского регламента REACH и являются экологически безопасными химическим материалами [22,23]. Предложенный способ бесхромового дубления позволил сократить продолжительность обработки и расходы химических материалов в процессе обработки. В результате проведения экспериментальных исследований по красильно-жировальным процессам были получены образцы кож “краст” туловища страуса. Показатели физико-химических свойств образцов кожи страуса контрольного и опытного вариантов представлены в табл. 2.

Таблица 2.

Физико-химические свойства образцов “краст” кожи страуса

№	Показатели	Образцы кож страуса		Кожа для верха обуви ГОСТ 939-2021 (Выросток)	Галантерейная кожа ГОСТ 15091-1980 (Козлина)
		Опытный вариант	Контрольный вариант		
1	Площадь кожи, дм^2	125-130	125-130	120-160	65-75
2	Толщина кож, мм	1,1	1,2	0,7-1,2	0,7-1,0
3	Содержание влаги , %	12,8	11,3	10-16	10-16
4	Массовая доля хрома (III) (в пересчете на Cr_2O_3), % - для кож хромового дубления - для кож бесхромового дубления	-	3,8	не менее 3,5 не более 0,2	не менее 3,5 не более 0,2
5	Содержание экстрагируемых веществ, %	8,0	5,0	4,0-12,0	3,5-10
6	Содержание золы, %	-	7,9	-	-
7	Предел прочности при растяжении, МПа, не меньше	2,0	2,1	1,3	1,0
8	Удлинение при напряжении 10 МПа, %	38,6	31,3	25-55	15-35

По результатам физико-химического метода анализа образцов кожи “краст” было отмечено, что физико-химические свойства опытных образцов не уступают показателям контрольных образцов и нормативным показателям кожи для из выростка и галантерейной кожи из козлины [24,25]. Дубленая кожа с применением экологически безопасного способа дубления по физико-химическим свойствам является сопоставимым с кожей хромового дубления и даже превосходит по некоторым свойствам. Дублёная кожа «Wet white», полученная в процессе дубления, и кожа “краст”, полученная в красильно-жировальном процессе с применением X-Tan и Tanigan MBO Liq, имеют белый цвет, что является основой при получении кож ярких тонов. Органические дубящие вещества X-Tan и Tanigan MBO Liq не содержат металлов, что позволяет окрасить кожу равномерно в широком спектре. Полученные образцы кожи “краст”, опытного варианта обработки можно будет направить на последующие процессе отделки. Кожи страуса после прохождения процесса свободной конвективной сушки, операции откатки и сушки в растяжку можно направлять на отделочные процессы. В отделочных процессах кожи страуса можно применять различные современные способы отделки такие, как полуанилиновая, анилиновая, флорантик, антик и другие способы отделки.

Выводы. Применение органических дубящих веществ в процессе бесхромового дубления позволяет провести эффективное воздействие на волокнистые белки коллагена кожевой ткани страуса, которое, в свою очередь, изменит свойства кожевой ткани в ходе дальнейших технологических процессов. Соответственно, целью представленного исследования определено воздействие органических дубящих веществ на физико-химические и органолептические свойства кожи страуса. Предлагаемый способ обработки является сопоставимым и даже по некоторым показателям превосходит обычный способ обработки шкуры страуса. Глубокое и равномерное проникновение и образование прочных

химических связей между органическим дубящими веществами и волокнистыми белками кожевой ткани голья шкуры позволяет получить кожу с улучшенными физико-механическими и органолептическими свойствами по сравнению с образцами кож, полученными традиционным способом обработки с проведением процесса хромового дубления. Усовершенствованная технология позволяет сократить цикл красильно-жировальных процессов, снизить расход химических материалов, сократить объём образующихся вредных производственных сточных вод, получить кожи "краст" страуса с улучшенными физико-химическими и механическими свойствами. В то же время, усовершенствованная технология способствует расширению ассортимента экзотической кожи страуса и имеет большое значение в создании научно обоснованной конкурентоспособной технологии получения кожи страуса.

Reference

1. Kanagaraj J., Senthilvelan T., Panda R., Kavitha S. Eco-friendly waste management strategies for greener environment towards sustainable development in leather industry: a comprehensive review, J. Clean. Prod. 89 (2015) 1-17.
2. Sundar V.J., Muralidharan C. An environmentally friendly mineral-free tanning of animal skins-sustainable approach with plant resources, Environ. Process. 7 (2020) 255-270.
3. Straxov I.P. Ximiya i texnologiya koji i mexa: Uchebnik / I.P.Straxov, I.S.Shestakova, D.A.Kusidi i dr. – M.:Legprombitizdat, 1985, - 486 s.
4. Ostrovskaya, A.V. Ximiya i texnologiya koji i mexa: teoreticheskiye osnovi: uchebnoye posobiye dlya vuzov / A.V.Ostrovskaya, G.G.Lutfullina, I.SH. Abdullin. - 2-ye izd., pererab. i dop. - Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2022. – 162 s.
5. Rao J.R., Chandrababu N., Muralidharan C., Nair B.U., Rao P., Ramasami T. Recouping the wastewater: a way forward for cleaner leather processing, J. Clean. Prod. 11 (2003) 591-599 .
6. Dixit, S., Yadav, A., Dwivedi, P.D., Das, M. (2015), "Toxic Hazards of Leather Industry and Technologies to Combat Threat: A Review", Journal of Cleaner Production, 87, 39-49, https://doi.org/10.1016/j.jclepro.2014.10.017.
7. Rosu L, Varganici C.D., Crudu A.M., Rosu D., Bele A. (2018) Ecofriendly wet–white leather vs. conventional tanned wet–blue leather. A photochemical approach. J. Clean Prod. 177:708–720.
8. Jia L., Ma J., Gao D., Tait W.R., Sun L., A star-shaped POSS-containing polymer for cleaner leather processing, J. Hazard. Mater. 361 (2019) 305-311.
9. Ma J., Lv X., Gao D., Li Y., Lv B., Zhang J. Nanocomposite-based green tanning process of suede leather to enhance chromium uptake, J. Clean. Prod. 72 (2014) 120-126.
10. Hedberg Y.S., Liden C., Wallinder I.O. Correlation between bulk-and surface chemistry of Cr-tanned leather and the release of Cr (III) and Cr (VI), J. Hazard. Mater. 280 (2014) 654-661.
11. Rao, J.R., Kanthimathi, M., Thanikaivelan, P., Sreram, K.J., Ramesh, R., Ramalingam, S., Chandrababu, N.K., Nair, B.U., Ramasami, T., 2004. Pickle-free chrome tanning using apolymeric synthetic tanning agent for cleaner leather processing. Clean. Technol. Environ. Policy 6, 243—249.
12. Rao, J.R., Chandrababu, N.K., Muralidharan, C., Nair, B.U., Rao, P.G., Ramasami, T., 2003. Recouping the wastewater: a way forward for cleaner leather processing. J. Clean. Prod. 11, 591—599.
13. Colak, S., Zengin, G., Ozgunay, H., Sari, O., Sarikahya, H., Yuceer, L., 2005. Utilisation of leather industry: prefleshings in biodiesel production. J. Am. Leather Chem. Assoc. 100, 137—141.
14. Sisoyev, V.A. Perspektivi razvitiya xromsberegayushix texnologiy pri videlke koji i mexa / V.A.Sisoyev, YE.A.Pankova, A.I.Salimova, I.SH.Abdullin // - kojevenno-obuvnaya promishlen-nost. – 2004. - №1. - S.48-50.

15.Offitsialniy kanal «Straus Farm» @strausfarm, @straustuyaqush, www.facebook.com/strausfarm, www.straus.uz/ru.
16. Afşar, A., Gülümser, G., Özgünay, H. ve Akyüz, F. (2002). Devekuşu derilerinin işlentisi ve mamul deri özelliklerinin belirlenmesi üzerine bir araştırma// Ege Üniversitesi Ziraat Fakültesi Deri Mühendisliği Dergisi, 39 (3): 137–144.
17. Bitlisli B.O. Devekuşu Ham ve Mamul Derilerilerinin Bazı Teknolojik Parametreleri Üzerine Araştırmalar// B.Başaran, Ö.Sari, A.Aslan, G.Zengin. Ege Üniv. Ziraat Fak. Derg., 2003, 40 (3):137-144. ISSN 1018-8851.
18. Begaliyev X.X., Kodirov T.J., Ulugmuratov J.F., Ismatullayev I.N., Garibyan I.I., Xamitov A.A., Akiyuz F. Issledovaniye protsessa bezxromovogo dubleniya pri obrabotke kojevennogo sirya strausa. Mejdunarodniy nauchniy jurnal «Universum: texnicheskiye nauki» 11(140),s.23-28. DOI:10.32743/UniTech.2025.140.11.https://7universum.com/ru/tech/archive/item/21379.
19. Begaliyev X., Kodirov T., Garibyan I., Ulugmuratov J., Ismatullayev I., Xamitov A., Tursunkulov O., Akiyuz F. Usovershenstvovaniye protsessa dubleniya pri obrabotke kojevennogo sirya strausa. TECHSCIENCE.UZ, TEXNIKA FANLARINING DOLZARB MASALALARI, № 12 (3)-2025 s. 151-161.
DOI: https://doi.org/10.47390/ts-v3i12y2025N17 .
20. Kompaniya TFL /: Elektronniy resurs. – Rejim dostupa: http://www.tfl.com. Registration, Evaluation, Authorisation and Restriction of Chemicals.
21. Tixonova V.P. Spetsglavi texnologii koji. V.P. Tixonova, G.P. Raxmatullina / Uchebnoye posobiye, Kazan, KGTU, 2010. - 133 s.
22. OOO «Shebekinskaya Industrialnaya Ximiya» / Elektronniy resurs. –M. 2026. – Rejim dostupa:. http://www.shebkoghim.ru. Registration, Evaluation, Authorisation and Restriction of Chemicals.
23. European chemicals agency (ECHA) http s:// echa. europe. eu/. http //www.cirs-reach. com/ news-and-articles/ REACH-Registration. html.
24. GOST 939-2021. Koja dlya verxa obuvi iz virostka.
25. GOST 15091-1980. Galantereynaya koja iz kozlini.

UO‘K 677.076.4:677.017

QO‘Y VA TUYA JUNI ASOSIDA IGNA SANCHISH VA KIMYOVIY USUL BILAN NOTO‘QIMA MATERIAL OLISH

D.O. Abdusamatova, D.B. Sadikova, S.Sh.Alimxanova, A.S. Rafikov, N.B. Mirzayev
Tashkent Institute of Textile and Light Industry

Annotatsiya. *Tadqiqotda qo‘y va tuya juni asosida turli qatlamlar soni hamda biriktirish texnologiyalaridan foydalanib tayyorlangan noto‘qima materiallarning morfologik, strukturaviy va fizik xususiyatlari o‘rganildi. Materiallarning morfologik tuzilishi elektron mikroskopda, fizik xususiyatlari esa yuza zichligi, qalinligi, havo o‘tkazuvchanligi va suvga chidamliligi ko‘rsatkichlari asosida baholandi. Qatlamlar sonining 2 tadan 4 tagacha oshirilishi tuya juni asosidagi materialda yuza zichligining 74,8 %, qalinlikning 52 % va suvga chidamlilikning 100 % ga ortishiga, havo o‘tkazuvchanligining esa 46,4 % ga kamayishiga olib keldi. Qo‘y juni asosidagi materialda mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 36,8; 42,2 va 45,5 % ga oshib, havo o‘tkazuvchanligi 49,8 % ga kamaydi. Mikroskopda olingan tasvirlar tahlili qatlamlar sonining ortishi bilan tolalarning zichroq joylashishi, o‘zaro ilashishi va tolalararo bo‘shliqlarning qisqarishini ko‘rsatdi. Akril emulsiya bilan biriktirilgan materialda tolalar orasida polimer bog‘lovchi faza shakllanib, ularning o‘zaro birikishini kuchaytirdi. Olingan natijalar qatlamlar soni va biriktirish texnologiyasini boshqarish orqali jun asosidagi noto‘qima materiallarning strukturaviy hamda funksional xususiyatlarini maqsadli ravishda shakllantirish imkoniyatini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari materiallarning zichligi va suvga chidamliligini oshirish bilan*

birga, havo o‘tkazuvchanligini boshqarish imkonini berib, ularni issiqlikni saqlovchi, himoyalovchi va funksional tekstil materiallar sifatida qo‘llash uchun ilmiy asos yaratadi. DTA va TGA termik tahlil natijalari qo‘y va tuya junidan olingan materiallarning termik barqarorligi hamda parchalanish jarayonlari ularning tarkibi va tuzilishiga bog‘liqligini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: *qo‘y juni, noto‘qima mato, tuya juni, igna sanchish, akril emulsiya, yelimlash*

Аннотация. *В исследовании изучены морфологические, структурные и физические свойства нетканых материалов, изготовленных на основе овечьей и верблюжьей шерсти с использованием различного количества слоёв и технологий их скрепления. Морфологическая структура материалов исследована методом электронной микроскопии, а их физические свойства оценены по показателям поверхностной плотности, толщины, воздухопроницаемости и водостойкости. Увеличение количества слоёв с 2 до 4 в материале на основе верблюжьей шерсти привело к увеличению поверхностной плотности на 74,8 %, толщины — на 52 % и водостойкости — на 100 %, при одновременном снижении воздухопроницаемости на 46,4 %. Для материала на основе овечьей шерсти соответствующие показатели увеличились на 36,8; 42,2 и 45,5 %, тогда как воздухопроницаемость снизилась на 49,8 %. Анализ микроскопических изображений показал, что с увеличением количества слоёв происходит более плотное расположение волокон, усиление их взаимного сцепления и уменьшение межволоконных пустот. В материалах, скреплённых акриловой эмульсией, между волокнами формируется полимерная связующая фаза, способствующая усилению их взаимного соединения. Полученные результаты свидетельствуют о возможности целенаправленного формирования структурных и функциональных свойств нетканых материалов на основе шерсти посредством регулирования количества слоёв и технологии их скрепления. Результаты исследования создают научную основу для регулирования воздухопроницаемости при одновременном повышении плотности и водостойкости материалов, что позволяет рассматривать их в качестве теплоизоляционных, защитных и функциональных текстильных материалов. Результаты термического анализа методами ДТА и ТГА показали, что термическая стабильность и процессы термического разложения материалов на основе овечьей и верблюжьей шерсти зависят от их состава и структурных особенностей.*

Ключевые слова: *овечья шерсть, нетканый материал, верблюжья шерсть, иглопробивание, акриловая эмульсия, склеивание*

Abstract. *The study investigated the morphological, structural, and physical properties of nonwoven materials produced from sheep and camel wool using different numbers of layers and bonding technologies. The morphological structure of the materials was examined by electron microscopy, while their physical properties were evaluated based on surface density, thickness, air permeability, and water resistance. Increasing the number of layers from two to four in the camel-wool-based material resulted in increases of 74.8% in surface density, 52% in thickness, and 100% in water resistance, accompanied by a 46.4% decrease in air permeability. For the sheep-wool-based material, the corresponding parameters increased by 36.8%, 42.2%, and 45.5%, respectively, while air permeability decreased by 49.8%. Analysis of the microscopic images demonstrated that an increase in the number of layers resulted in denser fiber arrangement, enhanced inter-fiber entanglement, and a reduction in the inter-fiber voids. In materials bonded with an acrylic emulsion, a polymeric binder phase was formed between the fibers, enhancing their interconnection and structural integrity. The obtained results demonstrate the possibility of targeted regulation of the structural and functional properties of wool-based nonwoven materials by controlling the number of layers and bonding technology. The findings provide a scientific basis for increasing material density and water resistance while controlling air permeability, thereby supporting their potential application as thermal-insulating, protective, and functional textile materials. The results of differential thermal analysis (DTA) and*

thermogravimetric analysis (TGA) showed that the thermal stability and thermal degradation processes of the materials based on sheep and camel wool depend on their composition and structural characteristics.

Keywords: sheep wool, nonwoven material, camel wool, needle punching, acrylic emulsion, bonding

Kirish. Bugungi kunda to‘qimachilik sanoatida tabiiy tolali xomashyolardan samarali foydalanish, mahalliy resurslarni chuqur qayta ishlash hamda ekologik jihatdan xavfsiz va funksional materiallar yaratish dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, tabiiy hayvon tolalarini qayta ishlash asosida turli maqsadlarga mo‘ljallangan noto‘qima materiallar ishlab chiqarish ularning qayta tiklanadigan xomashyo sifatidagi imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Qo‘y juni tabiiy keratin tolasi bo‘lib, uning yuqori issiqlik saqlash qobiliyati, namlikni yutish va chiqarish xususiyati, elastikligi hamda tovush va issiqlik izolyatsiyasi kabi xossalari uni noto‘qima materiallar ishlab chiqarish uchun istiqbolli xomashyo sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, tuya juni o‘zining tolalarining nozikligi, yengilligi, issiqlikni yaxshi saqlashi va o‘ziga xos fizik-mexanik xususiyatlari bilan boshqa hayvon tolalaridan ajralib turadi. Mazkur tolalarning tabiiy xususiyatlarini saqlagan holda ulardan yangi turdagi materiallar olish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Nazariy tadqiqotlar. Noto‘qima materiallar olishning mexanik usullari orasida igna sanchish usuli texnologik jihatdan sodda va samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu usulda tolalar maxsus ignalar yordamida mexanik ravishda chalkashtirilib, o‘zaro ilashishi natijasida yaxlit tolali qatlam hosil qilinadi. Bundan tashqari, tabiiy jun tolalarini kimyoviy usulda modifikatsiyalash orqali ularning sirt va fizik-kimyoviy xususiyatlarini boshqarish hamda olinadigan noto‘qima materiallarning funksional xossalarini yaxshilash mumkin. Mahalliy qo‘y va tuya junidan igna sanchish hamda kimyoviy usullarni qo‘llagan holda noto‘qima materiallar olish, ularning tarkibi va texnologik parametrlarining material xususiyatlariga ta’sirini aniqlash, fizik-mexanik, gigiyenik va funksional ko‘rsatkichlarini tadqiq etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi. Tadqiqotlarda qo‘y juni, tuya juni hamda paxta chiqindilaridan kiyim-kechak va poyabzal detallari uchun ko‘p qatlamli noto‘qima kompozit materiallar ishlab chiqilgan. Materiallarning asosiy qatlamini dag‘al qo‘y yoki tuya juni tashkil etib, qatlamlar polimer yopishtiruvchi yordamida termik presslash orqali biriktirilgan. Natijalar qo‘y va tuya junining dag‘al tolalari issiqlikni saqlovchi, havo va bug‘ o‘tkazuvchan xususiyatlarga ega ko‘p qatlamli noto‘qima materiallar olish uchun istiqbolli xomashyo ekanligini ko‘rsatgan [1]. Ko‘p qatlamli materiallarda jun tolalarini polimer yordamida biriktirish bilan bir qatorda, ularni mexanik usulda, ya’ni igna sanchish orqali biriktirish imkoniyati ham tadqiq etilgan. 100% dag‘al qo‘y junidan igna sanchish usulida issiqlik izolyatsiyalovchi noto‘qima material olish texnologiyasining xususiyatlari o‘rganilgan. Materialning yakuniy xossalari tolalarning tabiati, ularning noto‘qima qatlamdagi joylashishi va tolalar qatlamining zichlanish darajasiga bog‘liqligi aniqlangan [2]. Igna sanchish jarayonining o‘zi bilan bir qatorda, uning texnologik parametrlarini optimallashtirish ham tayyor materialning ekspluatatsion xususiyatlarini belgilaydi. Qozog‘iston qo‘y zotlarining dag‘al va yarim dag‘al junidan igna sanchish usulida tayyorlangan noto‘qima materiallarning issiqlikni saqlash xususiyatlariga qatlamlar soni, igna sanchish chastotasi va dag‘al hamda yarim dag‘al jun tolalarining nisbati ta’siri o‘rganilgan [3]. Jun tolasini kimyoviy va fermentativ modifikatsiyalashga qaratilgan tadqiqotlarda dastlab natriy karbonat va kationli sirt-faol modda–setiltrimetilammoniy bromid eritmasida ishlov berish, keyinchalik esa keratin makromolekulalarini transglutaminaza fermenti yordamida o‘zaro bog‘lash jarayonlari o‘rganilgan. Ishlov berish natijasida jun tolasining sirt xususiyatlari o‘zgarib, gidrofillikning ortishi kontakt burchagi o‘lchovlari orqali tasdiqlangan [4]. Jun tolasining sirt xususiyatlarini boshqarish bo‘yicha mazkur yondashuvlar keyingi tadqiqotlarda rivojlantirilib, reaktiv noionogen yumshatgich yordamida jun matosiga bir bosqichli ko‘p funksiyali pardoz berish jarayoni o‘rganilgan. Ishlov berish konsentratsiyasi, quritish va termik qotirish sharoitlarining sirt silliqligi, namlanish va kigizlanishga chidamlilikka ta’siri aniqlangan [5]. Bu yo‘nalishda fizik-kimyoviy va

biologik usullarni kombinatsiyalash ham samarali natija berishi mumkin. Jun tolalariga plazma, glutaminaza va proteaza bilan alohida hamda kombinatsiyalangan ishlov berilib, sirt morfologiyasi, FTIR-spektral xususiyatlar, rang va mexanik ko‘rsatkichlari tadqiq etilgan. Kombinatsiyalangan ishlov jun tolasining sirt tuzilishi va funksional xususiyatlarini maqsadli o‘zgartirish imkonini bergan [6]. Jun tolasining sirt tuzilishi va kimyoviy tarkibini boshqarish masalalari bo‘yicha olib borilgan sharh tadqiqotlarida jun kutikulasini modifikatsiyalash usullari oksidlanish, plazma, ultrabinafsha nurlanish, fermentativ ishlov va emulsiya bilan qoplash kabi asosiy yo‘nalishlarga ajratilgan [7].


Jun tarkibidagi keratinning kimyoviy faolligidan foydalanishning yana bir muhim yo‘nalishi–jun chiqindisidan keratin gidrolizatini olib, boshqa to‘qimachilik materiallarini modifikatsiyalash hisoblanadi. Chiqindi jundan ishqoriy gidroliz yordamida keratin gidrolizati olinib, undan paxta matosini modifikatsiyalashda foydalanilgan [8]. Jun materiallarini funksionallashtirishda nano-texnologik yondashuvlar ham kengayib bormoqda. Keratinolitik proteazalar yordamida jun matosiga dastlabki ishlov berilib, keyinchalik ZnO va ZrO_2 nanozarrachalari, askorbin kislotasi hamda vanillin bilan funksionallashtirish amalga oshirilgan. Natijada jun matosiga antibakterial va ultrabinafsha nurlanishdan himoyalovchi xususiyatlar berilgan hamda modifikatsiyaning yuvishga chidamliligi baholangan [9]. Boshqa tadqiqotlarda jun tolasining o‘zidan ZnO nanozarrachalarini qaytaruvchi agent sifatida foydalanilgan. Olingan modifikatsiyaning strukturasi va yuvishga chidamliligi o‘rganilib, jun tolasining funksional nano-modifikatsiya jarayonida faol komponent sifatida ishtirok etishi ko‘rsatilgan [10]. Jun tolalarini sellyulozali tolalar bilan birlashtirish orqali ham ko‘p funksiyali materiallar olish mumkin. Sellyuloza/jun aralashmalari TiO_2 va Ag nanozarrachalari yordamida modifikatsiyalanib, materiallarda antibakterial va ultrabinafsha nurlanishdan himoyalovchi xususiyatlar shakllantirilgan [11]. Tabiiy tolalarni funksionallashtirishning yana bir istiqbolli yo‘nalishi ularni boshqa tolalar bilan kombinatsiyalash va igna sanchish orqali kompozitsion noto‘qima struktura hosil qilish bilan bog‘liq. Poplar tolalarini ichi bo‘sh poliefir tolalari bilan aralashtirib, igna sanchish usulida noto‘qima materiallar olingan. Tabiiy tolalarni noto‘qima strukturasiga kiritish materialning funksional xususiyatlarini boshqarish imkonini bergan [12]. Mazkur yondashuv jun tolalariga ham tatbiq etilib, paxta chiqindilari va tabiiy jundan igna sanchish usulida noto‘qima asos hosil qilingan hamda u alginat/xitozan gidrogel bilan modifikatsiyalangan. Olingan materialning namlik va havo almashinuvi, biologik parchalanishi hamda antibakterial xususiyatlari o‘rganilgan [13]. Natijalar igna sanchish orqali shakllangan tolali asosni keyingi polimer-gidrogel modifikatsiyasi bilan birlashtirish funksional noto‘qima materiallar yaratish imkonini berishini ko‘rsatgan. Yuqoridagi tadqiqotlar bilan bir qatorda, jun chiqindilaridan keratinni qayta tiklash va undan yangi materiallar olish masalasi ham jadal rivojlanmoqda. Chiqindi jun keratinini qaytaruvchi erituvchi tizimlar yordamida regeneratsiya qilish va keyinchalik ho‘l yigirish orqali yangi oqsil tolalari olish imkoniyatlari tahlil qilingan. Kimyoviy qayta ishlash mexanik qayta ishlashga qo‘shimcha yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqilib, regeneratsiyalangan keratinning mexanik barqarorligini oshirish uchun qo‘shimcha modifikatsiya yoki boshqa tolalar bilan aralashtirish zarurligi ko‘rsatilgan [14]. Keratinni qayta tiklashning ekologik yondashuvlarida sut kislotasi va L-sistein asosidagi erituvchi tizim yordamida chiqindi jundan keratin ajratib olish jarayoni o‘rganilgan. Mazkur yondashuv an’anaviy ishqoriy reagentlardan foydalanishni kamaytiruvchi muqobil erituvchi tizim sifatida taklif etilgan [15]. Ushbu yo‘nalish xolin xlorid va sut kislotasi asosidagi tabiiy chuqur evtektik erituvchi yordamida ham rivojlantirilgan. Tadqiqotda harorat, vaqt va jun/erituvchi nisbati kabi omillarning jun erishi va keratin chiqimiga ta’siri o‘rganilgan [16]. Shuningdek, limon kislotasi va L-sistein asosidagi qaytaruvchi tabiiy chuqur evtektik erituvchi yordamida jun keratinini ajratib olish jarayoni tadqiq etilgan. Molekulyar modellashtirish va eksperimental natijalar asosida erituvchining tarkibi, junni eritish sharoitlari va qayta tiklangan keratinning strukturaviy xususiyatlari aniqlangan [17]. Kimyoviy erituvchilardan tashqari, jun chiqindilarini biologik usulda qayta ishlash imkoniyatlari

ham o‘rganilmoqda. Mikroorganizmlar yordamida junni parchalash va keratin ajratib olish jarayonida jun sirtidagi lipidlar va kutikula qatlamining parchalanishi hamda ajratib olingan keratinning strukturaviy xususiyatlari tadqiq etilgan [18]. Ushbu maqola tadqiqotining maqsadi – qo‘y va tuya junidan igna sanchish hamda kimyoviy yelimlash usullari asosida noto‘qima materiallar olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tajribaviy izlanishlar. Noto‘qima material 2 xil usulda olindi:

1-usulda tolalar maxsus ignalar yordamida mexanik ravishda chalkashtirilib, o‘zaro ilashishi natijasida yaxlit tolali qatlam hosil qilindi va yuqori haroratda presslandi.

2-usulda tabiiy jun tolalarini kimyoviy usulda tolali qatlamga biriktirish uchun 40 %-li akril emulsiyasini 2 marta suyultirish orqali 20 %-li emulsiya tayyorlanib, pulvizator yordamida junga sepildi. Xona haroratida quritishga qoldirildi. Quriganidan so‘ng yuqori haroratda presslandi. Natijada 1-rasmda tasvirlangan noto‘qima materiallar hosil bo‘ldi.



1-rasm. Qo‘y va tuya juni asosida olingan noto‘qima materiallarning: A, B–tuya juni, 2 qatlam, igna sanchish usuli; C, D– tuya juni, 4 qatlam, igna sanchish usuli; E, F– qo‘y juni, 2 qatlam, akril emulsiyasi bilan qatlamlarni yelimlash usuli; G, H–qo‘y juni 4 qatlam, igna sanchish usuli.

Qo‘y va tuya juni asosida turli texnologiyalar yordamida olingan 2 va 4 qatlamli noto‘qima materiallarning fizik va gigiyenik xossalari TTYSI “Sentexuz” sertifikatlash markazida aniqlangan (1-jadval). Tuya junidan tayyorlangan materiallarda qatlamlarni biriktirish igna sanchish, qo‘y junidan tayyorlangan materiallarda esa igna sanchish va akril emulsiya yordamida yelimlash usullari qo‘llanilgan.

1-jadval

Qo‘y va tuya juni asosida igna sanchish va kimyoviy usul bilan tayyorlangan noto‘qima materiallarning fizik va gigiyenik xossalari


Ko‘rsatkichlar	Tuya juni		Qo‘y juni	
	4 qavat	2 qavat	4 qavat	2 qavat
	igna sanchish	igna sanchish	igna sanchish	akril emulsiya
Yuza zichligi, g/m^2	582,2	333,1	1030,4	753,1
Qalinligi, mm	3,8	2,5	6,4	4,5
Havo o‘tkazuvchanligi, sm^3/sm^2·s	86,8	161,9	50,3	100,2
Suvga chidamliligi, mm H_2O	120	60	160	110

1-jadval natijalariga ko‘ra, yuza zichligi bo‘yicha 2 qatlamli tuya juni asosidagi materialda qatlamlar sonining 2 tadan 4 taga oshirilishi yuza zichligini taxminan 74,8 % ga oshirgan. Bu natija material tarkibidagi tolalar miqdorining ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, qo‘y juni

asosidagi materiallarda yuza zichligi yanada yuqori bo‘lib, 2 qatlamdan 4 qatlamga o‘tishda yuza zichligi 36,8 % ga ortgan. 4 qatlamli namunalar taqqoslanganda, qo‘y juni asosidagi materialning yuza zichligi tuya juninikidan 77 % ga yuqori. Bunday farq jun tolalarining morfologik xususiyatlari, tolalarning zich joylashishi, ularning o‘zaro ilashish darajasi hamda material hosil qilish jarayonidagi zichlanish bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Material qalinligi ham qatlamlar sonining ortishi bilan sezilarli ravishda oshgan. Tuya junida qalinlik 2 qatlamdan 4 qatlamga o‘tganda 52 % ga oshgan. Qo‘y junida esa qalinlik 2 qatlamli akril emulsiyali namunaga nisbatan 4 qatlamli igna sanchilgan namunaniki 42,2 % ga ortgan. Demak, qo‘y juni asosidagi materiallar nafaqat yuqori yuza zichligiga, balki kattaroq qalinlikka ham ega. Yuza zichligi va qalinlikning birgalikda ortishi materialning ko‘p qatlamli tolali tuzilmasi shakllanganligini ko‘rsatadi. Bu holat SEM tasvirlarida kuzatilgan tolalarning o‘zaro kesishishi, ilashishi va zichroq joylashishi bilan ham mos keladi. Ayniqsa, 4 qatlamli namunalarda tolalarning o‘zaro ilashish va tutashish darajasining ortishi materialning hajmiy tuzilmasini yanada zichlashtirgan. Havo o‘tkazuvchanligi bo‘yicha esa teskari tendensiya kuzatiladi. Tuya junidan tayyorlangan materialda havo o‘tkazuvchanligi qatlamlar sonining ikki baravar oshishi natijasida havo o‘tkazuvchanligi 46,4 % ga kamaygan. Bu holat tolalararo bo‘shliqlarning kamayishi va material strukturasining zichlashishi bilan izohlanadi. Qo‘y juni asosidagi materiallarda ham havo o‘tkazuvchanligi akril emulsiyasi bilan yopishtirilgan 2 qatlamga nisbatan 4 qatlamli igna sanchish usuli bilan tayyorlangan namunada 49,8 % ga kamaygan. Shunday qilib, har ikkala turdagi materialda qatlamlar sonining ortishi havo oqimining material orqali o‘tishini deyarli ikki baravargacha cheklagan. Shu bilan birga, havo o‘tkazuvchanligining kamayishi faqat qatlamlar sonining ortishi bilan emas, balki tolalarning joylashish zichligi va biriktirish darajasi bilan ham bog‘liq. Igna sanchish jarayonida tolalarning turli yo‘nalishlarda qayta joylashishi va o‘zaro ilashishi materialdagi ochiq g‘ovaklarning qisqarishiga olib keladi. Akril emulsiya esa tolalararo bo‘shliqlarning bir qismini polimer faza bilan to‘ldirib, havo oqimiga qarshilikni oshirishi mumkin. Suvga chidamlilik natijalari ham material strukturasining zichligi va biriktirish usuli bilan bog‘liq. Tuya junida suvga chidamlilik 2qatlamli namunadan 4 qatlamli namunaga o‘tganda, 2 baravar, ya’ni 100 % lik o‘sishni anglatadi. Qo‘y junida esa ushbu ko‘rsatkich 2 qatlamli akril emulsiyali materialga nisbatan 4 qatlamli igna sanchish materialida qatlamlar sonining oshishi suv bosimiga chidamlilikni 45,5 % ga oshirgan. Bu natijalar havo o‘tkazuvchanligi bilan teskari bog‘liqlikni ko‘rsatadi: material zichlashgani sari havo o‘tishi qiyinlashadi, biroq suvning material orqali o‘tishiga qarshilik ortadi. Shu jihatdan 4 qatlamli qo‘y juni asosidagi namuna 160 mm H_2O qiymat bilan tadqiq etilgan namunalar orasida eng yuqori suvga chidamlilikni namoyon qilgan. Umuman, qatlamlar sonini oshirish suvga chidamlilikni oshiradi, biroq havo o‘tkazuvchanligini kamaytiradi. Bu ko‘rsatkichlar funksional polimer-to‘qima kompozit materialining himoyalovchi va gigiyenik xususiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni tavsiflaydi.

Qo‘y va tuya juni asosida olingan noto‘qima materiallarni “B-150 Optika mikroscopes” mikroskopida olingan, 40x va 100x marta kattalashtirilgan tasvirlari 2-rasmda keltirilgan.


2-rasmlardan ma’lum bo‘lishicha, qo‘y va tuya juni asosida turli texnologiyalar yordamida olingan noto‘qima materiallarning morfologik tuzilishida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. A–B rasmlarda tuya junidan 2 qatlamli, igna sanchish usulida olingan material kuzatiladi. 40× kattalashtirishda tolalarning asosan tartibsiz, turli yo‘nalishlarda joylashgani va ular orasida nisbatan katta bo‘shliqlar mavjudligi ko‘rinadi. 100× kattalashtirishda esa alohida tolalarning o‘zaro mexanik ilashishi hamda igna sanchish natijasida tolalarning bir-biriga kirishishi yaqqolroq namoyon bo‘ladi.



2-rasm. Qo‘y va tuya juni asosida olingan noto‘qima materiallarning mikroskop tasvirlari: A, B–tuya juni, 2 qatlam, igna sanchish usuli; C, D– tuya juni, 4 qatlam, igna sanchish usuli; E, F–qo‘y juni, 2 qatlam, akril emulsiyasi bilan qatlamlarni yelimlash usuli; G, H–qo‘y juni 4 qatlam, igna sanchish usuli.


C–D rasmlar 4 qatlamli tuya junidan igna sanchish usulida tayyorlangan materialga tegishli. 2 qatlamli namunaga (A–B) nisbatan tolali strukturaning zichroq shakllanganligi kuzatiladi. Qatlamlar sonining ortishi material hajmida tolalar konsentratsiyasining oshishiga, bo‘shliqlar hajmining kamayishiga va tolalararo mexanik bog‘lanishlarning ko‘payishiga olib kelgan. 100× kattalashtirishda tolalarning bir-birini kesib o‘tishi va o‘zaro ilashganligi yanada aniq ko‘rinadi.

E–F rasmlarda qo‘y junidan 2 qatlamli va qatlamlari akril emulsiyasi yordamida yelimlangan materialning morfologiyasi keltirilgan. Bu namunada tolalar orasidagi bo‘shliqlarning qisman polimer faza bilan to‘ldirilgani hamda ayrim tolalar yuzasida bog‘lovchi moddaning mavjudligi kuzatiladi. Natijada tolalar o‘rtasida nafaqat mexanik, balki polimer bog‘lovchi ishtirokidagi adgeziya xarakteridagi birikish hosil bo‘lganligini taxmin qilish mumkin. 100× tasvirda akril emulsiyasi ta’sirida tolalarning bir-biriga nisbatan mahkamroq birikkan joylari aniqroq namoyon bo‘ladi. G–H rasmlar 4 qatlamli qo‘y junidan igna sanchish usulida olingan materialga tegishli. Ushbu namunada tolalar nisbatan zich joylashib, o‘zaro kesishgan va ilashgan ko‘p qatlamli hajmiy tolali tuzilmani hosil qilgan. Ignalarning mexanik ta’siri natijasida tolalarning turli yo‘nalishlarda qayta joylashishi va qatlamlararo o‘zaro kirishishi ta’minlangan. 100× kattalashtirishda tolalarning kesishish nuqtalari va mexanik ilashishlari yanada yaqqol ko‘rinadi. Tuya va qo‘y juni asosidagi igna sanchish va akril emulsiyasi asosida yelimlash usullari bilan tayyorlangan noto‘qima matolarning termik barqarorligini baholash uchun TGA va DTA tadqiqotlari o‘tkazildi (3, 4-rasmlar).



3-rasm. Tuya juni asosidagi igna sanchish usulida olingan noto‘qima materialning TGA va DTA egrilari

3-rasmdagi tuya junidan igna sanchish usulida olingan noto‘qima matoning TG–DTA tahliliga ko‘ra, materialning 30-498°C harorat oralig‘ida uch bosqichli termik parchalanish xarakteriga ega ekanligi aniqlandi. 30-200°C oralig‘ida 5% massa yo‘qotilishi namlik va uchuvchan komponentlarning ajralishi bilan bog‘liq. 200-349°C oralig‘ida massa yo‘qotilishi 26% ni tashkil etib, tuya juni tarkibidagi keratinning asosiy termik destruksiyasi bilan tavsiflanadi. 349–498°C oralig‘ida qo‘shimcha 25% massa yo‘qotilishi kuzatilib, bu keratin makromolekulasining chuqur termik parchalanishi va uglerodli qoldiqning hosil bo‘lishi ifodalaydi. Umumiy massa yo‘qotilishi 56% ni, 498°C da qolgan qoldiq massa esa 44% ni tashkil etdi. Olingan natijalar tuya juni asosidagi igna sanchilgan noto‘qima materialning 200°C gacha nisbatan yuqori termik barqarorlikka ega ekanligini, 200-500°C oralig‘ida esa asosiy termik destruksiya jarayoni sodir bo‘lishini ko‘rsatadi.



4-rasm. Tuya juni asosidagi akril emulsiyasi bilan yelimlash usulida olingan noto‘qima materialning TGA va DTA egrilari

4-rasmdagi tuya junini akril emulsiyasi yordamida yopishtirish orqali olingan noto‘qima matoning TG–DTA tahlilida termik parchalanish jarayoni 35-498°C oralig‘ida uch bosqichda kechishi aniqlandi. 35-200°C oralig‘ida 2% massa yo‘qotilishi kuzatilib, bu asosan namlik va uchuvchan komponentlarning ajralishi bilan bog‘liq. 200-350°C oralig‘ida eng katta – 29% massa yo‘qotilishiga tegishli bo‘lib, ushbu bosqich tuya juni keratinining destruksiyasi hamda akril emulsiyasi asosidagi bog‘lovchi komponentlarning termik parchalanishi bilan tavsiflanadi. 351-498°C oralig‘ida massa yo‘qotilishi 26% ni tashkil etib, keratin va polimer bog‘lovchining chuqur termik destruksiyasi davom etgan. Umumiy massa yo‘qotilishi 58%, 498°C dagi qoldiq massa esa 42% ni tashkil etdi. Natijalar akril emulsiyasi bilan modifikatsiyalangan tuya juni asosidagi noto‘qima materialning asosiy termik destruksiya sohasi 200-350°C oralig‘ida joylashganligini ko‘rsatadi.

Xulosa va takliflar. Qatlamlar sonini oshirish suvga chidamlilikni oshiradi, biroq havo o‘tkazuvchanligini kamaytiradi. Bu ko‘rsatkichlar funksional polimer-to‘qima kompozit materialining himoyalovchi va gigiyenik xususiyatlari o‘rtasidagi muvozanatni tavsiflaydi. Olingan natijalar qo‘y va tuya juni asosida tayyorlangan noto‘qima materiallarning strukturaviy hamda fizik xususiyatlari qatlamlar soni va ularni biriktirish usuliga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Qatlamlar sonining 2 tadan 4 tagacha oshirilishi materiallarning yuza zichligi va qalinligining ortishiga, havo o‘tkazuvchanligining kamayishiga hamda suvga chidamliligining oshishiga olib keldi. Xususan, tuya juni asosidagi materialda yuza zichligi 74,8 % ga, qalinligi 52 % ga va suvga chidamliligi 100 % ga oshgan bo‘lsa, havo o‘tkazuvchanligi 46,4 % ga kamaygan. Qo‘y juni asosidagi materialda esa ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 36,8; 42,2; 45,5 % ga oshib, havo o‘tkazuvchanligi 49,8 % ga kamaygan. Mikroskop tasvirlari mazkur o‘zgarishlarni tolalarning zichroq joylashishi, o‘zaro ilashish va tutashish darajasining ortishi hamda tolalararo bo‘shliqlarning qisqarishi bilan izohlash imkonini beradi. Shu bilan birga, akril emulsiya

yordamida yelimlash tolalar orasida qo‘shimcha polimer bog‘lovchi fazaning shakllanishini ta’minlab, materialning strukturaviy yaxlitligiga ta’sir ko‘rsatgan. Umuman, tadqiqot natijalari qatlamlar soni va biriktirish texnologiyasini o‘zgartirish orqali jun asosidagi noto‘qima materiallarning zichligi, havo o‘tkazuvchanligi va suvga chidamliligi kabi funksional xususiyatlarini boshqarish mumkinligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan TGA va DTA tahlillari natijalariga ko‘ra, 349–498°C oralig‘ida kuzatilgan massa yo‘qotilishi keratin makromolekulalarining intensiv termik parchalanishi, uchuvchan parchalanish mahsulotlarining ajralishi va uglerodga boy termik qoldiqning shakllanishi bilan izohlanadi. Harorat ortishi bilan namlik va uchuvchan komponentlarning ajralishi, keyinchalik keratin makromolekulalarining termik parchalanishi kuzatilib, yuqori haroratlarda uglerodli qoldiq hosil bo‘lishi aniqlandi.

Reference

1. Rafikov A., Mirzayev N., Alimkhanova S. Multilayer nonwoven lining materials made of wool and cotton for clothing and footwear. Journal of Industrial Textiles. 2022; 51(4_suppl):6173S–6194S. DOI: 10.1177/15280837211060881.
2. Borkulakova Zh.K., Shardarbek M.Sh., Junisbekov M.Sh., Kuandykuly M. Specifics for manufacturing insulating needle-punched nonwoven materials from coarse wool. Progress in Science. 2024; (5).
3. Borkulakova Z., Shardarbek M., Ilkhamova M., et al. Optimization of Warmth Retention in Nonwoven Materials Made from Coarse and Semi-Coarse Sheep Wool. Journal of Natural Fibers. 2025; 22(1). DOI: 10.1080/15440478.2025.2578612.
4. Chen N., Liu C.K., Ashby R. Modification of Wool Fibers via Base/Cationic Detergent Pretreatment and Transglutaminase-mediated Reaction of Keratin. Journal of Natural Fibers. 2022; 19(15):10924-10934. DOI: 10.1080/15440478.2021.2002780.
5. El-Sayed H., Mowafi S., Basuoni A.S. One-pot multi-functional finishing of wool fabric using reactive nonionic softener. Heliyon. 2022; 8(10):e10985. DOI: 10.1016/j.heliyon.2022.e10985.
6. Ghasemian R., Barani H., Khazaei F. Surface modification and performance of wool fibers after combined plasma and enzyme treatments. Scientific Reports. 2025; 15:9079. DOI: 10.1038/s41598-025-93665-3.
7. Zhao P., Xu P., An L. Effect of Different Wool Fiber Finishing Methods on Cuticle Scales: A Review. Journal of Fiber Science and Technology. 2023;79(9):200–210. DOI: 10.2115/fiberst.2023-0024.
8. Bulut M.O., Akçalı K. Sustainable Cationic Cotton with Keratin Hydrolysate. Fibers and Polymers. 2024; 25(8):3021–3033. DOI: 10.1007/s12221-024-00626-0.
9. Ibrahim N.A., Amin H.A., Abdel-Aziz M.S., Eid B.M. A green approach for modification and functionalization of wool fabric using bio- and nano-technologies. Clean Technologies and Environmental Policy. 2022; 24:3287-3302. DOI: 10.1007/s10098-022-02385-z.
10. Ghosh S., Goswami P., Rana S. Wool fiber as an In situ reducing agent towards ZnO-based surface modified fabric development: Durability assessment in the realm of textile applications. Surfaces and Interfaces. 2024; 51:104630. DOI: 10.1016/j.surfin.2024.104630.
11. Ibrahim N.A., Eid B.M., Emam E.M. An eco-friendly facile approach for imparting multifunctional protection properties to cellulose/wool blends. Polymer Bulletin. 2022; 79:10313–10331. DOI: 10.1007/s00289-021-04072-3.
12. Usta C., Seyhan A., Gürarslan A. Utilization of poplar fibers in needle punched nonwovens. Cellulose. 2024; 31:8351–8367. DOI: 10.1007/s10570-024-06062-w.
13. Ahmad F., Hassan A., Mushtaq B., Azam F., Ahmad S., Rasheed A., Nawab Y. A biodegradable alginate/chitosan hydrogel based nonwoven from pre-consumer cotton waste and virgin wool for food packaging. Industrial Crops and Products. 2024; 216:118795. DOI: 10.1016/j.indcrop.2024.118795.

14. Lebedytė M., Sun D. A review: can waste wool keratin be regenerated as a novel textile fibre via the reduction method? The Journal of the Textile Institute. 2022; 113(8):1750–1766. DOI: 10.1080/00405000.2021.1940018.
15. Shavandi A., Jafari H., Zago E., Hobbi P., Nie L., De Laet N. A sustainable solvent based on lactic acid and L-cysteine for the regeneration of keratin from waste wool. Green Chemistry. 2021; 23:1171–1174. DOI: 10.1039/D0GC04314A.
16. Pääkkönen I., Rissanen T., Ora A., et al. Valorization of Waste Wool to Keratin with a Green Solvent Based on a Deep Eutectic Mixture of Choline Chloride and Lactic Acid. Waste and Biomass Valorization. 2025; 16:1045-1055. DOI: 10.1007/s12649-024-02733-8.
17. Yang S., Wang M., Meng J., et al. A reductive natural deep eutectic solvent based on citric acid and L-cysteine for extracting keratin from wool. Bioresource Technology. 2025; 437:133178. DOI: 10.1016/j.biortech.2025.133178.
18. Vikash V.L., Kamini N.R., Ponesakki G., Anandasadagopan S.K. Microbial disintegration of wool: An effective and sustainable approach for keratin extraction. International Journal of Biological Macromolecules. 2025; 290:138806. DOI: 10.1016/j.ijbiomac.2024.138806.

UDK 677.027.254.3/.4:675.832.001.76

JUN TOLALI MATOLARNI BO‘YASH VA ANTIBAKTERIAL XOSSA BERISHNING BIRLASHTIRILGAN USULI

Z.Sh.Islamova[1], A.I.Nuritdinov[1], D.B.Matkarimova[2], Sh.T.Mamanov[3]
[1]Tashkent Institute of Textile and Light Industry
[2] Urgench State University named after Abu Raykhan Beruni
[3] "Turon Tex" limited liability company

Annotatsiya. *Maqolada jun tolali matolarni* Indigofera Tinctoria L. *o‘simligi bilan bo‘yashda xurushlovchi tuzlarni bimetall ion kombinatsiyalari – Cu^{2+}/Fe^{3+}, Al^{3+}/Cu^{2+}, Al^{3+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}/Zn^{2+}, Zn^{2+}/Al^{3+}, Al^{3+}/Sn^{2+} sifatida qo‘llanildi. Bo‘yash jarayonida, rang hosil bo‘lish mexanizmi, rang intensivligini oshirishda bo‘yovchi moddaga qo‘yilgan qatiiy (pH=10.5, T=90°C) texnologik chegaralarni saqlagan xolda erishildi. Jun matoga bimetall ion xurushlovchilar bilan oldindan ishlov berildi. Xurushlash jarayoni rang fiksatsiyasini, rang barqarorligini hamda matoning funksional, jumladan antibakterial xossalarini oshirishga xizmat qildi. Bu maqsadda Cu^{2+}, Fe^{3+}, Al^{3+}, Zn^{2+} va Sn^{2+} ionlarining tuzlari alohida yoki bimetall ion kombinatsiyalar ko‘rinishida qo‘llanildi. So‘ngra jun mato* Indigofera Tinctoria L. ning bo‘yash *eritmasiga solinib, 50°C haroratda 20 daqiqa davomida bo‘yaldi. YAkuniy bosqichda bo‘yalgan jun mato neytral sovunning 2 g/l konsentratsiyasida 40°C haroratda 15 daqiqa yuvilib, so‘ngra quritildi. Cu^{2+} ishtirokidagi kombinatsiyalar jun matolarda nafaqat rang to‘yinganligini oshirishi, balki antibakterial xususiyat namoyon qilishi aniqlandi. Zn^{2+} esa antibakterial ta’sir ko‘rsatib, matolarning gigienik xossalarini yaxshiladi. Bunda Staphylococcus aureus ATCC 25923 ga qarshi 90 %, va Escherichia coli ATCC 8739 shtamplariga qarshi esa 85% antibakterial xususiyatga ega ekani ko‘rsatdi.*

Kalit so‘zlari: *jun mato, alkaloid birikmalar, metal ionlari, bakteriyalar, bimetall kombinatsiyalari, oksidlanish jarayoni, antibakterial xossa, konsentratsiya.*

Аннотация. *В данной статье для крашения шерстяных тканей с использованием растения *Indigofera tinctoria* L. применялись биметаллические комбинации ионов солей-протрав Cu^{2+}/Fe^{3+}, Al^{3+}/Cu^{2+}, Al^{3+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}/Zn^{2+}, Zn^{2+}/Al^{3+} и Al^{3+}/Sn^{2+}. Формирование цвета и усиление его интенсивности достигались при строгом соблюдении установленных технологических параметров процесса крашения (pH = 10,5; T = 90 °C). Шерстяная ткань проходила предварительную обработку с использованием данных биметаллических*

*протрав. Процесс крашения был направлен на улучшение фиксации и стойкости цвета, а также на придание ткани функциональных свойств, включая антибактериальные. Для этого использовали соли ионов Cu^{2+}, Fe^{3+}, Al^{3+}, Zn^{2+} и Sn^{2+} — как по отдельности, так и в виде комбинаций двух металлов. Затем шерстяную ткань погружали в раствор красителя из *Indigofera tinctoria* L. и окрашивали в течение 20 минут при температуре 50°C. На заключительном этапе окрашенную ткань промывали в растворе нейтрального мыла (концентрация 2 г/л) при температуре 40°C в течение 15 минут, после чего высушивали. Было установлено, что комбинации с участием ионов Cu^{2+} не только усиливали насыщенность цвета шерстяных тканей, но и придавали им антибактериальные свойства. В свою очередь, ионы Zn^{2+} проявили антибактериальный эффект и улучшили гигиенические характеристики тканей, продемонстрировав антибактериальную активность на уровне 90% в отношении штамма *Staphylococcus aureus* ATCC 25923 и 85% — в отношении штамма *Escherichia coli* ATCC 8739.*

Ключевые слова: *шерстяная ткань, алкалоидные соединения, ионы металлов, бактерии, биметаллические комбинации, процесс окисления, антибактериальное свойство, концентрация.*

Abstract. *In this article, bimetallic ion combinations of mordant salts—specifically Cu^{2+}/Fe^{3+}, Al^{3+}/Cu^{2+}, Al^{3+}/Fe^{3+}, Cu^{2+}/Zn^{2+}, Zn^{2+}/Al^{3+}, and Al^{3+}/Sn^{2+}—were employed in the dyeing of wool fabrics using the *Indigofera tinctoria* L. plant. The color formation and the enhancement of color intensity were achieved while strictly adhering to the established technological parameters (pH = 10.5, T = 90°C) for the dyeing process. The wool fabric was pre-treated with bimetallic ions acting as mordants. The mordanting process served to enhance dye fixation and color fastness, as well as the fabric's functional properties, including antibacterial characteristics. For this purpose, salts of Cu^{2+}, Fe^{3+}, Al^{3+}, Zn^{2+}, and Sn^{2+} ions were applied either individually or in bimetallic ion combinations. Subsequently, the wool fabric was immersed in an *Indigofera tinctoria* L. dye solution and dyed at 50°C for 20 minutes. In the final stage, the dyed wool fabric was washed in a neutral soap solution (concentration of 2 g/L) at 40°C for 15 minutes and then dried. It was determined that combinations involving Cu^{2+} not only enhanced color saturation in the wool fabrics but also imparted antibacterial properties. Zn^{2+} exerted an antibacterial effect, improving the hygienic properties of the fabrics. It demonstrated antibacterial activity of 90% against *Staphylococcus aureus* ATCC 25923 and 85% against *Escherichia coli* ATCC 8739 strains.*

Key words: *wool fabric, alkaloid compounds, metal ions, bacteria, bimetallic combinations, oxidation process, antibacterial property, concentration.*

Kirish. Indigo — tarixiy jihatdan eng qadimiy tabiiy bo‘yovchi moddalardan biri bo‘lib, u asosan Indigofera Tinctoria L. o‘simligidan olinadi. Indigo bo‘yog‘ining yuqori fotostabilligi, yuvishga chidamliligi va chuqur ko‘k rang hosil qilish xususiyatlari mavjudligi aniqlangan [1]. Shu bilan birga, indigo bo‘yog‘ining suvda erimasligi va bo‘yash jarayonidan oldin uni qaytarilgan (leyko-indigo) shaklga o‘tkazish zarurati texnologik jihatdan muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqarishi ta’kidlangan [2]. Ayniqsa, oqsilli tolalar, xususan jun tolali matolarni indigo bilan bo‘yashda tolaning ishqoriy muhitga sezgirligi alohida e’tibor talab qiladi [3]. So‘nggi yillarda to‘qimachilik sanoatida ekologik xavfsiz, inson salomatligiga bezarar va funksional xususiyatlarga ega bo‘lgan bo‘yovchi moddalarga talab ortib bormoqda. Ayniqsa, jun tolali matolarni tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan pardozlash va ularga antibakterial xususiyat berish ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan Indigofera Tinctoria L. o‘simligi alohida ahamiyatga ega. Indigofera Tinctoria L. o‘simligi bilan jun tolali matolarni bo‘yash orqali antibakterial xususiyat berishda tarkibida indikan, indoksil, fenol birikmalar va flavonoidlar mavjud bo‘lib, ushbu moddalar nafaqat rang berish, balki mikroorganizmlar o‘sishini cheklash xususiyatiga ham ega. Jun tolasi tabiatan oqsilli (keratinli) tuzilishga ega bo‘lib, 14 –18 % – namlikni o‘zida yaxshi singib oladi. Bu holat jun matolarda bakteriyalar ko‘payishi uchun qulay muhit yaratadi. Shu sababli jun matolarni bakteriyalardan himoya qilish orqali inson salomatligini

muhofaza qilish, teri kasalliklari va allergiyaning oldini olish; matoning xizmat muddatini uzaytirish – biodegradatsiyani kamaytirish; gigienik va noxush hidlarni kamaytirish, jun mahsulotlari uchun juda muhim omil hisoblanadi. Indigofera Tinctoria L. bilan bo‘yash jarayonida bo‘yoq molekulalarining jun tolasi bilan mustahkam bog‘lanishi natijasida uzoq muddatli ayrim alkaloid birikmalar va tabiiy antioksidlarga qarshi antibakterial ta’sir hosil bo‘ladi. Shuningdek Indigofera Tinctoria L. bilan bo‘yash jarayonida bio-xurushlovchilar, taninli o‘simlik ekstraktlari bilan fermentativ usulni qo‘llanilganda bakteritsid xususiyat yanada oshishi aniqlangan [4]. Bu holat Indigofera Tinctoria L. ning ekologik toza va funksional bo‘yovchi modda sifatidagi ahamiyatini yanada kuchaytiradi. Jun tolasining kimyoviy tabiatiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda uning asosini tashkil etuvchi keratin oqsili [5], amin, karboksil va gidroksil funksional guruhlarining mavjudligi bo‘yash jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan [6]. Jun tolasining makromalekulalarining tuzilishi bo‘yovchi molekulalarning diffuziyasi va fiksatsiyasiga ta’sir qilishi, shuning uchun xurushlovchi moddalardan foydalanish rang barqarorligini oshirishda muhim omil ekanligi ko‘rsatilgan [7]. Xurushlash jarayonida alyuminiy [8], temir [9], rux [10] va mis tuzlari [11] eng an’anaviy xurushlovchilar sifatida keng qo‘llanilib kelingani ta’kidlangan [12]. Shu bilan birga, rux va kumush [13-15] yuqori konsentratsiyada qo‘llanilishi tolaning qattiqlashishi va mexanik xossalarining yomonlashishiga olib kelishi mumkinligi ham qayd etilgan [16]. So‘nggi yillardagi tadqiqotlarda xurushlovchi tuzlarini nanomiqyosli holda qo‘llash bo‘yash jarayoni samaradorligini oshirishning istiqbolli yo‘nalishlardan biri ekanligini ko‘rsatmoqda. Bimetall xurushlovchilardan foydalanib ikki xil metall ionlarining bir vaqtda qo‘llanilishi natijasida rang intensivligi va barqarorligi oshishi, shu bilan birga har bir metallning salbiy ta’sirini kamaytirish mumkin. Alyuminiy – mis, mis – rux va alyuminiy – temir kombinatsiyalari jun tolali matolar uchun nisbatan samarali va xavfsiz usul sifatida baholangan [17]. Shu bilan birga, indigo bo‘yovchi moddasi jun tolali matolarga bimetall xurushlovchilar ishtirokida qo‘llash masalasi etarlicha chuqur o‘rganilmagan. Ayniqsa, konsentratsiya, harorat va vaqt parametrlarining kompleks ta’siri, rang barqarorligi bilan bir qatorda funksional (antibakterial) [18, 19] xossalarning shakllanishi bo‘yicha ma’lumotlar etarlicha emas. Bu esa mazkur tadqiqotni amalga oshirishning ilmiy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi. Tabiiy bo‘yovchi moddalardan, ayniqsa Indigofera Tinctoria L. o‘simligidan olingan bo‘yovchi modda bilan jun tolali matolarni bo‘yash jarayonida xurushlovchilardan foydalanishning muhim texnologik ahamiyati bor. Xurushlovchilar asosan rang fiksatsiyasi va barqarorligini ta’minlash bilan bir qatorda, ularning ayrimlari jun matolarga antibakterial va bakteriostatik xossalar ham beradi.




Uslubiy qism. Tadqiqot ob’ekti sifatida O‘zbekiston hududida joylashgan Farg‘ona viloyati OOO Yodgorlik Aftogaz majmuasida to‘qilgan, qalinligi 1,37 mm, (63:37) jun/ paxta aralash tolalaridan iborat yarim jun matosi tanlab olindi. Jun matosidagi tabiiy yog‘lar, iflosliklar va texnologik qoldiqlarni olib tashlash maqsadida yuvish amalga oshirildi. Bu jarayon yuvuchi modda Sulfanol NP-1 ning 3 g/l konsentratsiyasida, 40–45°C haroratda 30 daqiqa davomida olib borildi. So‘ngra matoni xurushlash jarayoni amalga oshirilgan bo‘lib, bunda bo‘yovchi modda rangining fiksatsiyasini, rang barqarorligini hamda matoning funksionall – antibakterial xossalarini oshirishga xizmat qiladi. Metall ionlari nisbatan past bo‘lib, Cu^{2+} uchun 0,3–0,5 g/l, Fe^{3+} uchun 0,2–0,4 g/l, Al^{3+} uchun 0,5–1,0 g/l, Zn^{2+} uchun 0,3–0,6 g/l va Sn^{2+} uchun 0,1–0,3 g/l atrofida tanlandi. Xurushlash jarayoni pH 4,5–5,5 bo‘lgan kam kislotali muhitda, 60°C haroratda 45 daqiqa davomida olib borildi. Bu bosqichdan keyin mato to‘g‘ridan-to‘g‘ri bo‘yash jarayoniga o‘tkazildi. Jun mato indigo bo‘yoq eritmasiga solinib, 50°C haroratda 20 daqiqa davomida bo‘yaldi. Bu vaqt davomida leyko-indigo molekulalari jun tolasining ichki qatlamlariga diffuziya yo‘li bilan kirib boradi. Bo‘yash tugagach, mato eritmadan olinib, 5 daqiqa 20±5°C xaroratida saqlandi. Bu bosqich oksidlanish bosqichi deb atalib, leyko-indigo havo kislorodi ta’sirida qayta indigo shakliga o‘tib, jun tolasi ichida barqaror ko‘k rang hosil qiladi. Oksidlanish jarayoni xona haroratida 15–30 daqiqa davom ettirildi. Yakuniy bosqichda bo‘yalgan jun mato neytral sovunning

2 g/l konsentratsiyasida 40°C haroratda 15 daqiqa yuvilib, erkin bo‘yoq va metall ionlari qoldiqlaridan tozalandi. So‘ngra mato sovuq suvda chayilib, 40°C dan oshmagan haroratda quritildi. Jun tolalarining rang intensivligi “X-Rire Ci7800” (Koreya) spektrokolorimetr yordamida aniqlandi [20], rang xarakteristikalarni sistemalashtirish uchun rang doira sistemasi va L.a.b. rang modelidan foydalanildi. Rang yorqinligi (L*) bo‘yicha rang tiniqligi (B, kd/m^2) shuningdek, nur qaytarish koeffitsienti (R, %) asosida, Gurevich–Kubelki–Munk funksiyasi orqali namunalarning rang intensivligi (K/S) hisoblangan. O‘rganilayotgan to‘qimachilik materiallari namunalarining moddalar kimyoviy tarkibining sifat tahlili va molekulyar birikmalarning struktura xarakteristikalarini aniqlash IQ-Fure spektrometri “Nicolet iS50” (Thermo Fisher Scientific, CШA) jixozida bajarildi. O‘lchashlar 4000-400 sm^{-1} spektral diapazonda, 0,1 sm^{-1} dan ko‘p bo‘lmagan to‘lqin sonlari absolyut xatoligida amalga oshirildi. Antibakterial samaradorlik to‘qimachilik materiallari uchun mo‘ljallangan ISO 20743:2021 standart protokoliga muvofiq miqdoriy usulda baholandi.

Tajriba natijalari tahlili. Jun tolali mato namunalarini tabiiy bo‘yovchi modda – Indigo (*Indigofera Tinctoria L.*) bo‘yovchi modda bilan bo‘yash jarayonida xurrshlovchilarning turi va ularning konsentratsiyasi jun tolali materiallarda hosil bo‘ladigan rang intensivligi va tusiga ta’sir etadi [21, 22]. Tadqiqotlarda xrushlovchi turining jun mato rang sifat ko‘rsatkichlariga bo‘lgan ta’sirini o‘rganish maqsadida 6 ta yarim jun mato namunasi bir xil sharoitda va bir xil konsentratsiyadagi xurushlovchilar va bir xil konsentratsiyadagi bo‘yovchi modda eritmasida bo‘yaldi. Bimetall kombinatsiya qo‘llanilganda har bir ion minimal samarali miqdorda olindi.

Jadval 1


Jun tolali mato rang ko‘rsatkichlarini bo‘yovchi modda konsentratsiyasi va bimetall nanoxurushlovchi turiga bog‘liqligi.

Bimetall xurushlovchi turlari	Bo‘yalgan mato ko‘rinishi	a* (Qizil-Yashil)	b* (Sariq-Ko‘k)	L* (Rang yorqinligi)	C* (Rangning to‘yinganligi)
Al^{3+} / Cu^{2+}		22.21	21.18	66.06	30.69
Al^{3+} / Fe^{3+}		12.27	21.20	59.03	30.63
Al^{3+} / Sn^{2+}		25.90	19.08	68.13	22.78
Zn^{2+} / Al^{3+}		10.06	15.98	64.11	18.89
Cu^{2+} / Zn^{2+}		12.78	22.48	62.81	21.86
Cu^{2+} / Fe^{3+}		11.27	20.20	57.13	23.13


Indigofera Tinctoria L. bargining kukuni sovuq suvda yaxshilab aralashtirilib, kerakli miqdordagi suv bilan hisob bo‘yicha olingan hajmga keltirildi va 6 ta bo‘yash eritmasiga turli xurushlovchilar solinib bo‘yash jarayoni amalga oshirildi. *Indigofera Tinctoria L.* bilan bo‘yalgan jun tolali mato rang xarakteristikalari D_{65} standart nurlanishda laboratoriya kolorimetrida aniqlandi. CiE Lab rang maydon modeli rang sifatlarini 360 nm to‘lqin uzunlikda aniqlandi, olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

Keltirilgan natijalar turli xrushlovchi sifatida Cu^{2+}/Al^{3+} va Cu^{2+}/Zn^{2+} kombinatsiyalari jun matolarda rang to‘yinganligini va bir tekis tarqalishini ta’minlashi bilan birga, antibakterial xossani ham oshiradi. Fe^{3+} ishtirokidagi kombinatsiyalar esa rangni to‘qlashtirishi va jigarrang-yashilsimon tus hosil qilishi kuzatildi. Al^{3+} / Cu^{2+} – och ko‘k, osmonrang, Cu^{2+} / Zn^{2+} – yorqin ko‘k, binafsha rang, Zn^{2+} / Al^{3+} – tiniq ko‘k yorqin ranglarni hosil bo‘lishini ko‘rstmoqda. Al^{3+} / Sn^{2+} – qo‘llanilganda och ko‘k-binafsha, yaltiroq ko‘k ranglar hosil bo‘lganligi aniqlandi. Al^{3+} tuzlari jun tolasiga nisbatan yumshoq ta’sir ko‘rsatib, rangning bir tekis taqsimlanishini ta’minlasa, Fe^{3+} tuzlari rangni to‘qlashtirishi bilan xarakterlandi. Zn^{2+} rangni ochiq va tozaligini ta’minlasa, Sn^{2+} rang ravshanligini oshirishga xizmat qildi [23]. Shuningdek Cu^{2+}, Zn^{2+} va Sn^{2+} tuzlari rang to‘yinganligini oshirish bilan birga, antibakterial xossalarga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Mis ionlari (Cu^{2+}) jun tolasi bilan samarali kompleks hosil qilib, antibakterial ta’sir ko‘rsatadi [24]. Shu sababli kelgusi tajriba ishlari uchun *Indigofera Tinctoria L.* va bimetall Cu^{2+} / Zn^{2+} xurushlovchilari bilan ishlov berilgan guruhdan o‘lchami 5 × 5 sm bo‘lgan sinov namunalari aseptik sharoitda kesib olindi va sterillangan petri idishlariga joylashtirildi. Petri idishida C_0 va C_{24} mos ravishda 0 soat va 24 soat davomida ishlovdan so‘ng tiklangan bakteriyalar soni aniqlandi. (2-rasm.) Adabiyot manbalarida keltirilgan ma’lumotlarga Wang va hammualliflar tomonidan bajarilgan ilmiy ishlarga mos ravishda [25]. Cu^{2+} / Zn^{2+} xrushlovchilarini jun mato bilan bog‘lanishining rentgen difraksion taxlili o‘tkazildi. Rentgen difraksiya usuli noma’lum kristall materiallar tuzilishini tahlil qilishda keng qo‘llaniladigan tadqiqot usuli hisoblanadi.


Cu^{2+} / Zn^{2+} saqlovchi zarrachalarning rentgen fazaviy tahlili nafaqat ularning fazalar sonining ko‘pligi bilan, balki tadqiqotlarda qo‘llanilgan to‘qimachilik materiallari tayyorlangan tolalarning yuqori kristallik darajasi [26-29], shuningdek, ularning kelib chiqish manbalarining xilma-xilligi bilan ajralib turdi. Shu sababli, rentgen difraksiya tahlillari faqat Cu^{2+} / Zn^{2+} bilan ishlov berilgan jun mato namunalarida xrushlovchilarni saqlovchi zarrachalar uchun amalga oshirildi rasm-1. Cu^{2+} / Zn^{2+} saqlovchi bimetal xrushlovchi zarrachalarning rentgen difraksiya ma’lumotlari kukunli difraksiya standartlari bo‘yicha hamda adabiyot manbalarida keltirilgan ma’lumotlardan [30-32] foydalanildi.



a b



c



d

Rasm-1. Cu^{2+} / Zn^{2+} xrushlovchilari bilan ishlov berilgan namunalarning rentgen-difraksion piklari

Difraksion piklarni identifikatsiya qilish natijasida namuna tarkibida asosan tenorit CuO – 6877 va mis ionlarining Cu^{2+}– 8922 fazalari mavjud ekani aniqlandi. Zn^{2+} ionlarining kiritilishi kristall panjarada qisman izomorfik almashinishni yuzaga keltirib, difraksion piklarning joylashuvi sink oksidi ZnO – 2132 va ikki valentli musbat zaryadli rux metall ionlarining Zn^{2+} – 2168 intensivligida sezilarli cho‘qqi o‘zgarishlari kuzatilishiga olib keldi, bu esa zarrachalarning kristall tuzilishi va fazaviy barqarorligiga ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi. Solishtirma tahlil natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2- jadval

Rentgen difraksiya tahlil natijalarini rentgen faza analizi – (XRD — X-ray Diffraction) ma’lumotlari bilan taqqoslash

2θ Daraja	Ishlov berilgan namunalar	Intervallar orasidagi masofalar (d) , A	
		Difraksion cho‘qqilar	XRD — X-ray Diffraction ma’lumotlar cho‘qqilari
32.52	CuO	6.877	6.868
35.50	Cu^{2+}	8.922	8.929
31.72	ZnO	2.132	2.131
36.29	Zn^{2+}	2.168	2.171

1-rasmning *a* qismida ko‘rsatilgan namunada bimetall metalionlarining rentgen difraksiya namunasidan ko‘rinib turibdiki, spektrda asosan 2θ = 35.50° va 36.29° da joylashgan ikkita aniq cho‘qqi ustunlik qiladi. Ushbu cho‘qqilar tenorit tuzilishga ega bo‘lgan CuO fazasiga XRD: 45–0937 tegishli, ZnO fazasiga XRD: 36–1451 tegishli Shu bilan birga, 2θ = 32.52° da joylashgan, juda past intensivlikka ega bo‘lgan CuO (II) oksidi — tenorit CuO fazasining XRD: 45–0937 cho‘qqisi kuzatildi. Bu cho‘qqilar sink geksagonal ZnO fazasida 2θ = 31,72° da joylashgan, juda past intensivlikka ega bo‘lgan ikki valentli musbat zaryadli rux metall ionlarining XRD: 36–1451 cho‘qqisi aniqlandi. Shu bilan birga, *b* va *d* tarkibli eritmalar yordamida olingan zarrachalarda kuprit va sink oksidi fazalarining miqdori yuqoriligi kuzatildi. Ushbu zarrachalarning rentgen difraksiya spektrlarida kuzatilgan ikkita siljish cho‘qqilaridan eng yuqori intensivlikka ega bo‘lgan bittasi 2θ = 32.52° ga nisbatan 35.50° da, ular tenorit tuzilishga ega Cu^{2+} fazasiga mansubdir. Shuningdek, 2θ = 31,72° ga nisbatan 36,29° da joylashgan siljish cho‘qqisining eng yuqori intensivlikka ega bo‘lgan bittasi Zn^{2+} ga tegishli ekani aniqlandi. Xulosa qilib aytganda, rentgen difraksiya tahlili natijalari *b* va *d* namunalarda xrushlovchi zarrachalari fazasining ustunlik qilishini, *a* va *s* tarkibli namunalardagi kuprit va sink oksidi fazasini asosiy o‘rnini egallashini ko‘rsatdi. *Indigofera Tinctoria L.* bo‘yovchi moddasi tarkibidagi –OH va –NH funksional guruhlar jun tolasining keratin tuzilmasi bilan o‘zaro ta’sirga kirishib, metall ionlarining tola ichida barqaror taqsimlanishiga sharoit yaratdi. Natijada, Cu^{2+} zarrachalarining kristall panjara parametrlarida lokal deformatsiya yuzaga kelib, difraksion piklarning joylashuvi va intensivligida

o‘zgarishlar kuzatildi. ZnO geksagonal fazasiga xos bo‘lgan difraksion cho‘qqilarning XRD № 36–1451 mavjudligi Zn^{2+} ionlarining mustaqil oksid faza hosil qilib, indigo–xrushlovchi–jun tizimida ionlarni o‘zaro almashinishi orqali tasdiqlanadi. Bu esa bo‘yalgan jun matolarning funksional xossalari, jumladan antibakterial samaradorligi va rang barqarorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda jun tolalarni tabiiy bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yash jarayonida mavjud bo‘lgan asosiy ilmiy muammo – an’anaviy xurushlash so‘ngra bo‘yash usullarida past samaradorlik, ekologik xavf va rang mustahkamligining etarli darajada emasligi aniqlandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sifatida jun tolalarni metall ionlari yordamida funksionallashtirib, ularni Indigo bilan bo‘yash orqali barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz texnologiya ishlab chiqish lozimligi belgilandi. Bo‘yalgan namunalar spektrofotometrik tahlil orqali rang intensivligi bo‘yicha, baholandi. Metall ionlari ishtirokida bo‘yalgan jun matolar an’anaviy usullarga nisbatan yuqori rang barqarorligi va funksional xossalarga ega ekanligi aniqlandi. Olingan natijalar Indigofera Tinctoria L. o‘simligi va Cu^{2+} / Zn^{2+} metall ionlari ishtirokida bo‘yalgan jun matolari ikki bakteriya Staphylococcus aureus ATCC 25923 shtampiga qarshi barqaror ravishda yuqori samaradorlik namoyon etganini ko‘rsatdi. Bakteritsid xossalarga ega bo‘lgan ushbu matolarni smart matolar ishlab chiqarishda qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblanadi. Jumladan, maxsus ish kiyimlari jumladan, ko‘ylaklar tayyorlashda, shuningdek, himoya shlemlari ichida qo‘llaniladigan astarlik material sifatida ishlab chiqarishga tavsiya etiladi. Bundan tashqari, ushbu materiallar terida yuzaga keladigan shilingan yaralarda infeksiya rivojlanishining oldini olish maqsadida, ayniqsa Staphylococcus aureus kabi bakteriyalar ta’sirini cheklash uchun tibbiy bog‘lamalar ishlab chiqarishda qo‘llash ham maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vigneshwaran, N., Kumar, S., Kathe, A.A., Varadarajan, P.V. and Prasad, V. (2006) Functional Finishing of Cotton Fabrics Using Zinc Oxide-Soluble Starch Nanocomposites. Nanotechnology, 17, 5087-5095. http://dx.doi.org/10.1088/0957-4484/17/20/008
2. S. Rafiei, Enhanced Antibacterial and Sustainable Wool Textiles Using Plant-Derived Indigo Dyes and Silver Nanoparticles // Progress in Color Colorants Coating., 17 Nov. 2025, 207-230
3. Cooksey CJ. The worldwide history of indigo dye and its uses in textiles. Chem Soc Rev. 2021; 50(12):6791-813 https://doi.org/10.1039/D1CS00 247 A.
4. Nagia F Ali, Eman M El-Khatib and Fatma A Bassyouni // Improving the dyeability and the anti microbial activity of wool fabrics pretreated with natural products and dyed with turmeric natural dye using nanochitosan // Tianjin Daxue Xuebao (Ziran Kexue yu Gongcheng Jishu Ban)/ Journal of Tianjin University Science and Technology ISSN (Online): 0493-2137 E-Publication: Online Open Access Vol:54 Issue:12:2021 DOI 10.17605/OSF.IO/T7UWE
5. Wang, A.,Liu, F.,Xia, L.,Zhang, C.,Zhou, S.,Fu, Z.,Wang, Y.,Xu, W. Solvent assisted dyeing of wool fibers with reactive dyes in a ternary solvent system for protecting fibers against damage //Journal of Industrial and Engineering Chemistry. Volume 103, 25 2021, Pages 329-339.
6. Safapour S., Sadeghi-Kiakhani M.. Chitosan-cyanuric chloride hybrid as an efficient novel bio-mordant for improvement of cochineal natural dye absorption on wool yarns / Volume 10, Issue 1, 2 January 2019, Pages 81-88
7. F.Eser, M.Tutak, A.Onal, B.Meral. Dyeing of wool and cotton fabrics with leaves of apple (Malus domestica) tree // J. Natur. Fibers [[Электронный ресурс]]. - 2016. - 13, № 3. - С. 289-298.
8. Amirova N.S. Possibility of silk coloring by natural dyes // Vienna «European Science review», 2016 г., No 9. – Volume. 173-176.

9. Belukhina, O.; Milasiene, D.; Ivanauskas, R. Investigation of the Possibilities of Wool Fiber Surface Modification with Copper Selenide. Materials 2021, 14, 1648.
10. Vigneshwaran N, Kumar S, Kathe AA, Varadarajan PV, Prasad V. Functional finishing of cotton fabrics using zinc oxide-soluble starch nanocomposites. Nanotechnology. 2007;17(20):5087-95 https://doi.org/ 10. 1088/0957-4484/17/20/008.
11. Restori, R.; Schwarzenbach, D. Charge Density in Cuprite, Cu_2O. Acta Crystallogr. Sect. B Struct. Sci. 1986, 42, 201–208.
12. Nabiyeva I.A, Islamova Z.Sh., Matkarimova D.B., Abdumajidov A.A. // Properties of wool fiber, and environmental problems and solutions of its finishing // E3S Web of Conferences 538, 04006 (2024) – P. 1-13.
13. Shahidi, S.; Moazzenchi, B. The Influence of Dyeing on the Adsorption of Silver and Copper Particles as Antibacterial Agents on to Cotton Fabrics. J. Nat. Fibers 2018, 16, 677–687.
14. Montazer M, Keshvari H, Ramezani AA. Anti-microbial hospital textiles: a comprehensive review of silver-based treatments and clinical efficacy. J Hosp Infect. 2023;134:78-89. https://doi.org/10.1016/j.jhin. 2023.03.010.
15. Montazer M, Pakdel E. Reducing photoyellowing of wool using nano silver. Photochem Photobiol. 2010; 86(2):255-260. https://doi.org/10.1111/j.1751-1097.2009. 00672.x.
16. Ibrahim NA, Amr A, Eid BM, Abdel-Aziz MS, Elmaaty TA. Functionalization of linen/cotton blend fabrics using synthesized silver nanoparticles for antimicrobial applications. Text Res J. 2016;86(18):1930-41. https://doi.org/10.1177/00405 175 15622152.
17. Chen M, Liu X, Fang D, Zhou S, Kumar V, Singh R, Thompson KL. Synergistic antibacterial effects of plant dye-silver nanostructures: a comprehensive study of natural indigo systems. Carbohydr Polym. 2023; 312:120803. https://doi.org/10.1016/j.carbpol. 2022.120803
18. Marambio-Jones C, Hoek EMV. A review of the antibacterial effects of silver nanomaterials and potential implications for human health and the environment. J Nanopart Res. 2010;12(5):1531-51 https://doi.org/10.1007/s11051-010-9900-y.
19. Roe D, Karandikar B, Bonn-Savage N, Gibbins B, Rittschof D. Toward a silver bullet: the development of a controlled-release silver-ion antimicrobial. Antimicrob Agents Chemother. 2008;52(11):4058-60. https://doi.org/10.1128/AAC.00632-08.
20. Instructions for use.Compyuter color matching system operation and maintennce manual. Korea industrial technology ODA. 2012. P.79.
21. M. Yusuf, M. Shahid, Sh. Ahmad Khan, M. Ibrahim Khan, Sh. Islam, F. Mohammad. Eco-Dyeing of Wool Using Aqueous Extract of the Roots of Indian Madder (*Rubia cordifolia)* as Natural Dye. Journal of Natural Fibers. Volume 10, 2013 - Issue 1. Pages 14-28
22. Nabiyeva I.A, Islamova, Z.Sh, Matkarimova, D.B, Abdumajidov, A.A. Application of biotechnology in the process of mothproof finishing of wool. AIP Conferences Proceedings (2025). 3304. 040018.
23. Monier, M.; Ayad, D.M.; Sarhan, A.A. Adsorption of Cu(II), Hg(II), and Ni(II) Ions by Modified Natural Wool Chelating Fibers. J. Hazard. Mater. 2010, 176, 348–355.
24. Remigijus Ivanauskas, Ingrida Ancutiene, Daiva Milašiene, Algimantas Ivanauskas, Asta Bronušiene // Effect of Reducing Agent on Characteristics and Antibacterial Activity of Copper-Containing Particles in Textile Materials // Materials 2022, 15, 7623. https://doi.org/10.3390/ma15217623
25. Li Y, Wang Y, Zhang W, Gao Y, Liu Y. Silver ion-releasing wound dressings with enhanced antibacterial and anti-biofilm efficacy. J Mater Chem B. 2020; 8(26):5655-66. https://doi.org/10.1039/ D0TB00732A.
26. Sweygers, N.; Depuydt, D.E.C.; Eyley, S.; Thielemans, W.; Mosleh, Y.; Ivens, J.; Dewil, R.; Appels, L.; Van Vuure, A.W. Prediction of the Equilibrium Moisture Content Based on the Chemical Composition and Crystallinity of Natural Fibres. Ind. Crop. Prod. **2022**, 186, 115187.
27. Zhang, L.; Li, X.; Zhang, S.; Gao, Q.; Lu, Q.; Peng, R.; Xu, P.; Shang, H.; Yuan, Y.; Zou, H. Micro-FTIR Combined with Curve Fitting Method to Study Cellulose Crystallinity of

Developing Cotton Fibers. Anal. Bioanal. Chem. **2021**, 413, 1313–1320. 28. Belukhina, O.; Milasiene, D.; Ivanauskas, R. Investigation of the Possibilities ofWool Fiber Surface Modification with Copper Selenide. Materials **2021**, 14, 1648.
29. Gubała, D.; Harniman, R.; Eloi, J.C.; Wa˛sik, P.; Wermeille, D.; Sun, L.; Robles, E.; Chen, M.; Briscoe, W.H. Multiscale Characterisation of Single Synthetic Fibres: Surface Morphology and Nanomechanical Properties. J. Colloid Interface Sci. **2020**, 571, 398–411.
30. Belukhina, O.; Milasiene, D.; Ivanauskas, R. Investigation of the Possibilities ofWool Fiber Surface Modification with Copper Selenide. Materials **2021**, 14, 1648.
31. Gubała, D.; Harniman, R.; Eloi, J.C.; Wa˛sik, P.; Wermeille, D.; Sun, L.; Robles, E.; Chen, M.; Briscoe, W.H. Multiscale Characterisation of Single Synthetic Fibres: Surface Morphology and Nanomechanical Properties. J. Colloid Interface Sci. Waseda, Y.;
32. 32. Matsubara, E.; Shinoda, K. X-ray Diffraction Crystallography; Springer: Berlin/Heidelberg, Germany, 2011.

UDK 676.03:677.21.08.001

RANGLI TOLALI CHIQINDILARNI OKSIDLOVCHI VA QAYTARUVCHI REAGENTLAR YORDAMIDA RANGSIZLANTIRISH-OQARTIRISH JARAYONLARI

I.A.Nabiyeva[1], A.A.Abdumajidov[1], B.J.Xolturayev[2], A.A.Sarimsaqov[2], Sh.A.Yo‘ldashov[2], B.S.Karabayeva[2], S.R.Raxmonova[2], M.Mirxolisov[2], Z.I.Tashiyeva[2]

[1]Tashkent Institute of Textile and Light Industry

[2]Institute of Polymer Chemistry and Physics, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Annotatsiya. *Ushbu maqolada to‘q rangli aktiv bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yalgan paxta mato chiqindilarini ikkilamchi tolali xomashyoga aylantirish uchun natriy gipoxlorit (NaClO) va natriy gidrosulfit ($NaHSO_3$) asosidagi rangsizlantirish-oqartirish jarayonlari o‘rganildi. Reagent konsentratsiyasi va ishlov haroratining material oqligi hamda sellyulozaning polimerlanish darajasiga ta’siri baholandi. Oqlik darajasi spektrofotometrik, polimerlanish darajasi viskozimetrik, kimyoviy va strukturaviy o‘zgarishlar esa IQ-spektroskopik usullarda aniqlandi. NaClO bilan ishlov berilgan namunada oqlik darajasi 71% ga yetgan bo‘lsada, polimerlanish darajasi 850 gacha kamaydi. $NaHSO_3$ asosidagi ishlovda mazkur ko‘rsatkichlar mos ravishda 63% va 1360 ni tashkil etdi. Oksidlovchi ishlovda oqlikning 8 foiz punktga yuqori bo‘lishi qaytaruvchi ishlovga nisbatan polimerlanish darajasining 37,5% ga past bo‘lishi bilan bordi. Qaytarilgan bo‘yovchi moddalarning tolaga qayta sorblanishini cheklash uchun ikkinchi suyultirilgan qaytaruvchi ishlov qo‘llanildi. Eritmaning suyultirish darajasiga qarab oqligi 68-75% va polimerlanish darajasi 970-1130 oralig‘idagi xomashyolar olindi. IQ-spektrlar sellyulozaning asosiy kimyoviy strukturasi saqlanganini tasdiqladi. Kristallik indeksi dastlabki namunada 0,84, qaytaruvchi ta’siridagi ishlovdan keyin 0,81 va oksidlovchi ta’siridagi ishlovdan keyin 0,73 qiymatda bo‘lib, qaytaruvchi asosidagi tizim materialning yetarli oqligini ta’minlash bilan birga sellyulozaning polimer tuzilishini oksidlovchi asosidagi tizimga nisbatan samaraliroq saqlashi aniqlandi. Natijalar asosida rangsizlantirish-oqartirish, uch bosqichli yuvish, quritish, quruq maydalash va yanchishdan iborat texnologik ketma-ketlik taklif etildi. Ushbu yondashuv rangli paxta chiqindilarini xossalari talabga ko‘ra boshqariladigan ikkilamchi tolali xomashyoga aylantirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *paxta mato chiqindilari, rangsizlantirish-oqartirish, natriy gipoxlorit, natriy gidrosulfit, oqlik darajasi va polimerlanish darajasi.*

Аннотация. *В статье исследованы процессы обесцвечивания-отбеливания отходов хлопчатобумажных тканей, окрашенных активными красителями в тёмные цвета, с*

применением систем на основе гипохлорита натрия (NaClO) и гидросульфита натрия ($NaHSO_3$) с целью их переработки во вторичное волокнистое сырьё. Оценено влияние концентрации реагентов и температуры обработки на степень белизны материала и степень полимеризации целлюлозы. Степень белизны определяли спектрофотометрическим методом, степень полимеризации - вискозиметрическим методом, а химические и структурные изменения исследовали методом ИК-спектроскопии. После обработки NaClO степень белизны образца достигла 71%, однако степень полимеризации снизилась до 850. При обработке $NaHSO_3$ указанные показатели составили 63% и 1360 соответственно. Повышение степени белизны при окислительной обработке на 8 процентных пунктов сопровождалось снижением степени полимеризации на 37,5% по сравнению с восстановительной обработкой. Для ограничения повторной сорбции восстановленных красителей волокном была проведена повторная обработка разбавленным раствором восстановителя. В зависимости от степени разбавления раствора были получены волокнистые материалы со степенью белизны 68-75% и степенью полимеризации 970-1130. ИК-спектроскопический анализ подтвердил сохранение основной химической структуры целлюлозы. Индекс кристалличности исходного образца составил 0,84, после восстановительной обработки - 0,81, а после окислительной обработки - 0,73. Установлено, что восстановительная система наряду с обеспечением достаточной белизны материала способствует более эффективному сохранению полимерной структуры целлюлозы по сравнению с окислительной системой. На основании полученных результатов предложена технологическая последовательность, включающая обесцвечивание-отбеливание, трёхступенчатую промывку, сушку, сухое измельчение и размол. Предложенный подход позволяет перерабатывать окрашенные хлопчатобумажные отходы во вторичное волокнистое сырьё с регулируемыми свойствами.

Ключевые слова: *отходы хлопчатобумажных тканей, обесцвечивание-отбеливание, гипохлорит натрия, гидросульфит натрия, степень белизны и степень полимеризации.*

Abstract. *This study investigates the decolorization and bleaching of dark-colored cotton fabric waste dyed with reactive dyes using sodium hypochlorite (NaClO) and sodium bisulfite ($NaHSO_3$) based systems for its conversion into secondary fibrous raw material. The effects of reagent concentration and treatment temperature on material whiteness and the degree of polymerization of cellulose were evaluated. Whiteness was determined spectrophotometrically, the degree of polymerization was measured by the viscometric method, and chemical and structural changes were examined using Fourier-transform infrared spectroscopy. The whiteness of the NaClO-treated sample reached 71%. however, its degree of polymerization decreased to 850. For the $NaHSO_3$-treated sample, the corresponding values were 63% and 1360, respectively. The 8-percentage-point increase in whiteness achieved by oxidative treatment was accompanied by a 37.5% lower degree of polymerization than that obtained through reductive treatment. To limit the re-adsorption of reduced dye compounds onto the fibers, a second treatment with a diluted reducing solution was applied. Depending on the dilution ratio, fibrous materials with whiteness values of 68-75% and degrees of polymerization ranging from 970 to 1130 were obtained. FTIR analysis confirmed that the main chemical structure of cellulose was preserved. The crystallinity index was 0.84 for the untreated sample, 0.81 after reductive treatment, and 0.73 after oxidative treatment. The reductive system provided adequate material whiteness while preserving the polymeric structure of cellulose more effectively than the oxidative system. Based on the results, a technological sequence comprising decolorization and bleaching, three-stage washing, drying, dry grinding, and milling was proposed. This approach enables the conversion of colored cotton waste into secondary fibrous raw material with controllable properties.*

Keywords: *cotton fabric waste, decolorization and bleaching, sodium hypochlorite, sodium bisulfite, whiteness and degree of polymerization.*

Kirish. So‘nggi yillarda jahon aholisi sonining ko‘payishi va buning natijasida iste’mol hajmining kengayishi to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sur’atlarini oshirib, chiqindilar miqdorining keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Olimlarning [1] hisob-kitoblarga ko‘ra, dunyoda bir yil davomida 184 mlrd funtdan ortiq, ya’ni qariyb 83,5 mln tonna to‘qimachilik chiqindisi hosil bo‘ladi. Shuningdek, har yili taxminan 400 mlrd AQSh dollari qiymatidagi kiyim-kechak mahsulotlari foydalanish siklidan chiqarilib, iqtisodiy resurs sifatida yo‘qotiladi [2]. To‘qimachilik chiqindilarining maishiy chiqindilar tarkibidagi ulushi hududlarga qarab sezilarli darajada farqlanib, mazkur ko‘rsatkich Yangi Zelandiyada 7%, AQShda 4,95%, Pekinda 1,3% va Butanda charm mahsulotlarini ham qo‘shib hisoblaganda 4,7% ni tashkil etgan [3]. AQShda esa 2007-yilning o‘zida 11,9 mln tonna to‘qimachilik chiqindisi hosil bo‘lgan va bu maishiy chiqindilar umumiy massasining 4,7% iga teng hisoblanadi. Shunga qaramay, to‘qimachilik sanoati tolali chiqindilarining atigi 15,9% i qayta tiklanib, qolgan qismi esa: 54% chiqindi poligonlariga yuborilgan, 13% yoqilgan, 33% samoatning turli maqsadlarida qayta ishlatilgan [4].

To‘qimachilik chiqindilarini poligonlarda saqlash tuproq va suv resurslarining ifloslanishiga olib keladi, ularni yoqish natijasida esa atmosferaga issiqxona gazlari (karbonat angidrid (CO_2), metan (CH_4), azot(I) oksidi (N_2O) va ftorlangan gazlar) va boshqa zararli moddalar ajraladi [5]. Shu bois foydalanishdan chiqqan to‘qimachilik mahsulotlarini oddiy chiqindi sifatida yo‘q qilish o‘rniga, ularni ikkilamchi xomashyo yoki qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar olish uchun qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv tabiiy resurslar sarfini va atrof-muhitga tushadigan yuklamani kamaytirish bilan birga sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtiradi [6]. Iste’moldan keyingi to‘qimachilik chiqindilariga asosan, foydalanish muddati tugagan kiyim-kechaklar va uy-ro‘zg‘or buyumlari kiradi. Ularni qayta ishlash imkoniyati yuqori bo‘lsada, ushbu jarayonda ularning tarkibidagi turli xil tolalar, pardozlashda ishlatilgan bo‘yoqlar va yordamchi moddalarning bitta mahsulot tarkibida birgalikda uchrashi, chiqindilarni saralash hamda alohida yig‘ish jarayonlarini tashkil etishni, hamda qayta ishlash jarayonlarida turli xil texnologiyalarni qo‘llashni talab etadi. Hozirgi vaqtda paxta asosidagi to‘qimachilik chiqindilarini qayta ishlashda mexanik, kimyoviy va biologik usullardan foydalaniladi. Mexanik qayta ishlash jarayonida materialning kimyoviy tarkibi o‘zgartirilmasdan, chiqindi matolar titish orqali alohida tolalarga ajratiladi. Olingan tolalar sof holda yoki birlamchi tolalar bilan aralashtirilib, ip, mato, noto‘qima va kompozitsion materiallar ishlab chiqarishda qo‘llaniladi [7]. Mazkur usul oq yoki och rangli chiqindilar uchun nisbatan samarali hisoblanib, bunday tolalarni turli sohalarda xomashyo sifatida qo‘llash yoki turli ranglarga qayta bo‘yash imkoniyati mavjud. To‘q rangli chiqindilarda esa dastlabki rang saqlanib qolishi, turli rangdagi tolalar aralashganda bir xil bo‘lmagan tus hosil bo‘lishi va ulardan ishlab chiqariladigan mahsulotlar assortimenti cheklanganligi sababli mexanik qayta ishlash imkoniyati kamayadi. Shu bois to‘q rangli paxta chiqindilarini tolalashdan oldin rangsizlantirish va oqartirish ularning keyingi qo‘llanish doirasini kengaytiruvchi muhim tayyorlov bosqich hisoblanadi [8]. Kimyoviy qayta ishlash paxta sellyulozasini eritish, gidrolizlash yoki depolimerlash orqali yangi kimyoviy mahsulotlar olish imkonini beradi. Paxta tarkibida sellyuloza miqdorining 95% gacha yetishi uni kimyoviy qayta ishlash uchun qimmatli ikkilamchi xomashyoga aylantiradi [9]. Biroq chiqindi materialdan qayta tiklangan tola sifatida foydalanish ko‘zda tutilganda, sellyulozani to‘liq eritish yoki depolimerlash emas, balki uning tolali tuzilishini saqlagan holda bo‘yovchi modda xromoforlarini parchalash muhim hisoblanadi. Shuning uchun rangsizlantirish-oqartirish jarayonida rang intensivligini kamaytirish bilan bir qatorda, sellyulozaning polimerlanish darajasi, tola mustahkamligi va keyingi mexanik tolalanish xususiyatlarini imkon qadar saqlab qolish talab etiladi. Kimyoviy reagentlar konsentratsiyasi, jarayon harorati, davomiyligi va muhit pH qiymatining me’yordan ortishi bo‘yovchi moddalar bilan birga sellyulozaning ham destruksiyalanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli kimyoviy rangsizlantirish jarayonining samaradorligi faqat oqlik darajasi bilan emas, balki ishlovdan keyingi tolaning fizik-mexanik xossalari bilan birgalikda baholanishi lozim. Biologik va biokimyoviy qayta ishlash jarayonida mikroorganizmlar yoki fermentlardan

foydalanib, paxta chiqindilaridagi bo‘yovchi moddalar va yordamchi kimyoviy birikmalarni parchalash tushuniladi [10,11]. Fermentativ ishlovlar odatda yumshoq harorat va pH sharoitlarida amalga oshirilgani sababli sellyulozaning chuqur destruksiyalanishini kamaytirishi hamda kimyoviy reagentlar sarfini qisqartirishi mumkin. Biroq aktiv bo‘yovchi moddalar bilan to‘q rangga bo‘yalgan paxta materiallarida bo‘yoq va sellyuloza o‘rtasida mustahkam kovalent bog‘ mavjudligi biologik rangsizlantirish samaradorligini cheklaydi. Bundan tashqari, fermentlarning bo‘yoq tuzilishiga nisbatan selektivligi, jarayonning uzoq davom etishi va sanoat miqyosida barqaror natija olishdagi qiyinchiliklar ushbu usulning sanoatda mustaqil qo‘llanilishiga to‘sqinlik qiladi. Qolaversa, ferment preparatlarini ishlab chiqarish, ajratib olish va tozalash jarayonlarining murakkabligi ularning tannarxini oshiradi, ularning fermentativ faolligini saqlab qolish uchun esa past harorat sharoitida saqlash talab etilishi, logistika hamda saqlash xarajatlarining yanada ortishiga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, to‘qimachilik chiqindilarini samarali boshqarish va qayta ishlashga to‘sqinlik qiluvchi qator muammolar mavjud bo‘lib, xususan, turli mamlakatlarda chiqindilarni yig‘ish, tasniflash va qayta ishlashga qo‘yiladigan talablarning bir xil emasligi yagona samarali boshqaruv tizimini shakllantirishni qiyinlashtiradi. Bundan tashqari, chiqindilarning tolaviy tarkibi, mato tuzilishi, bo‘yovchi moddalar va pardozlash reagentlarining bir xil emasligi saralash jarayonini murakkablashtiradi hamda olinadigan ikkilamchi xomashyo sifatining o‘zgaruvchan bo‘lishiga olib keladi [12]. To‘q rangli paxta mato chiqindilarini qayta ishlashdagi asosiy muammolardan biri ularning dastlabki rangini yo‘qotish bilan bir vaqtda sellyuloza makromolekulyar tuzilishini saqlab qolishdir. Mazkur muammo, ayniqsa, aktiv bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yalgan materiallarda murakkab kechadi, ya’ni aktiv bo‘yovchi modda ta’sirida bo‘yash jarayonida bo‘yovchi modda sellyuloza bilan kovalent bog‘ hosil qilganligi sababli, uni issiq suvda yuvish yoki yuzaki kimyoviy ishlov orqali to‘liq chiqarib yuborish qiyin. Shu sababli rangsizlantirish jarayonida bo‘yovchi moddaning rang hosil qiluvchi xromofor tizimini parchalash yoki optik faolligi past holatga o‘tkazish talab etiladi. Biroq qo‘llaniladigan kimyoviy reagent bo‘yovchi moddaga ta’sir qilish bilan birga sellyuloza makromolekulalarining destruksiyalanishiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Bigambo va boshqalar aktiv bo‘yalgan paxta materiallariga kislotali muhitda natriy ditionit va vodorod peroksid bilan ishlov berish natijasi reagentning kimyoviy tabiatidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatishgan [13].

Oksidlovchi ta’sirida rangsizlantirish jarayonida vodorod peroksid bo‘yovchi modda tarkibidagi xromofor guruhlarni oksidlab, rang intensivligini kamaytiradi va materialning oqlik darajasini oshiradi. Biroq reagent konsentratsiyasi, jarayon harorati, davomiyligi va muhit pH qiymatining ortishi oksidlanish jarayonining selektivligini pasaytirishi mumkin. Bunday sharoitda faol oksidlovchi zarrachalar bo‘yovchi modda bilan cheklanmasdan, sellyulozaning glyukozid bog‘lari va gidroksil guruhlariga ham ta’sir qiladi va natijada sellyuloza zanjirlari qisqarib, uning polimerlanish darajasi pasayadi. Qaytaruvchi ta’sirida rangsizlantirishda kimyoviy reagent bo‘yovchi modda xromoforini qaytarilgan, optik yutilishi past shaklga o‘tkazadi. Mazkur reagent odatda sellyulozaga oksidlovchi moddalarga nisbatan yumshoqroq ta’sir ko‘rsatadi va uning polimerlanish darajasini yaxshiroq saqlash imkonini beradi. Biroq xromoforning qaytarilgan shakli matodan to‘liq chiqarilmasa, havo kislorodi ta’sirida qayta oksidlanib, dastlabki rangning qisman tiklanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, rangsizlanish darajasining yuqori bo‘lishi materialning yuqori va barqaror oqlikka ega bo‘lishini anglatmaydi. Rangsizlantirish samaradorligiga reagent turidan tashqari bo‘yovchi moddaning kimyoviy tuzilishi ham ta’sir qiladi. Olimlar turli xromofor va aktiv guruhlarga ega bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yalgan paxta materiallarini o‘rganib, qaytaruvchi reagent asosan xromofor tizimni qaytarishini, o‘yuvchi ishqor esa bo‘yovchi modda bilan sellyuloza o‘rtasidagi kovalent bog‘larning gidrolizlanishiga yordam berishini aniqlagan [14]. Shuning uchun bir xil kimyoviy ishlov turli aktiv bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yalgan paxta materiallarida oqlik va sellyuloza destruksiyasi bo‘yicha turlicha natija berishi mumkin. Adabiyotlarda keltirilgan natijalar rangsizlantirish jarayonida material oqligining oshishi va sellyuloza polimerlanish darajasining saqlanishi o‘rtasidagi nisbat reagentning kimyoviy tabiatiga, bo‘yovchi modda tuzilishiga hamda ishlov parametrlariga bog‘liqligini ko‘rsatadi [15]. Shu sababli muayyan material uchun tavsiya etilgan rangsizlantirish rejimini

boshqa rang intensivligi va bo‘yovchi modda tarkibiga ega paxta chiqindilariga bevosita tatbiq etish har doim ham bir xil natijani ta’minlamaydi. Shundan kelib chiqib, tadqiqot obyekti sifatida tanlangan to‘q rangli reaktiv bo‘yalgan paxta mato chiqindisi uchun oksidlovchi va qaytaruvchi ishlovlarning oqlik darajasi hamda sellyuloza polimerlanish darajasiga ta’sirini alohida baholash zarur.

Ushbu tadqiqotning maqsadi to‘q rangli aktiv bo‘yovchi modda bilan bo‘yalgan paxta mato chiqindilariga natriy gipoxlorit (NaClO) asosidagi oksidlovchi va natriy ditionit ($Na_2S_2O_4$) asosidagi qaytaruvchi tizimlarda ishlov berib, ularning rangsizlantirish-oqartirish samaradorligini oqlik darajasi va sellyulozaning polimerlanish darajasi asosida qiyosiy baholashdan iborat. Tadqiqot natijalari asosida material oqligining oshishini ta’minlash bilan birga sellyuloza depolimerlanishini imkon qadar cheklaydigan maqbul ishlov turini aniqlash ko‘zda tutilgan.

Uslubiy qism. Qaytaruvchi ta’sirida rangsizlantirish-oqartirish jarayoni.

Suyuqlik moduli 1:20 bo‘lgan ishqoriy (pH=9) ishchi eritma tayyorlanib, unga natriy gidrosulfit ($NaHSO_3$) qo‘shildi. Paxta asosidagi sidirg‘a bo‘yalgan tolali chiqindi ishchi eritmaga joylashtirilib, harorat 80-90 °C gacha ko‘tarildi va davriy aralashtirish sharoitida 30-60 daqiqa davomida rangsizlantirish-oqartirish ishlovi berildi. Ishlovdan so‘ng namuna eritmadan ajratilib, 40 ± 2 °C haroratdagi distillangan suvda 10 daqiqa yuvildi. Keyin namuna muhiti sirka kislotasi (CH_3COOH) yordamida pH 6,5-7,0 gacha neytrallandi va distillangan suvda qayta yuvildi. Namuna sentrifugada suvsizlantirilib, 100 ± 2 °C haroratda doimiy massagacha quritildi.

Oksidlovchi ta’sirida rangsizlantirish-oqartirish jarayoni.

Suyuqlik moduli 1:20 bo‘lgan natriy gipoxloritli (NaClO) ishchi eritma tayyorlanib, uning muhiti o‘yuvchi ishqor yordamida pH 10-11 ko‘rsatkichga keltirildi. Paxta asosidagi sidirg‘a bo‘yalgan tolali chiqindi ishchi eritmaga joylashtirilib, 50-60 °C haroratda davriy aralashtirish sharoitida 60-120 daqiqa davomida rangsizlantirish-oqartirish ishlovi olib borildi. Ishlovdan so‘ng namuna eritmadan ajratilib, 40 ± 2 °C haroratdagi distillangan suvda 10 daqiqa yuvildi. Namuna avval tarkibidagi qoldiq faol xlorni antixlorlash uchun natriy tiosulfat eritmasida, so‘ngra sirka kislotasi (CH_3COOH) bilan pH 6,5-7,0 gacha neytrallandi. Namuna distillangan suvda qayta yuvilib, sentrifugada suvsizlantirildi va 100 ± 2 °C haroratda doimiy massagacha quritildi.

Polimerlanish darajasini aniqlash.

Rangsizlantirish-oqartirish jarayonidan oldin va keyin olingan paxta tolali namunalarning polimerlanish darajasi viskozimetrik usulda aniqlandi. Buning uchun quritilgan namuna 0,0002 g aniqlikda tortilib, 30 g mis bilan birgalikda polietilen idishga joylashtirildi. Idish mis-ammiakli eritma bilan to‘ldirilib, 20 ± 0,2 °C haroratda sellyulozaning to‘liq erishi uchun aralashtiruvchi qurilmaga qo‘yildi. Aralashtirish jarayoni 60-90 daqiqa davom ettirildi. Sellyulozaning to‘liq eriganligi yorug‘likda vizual nazorat qilindi. Hosil bo‘lgan sellyuloza eritmasi 20 ± 0,2 °C haroratdagi termostatda 10 daqiqa davomida ushlab turildi. Shundan so‘ng eritma viskozimetrga o‘tkazilib, eritmaning belgilangan chiziqlar orasidan oqib o‘tish vaqti t_1 sekundomer yordamida aniqlandi. Xuddi shu tartibda erituvchining oqib o‘tish vaqti t_0 ham o‘lchandi. Olingan natijalar asosida nisbiy qovushqoqlik quyidagi formula bo‘yicha hisoblandi:

$$\eta_y = \frac{t_1}{t_0} - 1$$

So‘ngra namunalarning polimerlanish darajasi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$P = \frac{2000 \times \eta_y}{c \times (1 + 0{,}29 \times \eta_y)}$$


bu yerda:

c - eritmaning konsentratsiyasi, g/l.

Namunalarning oqlik darajasini aniqlash.

Namunalarning oqlik darajasi “Minolta” (Yaponiya) spektrofotometrida aniqlandi [16]. O‘lchashdan oldin asbob qora va oq etalonlar bo‘yicha kalibrlanadi. Namunalar WHITEN rejimida o‘lchanib, oqlik darajasi to‘rtta standart bo‘yicha son va grafik ko‘rinishda qayd etiladi.

Tajribaviy izlanishlar va natijalar tahlili. To‘qimachilik mahsulotlarini rangsizlantirishda shunga e'tibor berish lozimki, aktiv bo‘yovchi moddalar tola bilan kovalent bog‘lanish orqali birikkanligi sababli rang mustahkamligi yuqori bo‘ladi. Rangning yuvishga mustahkamligi uni oddiy usulda toladan chiqarish imkonini bermaydi. Aktiv bo‘yovchi modda bilan bo‘yalgan rang ishqor va kislota ta'siriga bardoshli ammo oksidlovchi va qaytaruvchilar ta'sirida parchalanishini inobatga olgan holda qora rangdagi mato chiqindilarini natriy gipoxlorit va natriy gidrosulfit yordamida rangsizlantirish imkoniyatlari o‘rganildi. Rangsizlantirilgan mato chiqindilarini qayta ishlov berish jarayonidan so‘ng ishlatilish sohasi bo‘yicha ularning asosiy sifat ko‘rsatkichlari sifatida ishlov berish jarayonidan keyingi oqlik va polimerlanish darajalari qabul qilindi. Olib borilgan tadqiqotlarda natriy gipoxlorit va natriy gidrosulfit konsentratsiyalari, jarayon muhiti, davomiyligi va haroratini qayta ishlov berilgan ikkilamchi xom ashyoning sifat ko‘rsatkichlariga, jumladan oqlik va polimerlanish darajalariga ta'siri o‘rganildi.



a **b**

1-rasm. Oksidlovchi va qaytaruvchi reagentlar konsentratsiyasining tolali chiqindilarni rangsizlantirish-oqartirish samaradorligi va sellyulozaning polimerlanish darajasiga ta’siri: a – oqlik darajasi; b – polimerlanish darajasi; 1 – oksidlovchi - NaClO; 2 – qaytaruvchi - $NaHSO_3$.
Izoh: T = 70 °C, τ = 20 min

Tadqiqotlarda natriy gipoxlorit bilan sellyuloza tolali materiallarga ishlov berish chog‘ida bo‘yovchi moddaning xromofor sistemasi va sellyuloza bo‘lmagan moddalarning oksidlanishi asosiy reaksiya hisoblanadi. Shu bilan birga oksidlovchilar ta'sirida sellyuloza makromolekulasidagi birlamchi va ikkilamchi gidroksillar oksidlanib aldegid, keton va karboksil guruhlar hosil bo‘lishi natijasida sellyulozaning polimerlanish darajasi kamayib turli tarkibdagi mahsulotlar hosil bo‘ladi [17]. Rangli tolali chiqindilarga natriy gipoxlorit bilan ishlov berish jarayonida sellyulozaning polimerlanish darajasi min 700 qiymatga ega bo‘lgan. Natriy gipoxlorit suvda erib quyidagicha dissotsiyalanadi:

$$NaOCl \xrightarrow{H_2O} Na^+ + OCl^-$$


Gipoxlorit ion suvli muhitda gidrolizlanib xlornovatistaya kislota hosil qiladi:

$$OCl^- + H_2O \rightleftharpoons \mathrm{HOCL} + OH^-$$

Bu kislota pH=5-10 bo‘lgan muhitda xlornovatistaya kislota quyidagi sxema bo‘yicha parchalanadi.:

$$HOCL + 2ClO^- \rightarrow 2Cl^- + H^+$$
$$HOCl + ClO^- \rightarrow 2Cl^- \rightarrow O_2 + 2Cl^- + H^-$$

Jarayon davomida ajralib chiqqan kislorod sellyuloza zvenosidagi birlamchi gidroksil guruhlarga ta'sir etib, makromolekulalardagi o‘zaro vodorod bog‘larni uzilishiga olib keladi. Bunda sellyulozaning amorf qismi va reaksion qobiliyati ortadi.



2-rasm. Natriy gipoxlorit bilan rangsizlantirish-oqartirish jarayonida sellyuloza makromolekulalarining oksidlanish va destruksiya mexanizmi

Keltirilgan 1- va 2-rasmlarda natriy gipoxlorit bilan rangsizlantirish jarayoni olib borilganda sellyulozaning polimerlanish darajasining kamaygani jarayon davomida hosil bo‘ladigan gipoxlorit kislotaning parchalanishida hosil bo‘ladigan kislorodning sellyuloza zvenolaridagi ikkilamchi gidroksillarga ham ta’sir etganligi bilan bog‘liqdir, bunda piran halqasining buzilishi hisobiga sellyuloza makromolekulalari orasidagi glyukozid bog‘lar bo‘shashadi va qisman uziladi.

Natriy gipoxloritning ishlov berish eritmasidagi konsentratsiyasining 15 g/l dan ortishi sellyulozaning qog‘oz hosil qilish qobiliyatini yo‘qotadi, ya’ni bunda sellyulozaning polimerlanish darajasi 700 dan kam qiymatga ega bo‘lmoqda. Shuningdek, natriy gipoxloritning ishlov berish eritmasidagi konsentratsiyasi 15 g/l bo‘lganida tolali chiqindilarning oqlik darajasi muvozanatga yetganligini ko‘rishimiz mumkin. Tajriba natijalari tolali chiqindilarning polimerlanish darajasi qaytaruvchi ta’sirida to uning konsentratsiyasi eritmada 7 g/l bo‘lgunga qadar deyarli o‘zgarmaganligini ko‘rsatdi. Konsentratsiyaning ortib borishida sellyulozaning polimerlanish darajasi kamaysada, lekin natriy gipoxlorit bilan ishlov berilgan namunalarnikiga nisbatan qariyb 1,5 marotaba yuqori qiymatga ega bo‘lgan. Ammo qaytaruvchilar bilan qayta ishlov berilgan tolali chiqindilarning oqlik darajasi natriy gipoxlorit bilan ishlov berilganga nisbatan 10% past qiymatga egadir. Olib borilgan tadqiqotlar tolali chiqindilarni rangsizlantirish jarayonida oksidlovchi va qaytaruvchining bo‘yovchi modda xromofor sistemasiga va sellyulozaga turlicha ta’sir etganliklarini ko‘rsatdi. Rangsizlantiruvchi reagentning maqbul variantini aniqlash maqsadida keyingi tadqiqotlarda qayta ishlash jarayoni haroratining olinadigan mahsulotning sifat ko‘rsatkichlariga bo‘lgan ta’siri o‘rganildi.


1-jadval

Tolali chiqindilar oqlik va polimerlanish darajalarining ishlov berish haroratiga bog‘liqligi

Harorat, ^{0}C	Oksidlovchi		Qaytaruvchi	
	Oqlik darajasi, %	Polimerlanish darajasi	Oqlik darajasi, %	Polimerlanish darajasi
50	63	930	54	1530
60	68	900	57	1500
70	71	850	60	1450
80	72	790	63	1360
90	72	770	65	1270


To‘qimachilik tolalarining rangli chiqindilarini rangsizlantirish jarayonini oksidlovchi ishtirokida olib borganda 70ºC, qaytaruvchilar bilan esa 80ºC haroratda olib borilganda qiyqimarning oqlik darajasi 71-63% ni tashkil etmoqda. Ishqoriy muhitda yuqori haroratda

bo‘yovchi modda xromofor sistemasining buzilishi, shuningdek azoguruhlarning toki aminokislotagacha parchalanishi hisobiga bo‘yovchi modda toladan chiqariladi. Rangli tolali materialga qaytaruvchi bilan ishlov berilganda bo‘yovchi moddaning parchalanishi asosan azo guruh hisobiga boradi, bunda qaytaruvchilar ta'sirida bo‘yovchi modda xromofor sistemasida azoguruhlar parchalanadi va kichik fraksiyalar rangsiz birikmalarga aylanadi. Azoguruhning destruksiyasi bo‘yicha bo‘yovchi moddaning parchalanishida har doim xam kichik fraksiyalar toladan yuvilib chiqib ketmaydi (olovrang monoazo bo‘yovchi modda).



3-rasm. Qaytaruvchi ta’sirida azo bo‘yovchi modda xromofor tizimidagi azo bog‘ining uzilish sxemasi

Ma'lumki oksidlovchilar dastlab sellyuloza tolasining yuzasida joylashgan funksional guruhlarga ta'sir etadi, so‘ng asta sekin tola ichiga kirib boradi. Oksidlovchi ta'sirida bo‘yovchi modda xromofor sistemasida uglerod-uglerod bog‘larni uzilishi hisobiga rangsiz birikmalar hosil bo‘lib tolali material tarkibidan chiqib ketadi [18].



4-rasm. Qaytarilgan bo‘yovchi moddaning oksidlanishi va xromofor tizimining qayta tiklanish sxemasi


Qaytarilgan bo‘yovchi moddaning oksidlanishi oksidlovchining azoguruhdagi N-atomidagi ikkita elektronni o‘ziga biriktirib olishi orqali kechadi, bunda markaziy uglerod atomidan protonni chiqib ketishi natijasida hosil bo‘lgan rangsiz birikma bo‘yovchi modda kationiga aylanadi [19]. Birinchi ishlov berilgach, qo‘shbog‘larning qayta tiklanmasligi uchun tolali materiallarni yuvish jarayonidan oldin eritmada tiklangan rangli moddalarni tolaga qayta sorblanmasligi uchun ularga yana bir bor suyultirilgan qaytaruvchi eritmasida ishlov berildi. Bunda qaytaruvchi ta'sirida eritmaga o‘tgan va qo‘shbog‘lari tiklangan rangli moddalar tolaga sorblanmay rangsiz holatga o‘tadi va toladan yuvib chiqariladi. Bu maqsadda qaytaruvchi eritmasini necha marta suyultirish kerakligi bo‘yicha olib borilgan tajriba natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Tolali chiqindilarga ikkinchi bor qaytaruvchi eritmasida ishlov berish shartining tolali material sifatiga ta'siri

Suyultirish tartibi (г/л)	Oqlik darajasi, %	Polimerlanish darajasi
2 marta (3,5)	75	970
5 marta (1,4)	73	1020
10 marta (0,7)	71	1100
15 marta (0,4)	68	1130

Tadqiqotlarda rangsizlantirilgan materiallarning oqlik darajasini kamayib borishi qaytaruvchi eritmasini suyultirish darajasi bo‘yicha uning eritmadagi konsentratsiyasini kamayganligi bilan bog‘liqdir. Bunday sharoitda olingan mahsulotning polimerlanish darajasi yuqori qiymatlarga ega bo‘lgan. Rangsizlantirilgan-oqartirilgan rangli tolali chiqindilarni ishlatilish sohasiga mos ravishda uning oqlik darajasi va polimerlanish darajasi bo‘yicha ishlov berish sharoitini tanlash mumkin. Tanlangan ishlov berish sharoitlarining tolali material kimyoviy tuzilishiga va sellyuloza funksional guruhlariga ta’sirini baholash maqsadida dastlabki hamda rangsizlantirilgan-oqartirilgan namunalar infraqizil (IQ) spektroskopiya usulida tahlil qilindi (5-rasm). Keltirilgan IQ-spektrlardagi 1635 sm^{-1} yutilish chizig‘i sellyuloza molekulalariga adsorbsiyalangan suv molekulalarini ifodalaydi. 1500-900 sm^{-1} oralig‘idagi yutilish chiziqlari glikozid bog‘lari, glyukopiranoza halqasi, gidroksil (O-H), uglerod-vodorod (C-H) va uglerod-kislorod (C-O) bog‘larining turli tebranishlariga taalluqlidir. Piranoza halqasining tebranishlari va gidroksil guruhlarining deformatsion tebranishlari 860-400 sm^{-1} oralig‘idagi yutilish chiziqlarida namoyon bo‘lgan. 3700-3100 sm^{-1} oralig‘idagi yutilish chiziqlari gidroksil guruhlarining valent tebranishlariga tegishli bo‘lib, molekulalararo hamda ichki molekulyar vodorod bog‘lanishlarini ifodalaydi.



5-rasm. Namunalarning IQ-spektrlari:
a - ishlov berilmagan tolali chiqindilar; b - natriy gidrosulfit bilan ishlov berilgan namuna; v - natriy gipoxlorit bilan ishlov berilgan namuna

Glyukozid zvenolarining kislorod ko‘priklari va o‘zaro vodorod bog‘lanishlari orqali birikishi nisbatan barqaror supramolekulyar tuzilmaning shakllanishiga olib keladi. Bu, o‘z navbatida, barqaror kristall ustqurilmani vujudga keltiradi va bunday konfiguratsiya IQ-spektrda keng yutilish sohasi ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. 3700-3100 sm^{-1} oralig‘idagi yutilish chiziqlari gidroksil guruhlarining valent tebranishlariga tegishli bo‘lib, ular molekulalararo va ichki molekulyar vodorod bog‘lanishlarini ifodalaydi. Keltirilgan IQ-spektrlardan natriy gipoxlorit bilan ishlov berilgan namunalarda ma’lum darajada destruksiya jarayoni sodir bo‘lganini ko‘rish mumkin. 5-rasmda keltirilgan ma’lumotlar natriy gidrosulfit bilan ishlov berilgan namunalarga (3332,99 sm^{-1}) nisbatan natriy gipoxlorit bilan ishlov berilgan namunalarda (3328,68 sm^{-1}) ichki molekulyar vodorod bog‘lanishlari birmuncha kuchsizroq namoyon bo‘lganini ko‘rsatadi, ya’ni bu mahsulotlardagi vodorod bog‘lanishlarining maksimumlari kichik to‘lqin sonlari tomon siljigan. Barcha namunalarning IQ-spektrlarida asosiy yutilish chiziqlarining bir-biriga mos kelishi ularning kimyoviy tarkibida sezilarli o‘zgarish yuz bermaganini bildiradi. Ishlov berilmagan hamda turli reagentlar ta’sirida rangsizlantirish-oqartirish jarayonlaridan o‘tgan namunalarning supramolekulyar tuzilishida o‘zgarish sodir bo‘lgan yoki bo‘lmaganini baholash maqsadida ularning kristallik indekslari IQ-spektrlaridan foydalanilgan holda hisoblandi. Kristallik indeksini hisoblashda 1360 sm^{-1} dagi C-H guruhlarining deformatsion tebranishlariga

tegishli yutilish chizig‘i optik zichligining 2898 sm^{-1} dagi C-H guruhlarining valent tebranishlariga tegishli yutilish chizig‘i optik zichligiga nisbati (D_{1360}/D_{2898}) qo‘llanildi. Shuningdek, 2800-3800 sm^{-1} sohadagi spektr chizig‘ining shakli asosida olingan sellyuloza namunalarining simmetriya indeksi aniqlandi. Turli reagentlar ta’sirida ishlov berilgan namunalardagi gidroksil guruhlari valent tebranishlarining simmetriya indeksi hamda sellyulozaning kristallik indeksi 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

Namunalardagi gidroksil guruhlar yutilish chizig‘ining simmetriya indeksi va sellyulozaning kristallik indeksi


Namunalar	Simmetrik indeksi	Kristallik indeksi
Ishlov berilmagan	0,76	0,84
Natriy gidrosulfit bilan ishlov berilgan	0,74	0,81
Natriy gipoxlorit bilan ishlov berilgan	0,70	0,73

Keltirilgan natijalar natriy gipoxlorit bilan ishlov berilgan namunalarda kristallik indeksini natriy gidrosulfit bilan ishlov berilgan namunadagidan kichik qiymatga ega ekanligi ishlov berish jarayonida sellyuloza makromolekulasida ma'lum o‘zgarishlar borganligidan dalolat beradi. Ya'ni bunda sellyulza makromolekulasining umumiy strukturaviy tartibi oksidlovchi ta'sirida qaytaruvchiga nisbatan 10% ga ko‘proq buzilgan (6-rasm).



6-rasm. Sellyuloza makromolekulasining ustqurilmasining sxematik ko‘rinishi

Kristallik indeksi bo‘yicha sellyuloza ustqurilmasidagi o‘zgarishlarni faqat sifatiy baholash mumkin, absolyut kristallanish darajasini ifodalamaydi. Shu sababli keyingi izlanishlar namunalarning rentgenostrukturaviy tahlillari bo‘yicha olib borildi. Turli tabiatli rangsizlantiruvchi agentlar bilan ishlov berilgan sellyuloza tolali namunalarning 3-jadvalda keltirilgan simmetrik indeksi bo‘yicha olingan natijalari natriy sellyuloza tolali namunalarga gipoxlorit bilan ishlov berilganda qaytaruvchi bilan rangsizlantirilgandagiga nisbatan ichkimolekulyar vodorod bog‘lanishlarni molekulalararo vodorod bog‘lanishlarga nisbatan kuchliroq namoyon bo‘lganligini ko‘rsatmoqda. Namunalarning simmetrik indeksi namunalarning IQ-spektridagi O-H–gurux yutilish maydonining chap va o‘ng tomonlari nisbati orqali aniqlangan [20]. Tajriba natijalari bo‘yicha qora rangli tolali chiqindilarni rangsizlantirish-oqartirish texnologiyasi quyidagicha taklif etiladi.



7-rasm. To‘qimachilik sanoati tolali chiqindilarini rangsizlantirish texnologik sxemasi
1-rangsizlantirish-oqartirish; 2- 3 bosqichli yuvish; 3-quritish; 4-quruq usulda maydalash; 5-yanchish

olali materiallarni kimyoviy pardozlashda to‘qimachilik va tikuvchilik korxonalarida hosil bo‘ladigan chiqindilar nafaqat qora holatda, balki turli boshqa ranglarda ham bo‘lishi mumkin. Tajriba natijalarida oksidlovchilar bilan ishlov berishda tolali materialning chuqur destruksiyaga uchrashini inobatga olgan holda, turli ranglarga bo‘yalgan tolali chiqindilarni rangsizlantirishda natriy gidrosulfitdan foydalanildi.

Xulosa. Tadqiqotda to‘q rangli aktiv bo‘yovchi moddalar bilan bo‘yalgan paxta mato chiqindilarini natriy gipoxlorit (NaClO) va natriy gidrosulfit ($NaHSO_3$) yordamida rangsizlantirish-oqartirish jarayonlari o‘rganildi. Oksidlovchi va qaytaruvchi reagentlarning material oqlik darajasi, sellyulozaning polimerlanish darajasi hamda strukturaviy tartiblanganligiga ta’siri qiyosiy baholandi. Tadqiqotlarda NaClO asosidagi oksidlovchi ta’siridagi ishlov materialning oqlik darajasini 71% gacha oshirgan bo‘lsada, sellyulozaning polimerlanish darajasi 850 gacha pasaygan. $NaHSO_3$ asosidagi qaytaruvchi ishlovda oqlik darajasi 63% ni, polimerlanish darajasi esa 1360 ni tashkil etgan. Bu ma’lumotlardan, oksidlovchi tizimda oqlikning 8 foiz punktga yuqori bo‘lishi qaytaruvchi ishlovga nisbatan polimerlanish darajasining 37,5% ga past bo‘lishi bilan borganini ko‘rishimiz mumkin. Bu holat NaClO ta’sirida bo‘yovchi modda xromoforlarining parchalanishi bilan bir vaqtda sellyuloza makromolekulalarining sezilarli depolimerlanishi sodir bo‘lganini ko‘rsatadi. $NaHSO_3$ asosidagi ishlov esa nisbatan pastroq oqlikni ta’minlaganiga qaramay, sellyulozaning polimer tuzilishiga katta ta’sir ko‘rsatmagan. Shu sababli qaytaruvchi tizim rangsizlantirish samaradorligi va ikkilamchi tolali materialning strukturaviy xossalarini saqlash o‘rtasida maqbul muvozanatni ta’minlovchi usul sifatida baholandi. Qaytarilgan bo‘yovchi moddalarning tolaga qayta sorblanishini cheklash maqsadida materialga ikkinchi marta suyultirilgan $NaHSO_3$ eritmasi bilan ishlov berildi. Qaytaruvchi eritmaning suyultirish darajasiga qarab oqlik ko‘rsatkichlari 68-75%, polimerlanish darajasi esa 970-1130 oralig‘ida bo‘lgan xomashyolar olindi. Bu natija rangsizlantirilgan materialning keyingi ishlatilish sohasiga muvofiq ravishda uning oqligi va polimerlanish darajasini boshqarish imkonini beradi.

IQ-spektroskopik tahlillar kimyoviy ishlovlardan keyin namunalarda sellyulozaning asosiy kimyoviy strukturasi saqlanganini, biroq reagent tabiatiga bog‘liq holda uning molekulalararo bog‘lanishlari va strukturaviy tartiblanganligida o‘zgarishlar yuz berganini ko‘rsatdi. Kristallik indeksi ishlov berilmagan namunada 0,84, $NaHSO_3$ bilan ishlov berilgan namunada 0,81 va NaClO ta’sirida 0,73 ni tashkil etib, qaytaruvchi ishlov sellyulozaning strukturaviy tartibini oksidlovchi ishlovga nisbatan samaraliroq saqlashini tasdiqladi. Olingan natijalar asosida rangsizlantirish-oqartirish, uch bosqichli yuvish, quritish, quruq maydalash va yanchishdan iborat texnologik ketma-ketlik ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari rangli paxta mato chiqindilarini sifat ko‘rsatkichlari boshqariladigan ikkilamchi tolali xomashyoga aylantirish texnologiyasini takomillashtirish hamda keyingi ilmiy-amaliy ishlarni olib borish uchun tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Reference

1. DeVoy, J. E., Congiusta, E., Lundberg, D. J., Findeisen, S., & Bhattacharya, S. (2021). Post-Consumer textile waste and disposal: Differences by socioeconomic, demographic, and retail factors. *Waste Management*, *136*, 303–309. https://doi.org/10.1016/j.wasman.2021.10.009
2. Shirvanimoghaddam, K., Motamed, B., Ramakrishna, S., & Naebe, M. (2020). Death by waste: Fashion and textile circular economy case. *The Science of the Total Environment*, *718*, 137317. https://doi.org/10.1016/j.scitotenv.2020.137317
3. Altun Ş. Prediction of Textile Waste Profile and Recycling Opportunities in Turkey. Fibres Text. East. Eur. 2012, 20, 16–20.
4. Wang Y. Fiber and Textile Waste Utilization. Waste Biomass Valorization 2010, 1 (1), 135–143. 10.1007/s12649-009-9005-y
5. Zhou, Q., Van Le, Q., Meng, L., Yang, H., Gu, H., Yang, Y., Chen, X., Lam, S. S., Sonne, C., & Peng, W. (2022). Environmental perspectives of textile waste, environmental pollution and

recycling. *Environmental Technology Reviews*, *11*(1), 62–71. https://doi.org/10.1080/21622515.2021.2017000
6. Mishra P. K.; Izrayeel A. M. D.; Mahur B. K.; Ahuja A.; Rastogi V. K. A comprehensive review on textile waste valorization techniques and their applications. Environmental Science and Pollution Research 2022, 29 (44), 65962–65977. 10.1007/s11356-022-22222-6.
